O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI TERMIZ FILIALI

MAMATQULOVA NILUFAR XUSANOVNA

MILLIY MAROSIMLAR MAZMUNI VA XARAKTERIDAGI O‘ZGARISLAR

Monografiya

Termiz – 2026

UDK: 392(575.1)
KBK: 63.5(5O‘)
M 23
N.X. Mamatqulova. Milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlar. – Termiz publishing center nashriyoti. 2026, 190 b.

Mazkur monografiyada jahonda yangi asrning ilk choragida jadallashgan globallashuv sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida milliy marosimlar mazmuni va xarakterida tub o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaganligi va buni yangi ijtimoiy shart-sharoitlarda milliy marosimlar, bir tomondan, milliy o‘zlikni, tarixiy xotirani, ma’naviy qadriyatlarni va avlodlararo vorisiylikni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar va tendensiyalar, yangicha turmush tarzi ta’sirida mazmunan va shaklan o‘zgarayotgan ijtimoiy institut tarzida zuhur bo‘layotganligi keng yoritilgan. Bu holat milliy marosimlarni o‘ziga xos dinamik ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Jahonning etakchi ilmiy markazlarida milliy marosimlarni asrab-avaylash zaruriyati, ularni ajdodlardan avlodlarga etkazish yo‘llari, ular-ning ijtimoiy hamjihatlikni, milliy o‘zlikni ta’minlashdagi o‘rni keng tadqiq etilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlarning aksariyatida milliy marosimlar o‘zining barqaror va o‘zgaruvchan aspektlariga egaligi, bugungi kunda uning ana shu o‘zgaruvchan jihati turli omillar ta’sirida transformatsiyalashayotgani qayd qilinadi. Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanayotgan ilmiy markazlarda milliy marosimlar mazmunidagi o‘zgarishlarning chuqur tahlil qilinayotgani mavzuning dolzarbligidan darak beradi.

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Monografiya mazkur muammo doirasida ilmiy-tadqiqot ishini olib borayotgan olimlar, ilmiy tadqiqotchi-izlanuvchilar, talabalar va magistrantlarga mo’ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Sharipov Abduhakim Ziyoitdinovich *falsafa fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar:

Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich *falsafa fanlari bo‘yicha PhD, dotsent*

Raxmonov Abduqahhor Absattorovich *falsafa fanlari bo‘yicha PhD, dotsent*

Mazkur monografiya Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali 13-oktabr 2026-yildagi 02-sonli ilmiy kengashi majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-13-566-8

© N.X. Mamatqulova

© Termiz publishing center nashriyoti. 2026.

MUQADDIMA

O‘zbekistonda milliy marosimlar barqarorlik va taraqqiyot omili sifatida e’tirof etilmoqda. “Yurtimizda,- deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev,- barqarorlikni ta’minlash, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash, qadimiy va o‘lmas qadriyatlarga tayangan holda taraqqiyot sari jadal odimlash – davr talabidir”. Mamlakatda milliy marosimlar katta ahamiyatga molik ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ko‘rilgani bois keyingi ularni zamonaviy ijtimoiy shart-sharoitlarga va talablarga moslashtirish choralariga alohida e’tibor berila boshlandi. Navro‘zning milliy bayram sifatida yangicha shakllarda nishonlanayotgani, Ramazon va Qurbon hayitlarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati mustahkamlanayotgani, oilaviy marosimlarni tartibga solishga qaratilgan me’yoriy yondashuvlarning shakllanayotgani shundan dalolat beradi. Bu boradagi dolzarb masalalarni oqilona hal qilish uchun esa avvalo milliy marosimlarning o‘zgarishi mantig‘i va qonuniyatlari aniqlanmog‘i darkor. Mavzuga doir maxsus ilmiy izlanishlarni amalga oshirmasdan turib, ushbu vazifani ado etib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, 2023 yil 21 dekabrdagi PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Farmoni, 2023 yil 25 dekabrdagi PQ-405-son “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019 yil 14 sentyabrdagi 2736-Sh-son “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” Qo‘shma Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya xulosalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.

“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Milliy marosimlarning ijtimoiy-madaniy mohiyati, ularning mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ilmiy masalalar United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO),UNESCO Intangible Cultural Heritage Centre, shuningdek, madaniy antropologiya, sotsiologiya, etnologiya, folklorshunoslik va ijtimoiy falsafa yo‘nalishidagi ilmiy maktablarda mufassal tadqiq etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda marosimlar jamiyat ma’naviy-madaniy hayotini ifodalovchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, shaxsni ijtimoiylashtiruvchi va millat madaniy tajribasini avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy institut sifatida talqin qilinmoqda.

Mazkur tadqiqotlar asnosida turli darajadagi ilmiy natijalar olingan. Jumladan, United Nations Educational, Scientific and Cultural Organi-zation (UNESCO), UNESCO Intangible Cultural Heritage Centre ilmiy izlanishlari asosida YUNESKOning “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiyasi” ishlab chiqilgan. Madaniy antropologiya, sotsiologiya, etnologiya, folklorshunoslik va ijtimoiy falsafa yo‘nalishidagi ilmiy maktablarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida milliy marosimlarni ijtimoiy amaliyot, ramziy tizim va jamoaviy birdamlik mexanizmi sifatida talqin qilish bilan bog‘liq metodologik yondashuv, “o‘tish marosimlari” konseptsiyasi, marosimlar mazmunini ularda mujassam bo‘lgan ramzlar, ma’nolar va madaniy kontekst orqali tushuntiruvchi interpretativ antropologiya ishlab chiqilgan.

Milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlar masalasi jahon ijtimoiy-gumanitar fanlarida, avvalo, ijtimoiy falsafa va madaniy antropologiya, sotsiologiya, et-nologiya, folklorshunoslik, dinshunoslik va madaniyatshunoslik doirasida keng o‘rganilgan. *Xorijiy mamlakatlarda* marosimlarning ijtimoiy tabiati, ramziy mazmuni, inson hayotining muhim bosqichlarini belgilashdagi o‘rni, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash funksiyalariga o‘tgan asrning ikkinchi yarmidayoq alohida e’tibor qaratila boshlangandi. Xususan, A. Van Gennerning “o‘tish marosimlari” konsepsiyasida inson hayotining tug‘ilish, balog‘at, nikoh va o‘lim bilan

bog‘liq bosqichlarida o‘tkaziladigan marosimlarning funksional xususiyatlari tizimlashtirilgandi. V. Tyurner esa o‘z asarida ushbu yondashuvni rivojlantirib, marosimlarning ijtimoiy munosabatlar xarakterini belgilashdagi rolini tahlil qilgandi. K. Gerts interpretativ antropologiyasida milliy marosimlardagi ramzlar va timsollarning roli ochib berilgandi. K. Bell o‘z asarida marosimlar nazariyasini qayta ko‘rib chiqib, ularni nafaqat diniy va an’anaviy amallar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy amaliyot va ijtimoiy tartib bilan bog‘liq jarayon sifatida tadqiq qilgandi. Zamonaviy xorijiy ilmiy asarlarda milliy marosimlarning o‘zgarishi masalasi umuminsoniy va lokal madaniyat, an’anaviylik va zamonaviylik dilektikasi kontekstida ochib beriladi. Bu izlanishlarda milliy marosimlar o‘zgarmas madaniy fenomen emas, yangi ijtimoiy sharoitlarda evriladigan va takomil topadigan institut sifatida tavsiflanadi. Bunday nuqtai nazarni, masalan, P.J. Styuart, E.J. Stretern, A. Rigal, D. Jozef-Gotayner, T. A. MakKin, T. T. Ngo, A. Setilarning ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin.

MDH mamlakatlarida tadqiqotchilar, bir tomondan, milliy marosimlarning tarixiy tadrijiy va ijtimoiy-madaniy ahamiyatiga e’tiborni qaratadilar. Masalan, A.M. Borisov o‘z maqolasida ilk marosimlarning vujudga kelishi tarixini tavsiflasa, A.A. Sinyutin nikoh marosimlarining milliy madaniyatlardagi o‘rnini aniqlashga urinadi. V.N. Popova bayram marosimlarining ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Ikkinchi tomondan, qator tadqiqotchilar turli millatlarga xos marosimlarning mazmuni va xarakterini ochib berishga intiladilar. Masalan, I.Yu. Aksenova Oltoy xalqlarining yangi yil bilan bog‘liq marosimlari mazmunini, K.S. Grigorev va V.M. Peshkovlar Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg‘izistondan Rossiyaga ko‘chib kelgan migrantlarning oilaviy marosimlari mazmunini, I.V. Stesevich qozoq xalqining milliy marosimlari mazmunini, Yu.S. Chernishova Volgabo‘yida yashovchi rus xalqining marosimlari mazmunini, E.A. Yagafova va I.G. Petrov chuvash xalqining mehmondorchilik marosimlari mazmunini tasvirlaydi.

O‘zbekistonda ham milliy marosimlarning mazmuni va xarakteriga, qoraqalpoq xalqi milliy marosimlarining asosiy unsurlari va ijtimoiy funksiyalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar talaygina. Masalan, A. Ashirov o‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlarini, M.A. Karimova va

D.G‘. Najimdinovalar farzand tug‘ilishi va bola tarbiyasi bilan bog‘liq urf-odatlar va marosimlarda zardushtiylik ta’limoti izlarini, S.M. Mirzaliev va M.M. Adashovalar milliy marosimlarning bugungi kundagi transformatsiyasini, X.R. Nafiddinova Buxoro vohasi aholisining oilaviy marosimlari tarixini, M. Sattor o‘zbek udumlari mazmunini, R.S. Umarov nikoh va oila marosimlaridagi tarixiy-antropologik o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilib beradilar. G.Sh. Zununova va Z.I. Kurbanovalar esa o‘zbek va qoraqalpoq to‘y marosimlarida taomlar, non va boshqa oziq-ovqat elementlarining ramziy, kommunikativ va ijtimoiy funksiyalarini, G.M. Xojaniyazova qoraqalpoqlarning to‘yoldi marosimlarida qarindoshlar va do‘stlarning o‘zaro yordami, uning zamonaviy sharoitdagi o‘zgarishlarini tadqiq etadilar. Milliy marosimlar mazmuni va xarakteri tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilganda professor U.H. Qoraboyevning xizmatlarini alohida e’tirof etmoq darkor. Uning ikki jilddan iborat asarida o‘zbek xalqining milliy marosimlari tadriji, mohiyati, tarkibi va ijtimoiy ahamiyati ayniqsa tizimli ochib berilgan.

Shu bilan birga, mavzuga doir ilmiy ishlar tahlili ko‘rsatadiki, aksar asarlarda milliy marosimlarning antropologik, etnologik, sotsiologik, madaniy va kommunikatsion jihatlari nisbatan keng o‘rganilgan bo‘lsada, milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlarning barqaror va o‘zgaruvchan aspektlari, ularning globallashuv ta’siridagi transformatsiyasi asosiy jihatlari, ularni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotda barqaror (uzoq tarixiy davrlar mobaynida saqlanib kelayotgan, xalq milliy o‘zligi, ma’naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini ifoda etuvchi elementlar) va o‘zgaruvchan (muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit, iqtisodiy vaziyat, siyosiy jarayonlar, madaniy omillar, ijtimoiy munosabatlar ta’sirida yangilanib boradigan elementlar) aspektlarning o‘ziga xos sintezi bo‘lgan milliy marosimlar ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashi, milliy qadriyatlarni shakllantirishi, kishilarni ruhlantirishi, shaxsni ijtimoiylashtirishi bilan ahamiyatli ekanligi isbotlangan;

Qiyosiy tahlil asosida o‘zbek milliy marosimlari o‘z tadrijiy taraqqiyotining har bir bosqichida ijtimoiy shart-sharoitlar va davr

paradigmalariga mutanosib ravishda mazmunan va shaklan boyib borgani asoslangan;

Globallashuv ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar milliy jamoaviy marosimlar mazmunini o‘zgartirgani - Navro‘z bayramini umummilliy madaniy-ma’rifiy tadbirga, hashar marosimini zamonaviy obodonchilik va ekologik mas’uliyat amaliyotiga, Ramazon va Qurbon hayitlarini ijtimoiy xayriya va insonparvarlik g‘oyalari sinteziga, xotira va qadrlash marosimlarini tarixiy xotira va avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omiliga, ziyorat va qabristonlarni obod qilish marosimlarini umumijtimoiy mas’uliyat ifodasiga aylantirgani dalillangan;

Globallashuv ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar milliy oilaviy marosimlar mazmunini o‘zgartirgani - nikohga kirishda shaxsiy tanlov ahamiyatini orttirgani, yoshlar shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modelini yuzaga keltirgani, to‘y marosimlarini professional tadbirga aylantirgani, chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarni tibbiylashtirgani va zamonaviylashtirgani, mehmondorchilik marosimlarini xizmat ko‘rsatish industriyasiga ko‘chirgani, janoza va ta’ziya marosimlarining tashkiliy va kommunikatsion shakllari o‘zgartirgani aniqlangan;

Globallashuv sharoitida milliy marosimlarni optimallashtirish imkoniyatlari ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish, ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish, institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini takomil toptirish bilan bog‘liqligi ochib berilgan.

Monografiyaning amaliy ahamiyati shundaki, milliy marosimlarning barqaror va o‘zgaruvchan aspektlari o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik aniqlangan bo‘lib, mazkur xulosalardan milliy marosimlardagi mazmun va shakl, milliylik va umuminsoniylik, an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin;

Milliy marosimlarning mazmuni va xarakteridagi transformatsiyaning asosiy ijtimoiy-madaniy omillari aniqlangan bo‘lib, ushbu xulosalardan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin;

Milliy jamoaviy va oilaviy marosimlar mazmunida yuz berayotgan o‘z-garishlarning asosiy yo‘nalishlari tizimlashtirilgan bo‘lib, mazkur

xulosalardan milliy marosimlarning ijtimoiy ahamiyatini oshirishga qaratilgan faoliyatda foydalanish mumkin;

Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish, ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish, institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini takomllashtirishga doir tizimli amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan milliy marosimlarni zamonaviylashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari milliy marosimlarni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy falsafa, madaniy antropologiya, etnologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik sohalariga taalluqli ilmiy kontseptsiya va yondashuvlar zamirida qaror toptirilgani, tadqiqotda ilmiy bilish uslublaridan tizimli foydalanilgani, milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlar haqidagi xulosalar ijtimoiy voqelikka oid ishonchli manbalar, ilmiy adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgani, nazariy xulosa, amaliy taklif va tavsiyalar ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va muhokamalarda keng aprobatsiyadan o‘tkazilgani bilan ta’minlangan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, milliy marosimlarni tarixiy, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yaxlit fenomen sifatida kontseptual tahlil qilinganligi, ularning milliy o‘zlikni asrash, ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirish, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash, shaxni ijtimoiylashtirishdagi o‘rnining asoslanganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy falsafaning milliy marosimlar mazmuni, xarakteri, ijtimoiy funksiyalari va zamonaviy transformatsiyasiga oid nazariy-metodologik bazasini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirishda, ularning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirishda, institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirishda, ulardagi ortiqcha dabdaba, isrofgarchilik va namoyishkorlikning oldini olishda, mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlashda uslubiy asos vazifasini o‘tashi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan davlat organlari, mahalla, oila, ta’lim va madaniyat

muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining milliy marosimlarni optimallashtirish borasidagi faoliyatida foydalanish mumkin. Tadqiqot materiallari oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlardan o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda, maxsus kurslar tashkil etishda manba vazifasini ham o‘taydi.

I-BOB. MILLIY MAROSIMLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Bobda “milliy marosim” tushunchasining mazmuni ochib beriladi hamda uning “urf-odat”, “an’ana” kabi tushunchalar bilan o‘zaro aloqadorligi tavsiflanadi. Milliy marosimlarning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyoti ochib beriladi. Har qanday jamiyatda milliy marosimlar o‘ta muhim ma’naviy-madaniy funksiyalarni bajarishi isbotlanadi.

Bobda milliy marosimlar ijtimoiy institut sifatida tahlil qilinib, ularning shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlashdagi, oila hamjihatligini mustahkamlashdagi, mahallalardagi munosabatlarni muvofiqlashtirishdagi, jamiyat barqarorligini qaror toptirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Milliy marosimlarning ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan o‘zaro aloqadorligi, ularning qadriyatlar tizimi va ma’naviy madaniyat taraqqiyotiga ta’siri asoslanadi.

Shuningdek, bobda milliy marosimlarni tadqiq etishda asos vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan nazariy yondashuvlari va metodologik tamoyillar umumlashtiriladi. Funksional, aksiologik, sotsiomadaniy, sivilizatsion, fenomenologik va germenevtik yondashuvlarning bu boradagi imkoniyatlariga baho beriladi. Milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlarni tadqiq qilishda tarixiylik, tizimlilik, ob’ektivlik, vorisiylik tamoyillarning ahamiyati asoslanadi.

I.1. “Milliy marosim” tushunchasining mazmuni, mohiyati va ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari

Zamonaviy jamiyat jadal globallashuv jarayonlarini, madaniy integratsiya pallasini boshidan kechirmoqda. Bu davrda mazkur tendensiyalar ta’siri o‘laroq millatlar va elatlarning milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini, madaniy merosini, tarixiy xotirasini ifoda etuvchi barcha muhim ijtimoiy-madaniy fenomenlar, shu jumladan milliy marosimlar chuqur transformatsion jarayonlarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan ularning mazmuni va xarakterida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ilmiy tahlil qilish, bu boradagi qonuniyatlarni mufassal tavsiflash va ta’riflash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Professor U. Qoraboyevning ta’kidiga ko‘ra, “marosim – shaxs, guruh, oila va jamiyat hayotidagi muhim hodisalarni qayd qilishga, nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilinadigan hayotiy tadbirdir”. Ushbu ta’rif ikki muhim nazariy xulosa chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, marosim turli sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidan tarkib topadi. Xususan:

- shaxs hayoti bilan bog‘liq marosimlar inson hayotining muhim bosqichlarini qamrab oladi. Marosimlarning bu turiga, masalan, tug‘ilish marosimlarini, balog‘at va kamolot marosimlarini, dafn va xotira marosimlarini kiritish mumkin;
- oila hayoti bilan bog‘liq marosimlar oila instituti barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Marosimlarning bu turiga, masalan, sovchilik, fotiha to‘yi, beshik to‘yi, sunnat to‘yi marosimlarini kiritish mumkin;
- jamoaviy marosimlar davlat va jamiyat hayoti bilan bog‘liq rasmiy tadbirlardan tarib topadi. Bu marosimlarga jumladan davlat bayramlarini, mukofotlash tadbirlarini, shuningdek turli xalq bayramlari bilan bog‘liq marosimlarni kiritish mumkin;
- diniy marosimlar turli diniy e’tiqod va qadriyatlar bilan bog‘liq marosimlarni ifodalaydi. Marosimlarning bu turiga jamoaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar, diniy bayramlar bilan bog‘liq tadbirlarni kiritish mumkin;
- muayyan ijtimoiy guruh yoki kasb vakillari faoliyati bilan bog‘liq marosimlar kasbga qabul qilish marosimlari, mehnat bayramlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu turdagi marosimlarning muhim shakllaridan bir harbiy marosimlardir.

Ikkinchidan, professor U. Qoraboyevning ta’rifidan kelib chiqadigan yana bir nazariy xulosa shundan iboratki, har qanday marosim quyidagi mazmundagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

- muhim hodisalarni qayd qilishga qaratilgan tadbirlar;
- muhim hodisalarni nishonlashga qaratilgan tadbirlar;
- rasmiy darajada o‘tkaziladigan tadbirlar;
- ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tkaziladigan tadbirlar;

- umum qabul qilingan qoida-tartiblarga amal qilgan holda o‘tkaziladigan tadbirlar.

Milliy marosimlar ana shu marosimlarning o‘ziga xos turi, boz ustiga, ushbu turlarning aksariyatini o‘z ichiga qamrab oluvchi sintetik shakli, ularning kvintessensiyasidir. Milliy marosimlar – u yoki bu xalqning milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini, madaniy merosini, tarixiy xotirasini o‘zida mujassam qilgan, milliy tajriba va an’analarni saqlash va kelgusi avlodlarga etkazish vazifasini bajaradigan ijtimoiy-madaniy fenomen, muhim ijtimoiy institutdir.

“Milliy marosim” tushunchasi “milliy an’ana” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Marosim va an’ana xalq ijtimoiy-madaniy hayotida bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar hisoblanadi. Biroq ular mazmunan aynan bir xil tushunchalar emas. Milliy an’ana muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ijtimoiy tajriba, qadriyatlar, me’yorlar, xulq-atvor namunalari, turmush tarzi va ma’naviy merosining barqaror elementlarini anglatadi. An’ana jamiyat hayotining turli sohalarida - mehnat faoliyatida, oilaviy munosabatlarda, axloq me’yorlarida, ta’lim jarayonida, bayram va marosimlarda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, an’ana mazmunan keng qamrovli tushuncha bo‘lib, jamiyatning tarixiy xotirasi va madaniy vorisiyligini ifodalaydi. Milliy marosim esa ana shu an’analarning amaliy va ramziy shaklda namoyon bo‘lish usullaridan biri hisoblanadi. Agar “milliy an’ana” tushunchasi muayyan qadriyat yoki ijtimoiy tajribaning mazmunini ifodalasa, “milliy marosim” uning muayyan harakatlar, udumlar, ramzlar va qoidalar yordamida amalga oshirilishi shaklini ifoda etadi. Boshqacha aytganda, an’ana - mazmun, marosim esa shu mazmunning ijtimoiy voqelikda namoyon bo‘ladigan shaklidir. Masalan, kattalarni hurmat qilish o‘zbek xalqining muhim milliy an’analaridan biridir. Ushbu an’ana turli marosimlarda, jumladan, to‘ylarda, mehmon kutish jarayonlarida, fotiha marosimlarida yoki bayram tadbirlarida yoshi ulug‘ insonlarga alohida ehtirom ko‘rsatish orqali namo-yon bo‘ladi. Demak, bu yerda hurmat qilish — an’ana, uni amaliy harakatlar orqali ifoda etish esa marosim hisoblanadi.

Milliy marosimlarning genezisi va shakllanishi tarixi insoniyat tarixining ilk pallalariga borib taqaladi. Insoniyat tarixining ilk

davrlaridayoq jamoa ichki tartib-intizomni saqlash, a’zolarning xulq-atvori va faoliyatini, bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirib, tartibga solib borishga chuqur ehtiyoj sezgan. Bu ehtiyojlar, rus olimi S.A. Tokarev ta’biri bilan aytganda, kishilar xulq-atvori va hatti-harakatlarini regulyatsiya qilishga mo‘ljallangan me’yorlar, qoidalar va tadbirlarning, norasmiy mexanizmlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Aynan ana shu tadbirlar va mexanizmlar keyinchalik insoniyat madaniyatining eng qadimiy va barqaror shakllaridan biri, o‘ta murakkab xarakterga ega ijtimoiy-madaniy hodisa – marosimlarning shakllanishiga turtki bergan.

Fransuz sotsiologiyasi asoschilaridan biri E. Dyurkgeym marosimlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan boshqa omilga e’tiborni qaratadi. Uning fikriga ko‘ra, kishilik jamiyatining ilk shakllariyoq hamjihatlikni ta’minlashdan manfaatdor bo‘lgan. Bizga yaxshi ma’lumki, ibtidoiy jamoa sharoitida inson tabiatning qudratli kuchlari, yovvoyi hayvonlar va turmushning og‘ir sharoitlari oldida ojiz edi. Shu sababli odamlar o‘z hayotlarini saqlash, ehtiyojlarini qondirish uchun hamjihat bo‘lib yashashga majbur edilar. Hamjihatlikni ta’minlash zaruriyati o‘zaro yordam va ishonch tuyg‘ularini rivojlantirishni, ibtidoiy mehnat faoliyati samaradorligini oshira borishni, ilk ijtimoiy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishni taqozo qilardi. Mazkur vazifalar muntazam ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar yordamida ado etilardi. Aynan ana shu tadbirlar ilk marosimlarning vujudga kelishiga zamin hozirlagan. Shuning uchun ham E. Dyurkgeym marosimlarning vujudga kelishi sababini avvalo ijtimoiy hamjihatlikdan izlaydi.

Marosimlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq muammolarni maxsus tadqiq qilgan olimlardan biri V.N. Toporov ham o‘z monografiyasida ilk marosimlarning vujudga kelishiga turtki bergan asosiy omilni ijtimoiy-madaniy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish zaruriyati bilan bog‘laydi. Uning ta’kidiga ko‘ra, ilk marosimlar dastlabki madaniy tajribalarni saqlab qolish, ifodalash va takomil toptirish mexanizmi vazifasini o‘tagan.

Fransuz etnografi Arnold van Gennep esa o‘zining turli e’tirof va sharhlarga sabab bo‘lgan mashhur “O‘tish marosimlari” nomli asarida inson hayotidagi tug‘ilish, nikoh, balog‘at va vafot kabi bosqichlarni belgilovchi

marosimlarni tahlil qilarkan, ular ijtimoiy maqomning o‘zgarishini qonuniylashtirishga bo‘lgan zaruriyatga javoban yuzaga kelganini ta’kidlaydi.

O‘zbek olimi, professor U.H. Qoraboyev esa marosimlarning vujudga kelishini bir omildan emas, bir necha omildan izlashni taklif etadi. Uning fikriga ko‘ra, ilk marosimlarning vujudga kelishi mexanizmi birmuncha murakkab xarakterga ega bo‘lgan. “Marosimlar,- deb yozadi u o‘zining “Odatnoma” nomli asarida,- eng qadimgi davrlarda insonning tabiiy ehtiyoji asosida paydo bo‘lgan. Hayotiy tajribalar asosida turli an’analar shakllangan. Chuqur ma’noli va shaklan madaniylashgan turlari odatlarga aylana borgan. Muhim ahamiyat kasb etgan odatlar asosida marosimlar paydo bo‘lgan”.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar milliy marosimlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillar turkumini aniqlab olish imkonini beradi. Mutaxassislarning mulohazalari ko‘rsatadiki, ilk marosimlarning yuzaga kelishiga quyidagi ijtimoiy, psixologik, diniy va madaniy omillar sabab bo‘lgan:

- jamoaviy hayotning shakllanishi – ibtidoiy odamlarning birgalikda yashashi va mehnat qilishi umumiy harakatlarni muayyan tartib va qoidalar asosida tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqargan;
- hamjihatlikni mustahkamlash ehtiyoji – jamoa a’zolarini birlashtirish, ular orasida o‘zaro yordam va ishonchni kuchaytirish zaruriyati muntazam ravishda amalga oshiriladigan turli rusumlar va tadbirlarni vujudga keltirgan;
- tabiat kuchlari oldidagi ojizlik hissi – tabiiy hodisalar sabablarini tushuna olmaslik ulardan turli marosim va udumlar vositasida saqlanish, himoyalanish ilinjini keltirib chiqargan;
- mehnat faoliyatining murakkablashuvi – ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq jarayonlarda muvaffaqiyat qozonish istagi maxsus marosimlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan;
- hayot sikli bilan bog‘liq muhim voqealar – tug‘ilish, balog‘atga yetish, nikoh va vafot etish kabi inson hayotidagi muhim voqealarni ijtimoiy jihatdan belgilash ehtiyoji marosimlarning qaror topishiga zamin yaratgan;

- ijtimoiy tajribani kelgusi avlodlarga yetkazish istagi – jamoa qadriyatlari va hayotiy tajribasini yosh avlodga yetkazish zaruriyati ilk marosimlarning paydo bo‘lishi bilan yakun topgan;
- ijtimoiy nazoratni ta’minlash ehtiyoji - marosimlar orqali jamoada qabul qilingan xulq-atvor qoidalari mustahkamlangan.

Milliy marosim o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lgani bois uning tarkibiy tuzilishi murakkab xarakterga ega. Turli millat va elat vakillari tomonidan amalga oshiriladigan milliy marosimlarning mazmuni va shaklu-shamoyili, tashqi ko‘rinishi va vositalari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo aksariyat milliy marosimlarda uchraydigan asosiy tarkibiy elementlar o‘xshashligicha qolaveradi. Masalan, har qanday milliy marosim negizida muayyan ma’naviy-g‘oyaviy mazmun yotadi. Aynan ana shu mazmun milliy marosimning ijtimoiy ahamiyatini belgilab beradi va uni oddiy urf-odat yoki kundalik xatti-harakatlardan ajratib turadi. Milliy marosimlar orqali xalqning ezgulik, adolat, hamjihatlik, mehr-oqibatlilik, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, avlodlar vorisiyligi kabi qadriyatlari namoyon etiladi.

Milliy marosimning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri uning sub’ektlari, ya’ni ishtirokchilaridir. Har qanday milliy marosimda millatning konkret namoyondalari – turli ijtimoiy guruhlar yoki jamoa a’zolari marosimni boshqaruvchi, unda ishtirokchi etuvchi, u yoki bu guruh vakili sifatida qatnashadilar. Bu esa milliy marosimlarning etnik va jamoaviy xususiyatini yorqin ifodalab beradi. Milliy marosim ishtirokchilari tomonidan sodir etiladigan marosimiy harakatlar va amallar ham e’tiborga sazovor. Avvalo ushbu harakat va amallar muayyan tartib va qoidalar asosida bajarilishini qayd qilmoq lozim. Marosim davomida ado etiladigan har bir hatti-harakat muayyan mazmun bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Masalan, milliy marosim doirasida bajariladigan salomlashish, duo qilish, fotiha berish, sovg‘a taqdim etish kabi amallar ma’lum g‘oya yoxud qadriyatni o‘zida mujassam etadi.

Milliy marosimlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning turli timsollar va ramzlar bilan bisyor boyitilganligi bilan bog‘liq. Har qanday milliy marosim mobaynida ishtirokchilarga turli g‘oya va qadriyatlarni yetkazish maqsadida turfa buyumlar, ranglar, liboslar, taomlar, belgilar

qo‘llaniladi. Masalan, ko‘pgina milliy marosimlarda uchraydigan oq rang - poklik va ezgulikni, non - farovonlik va barakani, beshik - hayot davomiyligi va avlodlar vorisiyligini ifodalaydi. Bunday timsollar va ramzlar millatning asrlar davomida jamlangan tajribasini moddiy shaklda mujassamlashtiradi hamda uning tarixiy xotirasini saqlash vositasi vazifasini bajaradi.

Aksariyat milliy marosimlarni ado etishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalaniladi. Shu boisdan turli duolar, tilaklar, tabriklar, qo‘shiqlar, ibratomuz so‘zlar milliy marosimlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur duo va tilaklar, tabrik va qo‘shiqlar marosimlar davomida ijro etiladigan shunchaki amal emas, balki xalqning asriy hayotiy orzu-umidlari, hayotiy maqsad-muddaolari, farovonlik va to‘kin-sochinlik haqidagi tasavvurlari, ma’naviy-axloqiy ideallari hamda intilishlari ifodasidir.

Milliy marosimning vaqt va joy bilan bog‘liqligi ham uning muhim tarkibiy xususiyati hisoblanadi. Har bir marosim muayyan vaqtda va ma’lum bir joyda o‘tkaziladi. Bu holat milliy marosimning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi hamda ishtirokchilarning unga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Shuningdek, milliy marosimlarning etnik xususiyatlari milliy liboslarda, dasturxonda, an’anaviy taomlarda, musiqiy vositalarda o‘z ifodasini topadi.

Shunday qilib, qaysi millat tomonidan, qanday maqsadda va ko‘lamda, qanday vositalar yordamida o‘tkazilmasin, har qanday milliy marosimning tarkibi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- milliy marosimning g‘oyaviy mazmuni;
- milliy marosim sub’ektlari;
- marosim chog‘ida ado etiladigan harakatlar va amallar;
- marosimda qo‘llaniladigan timsollar va ramzlar;
- milliy marosimda qo‘llaniladigan xalq og‘zaki ijodi namunalari;
- milliy marosim vaqti va joyiga mos tarzda tanlangan vositalar.

Milliy marosimning tarkibiy tuzilishi xususida falsafiy mulohaza yuritadigan bo‘lsak, avvalo uning barcha tarkibiy elementlari o‘zaro uzviy aloqadorligini, mazkur elementlar yaxlit tizimni tashkil etishini qayd qilmoq darkor. Yaxlit tizimga birlashgan milliy marosim elementlari ijtimoiy

hamjihatlikni ta’minlashga, madaniy vorisiylikni mustahkamlashga, shaxs ijtimoiylashuvini tashkil etishga qodir qudratga aylanadi. Aynan shuning uchun ham milliy marosim tabiatidagi har qanday o‘zgarish pirovardida ijtimoiy hamjihatlik, madaniy vorisiylik va shaxs ijtimoiylashuvi transformatsiyasiga olib keladi.

Har qanday milliy marosim barqaror va o‘zgaruvchan aspektlarning o‘ziga xos sintezidir. Mazkur aspektlarning dialektik birligi, bir tomondan, milliy marosimlardagi tarixiy negizlar va etnik xususiyatlarning saqlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularning turli davrlarda yuzaga keladigan ijtimoiy shart-sharoitlarga moslasha borishini ta’minlaydi. Ushbu dialektik aloqadorlikning ahamiyati shundaki, agar milliy marosimlarda faqat barqaror elementlar mavjud bo‘lganda, ular vaqt o‘tishi bilan o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgan va yangi ijtimoiy talablarga mos tushmagani bois tarix bag‘riga singib, yo‘qolib ketgan bo‘lardi. Aksincha, milliy marosimlar mazmunida o‘zgaruvchan elementlar ustuvor bo‘lganda, u qisqa muddatda o‘z tarixiy negizlari va milliy xususiyatlarini yo‘qotgan bo‘lardi.

Milliy marosimlarning barqaror aspektlari deb ularning uzoq tarixiy davrlar mobaynida saqlanib kelayotgan, xalqning milliy o‘zligi, ma’naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini ifoda etuvchi elementlarga aytiladi. Bunday jihatlarga birinchi navbatda milliy marosimlarning ma’naviy-g‘oyaviy mazmunini kiritish mumkin. Masalan, o‘zbek xalqining nikoh bilan bog‘liq milliy marosimi mazmunida asrlar davomida oila muqaddasligi, o‘zaro hurmat va mas’uliyat kabi qadriyatlar o‘z ifodasini topib kelgan. Ko‘plab boshqa milliy marosimlar mazmunida kattalarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, hamjihatlik, qo‘ni-qo‘shnichilik kabi milliy qadriyatlar mujassam bo‘lganki, bu holat bugunga qadar saqlanib qolmoqda.

Milliy marosimlarning timsollari va ramzlari tizimida ham muayyan barqarorlik mavjud. Ayrim timsollar, ramzlar, urf-odatlar va marosimiy harakatlar ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladi. Masalan, to‘y marosimlaridagi fotiha berish, kelinga oq yo‘l tilash, dasturxon atrofida yig‘ilish kabi udumlar bugun ham o‘z mazmuni va ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q. Milliy marosimlar tarkibidagi bunday barqaror elementlar millat o‘zligini asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi.

Biroq milliy marosim mutlaq oʻzgarmas ijtimoiy-madaniy hodisa emas, albatta. Har qanday marosim, naqadar mazmunli va ahamiyatli boʻlmasin, ijtimoiy taraqqiyot tendensiyalariga monand ravishda oʻzgara boradi. Milliy marosimlarning oʻzgaruvchan aspektlari deganda ularning muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit, iqtisodiy vaziyat, siyosiy jarayonlar, madaniy omillar, ijtimoiy munosabatlar ta'sirida yangilanib boradigan elementlari nazarda tutiladi. Odatda milliy marosimlarning oʻtkazilishi shakli va uslubi, ularning koʻrinishlari va tashkil etish vositalari evrilish va oʻzgarishlarga moyil boʻladi. Masalan, yangi asrda zamonaviy axborot texnologiyalari ravnaqi tufayli koʻplab milliy marosimlar tarkibida foto va video xizmatlari, onlayn-translyatsiyalar bilan bogʻliq yangi elementlar paydo boʻldi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning oʻzgara bora-yotgani milliy marosimlarning oʻtkazilishi shaklida, ularga taklif etiladigan mehmonlar sonida, marosimlarni tashkil etish uslublarida jiddiy iz qoldirdi. Xullas, bugungi ijtimoiy omillar ta'sirida milliy marosimlardagi koʻplab elementlar qisqarmoqda, boshqalari esa yangicha mazmun bilan boyimoqda.

Milliy taraqqiyot oʻzgaruvchanligi turli omillar ta'siri mahsulidir. Milliy marosimlarning ma'naviy-gʻoyaviy negizlari, biz ta'kidlab oʻtganimizdek, uzoq davr mobaynida saqlanib turadi, ammo ularning tashkiliy shakllari va oʻtkazilishi uslublari ijtimoiy taraqqiyot bilan uygʻun holda transformatsiyaga uchrab boradi. Masalan, milliy marosimlar shakli va uslubi avvalo ijtimoiy munosabatlar tizimining takomillashuvi ta'sirida oʻzgaradi. Chunki har qanday milliy marosim muayyan ijtimoiy muhitda vujudga keladi, rivojlanadi va amal qiladi. Shu sababli jamiyat ijtimoiy hayotida yuz beradigan oʻzgarishlar marosimlarning tashkil etilishi, oʻtkazilishi va qabul qilinishi jarayonlariga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Jamiyat ijtimoiy sohasida va ijtimoiy stratifikatsiyasida, oila va mahalla instituti mazmuni va xarakterida, davr kishilari turmush tarzida yuz bergan oʻzga-rishlar milliy marosimlarning tashkil etilishi va oʻtkazilishi tartibi va tadbirlariga bevosita ta'sir koʻrsatadi. Aytaylik, ta'lim tizimining ravnaq topishi, jamiyatdagi mehnat munosabatlari xarakterining evrilishi, kishilar ijtimoiy faolligining oshishi milliy marosimlarni tashkil etish usbuslarini tubdan oʻzgartirib yuborishi mumkin. Jamiyatda yangi ijtimoiy guruhlar,

kasb-kor vakillari paydo bo‘lishi natijasida ham milliy marosimlarga munosabat yangicha xarakter kasb etadi. Turli ijtimoiy guruhlar milliy marosimlarni o‘z iqtisodiy imkoniyatlari, hayotiy ehtiyojlari va dunyoqarashiga mos ravishda tashkil etadilar. Natijada ayrim marosimlar soddalashsa, boshqalari yanada murakkab va ko‘rkam tus olishi mumkin.

Iqtisodiy omillar ham milliy marosimlar transformatsiyasiga sabab bo‘luvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday marosim muayyan iqtisodiy muhitda amalga oshiriladi va uning tashkil etilishi, ko‘lami hamda tashqi ko‘rinishi jamiyatning iqtisodiy holati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Milliy marosimlarni o‘tkazish jarayonida muayyan moddiy resurslar, moliyaviy mablag‘lar va tashkiliy imkoniyatlar talab qilinadi. Shu sababli iqtisodiy munosabatlarda yuz beradigan har qanday o‘zgarish marosimlar shakli va uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Aholi turmush darajasi, iqtisodiy va maishiy imkoniyatlari, kishilar iste’mol madaniyatidagi o‘zgarishlar o‘tkazilayotgan milliy marosimlarning ko‘lami, moliyaviy manbalari va tashkiliy xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, iqtisodiy barqarorlik mustahkamlangan hamda aholi daromadlari orta boshlagan kezlarda kishilar marosimlarini kengroq miqyosda tashkil etishga kirishadilar. Bunday davrlarda marosimlarga qatnashuvchi mehmonlar soni ko‘paya boradi, tadbirlarni kattaroq binolarda yoki maxsus tantana maskanlarida o‘tkazish odat tusini oladi, marosimni o‘tkazish joylarini bezash, xizmat ko‘rsatish turlari ko‘payadi. Jamiyat iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan, iqtisodiy inqiroz avj olgan, oqibat o‘laroq aholi real daromadlari kamayayotgan pallalarda esa milliy marosimlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslar cheklanib qoladi. Buning ortidan milliy marosimlarning ko‘lami ham qisqaradi, odamlar ortiqcha xarajatlardan voz kechib, marosimlarni ixchamroq shaklda o‘tkazishga kirishadilar. Iqtisodiy qiyinchiliklar davrida o‘tkazilayotgan milliy marosimlarda ishtirokchilar soni, tadbirlar davomiyligi, ularda turli bezaklardan foydalanilishi me’yorlari qisqaradi. Shu tariqa milliy marosimlar iqtisodiy vaziyat talablariga moslashib, ixcham va tejamkor xarakter kasb qiladi.

Milliy marosimlar shakli, mazmuni va o‘tkazilishi tartibiga ta’sir qiluvchi omillar qatorida siyosiy-huquqiy omillar alohida o‘rin tutadi.

Chunki har qanday jamiyatda amal qilayotgan siyosiy tizim, davlatning ma’naviy madaniyat bobidagi siyosati, huquqiy me’yorlar va boshqaruv mexanizmlari milliy qadriyatlar rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Milliy marosimlar ham ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida mazkur jarayonlardan chetda qolmaydi, albatta. Ularning rivojlanish yo‘nalishlari va tendensiyalari birinchi navbatda davlatning ma’naviy madaniyat sohasidagi siyosati xarakteridan turtki oladi. Har bir davlat o‘z taraqqiyot strategiyasi va ma’naviy siyosati doirasida milliy qadriyatlarni asrash, tiklash va rivojlantirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bu jarayonda milliy marosimlar xalqning madaniy merosi va ma’naviy hayotining muhim qismi sifatida e’tirof etiladi. Davlatning milliy an’analarni qo‘llab-quvvatlash, tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish va milliy o‘zlikni mustahkamlash borasidagi oqilona sa’y-harakatlari milliy marosimlar mazmuni va tashkiliy xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati ko‘p hollarda milliy marosimlarning ijtimoiy mavqeini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy mustaqillik sharoitida xalq milliy o‘zligi, ma’naviy merosi va tarixiy xotirasini tiklashga ehtiyojning kuchayishi natijasida ko‘plab milliy marosimlar qayta jonlanadi, ularning ma’naviy-g‘oyaviy mazmuni boyiydi, ijtimoiy ahamiyati ortadi. Shuningdek, siyosiy-huquqiy omillar ta’siri milliy marosimlarning o‘tkazilishini huquqiy jihatdan tartibga solish ishlarida ham namoyon bo‘ladi. Davlat tomoni-dan qabul qilinadigan qonunlar, qarorlar va me’yoriy hujjatlar ayrim marosimlarni o‘tkazish tartibiga muayyan talablarni belgilashi mumkin. Bu talablar odatda jamiyat manfaatlarini muhofaza qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, milliy qadriyatlarning asl mazmun-mohiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Milliy marosimlar tabiatining o‘zgarishiga global madaniy aloqalar ham sababchi bo‘lishi mumkin. Aslida milliy marosimlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida boshqa milliy madaniyatlar, o‘zga xalqlarning milliy marosimlari bilan o‘zaro ta’sir jarayonida takomil topa borgan, yangi mazmun va shakllar bilan boyigan. Biroq globallashuv sharoitidagi madaniy aloqalar ushbu jarayonlarni bag‘oyat jadallashtirib yubordi. Zamonaviy globallashuv sharoitida turli mamlakatlar, xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tobora kengayib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya va transport texnologiyalarining jadal ravnaqi sharofati o‘laroq kurrai zaminning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar va millatlar o‘rtasidagi madaniy muloqotlar misli ko‘rilmagan darajada intensivlashmoqda. Bu jarayon milliy madaniyatning barcha tarkibiy komponentlariga, shu jumladan milliy marosimlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global madaniy aloqalar ta’sirida milliy marosimlar tarkibi yangi tashkiliy shakllar, uslublar va estetik elementlar evaziga boyimoqda. Masalan, bir millatning marosimlari davomida boshqa xalqlarning marosimlariga dahldor bo‘lgan tadbir ssenariylari, bezatish uslublari, musiqiy kompozitsiyalar, tabriklash shakllari, texnik vositalarini qo‘llash odatiy tus olmoqda.

Milliy marosimlar tabiatining yuqorida tilga olingan omillar ta’siridagi o‘zgarishi ikki xil ssenariy asosida kechishi mumkin. Ularning birinchisiga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy omillar ta’sirida milliy marosimlarning mavjud tarkibiy elementlari zamon talablariga moslasha boradi. Ikkinchi ssenariyga ko‘ra esa, muayyan davrga xos bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlar milliy marosimlar tarkibini yangi elementlar bilan boyitadi.

Milliy marosimlar jamiyat hayotida o‘ta muhim ijtimoiy funktsiyalarni bajaruvchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Ushbu funksiyalar orqali milliy marosimlar jamiyatning barqarorligi, ma’naviy taraqqiyoti va madaniy vorisiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy marosimlar avvalo hamjihatlikni ta’minlash funksiyasini bajaradi. Ular jamiyatning turli yoshga, ijtimoiy mavqega, e’tiqodga, kasb-korga ega vakillarini birlashtiradi va ijtimoiy yakdillikni shakllantirishga hissa qo‘shadi. Milliy marosimlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash funksiyasini bajaradi. Ular jamiyat a’zolarining muayyan ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilarkan, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ijtimoiy adolat tamoyillariga bo‘ysundirishga zamin yaratadi.

Milliy marosimlar milliy qadriyatlarni shakllantirish funksiyasini bajaradi. Xalqning eng ezgu qadriyatlari aynan milliy marosimlar davomida mazmunan boyiydi, sayqal topadi, jamiyat a’zolari, shu jumladan yoshlar ongu-shuuriga singdiriladi. Ayni paytda milliy marosimlar madaniy vorisiylikni ta’minlash funksiyasini, ya’ni mazkur qadriyatlarni kelgusi

avlodlarga yetkazish vazifasini ham ado etadi. Bundan tashqari, xalqning koʻp asrlik tarixi, urf-odatlari, maʼnaviy boyliklari, hayotiy tajribasi ham aynan milliy marosimlar sharofati bilan ajdodlardan avlodlarga etib boradi. Milliy madaniyatning neki tarkibiy elementi bor – milliy til, milliy qadriyatlar, milliy adabiyot va sanʼat durdonalari, madaniy meros namunalari – bularning barcha-barchasi milliy marosimlarni oʻtkazish mexanizmlari sharofati bilan barhayot boʻlib qoladi.

Milliy marosimlar kishilarni ruhlantirish funksiyasini bajaradi. Ularda ishtirok odamlarga umid va quvonch baxsh etadi. Kishilar milliy marosimlarda qatnashish orqali oʻzlariga hamdard izlaydilar, koʻngillari taskin topadi. Ayniqsa, toʻy, bayram va turfa xotira marosimlari odamlarning emotsional ehtiyojlarini toʻlaqonli qondirishga xizmat qiladi. Shuning bilan bir qatorda milliy marosimlar muhim tarbiyaviy funksiyani ham ado etadi. Kishilar mazkur tadbirlarda ishtirok etarkanlar, ular davomida yorqin namoyon boʻladigan oʻzaro hurmat, bagʻrikenglik, saxovat, hamjihatlik va mehr-muruvvat kabi tamoyillar va fazilatlarni oʻzlashtiradilar.

Milliy marosimlar shaxsni ijtimoiylashtirish vazifasini bajaradi. Yosh avlod aynan marosimlar vositasida jamiyatda qabul qilingan meʼyorlar, umumeʼtirof etilgan xulq-atvor modellari, qadriyatlar va tamoyillar bilan tanishadi. Yigit va qizlarning milliy urf-odatlar va anʼanalar, milliy qadriyatlar va madaniy meros haqidagi tasavvurlari ham marosimlarda ishtirok mobaynida hosil boʻladi. Eng muhimi, yigit va qizlar milliy marosimlarga ishtirok etarkanlar, oʻzlarini muayyan millat, xalq yoki madaniyat vakili sifatida his eta boshlaydilar. Buni milliy marosimlarning identifikatsiyalash funksiyasi deya taʼriflash mumkin. Nihoyat, milliy marosimlar shaxslararo muloqotni tashkil etish funksiyasini ham bajaradi. Ular qarindoshchilik, qoʻshnichilik va doʻstlik munosabatlarini mustahkamlash uchun qulay ijtimoiy maydon yaratadi.

Kelajakda ham milliy marosimlar milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi va jamiyatning ahamiyatli ijtimoiy instituti sifatida saqlanib qoladi. Chunki jamiyat borligʻi qanday yangilanishlarni boshidan kechirmasin, uning aʼzolari oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar naqadar oʻzgarmasin, ilm-fan va texnologiyalar naqadar rivojlanmasin, odamlar

hayotida tug‘ilish, nikoh, kamolot, vafot, bayram va xotira kabi muhim voqealar mavjudligicha qolaveradi. Binobarin, bu voqealarni muayyan ijtimoiy va madaniy shakllarda nishonlash ehtiyoji ham saqlanib qolaveradi. Shu bois milliy marosimlar yangi davr talablariga moslashgan holda hamisha mavjud bo‘laveradi. Ularning ayrim jihatlari o‘zgarishi, yangi shakllar kasb etishi, zamonaviy texnologiyalar ta’sirida tarkiban boyishi, yangi timsollar va ramzlar, vositalarga ega bo‘lishi mumkin, ammo ijtimoiy-madaniy fenomen, ijtimoiy institut sifatida hech qachon butkul yo‘qolib, tarix sahnidan tushib ketmaydi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Marosim deganda shaxs, guruh, oila yoki jamiyat a’zolari tomonidan amalga oshiriladigan muayyan tadbir nazarda tutiladi. Milliy marosim esa millatning o‘z milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini, madaniy merosini, tarixiy xotirasini ifoda etish maqsadida amalga oshirgan tadbirlari majmuidan tarkib topadi. Ayni paytda milliy marosim milliy tajriba va an’analarni saqlash, kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradigan muhim ijtimoiy institut hamdir. Har qanday milliy marosim tarkibi uning g‘oyaviy mazmuni, sub’ektlari, marosimiy harakatlar va amallar, timsollar va ramzlar, unda qo‘llaniladigan xalq og‘zaki ijodi namunalari, marosim vaqti va joyiga mos tarzda tanlangan vositalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tarkibiy elementlarning ayrimlari barqaror xarakterga ega bo‘lsa, boshqalari turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy omillar ta’sirida o‘zgara boradi. Muttaasil takomil jarayonida bo‘lgan milliy marosimlar barcha ijtimoiy davrlarda muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

I.2. Milliy marosimlarning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati

Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida marosimlar yaxlit ijtimoiy institut sifatida o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Jumladan, qadimgi jamiyat hayotida ular muhim ijtimoiy, madaniy va ma’naviy vazifalarni bajargan. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida odamlar tabiat kuchlariga qaram bo‘lganligi, ijtimoiy munosabatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi va ilmiy bilimlarning cheklanganligi sababli marosimlar kishilar hayoti va faoliyatini ta’minlovchi muhim ijtimoiy

mexanizm bo‘lib xizmat qildi. Turli marosimlar jamoa a’zolarini birlashtirib, ularda umumiy maqsad va manfaatlar hissini shakllantirib turdi. Marosimlar qadimgi jamiyatda ijtimoiy tartib va intizomni ta’minlash vazifasini ham ado etdi. Davlat institutlari va rasmiy huquqiy-tartibot tizimi shakllanib ulgurmagan bir sharoitda kishilar xulq-atvori asosan urf-odatlar, an’analar va marosimlar orqali tartibga solindi.

Qadimgi davrda marosimlar asosan jamoaviy hayotni tashkil etish, tabiat kuchlari bilan munosabatlarni tartibga solish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash vazifalarini bajargan bo‘lsa, o‘rta asrlarga kelib ularning mazmuni va ijtimoiy funksiyalari yanada boyidi. Bu tarixiy davrda davlatchilikning rivojlanishi ,diniy ta’limotlarning keng tarqalishi, shahar madaniyatining yuksalishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi milliy marosimlarni muhim ahamiyatga molik ijtimoiy institutga aylantirdi. Eng muhimi, o‘rta asrlarda milliy marosimlar diniy qadriyatlar va me’yorlar bilan uyg‘unlashdi. Bu holat ularning mazmun-mohiyatini benihoya boyitdi hamda jamiyat a’zolari ma’naviy hamjihatligini ta’minlash vositasiga aylantirdi. Kishilar turli darajada amalga oshiriladigan hamda diniy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan milliy marosimlar orqali umumiy e’tiqod, axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlar atrofida birlashdilar. O‘rta asrlarda diniy qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan milliy marosimlar ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi manbaga ham aylandi. Hatto shaxsning jamiyatdagi o‘rni, maqomi va vazifalari ham ko‘p jihatdan turfa marosimlar orqali ifodalanadigan bo‘ldi. Masalan, nikoh marosimi shaxsning yangi oila barpo etganligini, turli kasbiy va jamoaviy marosimlar insonning muayyan ijtimoiy maqomga ega bo‘lganligini namoyon eta boshladi.

Qadimgi va o‘rta asrlarda milliy marosimlar asosan jamoaviy birlikni ta’minlash, diniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifalarini bajargan bo‘lsa, yangi zamonga kelib, ular milliy davlatlarni shakllantirish maqsadiga xizmat qiluvchi, sanoat ravnaqiga hissa qo‘shuvchi, yangi iqtisodiy munosabatlarga turtki beruvchi, urbanizatsiya jarayonlarini maqbullashtiruvchi, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keng tarqalishiga sababchi bo‘luvchi omilga aylandi.Chunonchi, bu pallada milliy marosimlar xalq tarixiy xotirasi va qadriyatlarini namoyon etish

orqali fuqarolik birdamligini mustahkamlashga yordam berdi hamda shuning bilan milliy davlatlarning shakllanishiga zamin hozirladi. Yangi zamonda milliy marosimlar iqtisodiy munosabatlarga ham muayyan ta’sir ko‘rsatdi – turli tantanalar va bayramlar mahalliy hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish sohasi va savdo munosabatlari rivojiga turtki berdi. Urbanizatsiya jarayonlari avj ola boshlagan bir pallada, ya’ni aholining shaharlarga ko‘chishi, ijtimoiy aloqalarning kengayishi va turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashishi sharoitida milliy marosimlar kishilarni birlashtiruvchi, qarindoshlik va hamjihatlik munosabatlarini asrab qoluvchi omil bo‘lib xizmat qildi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran milliy marosimlarning yaxlit ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati yanada oshdi. Bu davrga kelib, turli millat va elatlarning marosimlari shunchaki madaniy meros bo‘lib qolmasdan, jiddiy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan mexanizmga aylandi. Boshqacha aytganda, postindustrial jamiyat sharoitida milliy marosimlar jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishga qodir qudratli institut darajasiga ko‘tarildi.

Birinchidan, milliy marosimlar zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatda milliy marosimlarning iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Agar an’anaviy jamiyatlarda marosimlarning iqtisodiy jihati asosan oila va mahalla doirasidagi maishiy-iqtisodiy munosabatlar bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda ular ko‘plab sub’ektlar ishtirok etadigan murakkab iqtisodiy jarayonga aylanib bormoqda. Jahonning qariyb barcha mamlakatlarida milliy marosimlar xizmat ko‘rsatish sohasi, savdo, oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik, transport, mehmonxona biznesi ravnaqiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Aytish mumkinki, bugungi ijtimoiy shart-sharoitlarda milliy marosimlar mamlakat iqtisodiyotida talab va taklif munosabatlarini shakllantiruvchi muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Milliy marosimlarning iqtisodiy ahamiyati birinchi navbatda aholi bandligini ta’minlashda namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy marosimlarning barchasi ko‘plab menejerlar, oshpazlar, qandolatchilar, bezatuvchilar, xonandalar, sozandalar, suratkashlar, tasvirchilar, dizaynerlar,

haydovchilar ishtirokida tashkil etilmoqda va o‘tkazilmoqda. Aynan shu sababdan milliy ma-rosimlar turli xizmat ko‘rsatish sohalariga doimiy iqtisodiy talabni shakllantiruvchi manbalardan biri vazifasini bajarmoqda. Iqtisodiy nazariyada bu holat “multiplikativ ta’sir” (ya’ni bir sohada yuzaga kelgan talabning boshqa sohalarda iqtisodiy faollikni yuzaga keltirishi) deb ataladi.

Turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan milliy marosimlar zamonaviy iste’mol bozori rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshqacha aytganda, zamonaviy milliy marosimlar turli sub’ektlar iqtisodiy faolligini rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har qanday marosim muayyan moddiy resurs, mahsulot va xizmatlardan foydalanishni taqozo etadi. Shu sababdan milliy marosimlar o‘tkazilishi arafasida yoxud ular o‘tkazilayotgan davrlarda aholining ayrim mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji keskin ortadi. Bu holat iste’mol bozorida talab va taklif munosabatlarining jiddiy jonlanishiga olib kelmoqda. Masalan, ko‘plab milliy marosimlar oldidan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi sezilarli darajada oshib ketayapti. Kishilar marosim dasturxonini tuzishga kirisharkanlar, go‘sht va sut mahsulotlari, meva va sabzavotlar, qandolat mahsulotlari hamda turli ichimliklar xaridiga oshiqmoqdalar. Mazkur talab nafaqat yirik ishlab chiqaruvchilar, balki o‘nlab dehqon va fermer xo‘jaliklari, kichik tadbirkorlar uchun qo‘shimcha daromad manbaiga aylanmoqda.

Milliy marosimlarning ayrimlari milliy liboslar va to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Ma’lumki, qator milliy marosimlarda ishtirokchilar milliy kiyimlar, maxsus tantanaviy liboslardan foydalanadilar. Mazkur zaruriyat to‘qimachilik sanoati, tikuvchilik korxonalari va xususiy ustalar faoliyatining kengayishiga turtki bermoqda. Marosimlar munosabati bilan sovg‘alar, zargarlik buyumlari va turli bezak mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Ayniqsa, nikoh, sunnat, yubiley kabi oilaviy marosimlar qimmatbaho sovg‘alar va zargarlik mahsulotlari xaridini faollashtirib yubormoqda. Bu esa zargarlik sanoati, savdo tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasi sub’ektlari uchun qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda.

Milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishi mamlakatdagi hunarmandchilikni ham qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ko‘plab milliy marosimlar maxsus milliy liboslar, an’anaviy bezaklar, sovg‘alar, zargarlik buyumlari, gul mahsulotlari tayyorlashni taqozo qiladi. Bu mahsulotlarning aksariyati sanoat korxonalarida emas, qo‘l mehnati va milliy hunar an’analariga tayanilgan holda yaratiladi. Aynan shuning uchun marosimlar chog‘ida ishlatiladigan mazkur mahsulotlarga buyurtmalarning ko‘payishi hunarmandlar mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Masalan, nikoh va to‘y marosimlari arafasida milliy matolardan tayyorlangan liboslar, zargarlik buyumlari, milliy uslubdagi sovg‘alar va turli dekorativ mahsulotlarga talab oshib ketmoqda. Buning natijasida to‘qimachilik, kashtachilik, zargarlik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, misgarlik, ganchkorlik kabi an’anaviy hunarmandchilik turla-ri uchun qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Binobarin, ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda milliy marosimlar hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshiruvchi, ularni ishlab chiqaruvchi kishilarni esa ish va qo‘shimcha daromad manbai bilan ta’minlovchi omil bo‘lib qolmoqda. Shu tariqa milliy marosimlar iqtisodiyotning mahalliy segmentlarini rag‘batlantirishga hissa qo‘shmoqda.

Moliyaviy resurslarning qayta taqsimotini amalga oshirishda ham milliy marosimlarning ayricha o‘rni bor. Biror bir marosim, tabiiyki, muayyan hajmdagi mablag‘larsiz tashkil etilmaydi va o‘tkazilmaydi. Ayrim marosimlar ancha-muncha salmoqli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Masalaning muhim tomoni shundaki, marosimlarni tashkil qilish va o‘tkazish niyatida sarflanayotgan mazkur mablag‘lar tadbirlarni uyushtirishda ishtirok etgan o‘nlab firma va korxonalar, tadbirkor va ishbilarmonlar, ishlab chiqaruvchilar daromadlarining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu mablag‘larning kattaa qismi “o‘lik moliyaviy resurs” sifatida qolib ketayotgani yo‘q. Ak-sincha, ular keyinchalik yangi ish o‘rinlarini yaratish, firma yoki korxona iqtisodiy faolligini oshirish, yangi iqtisodiy loyihalarga investitsiyalar kiritish yo‘lida xarj etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy marosimlar moliyaviy resurslar aylanishini jadallashtiruvchi omil vazifasini ham o‘tamoqda.

Milliy marosimlarning iqtisodiy ahamiyatini jahon miqyosida tavsiflaydigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib ular alohida iqtisodiy industriyaning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Ayrim tadqiqot natijalariga qaraganda, 2024 yilda jahondagi birgina to‘y xizmatlari bozori hajmi 650,33 milliard AQSh dollaridan oshib ketgan. Muammoni chuqur o‘rgangan mutaxassislar va ekspertlar bu mablag‘lar 2032 yilga borib 1,29 trillion dollarga etishini hamda yaqin kelajakda muttasil o‘sib borishini bashorat qilmoqdalar. Ushbu raqamlar zamonaviy jamiyat sharoitida milliy marosimlar iqtisodiyotning muhim segmentiga aylanib ulgurganini ko‘rsatadi. Albatta, milliy marosimlarning barchasi ham shunday miqyosga etganicha yo‘q. Ammo yangi asrda milliy marosimlar bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat umumsayyoraviy ko‘lamda jiddiy ahamiyat kasb eta boshlaganiga ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, milliy marosimlar zamonaviy siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy jamiyatda milliy marosimlarning siyosiy ahamiyati ularning davlat va jamiyat o‘rtasidagi siyosiy aloqalarni mustahkamlash, milliy davlatchilik g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qilish, fuqarolarning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq imkoniyatlarida zuhur bo‘lmoqda. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida milliy marosimlar davlat suvereniteti va millat manfaatlarini mufassal ifodalab berish imkonini beradigan vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Turli davlatlar o‘z siyosiy mustaqilliklari va davlatchilik an’analarini aynan milliy bayramlar, rasmiy marosimlar orqali namoyish etmoqdalar. Masalan, AQShda har yili 4 iyul Mustaqillik kuni sifatida keng nishonlanadi. Ma’lumki, ushbu bayram 1776 yilda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakatning mustamlakachilikdan qutulib, mustaqil davlat sifatida shakllanganini ifodalaydi. Bugungi kunda mamlakatda bayram munosabati bilan o‘tkaziladigan rasmiy marosimlarda AQSh milliy davlatchiligining asosiy siyosiy qadriyatlari keng tavsiflanmoqda. Fransiyada har yili Bastiliya kuni (14 iyul) davlat miqyosida qizg‘in nishonlanadi. Bu sana zamonaviy Fransuz respublikasi va xalq suvereniteti ramzi hisoblanadi. Ayni davrda Parijda bayram munosabati bilan tashkil etiladigan harbiy parad va davlat rahbarlari ishtirokidagi rasmiy marosimlarda Fransiya davlatchiligi va

respublikachilik qadriyatlari tarannum etish odat tusini olmoqda. O‘zbekistonda ham 1 sentyabr – Mustaqillik kuni davlatchilik va milliy suverenitetning muhim ramzi sifatida nishonlanmoqda. Bir necha o‘n yilliklardan buyon mazkur bayram munosabati bilan o‘tkaziladigan rasmiy tadbirlarda, davlat mukofotlarini topshirish marosimlarida, tantanalarda mustaqil davlatchilik g‘oyalari ulug‘lab kelinmoqda.

Amerikalik siyosiy antropolog D.Kerttser o‘zining **“**Marosim, siyosat va hokimiyat” nomli asarida milliy marosimlar bugungi kunda amaldagi siyosiy hokimiyatning legitimligini ta’minlash va ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajarayotganini aytib o‘tadi. Darhaqiqat, har qanday davlat va siyosiy hokimiyat nafaqat huquqiy me’yorlar va ma’muriy-siyosiy mexanizmlarga, balki jamoatchilik tomonidan tan olinishi va qo‘llab-quvvatlanishiga ham ehtiyoj sezadi. Bugungi milliy marosimlar aynan ana shu maqsadga erishish imkonini bermoqda. Har qanday davlat ular orqali o‘z tarixiy ildizlari, siyosiy qadriyatlari va taraqqiyot maqsadlarini jamoatchilikka etkazmoqda hamda hokimiyat va xalq o‘rtasidagi turli aloqalarni mustahkamlashga muvaffaq bo‘lmoqda. Masalan, biz yuqorida tilga olgan mustaqillik bayramlari barcha mamlakatlarda rasmiy murojaatlar va davlat ramzlarini ulug‘lash tadbirlari bilan hamohang ravishda o‘tkazilmoqda. Bunday marosimlar orqali davlat hokimiyati o‘zini millat tarixiy taraqqiyoti va davlatchilik an’analarining qonuniy davomchisi sifatida namoyon qilmoqda.

Zamonaviy davlatlarda milliy bayramlar, xotira tadbirlari va davlat ramzlari bilan bog‘liq marosimlar siyosiy identifikatsiyani shakllantirishning muhim vositasi sifatida qo‘llanilmoqda. Ma’lumki, siyosiy identifikatsiya shaxsning o‘zini muayyan siyosiy hamjamiyat, davlat, millat, siyosiy institut, siyosiy g‘oya yoki siyosiy harakatning bir qismi sifatida anglashi va his qilishi jarayonini anglatadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan mustaqillik bayramlari, konstitutsiya qabul qilingan kunga bag‘ishlangan tantanalar, milliy ozodlik harakati xotirasiga bag‘ishlangan marosimlar fuqarolarning davlat bilan siyosiy hamjihatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday milliy marosimlarda davlat tarixi, mustaqillik uchun kurash tajribasi, konstitutsiyaviy qadriyatlar va milliy davlatchilik g‘oyalari ramziy shaklda

yorqin ifodalab berilmoqda. Oqibatda fuqarolar o‘zlarini muayyan siyosiy hamjamiyatning a’zosi sifatida anglab etmoqdalar. Masalan, Hindistonda har yili 15 avgustda nishonlanadigan Mustaqillik kuni, 26 yanvarda o‘tkaziladigan Respublika kuni milliy davlatchilik g‘oyalarini mustahkamlashning muhim vositasi sifatida tavsiflanmoqda. Ayniqsa, Respublika kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan harbiy parad va rasmiy marosimlarda mamlakat Konstitutsiyasi, davlat institutlari va milliy hamjihatlik g‘oyalarini keng tarannum qilinmoqda. Bugungi kunda bu tadbirlar millionlab kishilarni davlat va Vatanga sadoqat ruhida kamol toptirish imkonini bermoqda.

Zamonaviy jamiyatda milliy marosimlar aholining tarixiy xotirasini shakllantirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ko‘plab tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning Vatan manfaatlari yo‘lidagi sa’y-harakatlari, milliy davlatchilik an’analarining qadr-qimmati va ahamiyati aynan milliy marosimlar sharofati bilan yorqin ifodalab berilmoqda. Milliy marosimlar davomida xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan tarixiy voqealar muntazam ravishda yodga olinmoqda va ramziy shakllarda rekonstruksiya qilinmoqda. Tarixiy sanalar munosabati bilan o‘tkazilayotgan tantanalar, xotira tadbirlari va rasmiy marosimlarda xalqning o‘tmishda bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘li, bu yo‘lda duch kelgan sinovlari, qo‘lga kiritgan zafarlari eslanmoqda. Ko‘plab yurtlarda buyuk sarkardalar, davlat arboblari, ma’rifatparvarlar va milliy qahramonlar xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish odat tusini olmoqda. Mazkur marosimlar tarixiy voqealarning ijtimoiy ahamiyatini kelajak avlodlarga tavsiflab berish, tarixiy shaxslarning Vatan manfaatlari yo‘lidagi xizmatlari va jasorati mazmunini keng jamoatchilikka etkazish imkonini bermoqda.

Ko‘plab o‘lkalarda milliy marosimlar siyosiy modernizatsiya vositasi bo‘lib ham xizmat qilmoqda. Davlatlar yangi siyosiy g‘oyalar, islohotlar va strategik maqsadlarni aholi ongiga yetkazishda milliy marosimlarning imkoniyatlaridan keng foydalanmoqdalar. Masalan, O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning maqsad-muddaolari, asosiy yo‘nalishlari milliy bayramlar, turli tantanali tadbirlar, rasmiy murojaatlar orqali keng jamoatchilikka ma’lum qilinmoqda.

Uchinchidan, milliy marosimlar zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kishilik jamiyati hayoti tobora murakkablashib, undagi ijtimoiy munosabatlar ko‘lami kengayib borayotgan bugungi pallada milliy marosimlar jamiyat a’zolari o‘rtasi-dagi aloqalarni mustahkamlashda, ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlashda, shaxs ijtimoiylashuvini optimallashtirishda jiddiy o‘rin tutmoqda.

Zamonaviy jamiyatda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining jadal-lashuvi, ijtimoiy mobillikning oshishi ortidan kishilar o‘rtasidagi turfa aloqalar zaif tortmoqda. Ana shunday murakkab bir vaziyatda milliy marosimlar azal-azaldan qadrlab kelingan yaqin-qarindoshchilik, qo‘shnichilik, birodarlik, hamjihatlikni saqlashning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda. Bayram va sayllar, oilaviy marosim va xotira tadbirlari turli hududlarda yashaydigan, turli yosh, kasb, ijtimoiy maqom va hayotiy tajribaga ega bo‘lgan kishilarni bir maskanda hamda yagona muddaolar atrofida birlashtirib, ana shu qadriyatlarning so‘nmasligini ta’minlamoqda.Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, bugungi kunda milliy marosimlar o‘ziga xos ijtimoiy integratsiya vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ayni paytda milliy marosimlar nafaqat turli yosh, kasb, ijtimoiy maqom va hayotiy tajribaga ega bo‘lgan insonlarni bir joyga to‘plab, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlamoqda, balki jamiyat hayoti uchun nihoyatda muhim bo‘lgan o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish va mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Ma’lumki, bugungi milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni ko‘p hollarda birgalikdagi harakatni, o‘zaro hamkorlikni va vazifalar taqsimotini talab qilmoqda. Turli marosimlar davomida ishtirokchilar muayyan vazifalarni bajarish, tadbirlarni tashkil etish, mehmonlarni kutib olish, dasturlarni muvofiqlashtirish yoki boshqa tashkiliy ishlar bilan shug‘ullanish jarayonida bir-birlari bilan yaqin muloqotga kirishmoqdalar. Bu jarayonda kishilar o‘z faoliyatlarini o‘zaro kelishgan holda amalga oshirishga, bir-birlarining mas’uliyati va imkoniyatlariga ishonishga majbur bo‘lmoqdalar. Natijada bu faoliyat ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishiga, pirovardida esa ijtimoiy ishonchning yuksalishiga zamin yaratmoqda.

Milliy marosimlarning muhim ijtimoiy ahamiyati ularning shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ta’siri bilan ham bog‘liq. Ma’lumki, ijtimoiylashuv “inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilishi jarayonini” anglatadi. Bugungi shart-sharoitlarda milliy marosimlar ana shu jarayonning muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki bolalar, o‘smirlar, yoshlar milliy marosimlarda ishtirok etish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabat me’yorlarini, xulq-atvor va yurish-turish qoidalarini, umum-ijtimoiy manfaatlarni o‘zlashtirmoqdalar, ularni hurmat qilishga odatlanmoqdalar. Shuningdek, milliy marosimlar kishilarning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy hayot sur’atlarining intensivlashuvi, odamlar mehnat faoliyati maqsadi va xarakterining o‘zgarishi, turmush ehtiyojlarining oshishi kishilarda ruhiy zo‘riqish hollarini yuzaga keltirayotgani rost. Bunday murakkab vaziyatda milliy marosimlar odamlarga o‘zaro muloqot qilish, quvonch va tashvishlarini baham ko‘rish imkonini bermoqda.

Zamonaviy jamiyatning ayrim tendentsiyalari inson turmushini individuallashtirib, kommunikativ izolyatsiyaning bag‘oyat ayanchli shakllarini yuzaga keltirayotgan bir vaziyatda milliy marosimlarning ijtimoiy ahamiyati ayniqsa ortib ketmoqda. Chunonchi, o‘tgan asrning so‘nggi choragidan e’tiboran ijtimoiy taraqqiyot sur’atlarining jadallashishi, shaxs qadriyatlari tizimidagi o‘zgarishlar, oila instituti inqirozi yolg‘izlikni katta ko‘lamga ega bo‘lgan ijtimoiy illatga aylantirdi. G. Bekmurodova monografiyasida bu boradagi xatarlardan darak beruvchi qator faktlar umumlashtiriladi. “AQShda,- deb yozadi u,- 1970-yillarda fuqarolarning 17 foizi yolg‘izlikda yashagan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 25 foizga etdi. Ular tur-kumiga nafaqat hayot taqozosi bilan yolg‘iz qolgan kimsalar, balki o‘z ixtiyori bilan izolyatsiyada yashayotgan kishilar ham kiradi. Italiyada jamiyat a’zolarining 27 foizi yolg‘izlikda umr kechirmoqda. Mamlakatning shimoliy mintaqalarida vaziyat ayniqsa tashvishlanarli: bu hududda aholining qariyb yarmi yolg‘izlikda yashaydi. Yaponiyada fuqarolarning 30 foizi o‘z oilasiga ega emas. Mamlakatda yolg‘izlik fenomenining turli jihatlari “xikimori” (mu-loqotdan voz kechish) va “kodokusi” (yolg‘iz o‘lim) tushunchalari yordamida

ifodalanadi. O‘z umrini yolg‘izlikda yakunlayotgan qariyalar soni 5 milliondan oshib ketdi. Buyuk Britaniyada aholining 35 foizi yolg‘izlikda yashaydi. Bugunga kelib, 75 yoshdan oshgan mamlakat fuqarolarining yarmidan ko‘pi har qanday muloqotdan benasib qolmoqda”. Nihoyatda katta ko‘lam kasb qilib borayotgan ushbu ijtimoiy illat jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda. Xususan, yolg‘izlik tufayli turli mamlakatlardagi suitsid hollari ko‘paymoqda. “Yaponiyada 2020 yilda bu ko‘rsatkich 21 mingdan oshib ketdi. Vaziyat jiddiyligini inobatga olgan hukumat buyuk Britaniya kabi yolg‘izlik bilan maxsus shug‘ullanadigan idora tashkil etishga qaror qildi. Bugungi kunda ushbu idora mamlakatdagi yolg‘izlarning umummilliy ro‘yxatini tuzish va ularga tizimli yordam ko‘rsatish choralarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanmoqda”. Ana shunday bir vaziyatda milliy marosimlar turli o‘lkalarda kishilarni yolg‘izlikdan xalos qiladigan, ularning o‘zaro muloqotini ta’minlay oladigan kamdan-kam omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, milliy marosimlar zamonaviy madaniy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan asrning so‘nggi choragidan e’tiboran avj olgan globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlarga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Chunonchi, bir tomondan,u xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni kengaytirgan, milliy madaniyatlarning xalqaro miqyosda tanilishiga imkon yaratgan, madaniy merosni targ‘ib qilish va saqlash uchun yangi imkoniyatlarni ochgan, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida madaniy almashinuv jarayonlarini jadallashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, G‘arb ommaviy madaniyati ta’siri ostida turli milliy madaniyatlarning unifikatsiyalashib ketishiga, ayrim milliy qadriyatlarning zaiflashishiga, milliy til, urf-odatlar va an’analarga qiziqishning pasayishiga, milliy o‘zlikning yemirilishiga yo‘l ochib berdi. Xususan, globallashuv sharoitida o‘zbek tilining leksik tarkibi kengaydi, o‘zbek adabiyoti yangi g‘oya va tendentiyalar bilan boyidi, o‘zbek milliy san’atida yangi g‘oyaviy yo‘nalish va mavzular paydo bo‘ldi. Ayni paytda globallashuv sharoitida o‘zbek milliy an’analari universalizatsiyasi sodir bo‘ldi, ularga munosabat o‘zgardi, milliy qadriyatlarning ijtimoiy mavqei zaiflasha boshladi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda milliy marosimlar madaniy merosni saqlash, milliy o‘zlik tuyg‘ularini mustahkamlash, milliy

qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishning muhim mexanizmi bo‘lib qolmoqda.

Milliy marosimlarning madaniy ahamiyati eng avvalo ularning madaniy merosni saqlash borasidagi imkoniyatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xalqlarning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, urf-odatlari, hayotiy tajribasining o‘ziga xos jihatlari aynan milliy marosimlar sharofati bilan saqlanib qolmoqda. Shu sababdan ham UNESCOning 2003 yilda qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” Konvensiyasida milliy marosimlarning nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylashdagi roli alohida konstatatsiya qilinadi.

Globallashuv ta’sirida milliy madaniyatlarning tabiati jadal o‘zgarib borayotgan bir sharoitda milliy o‘zlikni saqlab qolish masalasi strategik ahamiyat kasb qilmoqda. Bunday sharoitda milliy marosimlar milliy o‘zlik tuyg‘ularini mustahkamlashning ahamiyatli omillaridan biriga aylanmoqda. Xalqning ko‘p asrlik tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlari aynan milliy marosimlarda yorqin ifodasini topmoqda. Turli millat va elat vakillari milliy marosimlarda qatnashish orqali o‘z xalqi o‘tmishi, hayotiy tajribasi va ma’naviy merosidan voqif bo‘lmoqdalar. Milliy marosimlarda ishtirok etish jarayonida kishilar nafaqat o‘z xalqi tarixi va madaniyatini bevosita his qilishga, balki marosimlarda ado etiladigan udumlar, qo‘llaniladigan ramzlar orqali o‘zlarini muayyan millatning vakili sifatida anglab etishga musharraf bo‘lmoqdalar. Bu jarayon esa pirovardida ularning milliy o‘zlik tuyg‘ularini kuchaytirmoqda.

Milliy marosimlarning madaniy ahamiyati ularning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni keng targ‘ib va tashviq qilish, ajdodlardan avlodlarga yetkazish borasidagi rolida ham namoyon bo‘lmoqda. Har qanday millat yoki elat qadriyatlari shu xalq madaniyatining ma’naviy negizini tashkil etadi. Zamonaviy milliy marosimlar ana shu ma’naviy negizni o‘zida mujassamlashtirmoqda hamda ularni saqlab qolish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, o‘zbek xalqi azal-azaldan mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, andisha, kattalarni e’zozlash, kichiklarga mehr ko‘rsatish, ahillik va hamjihatlik kabi fazilatlarni yuksak qadriyat sifatida e’tirof etib kelgan. Ushbu qadriyatlar xalqning ko‘p asrlik turmush tajribasi davomida shakllangan bo‘lib, milliy

ma’naviyatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bugungi kunda mazkur qadriyatlar aynan milliy marosimlar doirasida amalga oshirilayotgan turli rasm-rusumlar, udumlar va tadbirlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, ko‘plab milliy marosimlardagi mehmonlarni ehtirom bilan kutib olish tadbirlari mehmondo‘stlik qadriyatining amaliy ifodasi hisoblanadi. Marosimlarda turli ijtimoiy mavqega ega kishilarning o‘zaro muloqotda axloq-odob qoidalariga amal qilishi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan andishaning namoyon bo‘lishidir.

Milliy marosimlar milliy tilni saqlash va rivojlantirishga ham hissa qo‘shmoqda. Ko‘plab marosimlarda xalq og‘zaki ijodi namunalari, duolar, tabriklar, maqollar va matallardan keng foydalanilishi til bilan bog‘liq madaniy merosning asrab-avaylanishiga zamin yaratmoqda. Nihoyat, milliy marosimlar xalq amaliy san’ati namunalarini saqlash va targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, turli marosimlarda milliy liboslar, an’anaviy naqshlar, xalq musiqasi va tasviriy san’ati namunalari, boshqa qadriyatlarining keng qo‘llanilishi milliy madaniyatning barqaror rivojiga turtki bermoqda.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Milliy marosimlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb qilib kelgan. Xususan, qadimgi va o‘rta asrlarda milliy marosimlar asosan jamoaviy birlikni ta’minlash, diniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifalarini bajardi. Yangi zamonda ular milliy davlatlarni shakllantirish, sanoat ravnaqini ta’minlash, iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, urbanizatsiya jarayonlarini maqbullashtirish omili bo‘ldi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran yuzaga kelgan tendensiyalar nafaqat milliy marosimlar tabiatini o‘zgartirdi, balki ularning ijtimoiy ahamiyatiga ham yangicha tus berdi. Ushbu tendentsiyalar ta’sirida takomil topgan va zamonaviylashgan milliy marosimlar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga qudratli ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli institutga aylandi.

I.3. Milliy marosimlarni tadqiq etishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari

Milliy marosimlar insoniyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan murakkab ijtimoiy institutdir. Avvalgi paragraflardagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ular muayyan millat va elat tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi hamda turfa vositalar yordamida ajdodlardan avlodlarga uzatib boriladi. Binobarin, milliy marosimlar mazmuni va ahamiyati, shakllanishi va takomil topishi jarayonining maqbul nazariy asoslar va metodologik yondashuvlarga tayangan holda tadqiq etilishi ularning mohiyati va rivojlanishi qonuniyatlarini, shuningdek, zamonaviy sotsium bag‘rida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-madaniy jarayonlarning ayrim aspektlariga ta’sirini chuqurroq anglab olish sari yo‘l ochadi.

Milliy marosim mazmuni, mohiyati, ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga doir mulohazalar ko‘rsatadiki, mazkur fenomen ancha-muncha murakkab tabiatga ega. Har qanday marosim mazmuni turli tarixiy, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy va aksiologik mazmunga ega bo‘lgan murakkab tizim sifatida tavsiflanishi mumkin. Aynan shuning uchun ham milliy marosimlar mazmuni va mohiyatini, shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini birgina fanga (ijtimoiy falsafaga) xos bo‘lgan tadqiqot uslublari va usullari, nazariy yondashuvlari va tamoyillari asosida o‘rganish o‘rinli emas. Ob’ektning murakkabligi nafaqat ijtimoiy falsafa, balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik, etnologiya, antropologiya va tarix fanlarining nazariy yutuqlari, uslublari va usullari, yondashuvlari va tamoyillaridan ham puxta foydalanishni taqozo etadi.

Milliy marosimlar mazmuni va mohiyatini tadqiq qilishning *nazariy asoslari* mamlakatimiz va xorij olimlarining e’tiborga sazovor ilmiy ishlarida ilgari surilgan ilmiy qarashlardan tashkil topadi. Ushbu asar va maqolalarda “milliy marosim” tushunchasining mazmuni va tarkibi, genezisi va shakllanishi qonuniyatlari, zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va ijtimoiy funksiyalari ochib beriladi. Ta’kidlab o‘tish zarurki, mazkur ilmiy ishlarda milliy marosimlar, bir tomondan, har qanday jamiyatning ma’naviy yaxlitligi va barqarorligini ta’minlovchi, ijtimoiy munosabatlarni

muvofiqlashtirib boruvchi muhim mexanizm sifatida, ikkinchi tomondan esa, inson hayotidagi muhim voqealarni qayd etuvchi va tartibga soluvchi qudrat sifatida tavsiflanadi.

Milliy marosimlarni tadqiq etishning *metodologik asoslari* mazkur ijtimoiy hodisa tabiatini ilmiy nuqtai nazardan bilish imkonini beruvchi yondashuvlar va tamoyillar, uslublar va usullardan tashkil topadi. Masalan, ob'ektivlik tamoyili marosimlarni mavjud voqelik sifatida xolis tahlil qilishda, tarixiylik tamoyili ularning genezisi va shakllanishi bosqichlarini o'rganishda, tizimlilik tamoyili milliy marosimlarni yaxlit ijtimoiy-madaniy tizim sifatida tahlil qilishda qo'l keladi. Kompleks yondashuv esa milliy marosimlarning turli qirralarini o'zaro bog'liq holda tadqiq etish imkonini beradi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, milliy marosimlar turli rasm-rusumlar yoki udumlarning shunchaki oddiy yig'indisi emas. Har qanday marosim o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab elementlardan tashkil topgan yaxlit ijtimoiy-madaniy tizimdir. Bundan kelib chiqadiki, uning mazmuni va tarkibi birinchi navbatda *tizimli yondashuv* oqali mufassal ochib berilmog'i lozim. Chunki tizimli yondashuv har qanday ob'ektni uning ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari, bu qismlarning o'zaro munosabati nuqtai nazaridan tahlil qilishni nazarda tutadi.

Ilmiy manbalarda tizimli yondashuv (yoxud tizilar nazariyasi) asoschisi sifatida Avstriyada tug'ilib, Kanada va AQShda ijod qilgan taniqli biolog Lyudvig fon Bertalanfi nomi tilga olinadi. L. Bertalanfi har qanday tizimni o'zaro bog'liq elementlar yig'indisi deya tavsiflaydi. Uning fikricha, tizimning asl mohiyatini bilish uchun uning alohida qismlarigina emas, bu qismlarning o'zaro aloqadorligi ham tahlil qilinmog'i lozim. Xuddi shunday fikr o'zbek olimlari asarlarida ham ta'kidlab o'tiladi. Bu tamoyilni milliy marosimlarni tadqiq etish jarayoniga nisbatan ham tatbiq qilish zarur. Chunki, avvalgi paragraflarda qayd etilganidek, har qanday marosim turli tarkibiy elementlarni ishtirokchilar, rasm-rusumlar, ramzlar, qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy munosabatlardan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi. Tizimli yondashuvni qo'llamasdan turib, ushbu tizimning tarkibiy tuzilishi, uning har bir elementi mohiyati va bir-biriga ta'sirini mufassal tasavvur etish mushkul.

Koʻrinib turibdiki, tizimli yondashuv milliy marosimlarning tarkibiy tuzilishi, elementlarini yaxlit va oʻzaro bogʻliq holda tadqiq etish imkonini beruvchi muhim metodologik tamoyil hisoblanadi. Mazkur yondashuv milliy marosimlarning ichki tuzilishini, uning elementlarining oʻzaro aloqadorligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Milliy marosimlarning shakllanishini ilmiy-nazariy pozitsiyadan tadqiq etishda *tarixiy yondashuv* muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki har qanday milliy marosim muayyan tarixiy shart-sharoitlarda shakllanadi va rivoj topadi. Uning evolyutsiyasi ham turli tarixiy davrlarda boʻy koʻr-satgan ijtimoiy omillar ta’sirida sodir boʻladi. Shu sababdan milliy marosimlarning mazmuni, shakli va funksiyalari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan uygʻun holda, ushbu jarayon kontekstida oʻrganilmogʻi zarur. Tarixiy yondashuv milliy marosimlarning kelib chiqishi va shakllanishi bosqichlarini aniqlash, ularning oʻzgarishiga sabab boʻlgan tarixiy jarayonlarni tizimli tavsiflash imkonini beradi.

Ma’lumki, ijtimoiy falsafada tarixiy yondashuv har qanday ijtimoiy hodisani qachondir vujudga kelgan va qaysidir pallada nihoyasiga etadigan, doimiy oʻzgarishda boʻlgan jarayon sifatida tadqiq qilishni taqozo etadi. Mazkur yondashuvga koʻra, ijtimoiy voqelikdagi biror bir narsa, jarayon, hodisa oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi hamda davr oʻtgani sayin oʻzgarmas holatda saqlanib qolmaydi. Ushbu nazariy xulosa milliy marosimlarga nisbatan ham oʻrinlidir.Chunki milliy marosimlar muayyan millat yoxud elat tarixiy tajribasi, turmush tarzi, mehnat faoliyati, dunyoqarashi va qadriyat-lari ta’sirida shakllangan boʻlib, tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlarga mos ravishda takomillashib borgan.

Ahamiyatli tomoni shundaki, tarixiy yondashuv milliy marosimlar genezisini bir qadar mufassal aniqlab olishda qoʻl keladi. Bu esa ilmiy nuqtai nazardan bagʻoyat muhim: milliy marosimlar genezisini oʻrganish orqali ularning dastlab qanday maqsadlarda paydo boʻlganini, dastavval qanday funktsiyalarni bajarganini bilib olish mumkin. Masalan, rus olimi S.A. Tokarev tarixiy yondashuvga tayangan holda insoniyat tarixidagi dastlabki marosimlar tabiat hodisalarini anglashga boʻlgan ehtiyoj, mehnat faoliyatini tashkil qilish zarurati, jamoaviy hamjihatlikni ta’minlash va

muhim hayotiy voqealarni nishonlash ehtiyoji bilan bog‘liq holda vujudga kelganini aniqlaydi.

Tarixiy yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u milliy marosimlarning turli tarixiy davrlardagi funktsiyalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, avvalgi paragrafda qayd qilinganidek, qadimgi jamiyatlarda marosimlar ko‘proq jamoaviy birlikni ta’minlash, mehnat jarayonlarini muvofiqlashtirish va tabiat bilan munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajargan bo‘lsa, o‘rta asrlarda ularning diniy va ma’naviy jihatlari kuchaygan. Yangi va eng yangi davrlarda esa milliy marosimlar milliy o‘zlikni saqlash, madaniy merosni avlodlarga etkazish va jamiyat ma’naviy hayotini boyitish vazifalarini ham bajara boshlagan. XX asrning oxirlariga kelib, miliy marosimlarning ijtimoiy funktsiya-lari mazmunan va tarkiban yanada boyigan. Tarixiy yondashuv turli davrlardagi mazkur funksiyalar mazmunini bir-biri bilan solishtirish va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Har qanday milliy marosim ko‘plab elementlar yig‘indisidan tarkib topishini, bu elementlarning ayrimlari barqaror, boshqalari esa o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lishini aytib o‘tdik. Ana shu elementlarning barqarorligi yoxud o‘zgaruvchanligi esa aynan tarixiy yondashuv - milliy marosimlarning tarixiy evolyutsiyasi tahlili vositasida aniqlanadi. Boz ustiga, tarixiy yondashuv milliy marosim tarkibidagi ayrim elementlarning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan omillarni ham ta’riflash va tasniflashda qo‘l keladi.

Ko‘rinib turibdiki, tarixiy yondashuv milliy marosimlar genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasini ilmiy jihatdan o‘rganishning muhim metodologik vositasidir. U milliy marosimlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanish qonuniyatlarini xolis tahlil qilish imkonini beradi.

Milliy marosimlarning mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishda esa *dialektik yondashuv* ish beradi. Chunki har qanday ijtimoiy hodisa kabi milliy marosimlar ham doimiy harakat, o‘zgarish va rivojlanish jarayonida mavjud bo‘ladi. Dialektik yondashuv milliy marosimlarni o‘zgarmas va qotib qolgan hodisa sifatida emas, balki ichki va tashqi omillar ta’sirida muttasil takomillashib boruvchi ijtimoiy-madaniy tizim sifatida o‘rganish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan

mazkur yondashuv milliy marosimlardagi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik, an’ana va innovatsiya, vorisiylik va yangilanish o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qilishning muhim nazariy asosi hisoblanadi.

Ma’lumki, dialektikaning asosiy tamoyillaridan biri har qanday voqelikning uzluksiz o‘zgarishda ekanligini e’tirof etishdan iborat. Bu qonuniyat milliy marosimlarga ham batamom taalluqlidir. Milliy marosimlar jamiyat hayotida yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar ta’sirida doimo yangilanib boradi. Shu sababli marosimlarning asl mazmuni va xarakterini aniqlash uchun ularni mazkur omillar ta’siridagi rivojlanish jarayonida tadqiq etish ilmiy-metodologik nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘ladi.

Dialektik yondashuvning muhim jihatlaridan biri tizimdagi barqaror va o‘zgaruvchan elementlar munosabatini tahlil qilish imkoniyati bilan bog‘liq. Avvalgi paragrafda ta’kidlanganidek, milliy marosimlarning barqaror jihati ularning mazmunida, o‘zgaruvchan jihati esa shakli va tashkil etilishi usullarida o‘z ifodasini topadi. Dialektik yondashuv ushbu ikki jihatni bir-biriga qarshi qo‘ymagan holda, o‘zaro bog‘liq aspektlar sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Dialektik yondashuv milliy marosimlardagi ichki ziddiyatlarni ham tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, bir tomondan, barcha davrlarda milliy marosimlarning an’anaviy shakllarini saqlab qolishga bo‘lgan intilish mavjud bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, zamona, davr talablarining o‘zi ularni ixchamlashtirish, soddalashtirish yoki muayyan jihatlarini o‘zgartirishni taqozo etadi. Aynan shu ziddiyat milliy marosimlarning muttasil ravishda o‘zgarib borishiga turtki beradi. Dialektik nuqtai nazardan qaraganda, milliy marosimlar ravnaqi ana shunday ziddiyatlarning hal qilinishi orqali sodir bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, dialektik yondashuv milliy marosimlardagi barqaror va o‘zgaruvchan jihatlarni, ularagi ziddiyatli tomonlarni xolis ochib berishga xizmat qiladi.

Milliy marosimlarning ijtimoiy funktsiyalarini tadqiq etishda *ijtimoiy-falsafiy yondashuvning* katta nazariy-metodologik ahamiyati bor. Bu yondashuv milliy marosimlarni an’analar doirasida amalga oshiriladigan shunchaki tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki jamiyatda kechayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq hodisa, o‘ziga xos ijtimoiy institut sifatida o‘rganish imkonini beradi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv yordamida milliy marosimlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni va roli, ularning ijtimoiy munosabatlar xarakteri bilan aloqadorligi, jamiyat hayotining turli jabhalariga ta’sirini tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki, ijtimoiy falsafa voqelikda yuz bergan har qanday ijtimoiy hodisani tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida talqin etadi. Binobarin, ijtimoiy-falsafiy yondashuvga ko‘ra, milliy marosimlar ham kishilik jamiyatining ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasi natijasida shakllangan ijtimoiy institutdir. Masalaning bu jihatiga o‘z vaqtida akademik E. Yusupov e’tiborni qaratgan edi. Uning “Inson kamolotining ma’naviy asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida jamiyatdagi an’ana va qadriyatlar ijtimoiy vorisiylik mexanizmi funksiyasini o‘tashi alohida qayd etib o‘tiladi. Ustozning ta’kidiga ko‘ra, an’ana va qadriyatlar avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni ta’minlaydi hamda jamiyat taraqqiyotidagi vorisiylikni saqlashga xizmat qiladi. Milliy marosimlar ham aynan ana shu vorisiylikni ta’minlovchi ijtimoiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy marosimlarning boshqa funktsiyalarini tahlil qilishda ham ijtimoiy-falsafiy yondashuvdan foydalanish mumkin. Mazkur yondashuv har qanday milliy marosim har qanday vaziyatda kishilarning turfa ehtiyojlarini qondirishga, ularning hayoti va faoliyatidagi muhim voqealarni tartibga solishga, asrlar mobaynida qaror topgan qadriyatlar va me’yorlar mavqeini mustahkamlashga, pirovardida esa jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy-madaniy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilishini anglash uchun zamin yaratadi.

Taniqli tadqiqotchi A. Ashirovning “O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari” nomli asarida milliy marosimlarning milliy ma’naviyat bilan aloqadorligi masalalariga e’tibor qaratiladi. Muallifning ta’kidiga ko‘ra, “insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar shu muazzam daraxtning shoxlari, xalq ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlari esa uning ildizidir”. Bundan uqib olish mumkinki, milliy marosimlar xalqning hayot haqidagi tasavvurlari, axloqiy me’yorlari va

qadriyatlar tizimini o‘zida aks ettiradi va millat ma’naviyatini takomil toptirishga xizmat qiladi. Masalan, mehmondo‘stlik va bag‘rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlik kabi ko‘plab qadriyatlar milliy marosimlar chog‘ida yaqqol namoyon bo‘larkan, ularda ishtirok etgan millat vakillarining ma’naviy qiyofasida albatta o‘z izini qoldiradi. Milliy marosimlarning turfa funktsiyayalari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tadqiq etilarkan, ana shu – “milliy marosim-milliy ma’naviyat” aloqadorligini tavsiflash imkoni yuzaga keladi.

Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy-falsafiy yondashuv milliy marosimlarning funksiyalari, milliy ma’naviyat bilan aloqadorligini chuqur anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv milliy marosimlarni shunchaki tadbirlar va rasm-rusumlar yig‘indisi sifatida emas, balki muhim ijtimoiy institut sifatida tahlil qilish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratadi.

Milliy marosimlar millat va uning har bir vakili hayoti va faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan ularning inson va millat turmushidagi o‘rnini tadqiq etishda *antropologik va etnologik yondashuvlarga* murojaat etmoq darkor bo‘ladi. Tarixiy yondashuv milliy marosimlarning evolyutsiyasiga, ijtimoiy-falsafiy yondashuv esa ularning jamiyat hayotidagi funksiyalari va ijtimoiy ahamiyatiga e’tiborni jamlasa, antropologik va etnologik yondashuv ularning inson va millat turmushidagi o‘rnini aniqlashga diqqatni qaratadi.

Inson hayoti, umuman olganda, turli bosqichlar, hayotiy voqealar va jarayonlar majmuidan iborat. Uning umri go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, yoshlik, yetuklik, keksalik, qarilik kabi muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Hayot davomida u oilada tarbiya ko‘radi, qayerdadir tahsil oladi, mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ladi, oila quradi, farzandli bo‘ladi, muayyan ijtimoiy rollarni bajaradi, jamiyatning boshqa a’zolari bilan turli munosabatlarga kirishadi. Qariyb barcha millat vakillari hayotida mazkur bosqichlar va voqealarning ibtidosi va intihosi muayyan marosimlar orqali ifodalanadi va rasmiylashtiriladi. Milliy marosimlarning inson hayotidagi o‘rni o‘z vaqtida fransuz etnologi Arnold van Gennep tomonidan yorqin ifodalab berilgan edi. Uning “O‘tish marosimlari” nomli asarida insoniyat hayotidagi muhim o‘zgarishlar va ijtimoiy maqom almashinuvlari tasodifiy

yoki stixiyali tarzda emas, balki maxsus marosimlar orqali tartibga solinishi asoslab beriladi. Van Gennepning fikricha, inson hayoti doimiy o‘zgarishlar, bir ijtimoiy maqom va mavqedan ikkinchisiga o‘tishlar zanjiridan iborat bo‘lib, ushbu o‘tish jarayonlari marosimlar vositasida qayd etiladi. Olimning ta’kidlashicha, inson tug‘ilgan paytidan boshlab turli ijtimoiy maqomlarga ega bo‘la boradi. Masalan, chaqaloqlikdan bolalikka, bolalikdan o‘smirlikka, o‘smirlikdan yetuklikka o‘tish, nikoh qurish, ota-ona bo‘lish yoki hayotdan ko‘z yumish kabi muhim voqealar insonning nafaqat biologik, balki ijtimoiy maqomini ham o‘zgartiradi. Mazkur o‘zgarishlar jamiyat tomonidan tan olinishi va qonuniylashtirilishi uchun maxsus marosimlar amalga oshirilishi lozim. Shu bois van Gennep marosimlarni insonning ijtimoiy hayotga kirishi va unda munosib o‘rin egallashini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida baholaydi. Antropologik yondashuv esa milliy marosimlarni ana shu hayotiy zanjirning muhim bo‘g‘ini, turli bosqich va voqealarning ifodachisi sifatida talqin qiladi.

Etnologik yondashuv esa milliy marosimlarni muayyan etnosning tarixi va turmush tarzi bilan uyg‘un holda o‘rganish imkonini beradi. Uning asosiy vazifasi milliy marosimlarda mujassamlashgan etnik xususiyatlarni, ularning kelib chiqishi va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Milliy marosim mohiyatining etnologik yondashuv asosidagi talqinining yorqin namunasini Mahmud Sattorning “O‘zbek udumlari” nomli asarida ko‘rish mumkin. Muallif milliy marosimlarni xalqning ma’naviy hayoti, tarixiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarining muhim ifodasi sifatida talqin qiladi. Mahmud Sattorning fikricha, har bir milliy marosim muayyan hayotiy ehtiyojlar zamirida vujudga keladi va uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib boradi. Shu sababli marosimlarda xalqning tabiat, inson va jamiyat haqidagi tasavvurlari, axloqiy qarashlari va turmush tarzi o‘z aksini topadi. Olim milliy marosimlarni xalq ma’naviyatining o‘ziga xos “tirik xotirasi” sifatida baholaydi. Chunki ular orqali ajdodlar tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Ko‘rinib turibdiki, antropologik va etnologik yondashuvlar milliy marosimlarni inson hayoti va etnik taraqqiyot bilan bog‘liq holda tadqiq etishning muhim nazariy-metodologik vositalaridan biri hisoblanadi. Ular

milliy marosimlarning inson va millat hayotidagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Milliy marosimlarning milliy madaniyatdagi o‘rnini aniqlashda esa *kulturologik yondashuv* qo‘llanilmog‘i lozim. Bu yondashuv milliy marosimlarni milliy madaniyatning tarkibiy qismi, madaniy merosning muhim ko‘rinishi sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan har qanday marosim muayyan madaniyatning turfa atributlarini o‘zida mujassamlashtirgan madaniy fenomen hisoblanadi. Ularni tahlil qilish orqali xalq madaniy hayotining tarixiy aspektlarini anglab etish mumkin.

Rus faylasufi va madaniyatshunosi M. Kagan madaniyatni insoniyat tomonidan yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga o‘tadigan qadriyatlar tizimi sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, madaniyatning muhim xususiyati uning vorisiylik asosidagi ravnaqida namoyon bo‘ladi. Milliy marosimlar milliy madaniyat tarkibida ana shu madaniy vorisiylikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, har qanday marosim muayyan ramzlar va belgilar yordamida xalq madaniy xotirasini ifodalab beradi. Milliy marosimlarda mujassam bo‘lgan mazkur madaniy ramz va belgilarni tahlil qilish kulturologik yondashuvning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kulturologik yondashuv milliy marosimlar transformatsiyasini tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Madaniyat doimiy harakatda va yangilanish jarayonida bo‘lgan ijtimoiy fenomendir. Uning ajralmas qismi bo‘lgan milliy marosimlar ham zamon talablari ta’sirida o‘zgara boradi. Biroq tarixiy jarayonlar ta’sirida naqadar o‘zgarmasin, ularning asosiy madaniy mazmuni saqlanib qolaveradi. Kulturologik yondashuv asosida milliy marosimlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali ular evrilishining umumiy tendensiyalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, kulturologik yondashuv milliy marosimlarni millat va elat madaniyatining muhim tarkibiy qismi, nomoddiy madaniy meros shakli, madaniy ramzlarning tashuvchisi sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Mazkur yondashuv milliy marosimlarning madaniy mohiyatini, ularning madaniy vorisiylikni ta’minlashdagi ahamiyatini hamda milliy

madaniyat tizimidagi o‘rnini chuqur anglash uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratadi.

Marosim har qanday millat ma’naviyatining ajralmas qismidir. O‘z milliy marosimlariga ega bo‘lmagan millat va elat bo‘lishi mumkin emas. Ayni paytda shuni ham ta’kidlamoq darkorki, har qanday millatning marosimlari uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot davomida turli xil, bir-biriga o‘xshamagan ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Shu boisdan millatlarning marosimlari o‘z mazmuni, tarkibiy tuzilishi jihatidan bir-biridan ancha-muncha farqlanadi. Biroq millat va elatlar marosimlarida umumiy va o‘xshash jihatlar ham yo‘q emas. Milliy marosimlardagi ana shu umumiylik va xususiylikni aniqlash va tavsiflash uchun *qiyosiy tahlil uslubiga* murojaat etmoq o‘rinli bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil uslubining nazariy-metodoogik ahamiyati shundaki, u muayyan milliy marosimni alohida tarzda emas, balki boshqa milliy madaniyatlarda mavjud bo‘lgan o‘xshash hodisalar bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganish imkonini yaratadi. Bunday yondashuvning ahamiyati bag‘oyat katta. Chunki aynan ana shunday yo‘l bilan milliy marosimlarning umuminsoniy va milliy jihatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, nikoh bilan bog‘liq marosimlar insoniyat tarixida eng keng tarqalgan va eng barqaror marosim turlaridan biri hisoblanadi. Ular dunyoning deyarli barcha milliy madaniyatlarida uchraydi. Bu holat nikohning muhim ijtimoiy, madaniy va personal ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Nikoh orqali nafaqat ikki insonning oilaviy munosabatlari rasmiylashtiriladi, balki avlodlar davomiyligi, oila instituti barqarorligi va muayyan ijtimoiy munosabatlarning tartibliligi ta’minlanadi. Shu sababli turli xalqlar tarixida nikoh munosabatlarini marosimlar vositasida rasmiylashtirish amaliyoti keng shakllangan. Biroq nikoh marosimlarining mavjudligi barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lsada, ularning mazmuni, tashkil etilish tartibi, davomiyligi, ramzlari, ishtirokchilari va rasm-rusumlari bir-birdan farqlanadi. Ayrim xalqlarda nikoh marosimlari asosan diniy udumlarga tayansa, boshqa xalqlarda milliy an’analar va mahalliy urf-odatlar ustunlik qiladi. Shuningdek, nikoh munosabatlarini ifodalovchi ramzlar, liboslar, marosim davomida bajariladigan harakatlar va tadbirlar ham bir-biridan farq qiladi. Qiyosiy tahlil uslubi aynan shu umumiylik va

oʻziga xoslikni aniqlash imkonini beradi. Mazkur uslub yordamida turli xalqlar nikoh marosimlarining umuminsoniy jihatlari, ya’ni ularning oila qurishni rasmiylashtirish, yangi ijtimoiy maqomni belgilash va avlodlar davomiyligini ta’minlash kabi funksiyalari ochib beriladi. Shu bilan birga, har bir millat madaniyatiga xos boʻlgan ramzlar, urf-odatlar, qadriyatlar va amallarning oʻziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Natijada nikoh marosimlarida namoyon boʻladigan umuminsoniy va milliy jihatlarning oʻzaro nisbati ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.

Milliy marosimlarni tadqiq etishda qiyosiy tahlil ikki asosiy yoʻnalishda qoʻllanilishi mumkin. Birinchi yoʻnalish sinxron qiyosiy tahlil boʻlib, u bir vaqtning oʻzida turli millatlarga xos boʻlgan marosimlar mazmunini taqqoslashni nazarda tutadi. Masalan, oʻzbek, qozoq, qirgʻiz va tojik xalqlarining nikoh marosimlarini qiyosiy oʻrganish orqali ularning umumiy va xususiy aspektlarini aniqlash mumkin. Ikkinchi yoʻnalish diaxron qiyosiy tahlil hisoblanadi. U bir millatga xos boʻlgan aniq bir marosimning turli tarixiy davrlardagi mazmuni va ijrosini qiyosiy oʻrganishni nazarda tutadi. Bunday tahlil orqali milliy marosimlarning qanday oʻzgargani, qaysi elementlari saqlanib qolgani va qaysilari yangilanganini aniqlash mumkin boʻladi.

Koʻrinib turibdiki, qiyosiy tahlil uslubi milliy marosimlarni tadqiq etishning muhim metodologik vositalaridan biridir. Uning yordamida turli millatlarga va tarixiy davrlarga mansub marosimlarni taqqoslash orqali ularning umumiy va ayrim xususiyatlarini aniqlash, ifodalab berish mumkin boʻladi.

Milliy marosimlarning mazmuni va xarakteridagi oʻzgarishlarni har tomonlama va xolis tadqiq etish uchun turli nazariy-metodologik yondashuvlar bilan bir qatorda koʻplab *empirik uslublardan* ham foydalanish lozim boʻladi. Masalan, ularning tabiatini oʻrganishda kuzatish, intervyu, soʻrov-noma, hujjatlar tahlili, kontent-tahlil kabi uslublar qoʻl keladi. Mazkur uslublar milliy marosimlarning bugungi holati, ularga millat vakillarining munosabati, ularning mazmunida roʻy berayotgan oʻzgarishlar haqidagi ma’lumotlarni jamlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Kuzatish milliy marosimlardagi oʻzgarishlarni tadqiq etishda eng samarali va ishonchli empirik uslublardan biri sifatida oʻz ahamiyatini

saqlab qolmoqda. Mazkur uslub tadqiqotchiga o‘rganilayotgan voqelik bilan bevosita aloqa o‘rnatish, marosimlarning sodir bo‘lishi jarayonini kuzatish hamda ular haqida ishonarli empirik ma’lumotlarni to‘plash imkonini beradi. Uslubning afzalligi shundaki, u tadqiqotchiga muayyan marosimning bevosita ishtirokchisi yoki guvohi bo‘lish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa marosimning haqiqiy mazmunini, ishtirokchilarning sa’y-harakatlarini va o‘zaro munosabatlarini, marosim jarayonida qo‘llanilgan ramzlar va rasm-rusumlarni chuqurroq anglash uchun shart-sharoit yaratadi. Ayniqsa, milliy marosimlarning zamonaviy ko‘rinishlarida paydo bo‘layotgan yangi elementlar, yangi ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida yuzaga kelayotgan amaliyotlarni aniqlashda kuzatish uslubi beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu uslubga odatda turli etnograflar murojaat etishni ma’qul ko‘radilar. Masalan, mashhur antropolog B. Malinovskiy Trobriand orollaridagi ko‘p yillik dala tadqiqotlarida, A. Redkliff-Braun Avstraliya va Andaman orollaridagi izlanishlarida, o‘zbek etnografi A. Ashirov o‘zbek xalqining qadimiy e’tiqodlari va marosimlarini tadqiq etish jarayonida ushbu uslubdan keng foydalangan edi.

Intervyu va so‘rovnoma uslublari ham milliy marosimlarning zamonaviy ko‘rinishlarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu uslublar texnik ijro nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin bo‘lsada, turlicha vazifalarni bajarishda qo‘llaniladi. Masalan, intervyu uslubi odatda milliy marosimlarning bevosita tashkilotchilari va ishtirokchilari, mahalla faollari va etnograflarga nisbatan ishlatiladi. Intervyuer mazkur suhbatlar davomida ularning milliy marosimlar mazmuni va ahamiyatiga doir fikrlarini bilishga intiladi. So‘rovnoma uslubi esa odatda keng jamoatchilikka nisbatan qo‘llaniladi hamda aholining milliy marosimlarga munosabatini, marosimlar mazmuni va xarakterida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlashni maqsad qiladi.

Milliy marosimlarni tadqiq etishda kontent-tahlil uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, ko‘plab milliy marosimlar gazeta va jurnallarda, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarda, internet-nashrlar kontentlarida, ijtimoiy tarmoqlardagi postlarda, arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlarda keng yoritiladi. Mazkur materiallarda nafaqat milliy marosimlarning o‘tkazilgani haqidagi ma’lumotlar, balki unga guvoh bo‘lgan shaxslarning

munsobatlari ham o‘z ifodasini topadi. Binobarin, tadqiqotchi ushbu kontentlarni mufassal tahlil qilish orqali ham muhim fakt va argumentlarni qo‘lga kiritishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Milliy marosimlar mazmuni va mohiyatini o‘rganishda mamlakat va xorij olimlarining e’tiborga sazovor ilmiy ishlari mustahkam nazariy asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, milliy marosimlar mazmuni va tarkibini o‘rganishda - tizimli yondashuv, genezisi va shakllanishi jarayonini o‘rganishda - tarixiy yondashuv, o‘zgarishi qonuniyatlarini o‘rganishda – dialektik yondashuv, ijtimoiy funktsiyalarini o‘rganishda ijtimoiy-falsafiy yondashuv, inson va millat turmushidagi o‘rnini o‘rganishda - antropologik va etnologik yondashuv, milliy madaniyatdagi o‘rnini o‘rganishda - kulturologik yondashuv, turli milliy marosimlardagi umumiylik va xususiylikni o‘rganishda - qiyosiy tahlil uslubi, tadqiqot uchun zaruriy ma’lumotlarni to‘plashda esa empirik uslublar metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalari

1. Milliy marosim millatning o‘z milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini, madaniy merosini, tarixiy xotirasini ifoda etish maqsadida amalga oshirgan tadbirlari majmuidir. Uning tarkibi marosim g‘oyaviy mazmuni, sub’ektlari, marosimiy harakatlar va amallar, timsollar va ramzlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va vositalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur tarkibiy elementlarning ayrimlari barqaror xarakterga ega bo‘lsa, boshqalari tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida yuzaga kelgan turfa omillar ta’sirida o‘zgara boradi.
2. Milliy marosimlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. U qadimgi davrlarda - jamoaviy birlikni ta’minlash, o‘rta asrlarda - diniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, Yangi zamonda - milliy davlatlarni shakllantirish, sanoat ravnaqini ta’minlash, iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, urbanizatsiya jarayonlarini maqbullashtirish omili bo‘lib xizmat qilgan. Yigirmanchi asr tendensiyalari ta’sirida zamonaviylashgan milliy marosimlar iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga

qudratli ta’sir ko‘rsatuvchi tizimli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘la boshladi.

3. Zamonaviy milliy marosimlar murakkab ijtimoiy institut bo‘lgani bois ularning mazmuni va mohiyatini o‘rganishda mamlakat va xorij olimlarining e’tiborga sazovor ilmiy ishlaridan tarkib topgan nazariy asosga, tizimli, tarixiy, dialektik, ijtimoiy-falsafiy, antropologik, etnologik va kulturologik yondashuvlarni, qiyosiy tahlil uslubini, empirik uslublar majmuini o‘z ichiga olgan metodologik asosga tayanmoq darkor bo‘ladi.

II-BOB. O‘ZBEK MILLIY MAROSIMLARI TADRIJINING TARIXIY BOSQICHLARI

Bobda o‘zbek milliy marosimlari tadrijining tarixiy bosqichlari tasniflanadi. Ularning shakllanishida zardushtiylik va islom madaniyatining tutgan o‘rni tadqiq etiladi. Qadimgi Markaziy Osiyo aholisining diniy-mifologik tasavvurlari, zardushtiylik marosimlarining asosiy xusu-siyatlari hamda ayrim elementlari keyingi milliy marosimlarda ham saqlanib qolganligi qayd etiladi. Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelishi natijasida milliy marosimlar mazmunida yuz bergan o‘zgarishlar, islomiy qadriyatlar va milliy marosimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi jarayoni yoritiladi.

Bobda Sovet davrida milliy marosimlar mazmuni va shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Sovet davlatining milliy va diniy siyosati, milliy marosimlarni mafkuraviy jihatdan qayta qurishga qaratilgan chora-tadbirlari, marosimlarning sovetlashtirilishi oqibatlari o‘rganiladi. Shu bilan birga, Sovet davrida ham milliy marosimlar xalq turmushida saqlanib qolgani, ularning aksariyat qismi norasmiy shakllarda davom etgani asoslanadi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlarni tiklash va takomil toptirish choralari davlat madaniy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirildi. Bobda mazkur choralarning maqsadi va mazmuni, davlat va jamoat institutlarining milliy marosimlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlari natijalari umumlashtiriladi.

II.1. Zardushtiylik va islom madaniyati ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar

Zamonaviy jamiyatda milliy marosimlar turfa jarayonlarga sezilarli ta’sir o‘tkazishga qodir bo‘lgan, murakkab tarkibiy tuzilishga ega ijtimoiy institutga aylanganini qayd etib o‘tdik. Biroq mazkur ijtimoiy institut-ning bugungi qudratini anglab olish va tavsiflash uchun eng avvalo uning tarixiy taraqqiyot davomidagi tadriji qanday omillar ta’sirida sodir bo‘lganini, bu omillar ularning mazmuni va shaklida qanday iz qoldirganini aniqlamoq kerak bo‘ladi.

Milliy marosimlar tadriji tavsifi mazkur jarayonni turli davrlarga tasniflashdan boshlanadi. Ijtimoiy falsafa va etnografiyada bu borada turli

metodologik yondashuvlar mavjud. Masalan, ayrim mualliflar milliy marosimlarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini ularning mazmuniga ta’sir ko‘rsatgan diniy va mafkuraviy omillarga qarab tasniflashni ma’qul deb hisoblaydilar. Mazkur mezonga asoslangan tasnifda milliy marosimlar tarixi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: a) islomgacha bo‘lgan marosimlar; b) zardo‘shtiylik ta’sirida shakllangan marosimlar; v) islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlar; g) Sovet mafkurasi ta’sirida o‘zgargan marosimlar; d) mustaqillik davri milliy marosimlari. Bunday yondashuvni juz’an professor U. Qoraboyevning “Odatnoma” nomli asarida ko‘rish mumkin.

Boshqa bir guruh olimlar esa milliy marosimlar tadrijini ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlariga mutanosib ravishda tasniflashni o‘rinli deb biladilar. Mazkur mezonga asoslangan tasnif quyidagi bosqichlarga ega: a) ibtidoiy jamoa davri marosimlari; b) qadimgi davlatchilik davri marosimlari; v) o‘rta asrlar davri marosimlari; g) Yangi zamon marosimlari; d) Sovet davri marosimlari; e) mustaqillik davri marosimlari. Bunday yondashuvni o‘z asarida qisman Yu. Bromvey ishlatadi.

Milliy marosimlarning tadriji jarayonini boshqa mezonlar asosida davrlarga ajratishni taklif qilgan mualliflar ham yo‘q emas. Masalan, K. M. Bell o‘z vaqtida milliy marosimlarning shakllanishi jarayonini ularning tashkil etilishi shakliga qarab bosqichlarga tasniflashni tavsiya qilgandi. Uning fikriga ko‘ra, milliy marosimlar tadriji quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: a) jamoaviy tarzda tashkil etilgan marosimlar davri; b) diniy nuqtai nazardan tashkil etilgan marosimlar davri; v) davlat tomonidan tartibga solingan marosimlar davri; g) globallashuv ta’sirida shakllanayotgan marosimlar davri.

Bizning fikrimizcha, milliy marosimlar tadrijini davrlarga ajratishda yagona mezon bilan cheklanib bo‘lmaydi. Chunki marosimlar jamiyat hayotining turli sohalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-madaniy hodisadir. Shu sababli ularni tasniflashda bir nechta metodologik asoslarga tayanish mumkin. Shuni inobatga olgan holda milliy marosimlar tadrijini diniy-mafkuraviy va ijtimoiy-tarixiy mezonlarni uyg‘unlashtirgan holda quyidagi bosqichlarga ajratishni ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Zardushtiylik ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar davri.
2. Islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlar davri.
3. Sovet hokimiyati yillarida mazmunan va shaklan o‘zgargan milliy marosimlar davri.
4. Mustaqillik yillarida tiklangan va rivojlangan milliy marosimlar davri.

O‘zbek milliy marosimlarining tarixiy ildizlarini anglash uchun dastlab qadimgi Markaziy Osiyo aholisining diniy tasavvurlari va marosim bilan bog‘liq madaniyatining shakllanishi jarayonini tahlil qilish zarur bo‘ladi. Har qanday milliy marosim muayyan tarixiy shart-sharoitlar, kishilarning tabiat, jamiyat va inson haqidagi qarashlari ta’sirida vujudga keladi. Qadimgi Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarning dastlabki diniy tasavvurlari tabiat kuchlarini ilohiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan. Insonning tabiat oldidagi ojizligi, iqlim va tabiiy hodisalarga kuchli qaramligi natijasida quyosh, oy,y er, suv, olov va shamol kabi tabiat unsurlari muqaddaslashtirilgan. Bu holat esa turli marosim va rasm-rusumlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Kishilar muayyan marosimlar orqali tabiat kuchlarining homiyligini qozonishga, ofatlarning oldini olishga yoki hosildorlikni ta’minlashga harakat qilganlar. Tarixchilar va etnologlarning ta’kidlashicha, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida animizm, totemizm va shomonlik bilan bog‘liq tasavvurlar muhim o‘rin tutgan. Animizmga ko‘ra, tabiatdagi har bir narsa va hodisa muayyan ruhga ega deb hisoblangan. Shu sababli daraxtlar, buloqlar, tog‘lar va boshqa tabiiy ob’ektlar bilan bog‘liq turli marosimlar shakllangan. Totemistik qarashlar esa ay-rim hayvonlar yoki qushlarni muqaddas deb bilishga olib kelgan. Shomonlik tasavvurlar asosida inson muayyan marosimiy harakatlar orqali voqelikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin, degan ishonch vujudga kelgan.

Qadimgi Markaziy Osiyoda marosim bilan bog‘liq madaniyatning shakllanishida jamoaviy turmush tarzi muhim rol o‘ynagan. Ibtidoiy va ilk sinfiy jamiyatlarda kishilarning mehnat faoliyati, ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik ishlari jamoaviy tarzda amalga oshirilardi. Jamoaviy mehnat va o‘zaro hamkorlikning hayotiy zaruratga aylanishi sharofati o‘laroq kishilarni birlashtiruvchi, ularni mushtarak maqsadlar sari yo‘naltiruvchi sa’y-harakatlar marosimlar vujudga kelgan. Bu marosimlar jamoa hayoti

uchun o‘ta muhim rol o‘ynagan: aynan shu tadbirlar kishilarga o‘zlarini umumiy manfaatlarga ega jamoa sifatida his qilish imkonini taqdim etgan. Shu sababli dastlabki marosimlar ko‘proq umumjamoaviy xarakterga ega bo‘lib, butun jamoa farovonligi va xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni bajargan.

Keyinchalik ko‘plab qadimiy marosimlar zardo‘shtiylik ta’limoti ta’sirida yangi mazmun kasb etgan. Ma’lumki, “zardushtiylik (otashparastlik, zoroastrizm) – mil.av. II–I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda, asosan quyi Amudaryo hududlari va Marg‘iyonada vujudga kelgan yakkaxudolikni targ‘ib etadigan din. U vahiy orqali e’lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysi, insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko‘p ta’sir o‘tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi”. Ilmiy manbalarda zardushtiylikning asosiy g‘oyalari Avestoda bayon qilingani, unda olam ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi doimiy kurash tarzida tavsiflangani, mazkur ta’limot markazida “ezgu fikr”, “ezgu so‘z” va “ezgu amal” tamoyillari turishi batafsil ochib berilgani bois masalaning bu jihatiga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, Markaziy Osiyo hududida bir necha asrlar davomida hukmron bo‘lgan mazkur diniy-falsafiy ta’limot mintaqa xalqlari dunyoqarashi va hayotiy faoliyatiga, shu jumladan ular o‘tkazadigan marosimlar mazmuni va xarakteriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Chunki “Avesto”da ajdodlarimizning falsafiy qarashlari, orzu-o‘ylari, e’tiqodi aks etishi bilan bir qatorda odatlar, marosimlar va bayramlarga ham alohida e’tibor berilgan. Ayniqsa, uning Videvdat qismi bunday ma’lumotlarga juda boy. Unda ozodalik, poklik rusumlari, o‘likni erga ko‘mib, uni harom qilgan odamni yoki va’dabozni jazolash, davolash udumlari, it boqish va ularni ehtiyot qilish, ayollar bilan oyning qaysi kunlari munosabat-da bo‘lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, xo‘rozlar bilan bog‘liq irimlar, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash, odamlarni balo-ofatlardan saqlash va boshqa ko‘plab odatlar bayon etilgan”. Zardushtiylik ta’limoti mintaqa bo‘ylab yoyilgani, davr kishilari ongu-shuuri va

faoliyatini qamragani sayin, bir tomondan, avvalgi davrlarda shakllangan koʻplab marosimlar yangi diniy-falsafiy mazmun bilan boyigan, ularning maqsadi, vazifalari va amalga oshirilish tartibi zardushtiylik ta’limotining asosiy gʻoyalariga muvofiqlashgan. Ikkinchi tomondan esa, xalq madaniyatining oʻzi yangi marosimlar bilan toʻlishgan. Shu tariqa marosimlar nafaqat muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki zardoʻshtiylik dunyoqarashi va qadriyatlarini aholi ongiga singdiruvchi muhim mexanizmga aylangan.

Zardushtiylik ta’limoti yoyila boshlaganidan soʻng ayniqsa ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash, tabiat unsurlarining muqaddasligi haqidagi tasavvurlar marosimlar mazmunidan chuqur joy ola boshlagan. Marosimlarni oʻtkazishdan koʻzlangan maqsadlar ham koʻp jihatdan kishilarning ezgu kuchlar tomonida turishi, hayotini poklik va yaxshilik tamoyillari asosida tashkil etishi gʻoyalari bilan bogʻlangan. Shu sababli marosimlar davomida bajariladigan amallar, aytiladigan duo va tilaklar, qoʻllaniladigan buyumlar muayyan diniy-ramziy ma’no kasb etgan.

Zardushtiylik ta’limotining marosimlar mazmuni va xarakteriga ta’siri olov, suv, yer va havo kabi unsurlarning muqaddaslashtirilishi bilan bogʻliq tasavvurlarda yaqqol namoyon boʻladi. Zardushtiylikda olov ezgulik, poklik va hayot ramzi hisoblangani yaxshi ma’lum. Olov Axura Mazdaning nurini ifodalovchi muqaddas unsur sifatida e’zozlangan. Zardushtiylar “olovni Quyoshning Yerdagi shakli (zarrachasi) deb, unga sajda qilishgan. Olov kishilarni barcha gunohlardan poklovchi sehrli kuch deb bilishgan va unga bagʻishlab maxsus otashxonalar qurishgan”. Zardushtiy ibodatxonalarda muqaddas olovning doimo yonib turgani, koʻplab marosimlarning aynan olov vositasida oʻtkazilgani sababi ham shunda. Keyinchalik ushbu tasavvurlarning ayrim jihatlari xalq marosimlariga ham koʻchib oʻtgan. Masalan, xalq orasida bahor bayramlari davomida gulxan yoqish, uning atrofida yigʻinlar oʻtkazish, olovni baraka va poklik ramzi sifatida ulugʻlash udumlari paydo boʻlgan.

Suv ham zardoʻshtiylikda hayotni yaratuvchi va davom ettiruvchi manba, muqaddas ne’mat sifatida baholangan. “Avesto”da suvni asrash, undan oqilona foydalanish, uni ehtirom qilish, tejab-tergash sarflash, ifloslantirmaslik haqida koʻplab koʻrsatmalar uchraydi. Suv poklanish,

hayotning davomiyligi omili, baraka va rizq-roʻz timsoli, hayotbaxsh va shifobaxsh manba hisoblangan. Zardushtiylikning mazkur gʻoyalari xalq orasida suvdan barakali foydalanish, unga ehtirom koʻrsatish, suvni ezgulik ramzi sifatida ulugʻlash bilan bogʻliq marosimlarning shakllanishiga asos boʻlgan.

Zardushtiylikda yer muqaddas sanalib, uni ifloslantirish gunoh hisoblangan. Yer insonni boquvchi, hayot uchun zarur ne'matlarni beruvchi manba sifatida qaralgan. Mazkur gʻoya dehqonchilik madaniyati rivojlangan Markaziy Osiyo xalqlarining yerga ehtiromini yanada oshirdi. Bu qarashlar ekin ekish va hosil yigʻish bilan bogʻliq koʻplab marosimlarda ham oʻz ifodasini topdi.

Zardushtiylikda havo hayotning muhim sharti sifatida muqaddaslashtirilgan. Ta'limotda havoning musaffoligini saqlash muhim diniy burchlardan biri deya e'tirof etilgan. Shu bois zardushtiylar havoni ifloslantiruvchi har qanday hatti-harakatni qoralaganlar. Tabiatning mazkur unsurlariga nisbatan ehtirom keyinchalik xalq madaniyati va marosimlarida ham oʻz ifodasini topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari marosimlari turkumida azal-azaldan muayyan mavsum va taqvim bilan bogʻliq marosimlar alohida oʻrin tutgan. Zardushtiylik davriga kelib mazkur marosimlar ham shu ta'limotga xos gʻoyaviy mazmun bilan boyib, yil fasllari, tabiatning yangilanishi va inson hayotining tabiiy sikllarini ifoda etuvchi muhim tadbirlarga aylangan. Masalan, zardushtiylik ta'limotida tabiat va inson hayoti oʻrtasidagi uygʻunlik gʻoyasi muhim oʻrin tutgan. Shu sababli yilning turli fasllari, quyosh harakati, kun va tunning oʻzgarishi, ekin ekish va hosil yigʻish kabi jarayonlar muayyan ma-rosimlar orqali nishonlangan. Bunday marosimlar nafaqat vaqtning muayyan bosqichini belgilab bergan, balki kishilarning tabiat bilan munosabatini tartibga solish, ularda ezgulik, mehnatsevarlik va hayotga hurmat tuygʻularini mustahkamlash vazifasini ham bajargan. "Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari,- deb yozadi U. Qoraboyev,- koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan. Ajdodlarimiz borliqdagi muhim toʻrt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash borasida, shular bilan bogʻliq toʻrt ulugʻ kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan, tabiat uygʻonishi, kun-tun

tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida “Navroʻz”, yozda - quyosh tik boʻlib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga koʻtarilib, suvga ehtiyoj kuchayganida suvga bagʻishlangan tadbir “Angom” (“Vaxshangom”), kuzda – kun-tun tenglashib, yilning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yigʻib olgan vaqtda “Mehrjon” (“Chiri-ruji”, “Nimsarda”), qishda - tun eng uzoq va kun qisqa boʻlib, sovuq avjiga chiqqanida (“qishki chilla”), isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda “Sada” – “Olov bayrami” (gulxanlarda isinish) kabi marosimlarni uyushtirishgan”.

Mazkur marosimlar orasida Navroʻz munosabati bilan oʻtkaziladigan marosimlar alohida oʻrin tutgani bois unga alohida toʻxtalib oʻtmoq joiz. Ma’lumki, Navroʻz Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy an’analaridan biri hisoblanadi. Ushbu an’ana mintaqada yashagan xalqlar hayotida ming-ming yillar davomida muhim oʻrin tutib kelgan. “Koʻplab tarixiy manbalarda Navroʻzning Sharq xalqlari hayotida tutgan oʻrni haqida bir qator qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Umar Xayyomning “Navroʻznoma”, Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarlari bunga yaqqol misol boʻladi”.

Markaziy Osiyo xalqlari Navroʻz munosabati bilan koʻplab marosimlarni oʻtkazishni odat qilganlar. Jumladan,“Navroʻz bayramida ommaviy xalq sayillari uyushtirilgan, yangi ungan koʻkatlardan tansiq taomlar pishirilgan, ba’zi ekinlarni ekish boshlangan. Dastlab, Navroʻz bayramini oʻtkazish oʻtroq dehqonlarda rasm boʻlgan, keyinchalik ular orqali yarim oʻtroq va koʻch-manchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. Asrlar oʻtishi bilan turli xalqlarda Navroʻz bayramini oʻtkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan”.

Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyo xalqlarining nafaqat mavsum va taqvim bilan bogʻliq marosimlariga, balki oilaviy hayot bilan bogʻliq marosimlariga ham sezilarli ta’sir koʻrsatgan. Oila mudom jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi vazifasini oʻtab kelgani bois inson hayotining muhim bosqichlari - tugʻilish, balogʻat, nikoh va vafot bilan bogʻliq marosimlar qadimdan alohida ahamiyat kasb etgan. Zardushtiylik davrida mazkur

marosimlar shu diniy ta’limotga xos axloqiy me’yorlar bilan boyidi. Chunonchi, zardushtiylikda oila qurish ezgulik kuchlarining g‘alabasiga xizmat qiluvchi amallardan biri hisoblangan. Shu sababli nikoh bilan bog‘liq marosimlarga katta ahamiyat berilgan va ular muayyan diniy qoidalar asosida amalga oshirilgan.Bu marosimlarni keng jamoatchilik ishtirokida o‘tkazish, ularni turli ramziy harakatlar bilan uyg‘unlashtirish ham aynan o‘sha davrdan iz olgan. Mazkur tasavvurlarning ayrim elementlari o‘zbek xalqining nikoh bilan bog‘liq marosimlarida hanuz saqlanib qolmoqda.

Zardushtiylik an’analari ta’siri farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlarda ham kuzatiladi. Qadimgi jamiyatlarda farzandning dunyoga kelishi nafaqat oila, balki butun jamoa uchun muhim voqea sifatida qabul qilingan. Shu sababli chaqaloqni turli yomon kuchlardan muhofaza qilish, uning sog‘lom o‘sishi va baxtli hayot kechirishini ta’minlash maqsadida turli marosimlar amalga oshirilgan. Bunday udumlar tarkibida poklanish, ezgu tilak bildirish va muhofaza ramzlaridan foydalanish kabi elementlar muhim o‘rin tutgan. Zardushtiylik ta’siri inson hayotining so‘nggi bosqichi bilan bog‘liq marosimlarda ham kuzatiladi. Ma’lumki, mazkur ta’limotda o‘lim va dafn bilan bog‘liq maxsus qoidalar mavjud bo‘lgan. Ularning asosiy maqsadi muqaddas deb hisoblangan tabiat unsurlarini nopoklikdan asrashdan iborat edi. Garchi keyinchalik ushbu marosimlarning ko‘pchiligi islom madaniyati ta’sirida o‘zgargan bo‘lsada, ularning ayrim ramziy jihatlari va tasavvurlari xalq xotirasida bugun ham ma’lum darajada saqlanib qolgan.

VII–VIII asrlarda arablar tomonidan Markaziy Osiyoning zabt etilishi va islom dinining mintaqa bo‘ylab keng tarqalishi mahalliy xalqlar hayotida chuqur tarixiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o‘zgarishlar jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti bilan bir qatorda urf-odatlar, an’analar hamda marosimlar tizimiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada asrlar davomida shakllangan mahalliy marosimlar yangi diniy qadriyatlar va me’yorlar ta’siri ostida asta-sekin qayta shakllana boshladi. Biroq mazkur jarayonni bir vaqtning o‘zida va keskin amalga oshgan hodisa sifatida tasavvur qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Islom dinining mintaqa xalqlari hayotiga kirib borishi uzoq vaqt davom etgan murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, u bir

necha avlodlar faoliyati davomida kechgan. Dastlab aholining muayyan qismi yangi dinni qabul qilgan bo‘lsa, keyinchalik islom qadriyatlari jamiyat hayotining turli sohalariga bosqichma-bosqich singib borgan. Shu tariqa diniy e’tiqodlar bilan birga turmush tarzi, axloqiy me’yorlar va marosimlar amaliyoti ham tadrijiy ravishda o‘zgargan. Mazkur jarayonning yana bir muhim xususiyati shundaki, transformatsiyalar mintaqa bo‘ylab bir xil sur’atda kechmagan. Ayrim hududlarda islomiy ta’sir tezroq kuchaygan bo‘lsa, boshqa joylarda mahalliy marosimlar uzoq vaqt davomida o‘z mavqeini saq-lab qolgan.

Markaziy Osiyoda islom madaniyatining keng yoyilishi birinchi navbatda masjidlar, madrasalar va boshqa diniy-ma’rifiy markazlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Xususan, “arablar 633 yili Balx shahriga kelganda bu erda yuzdan ortiq buddaviy ta’lim maskanlari (navbahor yoki nava vixara) bo‘lgan. Buxoro va Termizdagi ta’lim maskanlari islomiylashtirilgan holda shu joylarda madrasalar tashkil etilgan”. O‘ninchi asrga kelib, “Samarqandda 250 masjid va 40 madrasa, Buxoroda esa 400 masjid va 30 madrasa bo‘lgan. Madrasalarni boshqarish, ta’lim jarayoni va xo‘jalik ishlariga shayxulislom va qozilar rahbarlik qilishgan”. Bu muassasalar aholi orasida diniy bilimlarni tarqatish bilan ham mashg‘ul bo‘ldilar. Oqibatda aholining nafaqat tabiat, jamiyat va inson borlig‘i haqidagi tasavvurlari, balki ularning turfa marosimlarga munosabati ham o‘zgardi. Aksar marosimlar diniy ulamolar rahnamoligida va ishtirokida o‘tkazila boshlandi. Shu tariqa mahalliy marosimlar mazmuni islomga xos g‘oyalar va qadriyatlar, amallar va tadbirlar bilan boyidi.

Islom tsivilizatsiyasi ta’sirida asrlar davomida hukm surib kelgan mahalliy marosimlarning ma’naviy negizlari ham o‘zgardi. Ilgari mavjud bo‘lgan ko‘plab marosimlar butunlay yo‘qolib ketmadi, balki yangi diniy muhit ta’sirida qayta talqin qilindi. Avvalgi davrlarda marosimlar mazmuni mifologik tasavvurlar va mahalliy diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ularning mazmunida tavhid g‘oyasi, Allohga iymon, taqvo, savob va gunoh haqidagi tasavvurlar muhim o‘rin egallay boshladi. Natijada marosimlarning ijtimoiy ahamiyati saqlanib qolgan holda ularning ma’naviy-diniy asoslari yangicha mazmun kasb etdi. Shuningdek, marosimlarning tashkil etilishi tartibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi.

Ayniqsa, nikoh, xatna va janoza marosimlari islom dini ta’sirida qayta shakllanib, ularning diniy-axloqiy negizlari mustahkamlandi. Avvalgi davrlarda mazkur marosimlar mahalliy e’tiqod va tasavvurlar ta’sirida amalga oshirilgan bo‘lsa, islomlashuv jarayoni davomida ularning mazmuniga Qur’on va hadislarda ifoda etilgan g‘oyalar tobora chuqurroq singib bordi. Xususan, nikoh marosimi islom madaniyati ta’sirida ayniqsa jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Ma’lumki, islomda oila inson hayotining muhim tayanchi, nikoh esa halol va barqaror ijtimoiy munosabatlarning asosi deb qaraladi. “Dinimiz ta’limotining asosi bo‘lmish Qur’oni karimda oila va unga oid masalalar juda keng va batafsil bayon qilingan. Jumladan, kimlar bilan nikohlanish mumkin, kimlarga mumkin emasligidan tortib, oila qurilgach unga kim rahbarlik qilishi, er va xotinning haq-huquq va burchlari, oilada dunyoga keladigan farzandlar tarbiyasi, otaning ona va bola ta’minotiga e’tiborli bo‘lishi masalasi, hatto er-xotin o‘rtasida chiqishi mumkin bo‘lgan mojarolarni qay tarzda hal qilish, ularni yarashtirish uchun har ikki tomondan adolatli hakamlarni jalb etish, boringki, agar er-xotin ajralishga majbur bo‘lgan holda qay tarzda ajrim qilish holatigacha Alloh taoloning O‘zi kalomida batafsil bayon qilib bergan. O‘z navbatida, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ham ko‘plab hadislarida oila va nikoh masalasiga qayta-qayta murojaat qilganlar”. Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga islom kirib kelishi bilan nikoh marosimi unga xos bo‘lgan ana shunday me’yorlar asosida tashkil etila boshlandi.

Islom g‘oyalarining ta’siri xatna marosimida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, xatna amaliyoti islomdan oldin ham mavjud bo‘lgan. Biroq mintaqaga islom dini kirib kelganidan so‘ng ushbu marosimga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi.Xatna Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam sunnatlaridan biri sifatida qabul qilina boshlandi. Ushbu marosimi bolaning musulmon jamoasiga mansubligini tasdiqlovchi muhim tadbir sifatida tavsiflanadigan bo‘ldi.

Janoza marosimi ham islom madaniyati ta’sirida tubdan yangicha mazmun kasb etdi. Islom ta’limotiga ko‘ra, inson hayoti faqat dunyoviy mavjudlik bilan cheklanmaydi. O‘lim insonning mutlaq yo‘q bo‘lib ketishini emas, balki bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini anglatadi. Qur’on va hadislarda insonning oxiratda qayta tirilishi, qilgan amallari

uchun javob berishi va abadiy hayotga qadam qo‘yishi haqidagi g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli musulmon jamiyatida janoza marosimlari oddiy dafn tadbiri sifatida emas, balki insonni oxirat hayotiga kuzatish bilan bog‘liq diniy ahamiyatga ega marosim sifatida qabul qilindi. Mazkur dunyoqarash ta’sirida janoza marosimining barcha bosqichlari shariat me’yorlari asosida tartibga solinadigan bo‘ldi. Vafot etgan shaxsning jasadini g‘usl qilish, uni pok holatga keltirish, maxsus kafanga o‘rash, janoza namozini o‘qish va belgilangan qoidalar asosida dafn etish kabi amallar musulmonlik burchi sifatida baholana boshlandi.

Marosimlar tadrijining birinchi va ikkinchi bosqichlari tahlili ko‘rsatadiki, ular tarixiy taraqqiyot davomida turli ijtimoiy va diniy omillar ta’sirida o‘zgara borganiga qaramasdan, marosimlardagi ayrim tarkibiy elementlar asrlar davomida saqlanib qolaverdi. Bu holat marosimlarning tarixiy vorisiylik xususiyatiga egaligini, ular jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga mutanosib ravishda ravnaq topa borishini ko‘rsatadi. Marosimlardagi barqarorlik avvalo ularning asosiy maqsad va vazifalarida namoyon bo‘ldi. Qadim davrlardan boshlab marosimlarning asosiy vazifalari inson hayotining muhim bosqichlarini nishonlash, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, avlodlar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlash, ezgu tilaklar bildirish, jamoaviy hamjihatlikni namoyon etish va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Tarixiy taraqqiyotning turli pallalarida ushbu vazifalar tashkil etilishi va ijrosida muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lgan bo‘lsada, ularning umumiy mohiyati saqlanib qolaverdi.

Zardushtiylik va islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlardagi barqarorlikning yana bir ko‘rinishi jamoaviy ishtirok bilan bog‘liq. Darhaqiqat, asrlar davomida mazkur marosimlarning mazmuni, g‘oyaviy asoslari, rasm-rusumlari va amalga oshirilish tartibida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ayrim marosimlar yangi diniy qadriyatlar ta’sirida qayta shakllangan bo‘lsa, boshqalari muayyan darajada yangilandi, yangi elementlar bilan boyidi. Biroq bu marosimlar qadimda naqadar jamoaviy tarzda ado etilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda ham shu miqyosda davom etaverdi. Qadimda ularning ijtimoiy ta’siri kishilarning bir joyga to‘planishi, birgalikda muayyan harakatlarni bajarishi va umumiy taassurotlarni

boshdan kechirishi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyingi davlarda ham shunday bo‘lib qolaverdi.

Marosimlarning barqaror elementlari ularning axloqiy mazmunida ham namoyon bo‘ldi. Turli tarixiy davrlarda marosimlarning ma’naviy asosi ezgulik, insoniylik, oilaparvarlik, hamjihatlik va xayrixohlik kabi qadriyatlar bilan yo‘g‘rilgan edi. Bu qadriyatlar zardushtiylik davrida “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyili asosida yanada boyidi. Marosimlar vositasida kishilarni ezgulik va adolatni qadrlashga, ahillik va o‘zaro yordam ruhida yashashga chorlash odat bo‘ldi. Keyinchalik Markaziy Osiyoda islom madaniyati qaror topishi bilan mazkur qadriyatlar yangi diniy-axloqiy mazmun bilan boyidi. Ezgulik, mehr-oqibat, saxovat, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr ko‘rsatish kabi qadriyatlar Qur’on va hadislar asosida yanada mustahkamlandi. Biroq marosimlarning asosiy axloqiy yo‘nalishi o‘zgarmasligicha qoldi. Zardushtiylik davrida ham, islom madaniyati ta’sirida kechgan davrda ham marosimlar insonni ezgulikka, hamjihatlikka va xayrixohlikka undash vazifasini bajardi.

Barqarorlik marosimlarning ramziy tizimida ham kuzatildi. Asrlar davomida turli marosimlarda oq rang, non, dasturxon, duo, xayr-saxovat, mehmon kutish, ezgu tilak bildirish kabi ramziy harakatlar muhim o‘rin tutib kelgan. Ularning ayrimlari turli tarixiy davrlarda zardo‘shtiylik va isllom kabi omillar ta’sirida yangicha ma’no bilan boyidi, albatta. Lekin mazkur ramzlar o‘zining xalq ruhiyati va ongu-shuuridagi ahamiyatini saqlab qoldi.

Marosimlarning zardushtiylik va islom ta’sirida o‘zgarishi va ravnaq topishi xalq tarixidagi muhim voqea, jarayon bo‘ldi. Chunki aynan ana shu jarayon sharofati bilan zardushtiylik davrida shakllangan ezgulikka intilish, poklikni qadrlash, mehnatni ulug‘lash va tabiatga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish kabi g‘oyalar islom madaniyati ta’sirida yangi ma’naviy mazmun bilan boyidi. Natijada marosimlar tarkibida turli tarixiy davrlarga mansub qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashib, yaxlit ma’naviy tizim vujudga keldi. Bu tizim o‘z navbatida xalqning hayot haqidagi tasavvurlari, axloqiy mezonlari va ma’naviy ideallarini avloddan-avlodga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qildi. Marosimlarning zardushtiylik va islom ta’sirida

o‘zgarishi va ravnaq topishining yana bir natijasi shunda bo‘ldiki, mazkur jarayon xalq xotirasida saqlanib qolgan tarixiy tajribani turli davrlarga xos bo‘lgan qarashlar, ramzlar va timsollar bilan boyitdi. Shu nuqtai nazardan marosimlarning turli ta’limotlar ta’siridagi evrilishini xalqning ma’naviy yutug‘i sifatida tavsiflash mumkin.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Marosimlar tadrijini to‘rt bosqichdan iborat tarixiy jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin: a) zardushtiylik ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar davri; b) islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlar davri; v) Sovet hokimiyati yillarida mazmunan va shaklan o‘zgargan milliy marosimlar davri; g) mustaqillik yillarida tiklangan va rivojlangan milliy marosimlar davri. Birinchi va ikkinchi bosqichda Markaziy Osiyo xalqlarining tabiat kuchlarini ilohiylashtirish bilan bog‘liq diniy tasavvurlariga tayangan marosimlari avval zardushtiylik, so‘ngra esa islom ta’limoti g‘oyalari ta’sirida mazmunan boyidi. Biroq marosimlar turli ijtimoiy va diniy omillar ta’sirida o‘zgarganiga qaramasdan, ularning asosiy maqsad va vazifalari, axloqiy mazmuni va ramziy tizimi barqarorligicha qoldi. Qay tarzda kechganidan qat’i nazar, marosimlarning zardushtiylik va islom ta’siridagi o‘zgarishi va ravnaqi xalqning o‘ziga xos ma’naviy yutug‘i bo‘ldi.

II.2. Sovet davrida milliy marosimlar mazmuni va shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlar

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni bosib olganidan keyin Oktyabr inqilobiga qadar podsho hukumati milliy marosimlarga nisbatan umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyotkor munosabatda bo‘lib keldi. Chor ma’muriyati mahalliy aholi orasida keskin norozilik keltirib chiqarmaslik maqsadida ularning ko‘plab marosimlariga bevosita aralashmadi. Avval zardushtiylik, so‘ngra esa islom ta’sirida qaror topgan nikoh, janoza, sunnat to‘yi, diniy bayram kabi marosimlar aholi turmushining ichki masalasi sifatida qabul qilindi. V. Bartold ta’kidlaganidek, podsho hukumati Turkiston o‘lkasida musulmon aholining ichki diniy va maishiy hayotiga ehtiyotkorlik bilan yondashishga harakat qildi, chunki har qanday keskin aralashuv siyosiy norozilikka sabab bo‘lishi

mumkin edi. Shu sababli milliy marosimlarning aksariyati avvalgi tarzda davom etdi.

Shu bilan birga Chor Rossiyasi hukumati milliy marosimlarning o‘tkazilishini to‘liq erkin holatda qoldirdi, deyish ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Xususan, davlat xavfsizligi yoki mustamlaka boshqaruvi nuqtai nazaridan muhim deb hisoblangan ayrim diniy yig‘inlar, ommaviy tadbirlar va ziyoratlar qat’iy nazorat ostiga olindi. Ushbu davrda islom peshvolari va diniy muassasalar faoliyati ustidan ma’muriy kuzatuv ayniqsa kuchli edi. Hukumat milliy-ozodlik harakatlarining oldini olishga, ularning ehtimoliy rahnamolarini nazorat ostida saqlashga katta e’tibor berardi.

Keyinchalik, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi, shaharlarda yevropacha turmush tarzining ommalashishi, yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi ayrim milliy marosimlarning tashkil etilishi jarayoniga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatdi, albatta. Biroq bu ta’sir ancha cheklangan xarakterga ega bo‘lib, aholining asosiy qismi orasida milliy marosimlar o‘zining an’anaviy mazmunini saqlab qolgandi. Milliy marosimlar mazmuni va xarakteri, tashkil etilishi shakllarida tom ma’nodagi tub o‘zgarishlar Sovet davriga kelibgina sodir bo‘la boshladi. Aynan ana shu holatni inobatga olib, milliy marosimlar tadrijining navbatdagi bosqichini Sovet davri bilan bog‘lash o‘rinli.

Ma’lumki, 1917 yilda sodir bo‘lgan Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng sobiq Rossiya imperiyasi hududida mutlaqo yangi siyosiy tizim – Sovet hokimiyati qaror topdi. Hokimiyatning ushbu modeli marksizm-leninizm g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini, shu jumladan xalqlarning an’anaviy turmush tarzi, urf-odatlari va marosimlarini ham yangi mafkuraviy talablar asosida qayta qurishni nazarda tutardi. Xuddi shuning uchun Sovet davlati turli millatlar va elatlarning marosimlariga chor Rossiyasi siyosatidan tubdan farqlanuvchi munosabatni shakllantirdi: chor Rossiyasi hukumati mahalliy marosimlarga keng ko‘lamda aralashmaslikka harakat qilgan bo‘lsa, Sovet hokimiyati, bundan farqli o‘laroq, marosimlarni o‘tkazish amaliyotiga faol aralashishni hamda uning kommunistik mafkuraga mos bo‘lgan mazmunini shakllantirishni ma’qul topdi.

Sovet hokimiyati asrlar davomida saqlanib kelgan milliy marosimlarning katta qismini diniy dunyoqarash bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin qildi. Din esa, marksizm nazariyasiga ko‘ra, eski ijtimoiy tuzumni saqlab qolishga xizmat qiluvchi mafkuraviy institutlardan biri deya hisoblanardi. Masalan, o‘z vaqtida Karl Marks dinni xalq uchun afyun deya ta’riflagan edi. Vladimir Lenin esa diniy tashkilotlarni davlatdan ajratish va jamiyatda ilmiy-ateistik dunyoqarashni qaror toptirish zarurligini bot-bot ta’kidlardi. Uning fikricha, sotsialistik jamiyatni barpo etish uchun eng avvalo kishilar ongi va faoliyatini diniy tasavvurlar ta’siridan xalos qilish zarur edi. Ushbu g‘oya keyinchalik Sovet davlatining turfa marosimlarga bo‘lgan munosabatining nazariy-metodologik asosini tashkil qildi.

Sovet hokimiyati milliy marosimlarni nafaqat diniy dunyoqarash ta’sirida shakllangan ijtimoiy hodisa, balki eskicha turmush tarzining muhim unsuri sifatida ham baholadi. Aynan shuning uchun 1920-1930-yillarda amalga oshirilgan turmush tarzini sotsialistik asosda qayta qurish siyosati doirasida an’anaviy marosimlarni isloh qilishga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda davlat idoralari, partiya tashkilotlari, yoshlar ittifoqlari, kasaba uyushmalari, turli madaniy-ma’rifiy muassasalar faol ishtirok etdilar. Dastlab milliy marosimlarga nisbatan o‘ta keskin siyosat olib borildi. O‘tgan asrning 40-yillaridan e’tiboran esa ayrim marosimlarga nisbatan murosali yondashuv yuzaga kela boshladi. Oktyabr to‘ntarishidan qariyb yarim asr o‘tganidan keyingina hukumat milliy marosimlarni to‘liq taqiqlashga emas, ularni sovet turmush tarzi talablariga moslashtirishga urg‘u bera boshladi. Ko‘rinadiki, Sovet hokimiyati yillarida milliy marosimlarga bo‘lgan munosabat o‘zgara borgan, biroq ularning mazmunini kommunistik mafkuraga mosashtirish ilinji o‘zgarmasligicha qolgan.

Sovet hokimiyatining milliy marosimlarga nisbatan yuritgan siyosatida milliy marosimlarni diniy mazmundan xoli qilish choralari alohida o‘rin tutdi. Bu siyosatning asosiy maqsadi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, din institutlarining aholi turmush tarziga ta’sirini bosqichma-bosqich kamaytirishdan iborat edi. Shu sababli 1920-yillardan e’tiboran sobiq Ittifoqning barcha respublikalarida, jumladan O‘zbekistonda

ham milliy marosimlarni davlat tomonidan nazorat qilish, ularning ta’sir doirasini cheklashga qaratilgan izchil siyosat amalga oshirila boshlandi. Ushbu siyosat doirasida nikoh, xatna, janoza, hayit, mavlud, zikr kabi diniy mazmun bilan yo‘g‘rilgan marosimlar keskin tanqid ostiga olindi.

Ayniqsa, nikoh marosimi Sovet hokimiyati tomonidan eng ko‘p isloh qilingan sohalardan biri bo‘ldi. Sovet davlati fuqarolik qonunchiligiga asoslangan yangi oilaviy munosabatlarni qaror toptirishga intilardi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida esa nikohning qonuniyligi nikoh o‘qilishi, ikki guvohning ishtirok etishi, nikoh shartlarining bajarilishi hamda diniy rasm-rusumlarning ado etilishi bilan belgilanardi. Shu sababli nikoh marosimi nafaqat oilaviy voqea, balki muhim diniy-huquqiy institut sifatida ham e’tirof etilardi. Sovet hokimiyati o‘rnatilganidan keyin mazkur tizim tubdan o‘zgartirildi. Davlat nikoh munosabatlarini tartibga so-lish vakolatini diniy muassasalardan olib, uni to‘liq davlat ixtiyoriga o‘tkazdi. Natijada Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida (FHDYo) nikohni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qonuniy nikohning yagona shak-li sifatida belgilab qo‘yildi. Diniy nikoh esa huquqiy kuchga ega emas, deb e’lon qilindi va shaxsiy e’tiqod bilan bog‘liq amal sifatida baholana boshlandi. Bu o‘zgarish orqali davlat nikoh munosabatlari ustidan to‘liq huquqiy nazorat o‘rnatdi.

Janoza marosimlarini qayta tashkil qilishga urinishlar ham katta bo‘ldi. Janoza marosimi musulmon aholisi hayotida eng barqaror diniy an’analardan biri hisoblanar, u nafaqat dafn qilish tartibini, balki inson vafoti, oxirat hayoti va diniy burchlar haqidagi tasavvurlarni ham o‘zida mujassam etardi. Sovet hokimiyati mazkur marosimni diniy mazmundan xoli qilishga va uni davlat nazoratiga olishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri dafn ishlarini markazlashtirish va kommunal xizmatlar tizimi orqali tashkil etishdan iborat bo‘ldi. Qabristonlarni boshqarish, qabr qazish, mayyitni qabristonga olib borish kabi tashkiliy ishlar davlat va mahalliy kommunal xizmatlar zimmasiga yuklatildi. Davlat bu choralar orqali dafn marosimlarini diniy jamoalar ta’siridan chiqarishga, ularni fuqarolik-ma’muriy jarayon sifatida tashkil etishga intilardi. Shu bilan birga, janoza maro-simlaridagi diniy unsurlarni qisqartirish, ularning ijtimoiy ahamiyatini

pasaytirishga qaratilgan mafkuraviy targ‘ibot ishlari ham keng ko‘lamda olib borildi. Ilmiy ateizm targ‘ibotchilari matbuot, radio, madaniyat uylari va ta’lim muassasalari orqali janoza namozi, marhum haqqiga Qur’on tilovat qilish, uch, yetti, yigirma, qirq va yil oshi kabi marosimlarni diniy xurofot yoki eskilik sarqiti sifatida talqin qilishga harakat qilardilar. Biroq janoza marosimi islomda farzi kifoya hisoblangani va musulmonning oxirgi haqlaridan biri sifatida e’tirof etilgani bois bu boradagi siyosat musulmon aholisi orasida kutilgan natijalarni bermadi. Mayyitni g‘usl qilish, oq kafanga o‘rash, janoza namozini o‘qish va musulmon qabristoniga shariat talablariga muvofiq dafn etish kabi amallar aholi tomonidan diniy burch sifatida qabul qilinganicha qolaverdi.

Sovet hokimiyatining xatna marosimiga rasmiy munosabati ham salbiy xarakterga ega edi. Kommunistik mafkura uni diniy me’yorlar bilan yo‘g‘rilgan eskilik sarqiti sifatida baholardi hamda va bolalar tarbiyasida ilmiy-ateistik yondashuvni targ‘ib qilardi. Biroq xatna marosimi aholining katta qismi tomonidan milliy marosim sifatida qabul qilinganligi tufayli xatna marosimini ham batamom yo‘qotishning imkoni bo‘lmadi.

Sovet hokimiyati milliy marosimlarning diniy asoslarini cheklash bilan bir qatorda kommunistik mafkuraga muvofiq keluvchi yangi marosimlar tizimini joriy etishga ham alohida e’tibor qaratdi. Bu marosimlar, bir tomondan, “sovet kishisini” shakllantirishga, ikkinchi tomondan esa, “sovet turmush tarzini” qaror toptirishga xizmat qilmog‘i darkor edi. Sovet hokimiyati yillarida “sovet kishisi” (sovetskiy chelovek) deganda sotsialistik jamiyatning g‘oyaviy talablari asosida tarbiyalangan, kommunistik mafkuraga sodiq, davlat va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yadigan, ateistik dunyoqarashni o‘z hayotining asosiy mezoni deb biladigan shaxs tushunilardi. Ana shunday kishini shakllantirish sotsialistik jamiyatning eng muhim vazifalarida biri sifatida e’tirof etilardi. Keyinchalik ushbu vazifa Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi dasturida ham qat’iy belgilab qo‘yildi. Ushbu dasturga ko‘ra, “sovet kishisi” quyidagi asosiy fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozim edi: a) kommunistik mafkuraga sadoqat; b) sotsialistik vatanparvarlik; v) internatsionalizm; g) jamoaviylik (kollektivizm); d) mehnatga halol munosabat; e) ijtimoiy mulkni himoya qilishga shaylik; j) ilmiy-ateistik

dunyoqarash; z) shaxsiy manfaatlarni davlat va jamiyat manfaatlariga bo‘ysundira olish.

Sovet mafkurasi rahnamolarining fikriga ko‘ra, sovet kishisining turmushi ham o‘ziga xos modelga ega bo‘lmog‘i kerak edi. Bu model “sovet turmush tarzi” nomini oldi. O‘sha davr ilmiy-mafkuraviy manbalarida sovet turmush tarzi» (sovetskiy obraz jizni) sotsialistik jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy qadriyatlariga muvofiq tashkil etilgan hayot tarzi sifatida ta’riflandi. Bu tushuncha jamiyat a’zolarining kundalik turmush tarzi bilan bir qatorda uning mehnatga munosabati, ijtimoiy faolligi, oilaviy hayoti, ehtiyojlari tabiati, bo‘sh vaqtini o‘tkazishini qamrab olardi. Sovet ijtimoiy falsafasida sovet turmush tarzining asosiy belgilari sifatida quyidagilar ko‘rsatilgandi: a) sotsialistik mehnatga ongli munosabat; b) jamoaviylik (kollektivizm); v) ijtimoiy tenglik; g) kommunistik axloq; d) ilmiy-ateistik dunyoqarash; e) sotsialistik vatanparvarlik; j) shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish.

Sovet hukumati milliy marosimlarni ham ana shunday insonni va uning turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmning tarkibiy qismiga aylantirishga intildi. Buning uchun, bir tomon-dan, mavjud milliy marosimlarni yangi ramzlar, urf-odatlar va ommaviy tadbirlar bilan to‘ldirishga urinilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yangi fuqarolik marosimlarini tashkil etishga intilindi. Xususan, insonning voyaga etishi va mehnat faoliyatiga kirishishi bilan bog‘liq voqealar atrofida yangi fuqarolik marosimlari shakllantirildi. Ko‘zlangan maqsadlarga ko‘ra, mazkur marosimlar shaxsda sotsialistik Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishi, kommunistik g‘oyalarga e’tiqodini mustahkamlashi, jamoaviylik hissini qaror toptirishi lozim edi.

Sovet hokimiyati yillarida eng avvalo bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq yangi marosimlar keng joriy etildi. Bu boradagi birinchi rasmiy marosim bolalarni oktyabryatlikka qabul qilish bilan bog‘liq bo‘ldi. Odatda mazkur marosim maktablarda tahsil olayotgan birinchi yoki ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun tashkil etilar va bolaning sovet jamiyatiga a’zosiga aylanayotganligining ilk ramziy belgisi sifatida talqin qilinardi. Marosim maktablarning majlislar zalida Oktyabr inqilobi nishonlanishi arafasida maxsus ssenariy asosida maktab ma’muriyati, bolalarga tahsil berayotgan

o‘qituvchilar, yuqori sinf o‘quvchilari, ayrim pallalarda esa ota-onalar ishtirokida o‘tkazilardi. Marosimning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat edi:

- tantanali ochilish. Sahnaga davlat bayrog‘i olib kirilar, SSSR madhiyasi yoki inqilobiy qo‘shiqlar ijro etilardi. Sahnada V.Lenin port-reti, qizil bayroq va kommunistik ramzlar joylashtirilardi;
- oktyabryatlikning ahamiyati haqida nutqlar. Maktab direktori yoki pionerlar etakchisi oktyabryatlarning vazifalari, vatanparvarlik va mehnat-sevarlik, intizomlilik va hamjihatlikning ahamiyati haqida nutq so‘zlardi;
- oktyabryatlikka qabul qilish. Bolalar saf tortib turishar, ularga oktyabryat bo‘lish sharaf ekanligi eslatilardi. Ayrim maktablarda bolalar qisqacha qasamyod ham qilishardi;
- oktyabryat nishonini taqish. Marosimning eng muhim qismi bolalarning ko‘kragiga besh qirrali qizil yulduz shaklidagi nishonni taqib qo‘yish bilan bog‘liq edi. Nishon markazida V.Leninning bolalik davridagi surati tasvirlangan edi;
- tabrik va sovg‘alar. Yangi oktyabryatlarga kitoblar, esdalik sovg‘alari yoki maxsus tabrik yorliqlari topshirilardi;
- badiiy qism. Bolalar she’rlar o‘qir, qo‘shiqlar aytar, Vatan haqida sahna ko‘rinishlari namoyish etilardi.

Oktyabryatlik bolalar tashkilotiga shunchaki a’zo bo‘lishni emas, balki keyinchalik pionerlikka a’zo bo‘lish qo‘yilgan birinchi mafkuraviy qadam sifatida qaralardi. To‘qqiz va o‘n yoshga etgan o‘quvchilar uchun pionerlikka qabul qilish marosimi tashkil etilardi. Ushbu marosim ham oddiy tashkiliy jarayon emas, balki aniq stsenariy asosida o‘tkaziladigan, turli ramzlar va harakatlarni o‘z ichiga olgan tantanali tadbir edi. Marosim aksariyat hollarda V.Lenin tug‘ilgan kuni yoki Oktyabr inqilobi nishonlanadigan kun arafasida tashkil qilinardi. Ayrim hollarda pionerlikka qabul qilish marosimi urush yodgorliklari, Lenin haykallari, inqilob muzeylari yoki Qahramonlar xiyobonlarida uyushtirilardi. Marosimda dastlab ishtirokchilar tantanali saf tortishar, davlat bayrog‘i va pionerlar bayrog‘i olib kirilardi. SSSR Davlat madhiyasi yoki pionerlar qo‘shig‘i ijro etilgach, maktab direktori va pionerlar etakchisi pionerlik harakatining maqsadi haqida nutq so‘zladi. Marosimning markaziy qismi pioner

qasamyodi edi. Bolalar o‘ng qo‘llarini pionercha salom holatida ko‘tarib, jamoa oldida qasamyod aytar edilar. Shundan keyin yuqori sinf pionerlari yoki ustozlar yangi qabul qilingan bolalar bo‘yniga qizil galstuk bog‘lab qo‘yardilar. Qizil galstuk pionerlikning eng muhim ramzi hisoblanib, u Oktyabr inqilobi va kommu-nistik harakatga sadoqat belgisi sifatida talqin qilinardi. Galstuk bilan birga bolalarga pioner nishoni ham topshirilardi. Galstuk bog‘langanidan keyin pionerlar etakchisi: “Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ishiga bo‘l tayyor!” deb chorlar, bolalar esa: “Doim tayyor!”-deya javob berardilar. Marosimning keyingi qismida she’rlar o‘qilar, vatanparvarlik va inqilob mavzusida qo‘shiqlar kuylanar, adabiy-badiiy kompozitsiyalar, sahna ko‘rinishlari va kontsert dasturlari namoyish etilardi.

Pionerlar 14-15 yoshga yetgach, Yoshlar ittifoqiga (komsomollikka) qabul qilish marosimida ishtirok etar va siyosiy-mafkuraviy kamolotning yana bir bosqichiga qadam qo‘yar edilar. Oktyabryatlik va pionerlikka qabul qilish marosimlari asosan tarbiyaviy maqsadlarda amalga oshirilgan bo‘lsa, Yoshlar ittifoqiga qabul marosimi davlat va partiya tashkilotlari uchun kadrlar zaxirasini tayyorlashga qaratilgan tadbir ham hisoblanardi. Shu sababli ittifoqqa qabul qilish marosimi ancha rasmiy va mafkuraviy jihatdan murakkab tarzda tashkil etilardi. Ittifoqqa qabul qilish jarayoni nomzodning shaxsiy fazilatlari va ijtimoiy faolligi darajasini baholashdan boshlanardi. Bundan tashqari, nomzod ittifoqqa a’zo bo‘lishni so‘rab ariza topshirishi, ikki nafar ittifoq a’zosining tavsiyasini olishi lozim edi. Shundan keyingina mahalliy qo‘mita yig‘ilishida uning bilan suhbat uyushtirilardi. Suhbatdan o‘tgan nomzodlarni ittifoqqa qabul qilishga bag‘ishlangan tantanali marosim maktab, texnikum, oliy o‘quv yurti yoki korxona majlislar zalida tashkil qilinardi. Unda nomzodlar nima uchun ittifoqqa kirishni xohlayotganliklari, sotsialistik Vatan va Kommunistik partiya oldidagi burchlarini qanday tushunishlari haqida fikr bildirishardi. Keyin marosim ishtirokchilari ovoz berish orqali nomzodni tashkilotga qabul qilish yoki qilmaslik haqida qaror qabul qilishardi. Qaror e’lon qilingach, yangi a’zoga tantanali ravishda ittifoq guvohnomasi (komsomolskiy bilet) va nishoni topshirilardi.

Sovet davrida bolalarni oktyabryatlikka, pionerlikka va yoshlar ittifoqiga qabul qilish marosimlariga bu qadar katta e’tibor berilishi bejiz emas edi, albatta. Chunonchi, **b**irinchidan**,** Sovet hukumati mazkur marosimlar yordamida jamiyat a’zolari ongu-shuuriga kommunistik mafkurani chuqurroq va bosqichma-bosqich singdira borishni maqsad qilgan edi. Ikkinchidan**,** ushbu marosimlar yangi, sovet kishisini shakllantirish kontseptsiyasini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmog‘i darkor edi. Uchinchidan**,** mazkur marosimlar davlat ramzlarini muqaddaslashtirish vazifasini ham bajarardi. To‘rtinchidan, ushbu tadbirlar bolalarda jamoaviylik tuyg‘ularini junbushga keltirmog‘i kerak edi. Beshinchidan, sovet hukumati kelgusida an’anaviy milliy va diniy marosimlarni ushbu yangi marosimlar bilan almashtirishni niyat qilar edi. Oltinchidan, mazkur marosimlar davlat va partiya tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanardi.

Yangi fuqarolik marosimlarini tashkil etishga bo‘lgan intilishlar bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq marosimlarning amaliyotga tatbiq etilishi bilan cheklanib qolgani yo‘q. Uning bilan birga mehnat faoliyati bilan bog‘liq yangi marosimlar ham sovet turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirildi. Jumladan, shunday marosimlardan biri birinchi mehnat kunini nishonlash bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu marosim joylarda yoshlarning mehnat jamoasiga qabul qilinishi munosabati bilan o‘tkazilardi. U SSSR bo‘ylab bir xil tartibda emas, balki respublikalar, iqtisodiyot tarmoqlari, korxona va tashkilotlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli tarzda tashkil etilardi. Marosim odatda kasb-hunar maktabini, texnikumni yoki oliy ta’lim muassasasini tugatgan yoshlar uchun uyushtirilardi. Uning asosiy maqsadi yosh mutaxassisni mehnat jamoasiga rasman qabul qilish, unda mehnatga mas’uliyat hissini shakllantirish va sotsialistik mehnat qadriyatlarini qaror toptirishdan iborat edi. Marosim yoshlarni ishga qabul qilgan korxona yoki muassasa majlislar zalida o‘tkazilardi. Uni korxona yoxud tashkilot rahbari, partiya tashkiloti kotibi yoki kasaba uyushma raisi olib borardi. Ishga qabul qilingan yoshlar sahnaga chaqirilar, marosim ishtirokchilariga ularning ma’lumoti, mutaxassisligi va shaxsiy fazilatlari haqida ma’lumotlar berilardi. Marosimda yosh mutaxassislarga mehnat daftarchasi, esdalik sovg‘asi topshirilardi. Ayrim tashkilotlarda yigit va

qizlarga biror bir ustozni biriktirib qo‘yish ham urf bo‘lgandi. Sovet hokimiyati mazkur marosim orqali mehnatni oddiy iqtisodiy faoliyat emas, bal-ki kommunistik jamiyatga xizmat qilishning eng yuksak ko‘rinishi sifatida ko‘rsatishga harakat qilardi.

Sovet davrining mehnat bilan bog‘liq marosimlaridan yana biri mehnat faxriylarini tantanali taqdirlash bilan bog‘liq edi. Bunday marosimlarning asosiy maqsadi ilg‘or mehnatkashlarni rag‘batlantirish bilan birga butun mehnat jamoasida sotsialistik mehnatga sadoqat va mehnat intizomini mustahkamlashdan iborat edi. Mazkur tadbirlar korxona va tashkilotlarda, kolxoz va sovxozlarda, shuningdek respublika va umumittifoq darajasida muntazam tashkil etilardi. Ayrim hollarda sotsialistik musobaqa yakunlari, besh yillik rejalarning muddatidan oldin bajarilishi yoki ishlab chiqarishdagi katta yutuqlar ham marosim uchun asos bo‘lardi. Marosimning markaziy qismi mehnat faxriylarini taqdirlashdan iborat bo‘lardi. Ilg‘or ishchilarga davlat orden va medallari, faxriy unvonlar, “Kommunistik mehnat zarbdori”**,** **“**Sotsialistik musobaqa g‘olibi”**,** “Mehnat veterani” kabi ko‘krak nishonlari, faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari tantanali ravishda topshirilardi. Taqdirlangan mehnatkashlar ham so‘zga chiqib, o‘z mehnat tajribasi haqida gapirar, yosh avlodni halol mehnat qilishga chaqirishardi.

Sovet davrida mehnat bilan bog‘liq yangi marosimlarda mehnat shaxsiy farovonlik manbai emas, balki jamiyat oldidagi fuqarolik burchi sifatida talqin qilinardi. Ayni paytda ushbu murosimlar sovet kishisini shakllantirish, uning mehnati jarayonini kommunistik mafkuraga bo‘ysundirish, kommunistik qadriyatlarni kundalik hayotga singdirish maqsadlariga ham xizmat qilardi.

Sotsialistik tuzum sharoitida bayram marosimlari ham yangicha mazmun bilan to‘ldirildi. Sovet hokimiyati bu borada ham milliy bayramlarni shunchaki ta’qiqlash yoki yo‘qotish yo‘lini tanlamasdan, ularni kommunistik-mafkuraviy mazmun bilan to‘ldirishga, marosimlardagi an’anaviy ramzlar va rasm-rusumlarni sotsialistik davlat ramzlari bilan almashtirishga intildi. E’tiborli jihati shundaki, sovet davrida bayram marosimlari aholining madaniy dam olish shakliga emas, balki kommunistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi, sovet turmush tarzini

shakllantiruvchi mafkuraviy mexanizmga aylantirildi. Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti N.S. Rasulova ta’kidlaganidek, sovet bayramlari kommunistik mafkurani mustahkamlash usullaridan biri bo‘lib, ularni o‘tkazish siyosiy kampaniyalar bilan tenglashtirildi, milliy bayramlar o‘rnini esa yangi inqilobiy, proletar va kasbiy bayramlar egalladi.

Sovet davrida Oktyabr inqilobi, Birinchi may,V. Lenin tug‘ilgan kun, G‘alaba kuni, Sovet Armiyasi va floti kuni kabi umumittifoq bayramlariga alohida ahamiyat berildi. Ular ommaviy namoyishlar, mitinglar, harbiy paradlar, mehnat jamoalarining chiqishlari, shiorlar,qizil bayroqlar va partiya rahbarlari portretlari bilan bezatilgan tantanalar orqali nishonlandi. Sotsialistik davlat mazkur marosimlar vositasida o‘z siyosiy qudratini, mafkuraviy ustuvorligini, jamiyat hayotini boshqarishdagi keng imkoniyatlarini namoyish etishga urindi. Xuddi shuning uchun ham ushbu marosimlar o‘ziga xos texnologiyaga aylantirildi, ya’ni ularni tashkil etish, o‘tkazish ssenariylari, ishtirokchilar tarkibi, ramzlari va hatto vaqti ham maxsus rejalashtirila boshlandi. Bularning barchasi sovetlar sharoitida bayram marosimlari xalqona tantanaga emas, davlat tomonidan puxta rejalashtiriladigan mafkuraviy tadbirga aylanganidan dalolat beradi.

Sovet hokimiyati yillarida an’anaviy bayram marosimlariga ham yangicha mazmun yuklandi. Masalan, hashar, Navro‘z, gul bayrami, qovun sayli, hosil bayrami kabi mahalliy bayramlar butunlay yo‘qolib ketmadi, ammo ularning mazmuniga sovetcha ishlab chiqarish, mehnat intizomi, kolxoz-sovxoz yutuqlari, sotsialistik musobaqalar, partiya tashabbuslari va davlat siyosatiga sadoqat g‘oyalari singdirildi. Natijada mazkur bayramlar xalqning qadimiy madaniy xotirasi bilan sovet mafkurasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir maydoniga aylandi.

Biroq sovet hokimiyati milliy marosimlar tarkibidagi an’anaviy va diniy mazmundagi elementlarni bartaraf qilishga, ularning o‘rnini yangi mazmundagi ramzlar, rasm-rusumlar bilan almashtirishga naqadar urinmasin, mazkur unsurlar qishloq va mahallalarda, oilaviy muhitda yashirin tarzda saqlanib qolaverdi. Shu sababli sovet davrida milliy marosimlar qat’iy mafkuraviy nazorat ostiga olingan bo‘lsa-da, o‘z etnomadaniy va an’anaviy belgilarini saqlab qolgan murakkab sinkretik hodisaga aylandi. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda mazkur holat sovet

modernizatsiyasining ziddiyatli natijasi sifatida baholanmoqda. Masalan, R.S. Umarov O‘zbekistonda nikoh va oila marosimlarining 1920-2020 yillardagi o‘zgarishlarini tahlil qilar ekan, sovet davrida nikoh marosimlari sotsialistik huquq me’yorlariga bo‘ysundirilganini, shariat asosidagi nikoh esa rasman tan olinmaganini qayd etadi. Biroq muallif shunga qaramasdan mahalla va qishloqlarda an’anaviy marosimlar yashirin yoki moslashtirilgan shaklda davom etganini qayd etadi. Darhaqiqat, sovet hokimiyati yillarida shariat qoidalari asosida nikoh o‘qish marosimlari turli mahala va qishqoqlarda ochiq jamoatchilik tadbiri sifatida emas, oila va qarindoshlar davrasida diniy muassasa vakili ishtirokida o‘tkaziladigan yashirin amaliyot sifatida davom etdi.

Sovet davrida diniy va an’anaviy elementlarning yashirin holda saqlanib qolishi bir necha yo‘nalishda sodir bo‘ldi. Birinchidan, milliy marosimlarning katta qismi, yuqorida ta’kidlanganidek, rasmiy makondan oila va mahalla muhitiga ko‘chdi. Ikkinchidan, aksar marosimlarning diniy nomlari yumshatildi hamda “odat”, “udum”, “xotira”, “ma’raka”, kabi ijtimoiy-maishiy atamalar bilan ifodalana boshlandi. Uchinchidan, ayrim marosimlar rasmiy tarzda belgilangan tartib bilan hamohang holda, yonma-yon bajarildi (masalan, nikoh avval FHDYoda qayd etildi, so‘ngra esa xonadonda shariat qoidalari asosida nikoh o‘qitildi, dafnlarda fuqarolik me’yorlariga amal qilindi, ammo marhumga fotiha o‘qish, duo qilish va xotira marosimlari ham saqlanib qoldi). To‘rtinchidan, milliy marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq tajribalar keksa avlod vakillari, mahalla oqsoqollari, oila ulug‘lari orqali yetkazildi.

Milliy marosimlar tarkibidagi an’anaviy va diniy mazmundagi elementlarning qishloq va mahallalarda, oilaviy muhitda yashirin tarzda saqlanib qolavergani bois Sovet hukumati vaqt o‘tgani sayin marosimlar ustidan nazoratni tizimlashtirib va kuchaytirib boraverdi. Davlat partiya tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlari, yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmalari, madaniyat muassasalari, ateistik targ‘ibot tizimi orqali nikoh, janoza, xatna, bayramlar, mavsumiy sayillar, oilaviy tantanalar va mehnat bilan bog‘liq marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishini uzluksiz nazorat qilishga urindi. Milliy marosimlar ustidan nazorat o‘rnatish maqsa-dida birinchi navbatda ularning huquqiy asoslarini sovetlashtirishga

intilindi. Joylarda marosimlarning o‘tkazilishi, ayniqsa ulardagi diniy mazmundagi rasm-rusumlarning amalga oshirilishi muttasil kuzatib borildi. Mahalliy ijroiya qo‘mitalari, partiya tashkilotlari, qishloq sovetlari va mahalla qo‘mitalari ruxsatsiz o‘tkazilayotgan marosimlarni aniqlash va ularga barham berish, yoshlarni diniy mazmunga ega marosimlarga jalb etishning oldini olish, aholi orasida ateistik tushuntirish ishlarini amalga oshirish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Milliy marosimlarning o‘tkazilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga intilishlar ham kanda bo‘lmadi. Biroq ushbu sa’y-harakatlarga qaramasdan, milliy marosimlar Sovet davrida ham o‘zining barqaror elementlarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Yuqoridagi mulohazalar ko‘rsatadiki, milliy marosimlarning Sovet davridagi rivojida o‘zgaruvchanlik va barqarorlik dialektikasi yorqin namoyon bo‘ldi. Bu bosqichda milliy marosimlarning o‘tkazilishi shakli, tashkiliy tartibi, ramzlari va rasm-rusumlari, ijro uslublari jiddiy o‘zgargan hamda mafkuraviy rang olgan bo‘lsada, ularning ma’naviy negizlari, ya’ni mazmuni va asl maqsadlari batamom yo‘q bo‘lib ketmadi. Chunonchi, Sovet davrida milliy marosimlarning rasmiylashtirilishi tartibi keskin o‘zgardi. Turfa marosimlar xalq tomonidan stixiyali tarzda rejalashtiriladigan va o‘tkaziladigan tadbirlardan siyosiy nutqlar, davlat ramzlari, ommaviy namoyishlar bilan boyitilgan rasmiy tantanalarga aylantirildi. Buning natijasida milliy marosimlar milliy madaniyat elementi emas, kommunistik mafkura talablariga mos ijtimoiy institut bo‘lib qoldi. Sovet davrida milliy marosimlarning diniy mazmuni zaiflashib, dunyoviy mazmuni kuchaydi.

Biroq turli o‘zgarishlardan qat’i nazar sovet davrida ham milliy marosimlar o‘zining barqaror jihatlaridan mahrum bo‘lmadi. Bu barqarorlik avvalo marosimlarning inson hayotidagi muhim burilish nuqtalarini – tug‘ilish, nikoh va o‘lim bilan bog‘liq voqealarni, biror kasb yoki hunarning o‘zlashtirilganligini, insonning muayyan jamoa a’zosiga aylanganini, jamiyat a’zolari bilan u yoki bu munosabatning o‘rnatilganini qayd etish bilan bog‘liq funksiyalarida namoyon bo‘ldi. Sovet voqeligi milliy marosimlarning o‘tkazilishi shakllari va ramzlarini o‘zgartirdi, ammo ularning inson va jamiyat hayotidagi ma’naviy funksiyalari yo‘qota olmadi.

Milliy marosimlarning sovetcha modernizatsiyasi ularning mazmunida ikki o‘ziga xos qatlamni vujudga keltirdi. Ularning birinchisi rasmiy va mafkuraviy ramzlar bilan boyitilgan, davlat tomonidan qat’iy nazorat qila borilgan qatlam edi. Ikkinchisi esa etnomadaniy va milliy-ma’naviy mazmunga ega ichki qatlam edi. Birinchi qatlam ko‘proq ommaviy bayramlar, FHDYo marosimlari, komsomol va pioner tadbirlari, mehnat tantanalarida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi qatlam qishloq va mahallalarda amalga oshirilgan nikoh, janoza, xotira kabi marosimlarda o‘z ifodasini topdi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Sovet hokimiyati milliy marosimlarni diniy dunyoqarash ta’sirida shakllangan ijtimoiy hodisa, eskicha turmush tarzining muhim unsuri sifatida baholadi. Xuddi shuning uchun ham nikoh, janoza, xatna kabi marosimlardagi diniy mazmundagi ramzlar, rasm-rusumlarni bartaraf qilishga intildi. Sotsialistik davlat an’anaviy milliy marosimlarni sotsialistik turmush tarzini ifodalovchi va sovet kishisini voyaga etkazishga xizmat qiluvchi oktyabryatlikka, pionerlikka, yoshlar ittifoqiga qabul qilish, mehnat faoliyatiga doir ahamiyatli kunlarni nishonlash kabi fuqarolik marosimlari bilan almashtirishga urindi. Shunga qaramasdan, qishloq va mahallalarda, oilaviy muhitda o‘tkazilgan marosimlarda an’anaviy unsurlar yashirin tarzda saqlanib qoldi. Sovet hokimiyati yillarida milliy marosimlarni kommunistik mafkura talablariga moslashtirishga urinilgan bo‘lsada, bu davrni ham milliy marosimlar modernizatsiyasining o‘ziga xos bosqichi sifatida talqin qilmoq darkor.

II.3. Mustaqillik yillarida milliy marosimlarning tiklanishi va rivojlanishi tendensiyalari

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi yurt tarixida beqiyos ahamiyatga molik voqea xalqning tarixiy yutug‘i bo‘lganini isbotlashning hojati yo‘q. Mustaqillik o‘zbek xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy davlatchiligini tiklash, ichki va tashqi siyosatini mustaqil yuritish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot yo‘lini erkin tanlash imkoniyatini yaratdi.

Mamlakatning mustaqillikka erishishi jamiyatning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga turtki berdi. Xususan, uning sharofati bilan O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish imkoniga ega bo‘ldi. Mustaqillik milliy davlatchilik asoslarini tiklash uchun tarixiy shart-sharoit yaratdi. Mamlakatning mustaqillikka erishishi iqtisodiy siyosat maqsadlarini mustaqil belgilash, bozor munosabatlari tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish uchun yo‘l ochdi. Mustaqillik jamiyat ijtimoiy hayotida ham jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Yangi davrda inson manfaatlari, ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, yoshlar tarbiyasi, oila va mahalla institutini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatida muhim o‘rin egallay boshladi. Sovet davrida jamiyatning ko‘p sohalari yagona mafkuraviy qolip asosida boshqarilgan bo‘lsa, mustaqillik sharoitida ijtimoiy munosabatlar milliy manfaatlar, fuqarolik jamiyati, inson qadri va ijtimoiy adolat g‘oyalari asosida qayta tashkil etila boshladi.

Biroq eng muhim o‘zgarishlar xalqning madaniy-ma’naviy hayotida ro‘y berdi. Mustaqillik sharoitida xalq o‘z tarixiga xolisona nazar tashlash, ajdodlar merosini qayta baholash, milliy qadriyatlarni tiklash imkoniga ega bo‘ldi. Bu jarayon jamiyat ma’naviy hayotida katta o‘zgarish yasadi: odamlar o‘zlarini sobiq ittifoq mafkurasining tarkibiy qismi sifatida emas, balki salmoqli madaniy merosga ega millat vakili, mustaqil mamlakat fuqarosi sifatida anglay boshladilar.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi milliy marosimlar tadrijida sifat jihatidan yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi. Mustaqillikning ilk yillaridan bo‘y ko‘rsatgan milliy marosimlarni tiklash va ravnaq toptirish masalasi tasodifiy ravishda yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy jarayon emas edi. Aksincha, u milliy o‘zlikni tiklash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatning tarkibiy qismi edi. Mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda milliy o‘zlik tuyg‘ularini kuchaytirish zarur edi. Har qanday millat esa o‘zligini nafaqat davlat chegaralari, siyosiy mustaqilligi, rasmiy ramzlari yoki huquqiy maqomi

orqali, balki tarixiy xotirasi, ajdodlar merosi, tili, urf-odatlari, an’analari, maro-simlari va qadriyatlar tizimi orqali anglab etadi. Milliy marosimlar esa ana shu o‘zlikni amaliy hayotda namoyon etuvchi muhim madaniy shakllardan biri hisoblanadi. Xuddi shuning uchun ham milliy o‘zlik tuyg‘ularini yuksaltirish uchun avvalo milliy marosimlarning an’anaviy mazmunini tiklash, ularga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish zarur edi.

Milliy marosimlarni tiklashga qaratilgan sa’y-harakatlar millat ma’naviyatini kommunistik mafkura ta’siridan xalos etishga xizmat qiladigan ob’ektiv zaruriyat ham edi. Avvalgi paragrafda ko‘rsatilganidek, Sovet davrida milliy marosimlarning bir qismi cheklangan, ayrimlari eskilik sarqiti sifatida baholangan, yana bir qismi esa kommunistik mafkura talablariga mos ravishda tashkil etilgandi. Buning natijasida ularning tabiiy rivojlanish jarayoni bir qadar izdan chiqqan, etnomadaniy xususiyatlari siyqalashib qolgandi. Milliy marosimlarning an’anaviy mazmunini qayta tiklamasdan turib, ulardagi sovet davrida tatbiq etilgan ko‘plab soxta unsurlarni bartaraf etmasdan turib, kishilar ongu-shuurini kommunistik mafkura iskanjasidan xalos qilib bo‘lmasdi.

O‘zbekiston mustaqilligi, davlat rahbariyatining yuqoridagi ob’ektiv zaruriyatga mutanosib ravishda amalga oshirgan siyosati milliy marosimlar ravnaqi uchun siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy zamin yaratdi. Chunonchi, milliy marosimlar davlat tomonidan huquqan e’tirof etildi, ularni nishonlash uchun ijtimoiy imkoniyatlar yaratildi. Milliy marosimlarning an’anaviy mazmunini tiklash, asrab-avaylash va rivojlantirish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayni paytda xalqning o‘z tarixiga, ajdodlar merosiga, milliy marosimlariga, qadriyatlariga erkin munosabat bildirish imkoniyati yaratildi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlar taraqqiyotidagi muhim tendentsiyalardan biri sovet davrida cheklangan, mafkuraviy jihatdan qayta talqin qilingan yoki norasmiy tarzda saqlanib kelgan milliy marosimlarning qayta jonlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Mazkur tendensiya dastlab Navro‘zning umumxalq bayram sifatida tiklanishida namoyon bo‘ldi. Navro‘z bilan bog‘liq marosimlarning tiklanishi bir zumda sodir bo‘lgan voqea emas**,** balki Sovet davri oxirida boshlangan va mustaqillik yillarida

davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan maʼnaviy-tarixiy jarayon edi. Maʼlumki, Sovet davrining soʻnggi yillarida Navroʻzga nisbatan mafkuraviy tazyiq kuchayib ketdi. Ayrim yillarda uni diniy bayram yoki eskilik sarqiti sifatida taqdim etishga urinishlar, uning nomini "Navbahor" kabi sunʼiy nomlar bilan almashtirishga intilishlar koʻzga tashlandi. Bu holat Sovet davrining ijtimoi inqirozlar bilan toʻlgan soʻnggi pallalarida Navroʻzning xalq xotirasida saqlanib kelgan qadimiy mazmuni va mavqei bilan kommunistik mafkura meʼyorlari oʻrtasidagi ziddiyat keskin kuchayib ketganidan darak beradi. Ana shunday murakkab bir vaziyatda Navroʻzni rasmiy ravishda tiklash sari ilk huquqiy qadam qoʻyildi. Jumladan, 1990 yilning 3 mayida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Navroʻz xalq bayramini oʻtkazish yakunlari toʻgʻrisidagi" Farmoni qabul qilindi. Farmonda mazkur marosimning milliy maʼnaviyatdagi oʻrni va ahamiyati alohida eʼtirof etildi hamda Oʻzbekiston hududida har yili 21 mart dam olish kuni va umumxalq Navroʻz bayrami kuni deb eʼlon qilindi. Mazkur Farmon mustaqillik arafasida milliy marosimlarni tiklash yoʻlidagi muhim siyosiy-huquqiy burilish boʻldi.

Mustaqillikdan keyin Navroʻz bilan bogʻliq marosimlarning mazmuni yanada kengaytirildi. U endilikda nafaqat bahor, tabiatning uygʻonishi va dehqonchilik mavsumining boshlanishi bilan bogʻliq bayram sifatida, balki milliy oʻzlik, tarixiy xotira, mehr-oqibat, bagʻrikenglik va bunyodkorlik ramzi sifatida talqin qilina boshladi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 5 martdagi Qarorida Navroʻz munosabati bilan "Mustaqillik, tinchlik, mehr-shafqat" xayriya hashari va telemarafoni oʻtkazishning belgilanishi ham bayram marosimlariga yangicha mazmun baxsh etilganini koʻrsatadi. Navroʻzning umumxalq bayrami sifatidagi maqomi keyingi yillarda ham huquqiy jihatdan mustahkamlab bordi. Xususan, Mehnat kodeksida 21 mart - Navroʻz bayrami ishlanmaydigan bayram kuni sifatida belgilab qoʻyildi. Bu Navroʻzning davlat tomonidan rasman eʼtirof etilgan umummilliy marosim maqomiga ega boʻlganini namoysh etardi.

Keyingi yillarda Navroʻz bilan bogʻliq marosimlarning tiklanishi bir necha yoʻnalishda kechdi. Birinchidan, mazkur marosimlar Sovet davriga xos mafkuraviy cheklovlardan ozod qilindi**.** Ikkinchidan, bayram tarkibidan

joy olgan qadimiy xalqona marosimlar - sumalak pishirish, hashar, sayillar, milliy oʻyinlar, folklor guruhlari chiqishlari, keksalarni ziyorat qilish, ehson va xayriya ishlari qayta jonlandi. Uchinchidan, Navroʻz jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi umumxalq bayramiga aylandi. Toʻrtinchidan, Navroʻz mazmuni mustaqillik, tinchlik, mehr-oqibat, bagʻrikenglik va yangilanish gʻoyalari bilan boyitildi. Xuddi shuning uchun ham tez orada Navroʻz xalqaro miqyosda ham e'tirof etildi. Jumladan, YUNESKO xalqaro tashkiloti 2009 yilda Navroʻzni Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ roʻyxatiga kiritdi, BMT Bosh Assambleyasi esa 2010 yilda 21 martni Xalqaro Navroʻz kuni deb e'lon qildi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlarning qayta jonlanishi asida islomiy mazmunga ega boʻlgan, ammo oʻzbek xalqining tarixiy turmush tarzi va milliy qadriyatlari bilan uygʻunlashib ketgan milliy-diniy marosim - Ramazon hayitining umumxalq bayramiga aylantirilishida ham namoyon boʻldi. Sovet davrida Ramazon hayitini keng jamoatchilik darajasida nishonlash imkoniyatlari cheklangan edi. Mustaqillik sharoitida esa bu bayramga munosabat tubdan oʻzgardi: Ramazon hayiti faqat diniy marosim emas, balki xalqning ma'naviy hayoti bilan bogʻliq qadriyat darajasiga koʻtarildi. Mazkur marosimning ilk huquqiy asosini Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 martda qabul qilingan "Roʻza hayitni dam olish kuni deb e'lon qilish toʻgʻrisida"gi Farmoni tashkil etdi. Farmonda "mustaqil Oʻzbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar oʻrtasida mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida" Roʻza hayit — Iyd al-Fitrning birinchi kuni dam olish kuni deb belgilandi.

Ramazon hayitining umumxalq bayrami sifatida tiklanishi faqat huquqiy e'tirof bilan cheklanmadi. Ayni paytda uning ijtimoiy mazmuni ham kengaytirildi. Xususan, hayit kunlari ota-ona va qarindoshlarni ziyorat qilish, keksalar holidan xabar olish, marhumlarni xotirlash, muhtojlarga yordam berish, fitr sadaqasi va xayriya ishlarini amalga oshirish, qoʻni-qoʻshnichilik va mahalla munosabatlarini mustahkamlash kabi amallarga ommaviy tus berildi. Keyinchalik Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ham Roʻza hayit - Iyd al-Fitr diniy bayramining birinchi kuni ishlanmaydigan bayram kuni sifatida qayd etildi. Shu tariqa Ramazon hayiti

munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlar halq ma’naviy hayotidan mustahkam o‘rin oldi. Ko‘rinadiki, O‘zbekistonda Ramazon hayitining tiklanishi uch asosiy bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda bayramning huquqiy maqomi tiklandi va uning birinchi kuni dam olish kuni sifatida belgilandi. Ikkinchi bosqichda Ramazon hayiti xalqning ma’naviy hayotida mehr-oqibat, saxovat, qarindoshlik, mahalla hamjihatligi va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlovchi umumiy qadriyat sifatida qayta jonlandi. Uchinchi bosqichda bayramni nishonlash tizimi davlat, diniy idoralar, mahalla, oila va jamoat tashkilotlari ishtirokida barqaror institutsional shaklga ega bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida Qurbon hayiti bilan bog‘liq marosimlar ham qayta tiklandi. Sovet davrida davlat tomonidan rasman tan olinmagan mazkur marosim umumxalq bayramiga aylantirildi hamda mazmunan boyitildi.

Hashar marosimi mazmunidagi o‘zgarishlar ayniqsa e’tiborli bo‘ldi. Ma’lumki, hashar asrlar davomida jamoaviy mehnat va beg‘araz ko‘mak bilan bog‘liq amallar majmuini o‘zida mujassam qilib kelgan. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida qayd qilinishicha, hashar hosilni yig‘ib olish, ariqlar qazish, imoratlar barpo etish, yo‘l va ko‘priklar qurish kabi yumushlarni tezkor ado etish maqsadida o‘tkazilgan. U odatda qishloq yoki mahalla miqyosida tashkil etilgan. Hasharda ishtirok uchun haq to‘lanmagan, u jamiyat a’zolari tomonidan axloqiy burch sifatida qabul qilingan. Shu boisdan hashar nafaqat jamoaviy mehnat bilan bog‘liq tadbir, balki ijtimoiy tarbiya vositasi ham sanalgan.

Sovet davrida hashar boshqa milliy marosimlar kabi kommunistik mafkuraga mos ravishda qayta talqin qilindi. Bu pallada jamoaviy mehnat va beg‘araz ko‘mak vositasi bo‘lib kelgan mazkur marosim kommunistik shanbalikka aylantirildi. Buning qator sabablari bor edi, albatta. Sovet hukumati aholini obodonlashtirish va qurilish ishlariga ommaviy, buning ustiga bepul jalb etishdan manfaatdor edi. Hukumat kommunistik shanbaliklar vositasida kishilarni partiya siyosatiga va sotsialistik turmush tarziga sodiq fuqarolarga aylantirishga ham intilardi. Biroq, harchand urinilmasin, kommunistik shanbalik beg‘araz yordamga asoslangan hasharning o‘rnini bosa olmadi. Faqat mustaqillik yillariga kelibgina hashar

marosimi kommunistik talqindan butkul xalos etildi hamda xayr-saxovat, obodonchilik va jamoaviy hamjihatlik an’anasiga aylantirildi. Hasharning mafkuraviy maqsadi o‘zgardi: u endi kommunistik tarbiya vositasiga emas, Vatan obodli-gi, milliy qadriyatlar ifodasiga aylandi. Hozirgi davrda hasharning asosiy vazifalari obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, mahalla, ko‘cha, ziyoratgoh va qabristonlarni tartibga keltirish,ehtiyojmandlarga ko‘maklashish, jamoaviy birlikni mustahkamlashdan iborat bo‘lib bormoqda. Shuning bilan bir qatorda joylarda hashar marosimlarida ishtirok etgan kishilar soni muttasil oshib borayotganini ham qayd etib o‘tmoq zarur.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlar tizimida yuz bergan muhim o‘zgarishlardan biri oilaviy marosimlarning bir tomondan milliy madaniyatga xos elementlar, ikkinchi tomondan esa diniy mazmun bilan boyishi bo‘ldi. Masalan, mustaqillik yillarida nikoh marosimida ikki yo‘nalish uyg‘unlashdi: bir tomondan, ikki yosh nikohining FHDYO organlarida qayd qilish rusumi saqlanib qoldi, ikkinchi tomondan, shariat qoidalari asosida nikoh o‘qitish amallari ochiq ado etila boshlandi. Bundan ko‘rinadiki, mustaqillik yillarida nikoh marosimi nafaqat ikki yoshning oila qurganini huquqan e’tirof etuvchi tadbir, balki oila qurishning axloqiy va diniy mas’uliyatlarini qayd etuvchi marosim sifatida ham qayta anglana boshlandi. Ayni paytda nikoh munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlarda milliy madaniyat elementlaridan, ayniqsa xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish amaliyoti yuzaga keldi.

Milliy marosimlarning milliy madaniyatga xos elementlar hamda diniy mazmun bilan uyg‘un boyishi janoza va xotira marosimlarida ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Mustaqillikdan keyin janoza marosimining diniy mazmunga ega rusumlari — mayyitni g‘usl qilish, kafanlash, janoza namozini o‘qish, qabrga qo‘yish, fotiha va duo qilish, marhum haqqiga xayr-ehson qilish kabi amallar ochiq va jamoaviy tarzda bajarila boshladi. Shu bilan birga janoza va xotira marosimlari hamdardlik, hamjihatlik, qarindoshchilik, qo‘ni-qo‘shnichilik, marhum xotirasini e’zozlash kabi milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘landi.

E’tirof etish mumkinki, mustaqillik yillarida oilaviy marosimlar milliy o‘zlikni anglashning amaliy maydoniga aylandi. Nikoh orqali oila

muqaddasligi, beshik to‘yi orqali avlod davomiyligi, sunnat to‘yi orqali diniy mansublik va farzand kamoloti, janoza orqali o‘tganlar xotirasiga hurmat, jamoaviy hamdardlik va hamjihatlik kabi qadriyatlar mustahkamlandi. Bu marosimlar xalq e’tiqodi va tarixiy xotirasi, qadriyatlari va axloqiy me’yorlarini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Alohida e’tirof etish zarurki, mustaqillik yillarida milliy marosimlar huquqiy jihatdan qat’iy qo‘llab-quvvatlana boshlandi. Jumladan, birinchidan, milliy marosimlarning asrab-avaylanishi va erkin amalga oshirilishi uchun konstitutsiyaviy asos yaratildi. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 35-moddasida barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligining kafolatlanishi, har kim xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi belgilandi. Bu huquqiy e’yor Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, nikoh o‘qitish, janoza, fotiha, ziyorat kabi diniy mazmunga ega milliy marosimlarni erkin bajarish uchun huquqiy zamin yaratdi.

Ikkinchidan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunida diniy mazmun bilan yo‘g‘rilgan milliy marosimlarda ishtirok etish yoki ishtirok etmaslik fuqaroning shaxsiy huquqi ekanini mustahkamlab qo‘yildi. Qonunda fuqaro dinga munosabatini belgilayotganda, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etish yoki ishtirok etmaslik masalasida majburlanishi mumkin emasligi qayd etildi. Bu huquqiy me’yor diniy mazmundagi milliy marosimlarni huquqiy jihatdan himoya qilish, ularni ixtiyoriylik va vijdon erkinligi asosida amalga oshirish, ularda ishtirok etishni erkikn belgilash imkonini kengaytirdi.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida milliy va diniy bayramlar ishlanmaydigan bayram kunlari sifatida rasman e’tirof etildi (bu haqida yuqorida ta’kidlab o‘tildi).

To‘rtinchidan, milliy marosimlar nomoddiy madaniy meros sifatida muhofaza qilina boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Qarorida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish,

roʻyxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targʻib qilish va saqlash ishlari ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilandi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros namunalarini roʻyxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bogʻliq davlat xizmatlarini koʻrsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” Qarorida esa “nomoddiy madaniy meros namunalarining milliy roʻyxati” tushunchasi belgilanib, uni Madaniyat vazirligi tasdiqlashi va vakolatli organ yuritishi nazarda tutildi. Mazkur huquqiy mexanizm beshik toʻyi, sunnat toʻyi, nikoh toʻyi, dafn, xalq sayillari kabi marosimlarni madaniy meros sifatida muhofaza qilish imkonini yuzaga keltirdi.

Oltinchidan, milliy marosimlarning rivoji davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalarida aks ettirildi. Xususan, “Oʻzbekiston-2030” strategiyasida kamida 3 ta noyob nomoddiy madaniy meros namunasini YUNESKO xalqaro roʻyxatlariga kiritish, 30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish vazifalari belgilangan. Bu chora milliy marosimlarni xalqaro e’tirof etilgan hamda madaniy siyosat ob’ekti sifatida qoʻllab-quvvatlash imkonini vujudga keltirdi.

Ettinchidan, toʻylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarning oʻtkazilishi maxsus normativ tartib asosida boshqarila boshlandi. Jumladan, 2019 yilda “Toʻylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni oʻtkazishni tartibga solish toʻgʻrisida”gi Nizom tasdiqlandi. Bu huquqiy hujjat milliy marosimlarni taqiqlashga emas, balki ularni milliy qadriyatlarga mos, ixcham, tartibli va isrofgarchiliksiz oʻtkazishga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida baholanadi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlarning tashkiliy jihatdan qoʻllab-quvvatlanishi ham takomil topdi. Bu boradagi sa’y-harakatlar marosimlarni oqilona rejalashtirish amaliyotini qaror toptirishga, ularning oʻtkazilishini muvofiqlashtirish va moliyalashtirishga, tadbirlar chogʻida ishtirokchilarning xavfsizligini ta’minlashga, ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olishga qaratildi. Mazkur intilishlar samarasi oʻlaroq milliy marosimlarning tashkil etilishi va oʻtkazilishi davlat madaniy siyosatining, jamiyatda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Oʻzbekistonda milliy marosimlarning tashkiliy jihatdan qoʻllab-quvvatlanishini juz’an quyidagilarda koʻrish mumkin:

Birinchidan, mamlakatda ayrim milliy marosimlarning o‘tkazilishi oldidan tashkiliy qo‘mitalar tuzish amaliyoti shakllandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026 yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risidagi” Qarorida bayram marosimlarini “Navro‘zni ulug‘lash – insonni ulug‘lashdir!” degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida nishonlash belgilangan. Ushbu qaror bilan Navro‘zga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi ham tasdiqlangan. Qo‘mitaga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va “Nuroniy” jamg‘armasining taklifiga ko‘ra bayramning g‘oyaviy mazmunini kuchaytirishga oid kontseptni ishlab chiqish topshirilgan.

Ikkinchidan, umumijtimoiy ahamiyatga molik milliy marosimlarni maxsus dasturlar asosida tashkil qilish yo‘lga qo‘yildi.Masalan, 2026 yilgi Navro‘z marsimlari Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda maxsus tashkiliy-amaliy, madaniy-ma’naviy hamda targ‘ibot tadbirlari dasturi asosida o‘tkazildi. Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish ishlariga bunday yondashuv davlat tashabbuslarini mahalliy tashabbuslar bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi.

Uchinchidan, milliy marosimlarni mamlakatning turli hududlarida qaror topgan an’analar va rasm-rusumlar bilan boyitish ishlariga e’tibor kuchaydi. Masalan, ayrim sayillarni hududlarga xos xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar tashkil etish orqali o‘tkazish, ularni uyushtirishga mahalliy stsenaristlar, rejissyorlar, bastakorlar, musavvirlar, xonandalarni jalb qilish odat tusiini oldi. Bunday yondashuv milliy marosimlarni mahalliy-etnografik elementlar bilan boyitishga xizmat qildi.

To‘rtinchidan, ko‘plab milliy marosimlarning o‘tkazilishi uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar takomil toptirildi. Ahamiyatli marosimlarning xarajatlarini respublika va mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplash amaliyoti yuzaga keldi. Mazkur choralar milliy marosimlarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini rivojlantirdi.

Beshinchidan, davlat organlari, diniy idoralar va jamoat tashkilotlarining milliy marosimlarni o‘tkazishdagi hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risidagi” Qarorida 2026 yilgi Ramazon hayitini Qora-qalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda milliy an’ana va urf-odatlarga uyg‘un holda o‘tkazish choralarini amalga oshirish belgilandi.

Oltinchidan, milliy marosimlarni tartibli va ixcham o‘tkazishga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizm asoslari yaratildi. Xususan, 2019 yilda “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi, marosimlarning o‘tkazilishini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tuzildi, marosimlarni ixcham va tartibli o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi.

Ettinchidan, marosimlarni tashkil etishda jamoatchilik nazorati instituti kuchaytirildi. Bu vazifalar bilan Respublika komissiyasi, hududiy komissiyalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, “Nuroniy” jamg‘armasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi,O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Yosh-lar ittifoqi o‘z vakolatlari doirasida shug‘ullanishi belgilab qo‘yildi.

Sakkizinchidan, milliy marosimlarni ilmiy ro‘yxatga olish va ekspertizadan o‘tkazish tadbirlari institutsionallashtirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi” Qarori bilan nomoddiy madaniy meros ob’ektlari ro‘yxatini Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti yuritishi, mahalliy ro‘yxatlar milliy ro‘yxatni, milliy ro‘yxat esa YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga tavsiya etiladigan ob’ektlar ro‘yxatini to‘ldirib borishi belgilandi.

E’tiborli tomoni shundaki, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng milliy marosimlarning ma’naviy jihatdan qo‘llab-

quvvatlanayotganidan dalolat beruvchi holatlar ham koʻzga tashlana boshladi. Xususan:

Birinchidan, davlat rahbari maʼroʻzalarida, normativ-huquqiy hujjatlarda, ommaviy axborot vositalaridagi koʻrsatuv va maqolalarda milliy marosimlar milliy oʻzlikni va tarixiy xotirani tiklash vositasi sifatida talqin qilina boshlandi. Navroʻz, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, nikoh, beshik toʻyi, sunnat toʻyi, janoza, xotira va fotiha kabi milliy marosimlar sovet davridagi kabi eskilik sarqiti emas, milliy maʼnaviyatning ajralmas qismi sifatida tavsiflanadigan boʻldi.

Ikkinchidan, jamiyatda milliy marosimlarni tarbiyaviy ahamiyatga molik tadbirlar, rasm-rusumlar majmui sifatida talqin qilish kayfiyati shakllantirildi. Milliy marosimlar yosh avlodda ota-onaga hurmat va keksalarni eʼzozlash toʻygʻularini shakllantirishga,saxovat, mehr-oqibat, shukronalik va bagʻrikenglik fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qilishi alohida eʼtirof etila boshlandi.

Uchinchidan, davlat rahbarining maʼruzalari, Qaror va Farmonlari sharofati bilan milliy marosimlarni maʼnaviy birlikni taʼminlovchi, insonparvarlik gʻoyalarini tarannum etuvchi tadbirlar sifatida tavsiflash urf boʻldi. Masalan, huquqiy hujjatlarda Navroʻzning odamlarni tenglik, adolat va oʻzaro mehr-oqibatga chorlovchi marosim ekanligi bot-bot eʼtirof etila boshlandi.

Toʻrtinchidan, Ramazon va Qurbon hayitlari maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar manbai sifatida tavsiflanadigan boʻldi. Huquqiy hujjatlarda Ramazon va Qurbon hayitlari jamiyatda insonparvarlik, oʻzaro hurmat, rahm-shafqat va mehr-oqibat gʻoyalarining qaror topishiga xizmat qilishi taʼkidlandi.

Beshinchidan, milliy marosimlarning ahamiyatini madaniyat va sanʼat asarlari, maqola va koʻrsatuvlar, maʼrifiy tadbirlar vositasida targʻib qilish instensivlashdi. Bu jarayonga mamlakatning eng salohiyatli olimlari, shoirari, yozuvchilari, musavvirlari, rejisserlari, akterlari va shu kabi ijodkorlar jalb etildi.

Mustaqillik yillarida milliy marosimlarning tiklanishi va ularga munosabatning oʻzgarishi jiddiy ijtimoiy-madaniy oqibatlarga olib keldi. Chunonchi, xalq tarixida ilk bor milliy marosimlar davlat amalga oshi-

rayotgan madaniy siyosatning muhim ob’ektiga aylandi. Ularga shunchaki mahalliy miqyosda yoxud oilalarda o‘tkaziladigan udum sifatida emas, balki xalqning nomoddiy madaniy merosi sifatida qarala boshlandi. Buning oqibati o‘laroq milliy marosimlarning ijtimoiy pozitsiyalari mustahkamlandi va jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy muhiti boyidi. Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, nikoh, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, janoza, xotira va fotiha kabi marosimlar asl mazmunining tiklanishi jamiyat a’zolarida milliy o‘zlik tuyg‘ularini yuksaltirdi. Xalq vakillari o‘z urf-odatlari va marosimlariga erkin munosabat bildirish imkoniga ega bo‘ldilar. Milliy marosimlarning cheklangan tartibda emas, erkin o‘tkazila boshlangani mahalla va qishloqlardagi qarindosh-urug‘chilik, qo‘ni-qo‘shnichilik, jamoaviy birlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Yosh avlodning milliy marosimlar haqidagi tasavvurlarining kengayishi, ularga ishtirok etish tajribasining oshishi esa ularni tom ma’noda ma’naviy tarbiya vositasiga aylantirdi. Shu tariqa milliy marosimlar tobora murakkablashib borayotgan dunyoda xalq tarixiy xotirasini va ijtimoiy hamjihatligini ta’minlashga qodir mexanizm bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o‘tgan yillarda milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi o‘zgarishlarning tizimli tahlili mazkur o‘zgarishlarning asosiy tendensiyalarini ifodalash imkonini beradi. Chunonchi, mustaqillik yillarida milliy marosimlar tadrijida quyidagi o‘zgarishlar tendensiyaviy tus oldi:

- milliy marosimlarning asl, an’anaviy mazmunini tiklashga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar uzluksiz xarakter kasb etdi;
- milliy marosimlarning barchasi huquqiy jihatdan e’tirof etila boshlandi;
- milliy marosimlarning nomoddiy madaniy meros sifatida qadrlanadigan bo‘ldi;
- milliy marosimlarning tashkiliy-institutsional qo‘llab-quvvatlanishi tizimli tus oldi;
- milliy marosimlar mazmunida an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unlasha boshladi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati kuchaydi;
- milliy marosimlar ijtimoiy hamjihatlik vositasi sifatida faollashdi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida milliy marosimlarni tiklash va ravnaq toptirish, uning mazmunini sovet davrida tatbiq etilgan soxta unsurlardan butkul xalos qilish ishlari davlat madaniy siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu siyosat doirasida milliy marosimlar huquqiy, tashkiliy, ma’naviy jihatdan qat’iy qo‘llab-quvvatlana boshlandi.Tizimli sa’y-harakatlar sovet davrida cheklangan, mafkuraviy jihatdan qayta talqin qilingan yoki norasmiy tarzda saqlanib kelgan milliy marosimlarning qayta jonlanishiga olib keldi. Shu tariqa milliy marosimlar jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy muhitni boyitish, milliy o‘zlik tuyg‘usini yuksaltirish, tarixiy xotirani mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashning muhim vositasiga aylandi.

2-bob xulosalari

1. Milliy marosimlar tadriji to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: a) zardushtiylik ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar davri; b) islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlar davri; v) Sovet hokimiyati yillarida mazmunan va shaklan o‘zgargan milliy marosimlar davri; g) mustaqillik yillarida tiklangan va rivojlangan milliy marosimlar davri.
2. Birinchi va ikkinchi bosqichda Markaziy Osiyo xalqlarining tabiat kuchlarini ilohiylashtirish bilan bog‘liq diniy tasavvurlariga tayangan marosimlari avval zardushtiylik, so‘ngra esa islom ta’limoti g‘oyalari ta’sirida mazmunan boyidi.
3. Sovet davrida milliy marosimlar diniy dunyoqarash ta’sirida shakllangan ijtimoiy hodisa, eskicha turmush tarzining muhim unsuri sifatida baholandi. An’anaviy milliy marosimlar sotsialistik turmush tarzini ifodalovchi va sovet kishisini voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi fuqarolik marosimlari bilan almashtirildi. Shunga qaramasdan, qishloq va mahallalarda, oilaviy muhitda o‘tkazilgan marosimlarda an’anaviy unsurlar yashirin tarzda saqlanib qoldi.
4. Mustaqillik yillarida huquqiy, tashkiliy, ma’naviy jihatdan qat’iy qo‘llab-quvvatlangan milliy marosimlar jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy muhitni boyitish, milliy o‘zlik tuyg‘usini yuksaltirish, tarixiy xotirani mustahkamlash, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash vositasiga aylandi

III-BOB. GLOBALLAShUV SHAROITIDA MILLIY MAROSIMLAR MAZMUNI VA XARAKTERIDAGI TRANSFORMATSIYALAR

Bobda zamonaviy global jarayonlarning milliy marosimlar tizimiga ijtimoiy-madaniy ta’siri, ushbu ta’sir natijasi o‘laroq jamoaviy va oilaviy marosimlar mazmuni va o‘tkazilishi shakllarida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, madaniy globallashuv, ommaviy madaniyat, urbanizatsiya, migratsiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, bozor munosabatlari, xizmat ko‘rsatish industriyasi va iste’molchilik psixologiyasining milliy marosimlar mazmuni va xarakteriga ta’siri ochib beriladi.

Globallashuv ta’sirida jamoaviy marosimlar mutlaqo yangicha mazmun kasb eta boshladi. Ular, bir tomondan, milliy hamjihatlik va avlodlararo vorisiylik omili sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Shu bilan birga, ikkinchi tomondan, jamoaviy marosimlar zamonaviy jamiyatda o‘ta muhim ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-tarbiyaviy va integrativ vazifalarni ham bajara boshladi. Xuddi shunday o‘zgarishlarni oilaviy marosimlar mazmuni va xarakterida ham ko‘rish mumkin. Bugungi oilaviy marosimlarda asrlar davomida qadr-qimmatini yo‘qotmay kelgan unsurlar zamonaviy turmush tarziga xos bo‘lgan me’yorlar bilan uyg‘un tarzda namoyon bo‘lmoqda. Bobda zamonaviy milliy marosimlarning mazkur atributlari atroflicha tavsiflanadi. Ayni paytda ayrim jamoaviy marosimlarda rasmiyatchilik va namoyishkorlik, oilaviy marosimlarda esa dabdababozlik, isrofgarchilik kabi salbiy holatlar bot-bot ko‘zga tashlanmoqda. Bobda ushbu holatlarning sabab va oqibatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

III.1. Globallashuvning milliy marosimlar tizimiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy omillari

Yangi asrda jamiyatlar va xalqlar, davlatlar va mamlakatlar, iqtisodiyotlar va madaniyatlar o‘rtasidagi turfa munosabatlar milliy hududlar doirasidan chiqib, umumjahon miqyosida kechadigan murakkab, ko‘p qirrali va ziddiyatli sivilizatsion jarayonga aylandi. Ilmiy manbalarda ushbu jarayon globallashuv tendensiyasi sifatida e’tirof etila boshlandi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan globallashuv insonlar, xalqlar va

madaniyatlar oʻrtasidagi masofaning qisqarishi, axborot oqimlarining tezlashishi, turli madaniy andozalarning bir-biri bilan toʻqnashuvi, aralashuvi va qayta shakllanishi jarayoni sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu jarayon natijasida bir mamlakatda paydo boʻlgan gʻoya, turmush tarzi, xulq-atvor modeli, oʻzaro munosabat shakli qisqa muddatda boshqa jamiyatlarga ham tarqalmoqda. Faylasuflarning mulohazalariga qaraganda, yangi asrda ushbu jarayonlar butun insoniyatning hayot tarzini tubdan transformatsiya qiluvchi ob'ektiv tendensiyaga aylana boshladi.

Ijtimoiy falsafada globallashuv koʻp qirrali, turli jabhalarga ega boʻlgan tendensiya sifatida tavsiflanmoqda. Chunki bugungi kunda mazkur tendensiya kishilik jamiyatining barcha sohalarida yuz koʻrsatmoqda. Jumladan, "iqtisodiy globallashuv – koʻplab toʻgʻridan-toʻgʻri va teskari aloqalarni oʻz ichiga olgan koʻpqirrali hamda ziddiyatli hodisa boʻlib, bu aloqalarda koʻpmillatli va milliy tijoriy tarkiblar, milliy davlatlar va ularning muassasalari, mintaqaviy koʻpmillatli birlashmalar, rasmiy va norasmiy xalqaro tashkilotlar ishtirok etadilar, ularning oʻzaro munosabatlarida keskin raqobat bilan oʻzaro hamkorlik elementlari uygʻunlashib ketadi". Globallashuv belgilarini jamiyatning moliyaviy sohasida ham koʻrish mumkin. Zamonaviy moliyaviy globallashuv moliyaviy xizmatlarning baynalminallashuvida, xorijiy banklar va boshqa moliyaviy muassasalarning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib borayotganida, hissadorlik ka-pitali va xalqaro investitsiyalar oqimining oʻsishida, mamlakatlar qarzi va kreditlari miqdorining oshishida oʻz ifodasini topmoqda. Siyosiy globallashuv xalqaro siyosiy tuzilmalarning paydo boʻlishi va faollashuvida namoyon boʻlmoqda. Huquqiy globallashuv esa, bir tomondan, turli mamlakat va davlatlar, ikkinchi tomondan esa jismoniy va yuridik shaxslar oʻrtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtiruvchi umumiy huquqiy me'yorlarning shakllanayotganida zuhur boʻlmoqda. Madaniy globallashuv belgilari milliy madaniyatlar integratsiyasi jarayonlarida va yagona umuminsoniy madaniyatning qaror topayotganida koʻrinmoqda. Ekologik globallashuv umumjahon ekologik integratsiya va unifikatsiya jarayonida, ekologik munosabatlar, ekologik vaziyat, ekologik muammolarning global tus olishida namoyon boʻlmoqda.

Biz tadqiqot maqsadi va mantig‘idan chetga chiqib ketmaslik niyatida globallashuv tendentsiyasining mazmuni va maqsadi, sabablari va oqibatlari, yo‘nalishlari va sohalari tahliliga to‘xtalib o‘tirmaymiz. Asosiy e’tiborni globallashuv bilan milliy marosimlar tadriji o‘rtasidagi aloqadorlikka qaratish bilan cheklanamiz. Gap shundaki, yangi asrdagi globallashuv jarayoni milliy marosimlar tizimiga ham jiddiy ta’sir o‘tkaza boshladi. Bugungi kunda bu ta’sir o‘ta murakkabligi bilan xarakterlanmoqda. Chunonchi, bir tomondan, globallashuv madaniyatlararo muloqotni faollashtirmoqda. Ushbu muloqot davomida xalqlar bir-birining madaniy tajribasi, turmush tarzi, marosimlari bilan tanishmoqda. Tanishuv milliy marosimlar mazmunining boyishiga, ularning zamonaviy hayot talablariga moslashishiga xizmat qilayotganiga shubha yo‘q. Ammo, ikkinchi tomondan, globallashuv milliy marosimlar mazmuni va mohiyatini tubdan o‘zgartirishga qodir ijtimoiy-madaniy omillarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ldi. Ushbu omillar mohiyati va namoyon bo‘lishi shakllarini, ularning milliy marosimlar mazmuni va xarakteriga ta’siri mexanizmlarini mufassal bilmasdan turib, milliy marosimlar tadrijining bugungi tendensiyalarini anglab olish mushkul.

Birinchidan, globallashuv yangi asrda ommaviy madaniyatning umumsay-yoraviy miqyosda tarqalishiga sababchi bo‘ldi, buning natijasida milliy marosimlarning mazmuni va estetik qiyofasi o‘zgarmoqda.

Globallashuv jahon sahnidagi madaniy jarayonlarni benihoya tezlashtirmoqda. Bu holat ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tarqalishida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ma’lumki, ommaviy madaniyat - keng omma iste’moli uchun ishlab chiqariladigan, bozor mexanizmlari, axborot texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali tez tarqaladigan madaniy mahsulotlar, uslublar, timsollar, didlar va turmush andozalari majmuidir. Uning asosiy belgilari madaniy mahsulotning keng auditoriyaga mo‘ljallangani, tez iste’mol qilishga moslashtirilgani, ko‘ngilocharlik xususiyatining ustuvorligi, turfa standartlarga moyilligi bilan bog‘liq. Ommaviy madaniyatning ildizlari sanoatlashuv, shaharlashuv, ommaviy ta’lim, bosmaxona va matbuotning rivojlanishi, keyinchalik kino, radio, televidenie va reklama industriyasining yuksalishiga borib taqaladi. U XX asr o‘rtalaridan e’tiboran Yevropa va

Shimoliy Amerikada romanlar, ommaviy musiqa, radio dasturlari, kinofilmlar va reklama mahsulotlari orqali alohida madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘la boshladi. O‘z vaqtida Frankfurt maktabi vakillari, ayniqsa M. Xorkxaymer va T. Adorno ommaviy madaniyatni “madaniyat industriyasi” deya atagan edilar. Ularning ta’kidlariga ko‘ra, XX asrda madaniy mahsulotlar ham sanoat tovarlari kabi ishlab chiqarila boshlandi hamda bozor manfaatlariga xizmat qiladigan bo‘lib qoldi. Ommaviy madaniyat aynan shu xususiyati bilan milliy madaniyatdan tubdan farq qiladi. Milliy madaniyat xalq tarixiy tajribasi, urf-odatlari, marosimlari, tili, axloqiy me’yorlari va ma’naviy xotirasiga tayansa, ommaviy madaniyat bozor, reklama, shou-biznes, ommaboplik, iste’mol qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

XXI asrda axborot texnologiyalarining shiddatli ravnaqi ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tarqalishiga sabab bo‘ldi. Internet, mobil aloqa, sun’iy yo‘ldosh televideniesi, striming platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli reklama tizimlari madaniy timsollarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga juda qisqa vaqt ichida tarqatish imkonini berdi. Mazkur jarayonlar oqibati o‘laroq jahon madaniy makonida global ko‘ngilochar industriya vujudga keldi. Bugungi kunda ushbu industriyaning o‘zagini Gollivudda suratga olingan filmlar, serial va kliplar, realitishoular, pop-musiqa namunalari, moda modellari, Yevropa turmush tarziga xos brendlar tashkil etmoqda.

E’tiborli jihati shundaki, G‘arb ommaviy madaniyatini o‘zida mujassam qilgan mazkur ko‘ngilochar industriya milliy marosimlarning estetik aspektlariga salmoqli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ommaviy madaniyatning milliy marosimlar estetik qiyofasiga ta’siri birinchi navbatda ularning tashqi bezagi va sahnalashtirilishida ko‘rinmoqda. Bugunning aksar marosimlarida sahna dizayni, chiroqlar, fotozona, maxsus dekoratsiyalar, videoekranlar, sun’iy gullar, bannerlar muhim o‘rin egallamoqda. Zamonaviy ommaviy madaniyat milliy marosim ishtrokchilarining tashqi qiyofasi va kiyinishida ham jiddiy iz qoldirmoqda. Masalan, bugungi nikoh marosimlaridagi kelin libosi, kuyov kostyumi, mehmonlar kiyimi, pardoz uslubi, soch turmaklari va fotosessiya obrazlarida xalqaro moda industriyasining ta’siri yaqqol sezilib qolmoqda. Ommaviy madaniyat

ta’siri o‘laroq milliy marosimlarda shou-biznes alomatlari vujudga kelmoqda. Aytaylik, to‘y-hashamlarda boshlovchi, xonanda, raqqosa, sahna ssenariysi, maxsus chiqishlar, kliplar, xoreografik kirib kelishlar, zamonaviy musiqiy dasturlar marosimning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bularning barchasidan ko‘rinadiki, globallashuv sharofati bilan umumsayyoraviy tus olgan zamonaviy ommaviy madaniyat bir tomondan milliy marosimlarni yangi estetik unsurlar bilan boyitayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ulardagi milliy unsurlarga jiddiy putur yetkazmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv yangi asrda kishilar iste’molchilik xulqining o‘zgarishiga sababchi bo‘ldi, buning natijasida milliy marosimlarda dabdaba unsurlari ko‘paymoqda.

“Iste’molchilik xulqi deganda shaxsning turli mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ularni iste’mol qilishdagi mayllarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashgan holda amalga oshirgan sa’y-harakatlari yig‘indisini tushunamiz”. Tadqiqotchi D. Xudoyberdiev o‘z monografiyasida iste’molchilik xulqining asosiy xususiyatlari xususida mulohaza yuritarkan, shunday deb yozadi: “Iste’molchilik xulqi konkret-tarixiy xarakterga ega, u barcha zamonlar uchun bir xil bo‘lgan yagona maqsad va barqaror manfaatga ega emas; ijtimoiy shart-sharoitlar, iste’molchiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hamda vositalar o‘zgarar ekan, iste’molchilik xulqining maqsad va vazifalari ham o‘zgaradi”.

Globallashuv sharoitida kishilar iste’molchilik xulqining o‘zgarishi bu xulosaning naqadar asosli ekanligini yaqqol ko‘rsatib berdi. An’anaviy jamiyatda iste’mol asosan ehtiyoj, urf-odat, oilaviy imkoniyat va jamoaviy me’yorlar bilan cheklangan bo‘lsa, globallashuv sharoitida u maqom, nufuz, obro‘ bilan bog‘lana boshlandi. Globallashuvning iste’molchilik xulqiga ta’siri bozor munosabatlarining kengayishi, mahsulot va xizmatlar xilma-xilligining ortishida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv iste’molning ramziy ma’nosini ham kuchaytirmoqda. Endilikda mahsulot yoki xizmat faqat zaruriy ehtiyojlarni qondirish vositasi emas, balki shaxs yoki oilaning ijtimoiy maqomi, iqtisodiy imkoniyatlari va obro‘-e’tiborini ko‘rsatuvchi nishona sifatida ham qabul qilinmoqda.

Globallashuv sharoitida kishilar iste’molchilik xulqida ro‘y bergan o‘zgarishlar milliy marosimlardagi dabdaba unsurlarini ko‘paytirib yubordi. Ijtimoiy taraqqiyotning avvalgi davrlarida kishilar milliy marosimlarni o‘tkazishda asosan uning an’anaviy mazmuni va ahamiyatiga e’tiborni jamlagan bo‘lsalar, globallashuv sharoitida uning vositasida o‘z maqomi va iqtisodiy imkoniyatlarini ko‘z-ko‘z qilish odat tusini oldi. Masalan, asrlar davomida nikoh to‘yi, beshik to‘yi, sunnat to‘yi kabi oilaviy marosimlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad oilaviy quvonchni yaqinlar bilan baham ko‘rish, avlodlar davomiyligini nishonlash, qarindosh-urug‘ va mahalladoshlar bilan munosabatlarni mustahkamlashdan iborat bo‘lgan. Iste’molchilik kayfiyati avj olgan bugungi kunda bu marosimlar imkoniyatlar namoyishiga aylanib ketmoqda. An’anaviy mehmondorchilik asrlar mobaynida o‘zbek xalqining muhim marosimi bo‘lib kelgan bo‘lsa, bugungi kunda u iste’molchilik kayfiyatining avj olishi ta’sirida ortiqcha taomlarni, qimmatbaho mahsulotlarni, me’yoridan ziyod sarf-xarajatlarni ko‘z-ko‘z qilish tadbiriga aylanmoqda. Natijada mehmondorchilikning duo olish, shaxsiy quvonchlar bilan bo‘lishish, hamjihatlik va birodarlikni mustahkamlash bilan bog‘liq asl maqsadi ortiqcha moddiy sarf-xarajatlar soyasida qolib ketmoqda.

Dabdaba unsurlari oilalar o‘rtasidagi ijtimoiy raqobatni ham keskinlashtirmoqda. Bir oila boshqa oila o‘tkazgan marosimni ko‘rib, undan kam bo‘lmagan darajada marosim tashkil qilishga, uni yangi dabdaba unsurlariga burkangan yangi, sun’iy rasm-rusum biln boyitishga bel bog‘lamoqda. Shu tariqa milliy marosimlar avval mavjud bo‘lmagan, aslida biror bir ahamiyatga ega bo‘lmagan sahnalashtirilgan chiqishlar, sovg‘a topshirish marosimlari, maxsus videolavhalar va hokazolar evaziga murakkablashib ketmoqda.

Dabdaba faqat to‘ylar va mehmondorchilik marosimlarida emas, balki ma’raka va xotira marosimlarida ham kuzatilmoqda. Ta’ziya, janoza va xotira marosimlarining mohiyati aslida marhumni xotirlash, oilaga hamdardlik bildirish bilan bog‘liq bo‘lmog‘i lozim. Ammo iste’molchilik kayfiyati avj olgan bir pallada bunday marosimlarda ham dasturxon bezatish, ziyofatlar uyushtirish rusumlari odat tusini olmoqda. Bularning barchasidan ko‘rinadiki, globallashuv sharofati bilan o‘zgargan

iste’molchilik xulqi milliy marosimlardagi dabdaba unsurlarini benihoya ko‘paytirmoqda.

Uchinchidan, globallashuv yangi asrda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishiga sababchi bo‘ldi, buning natijasida milliy marosimlarni o‘tkazish muhiti va shakli o‘zgarmoqda.

Urbanizatsiya - “jamiyat hayotida shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy roli oshib borishining tarixiy jarayoni. Hozirgi davrga kelib, bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy, demografik, etnografik, madaniy strukturasidagi miqdoriy o‘zgarishlardan tashqari, muayyan tarixiy makonda ijtimoiy munosabatlarning mushtaraklashuvi, mujassamlashuvi va intensivlashuvining sifat jihatlarini ifodalaydigan universal falsafiy tushunchaga aylandi”. Barcha ijtimoiy tendentsiyalar kabi urbanizatsiyaning ham o‘z xususiyatlari mavjud. “Urbanizatsiyaning asosiy xususiyati,- deb yozadi o‘z avtoreferatida tadqiqotchi N.Xolmirzaev,- bu shaharlar tarmog‘ining rivojlanishi, yangi shahar posyolkalarining paydo bo‘lishi va mavjudlarining o‘sishidir. Shaharlar hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlari, ularning o‘lchamlari va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati urbanizatsiyaga bevosita bog‘liqdir. Urbanizatsiyaning bundan tashqari yana ikki xususiyati o‘zaro yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar asosida yuzaga keladi. Birinchisi, shaharlarning o‘sishi va ularning funktsiyalari-ning o‘sishi va rivojlanishi, ularning faoliyatining barcha sohalarida ko‘proq ishchilarning jalb qilinishidir. Ikkinchisi, qishloq xo‘jaligida texnika rivojlanib borishi bilan ishchi kuchining bo‘shashi, bu qishloq aholisining kamayishiga olib keladi”.

Yangi asrda globallashuv jarayonlari ta’siri o‘laroq urbanizatsiya tendensiyasi sezilarli darajada jadallashmoqda. Shaharlar iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishi, xususan sanoat korxonalari, savdo, transport va maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlari, ta’lim va tibbiyot muassasalarining shaharlarda jamlanishi qishloq ahlisining shaharlarga ko‘chib o‘tish ishtiyoqini oshirmoqda. Ayniqsa qishloq xo‘jaligining texnikalashuvi oqibatida ishsiz qolgan yoshlar ko‘proq shaharlarga intilmoqdalar. Keyingi yillarda jahon mamlakatlari bo‘ylab tobora yorqinroq ko‘zga tashlanayotgan qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, yer unumdorligining

pasayishi, choʻllashuv kabi ekologik ofatlar ham qishloq aholisi turmushini ogʻirlashtirmoqda va shaharlar sari undamoqda.

Tobora koʻproq kishilarning qishloqlardan shaharlarga koʻchib oʻtishi shaharlardagi turmush tarzini oʻzgartirmoqda, ulardagi infratuzilmaga bosimni oshirmoqda. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, urbanizatsiya jarayonlari milliy marosimlarning oʻtkazilishi muhiti va shaklini ham oʻzgartirmoqda. Xususan, qishloq va an'anaviy mahalla muhitida milliy marosimlar koʻpincha hovli, koʻcha, mahalla guzari yoki jamoaviy maydonlarda oʻtkazilardi. Bunday muhitda marosim tabiiy ravishda qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻ va mahalla ahlining bevosita ishtirokiga asoslanardi. Shahar sharoitida esa milliy marosimlarni mazkur muhitda oʻtkazish imkoniyati ancha cheklangan. Natijada milliy marosimlarni oʻtkazish ob'ektlari qishloq va mahallalardan toʻyxonalar, restoranlar kabi maxsus xizmat koʻrsatish obektlariga koʻchmoqda. Milliy marosimlarning bunday maxsus obektlarda oʻtkazilishi ularning jamoaviy muhitini oʻzgartirmoqda. Qishloq yoki hududdagi mahallada milliy marosim jamoa ishtirokida kechadigan voqea boʻlardi: unda kimdir mehmon kutar, kimdir ovqat tayyorlar, kimdir xizmat koʻrsatardi. Shaharda esa bu vazifalarning katta qismi oshpaz, ofitsiant, boshlovchi, bezakchi, fotograf, videograf, musiqachi, toʻy tashkilotchisi kabilar tomonidan ado etilmoqda. Bu holat milliy marosimlarning tashkil etilishini ancha yengillashtirmoqda, albatta. Biroq ayni paytda u milliy marosimlardagi jamoaviylik ruhiyatiga putur ham yetkazmoqda.

Buning ustiga, milliy marosimlarning ishtirokchilari tarkibi ham oʻzgarib bormoqda. An'anaviy muhitda toʻy yoki ma'rakada mahalla aholisining keng ishtiroki tabiiy holat sanalardi. Shahar muhitida esa marosimlarga asosan yaqin qarindoshlar, doʻstlar, hamkasblar va maxsus taklif etilgan mehmonlar jalb qilinmoqda. Shu tariqa marosim umumjamoaviy xarakterdagi amaliyotdan rejalashtirilgan va boshqariladigan tadbirga aylanmoqda. Bularning barchasidan koʻrinadiki, globallashuv sharofati bilan avj olgan urbanizatsiya tendensiyasi milliy marosimlarning oʻtkazilishi muhiti va shaklini benihoya oʻzgartirib yubormoqda.

To‘rtinchidan, globallashuv yangi asrda tashqi migratsiya jarayonlariga intensiv tus berdi, buning natijasida milliy marosimlar yangi odatlar va rasm-rusumlar bilan boyimoqda.

Migratsiya “deganda aholining turli sabablarga ko‘ra ixtiyoriy yoki majburiy ravishda doimiy yashash joyini o‘zgartirish yoki o‘quv, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida muayyan ma’muriy-hududiy tuzilma ichidagi yoki undan tashqariga ko‘chishi nazarda tutiladi. Ilmiy ishlarda uning ijtimoiy, siyosiy, harbiy, madaniy, ekologik, ekzistentsial migratsiya kabi tiplari mavjudligi qayd qilinadi. Mazkur tipdagi migratsiya o‘z hududiy belgilariga ko‘ra ichki (mamlakatning boshqa hududiga) va tashqi (boshqa mamlakatga) ko‘chish jarayonlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Globallashuv sharoitida jahonda ayniqsa tashqi migratsiya intensiv tus oldi. Bunga qator ahamiyatli omillar sabab bo‘ldi. Xususan, tashqi migratsiyaning intensivlashishiga avvalo jahon mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikning keskinlashgani sabab bo‘ldi. Ish o‘rinlari yetarli bo‘lmagan mamlakatlar aholisining muayyan qismi yuqori ish haqi, barqaror daromad va qulay turmush sharoitlari mavjud yurtlar sari intila boshladilar. Rivojlangan mamlakatlarning mehnat bozorlaridagi nomutanosiblik ham tashqi migratsiyaning “tegirmoniga suv quydi”: taraqqiy topgan o‘lkalar aholisining qarib borayotgani, ishchi kuchining qisqarayotgani, xizmat ko‘rsatish, qurilish, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va boshqa sohalardagi kadrlar tanqisligining tobora kuchayayotgani migrantlar mehnatiga ehtiyojni oshirib bordi. Afrika, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan mehnatga layoqatli yoshlarning salmoqli qismi Evropa, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarga yo‘nala boshladilar.

Tashqi migratsiya migrantlarning Vatanlari uchun beiz ketgani yo‘q. Chunonchi, “mamlakatdan xorijga migratsiya mamlakatga valyutalar tushumini ta’minlaydigan omil sifatida qolmoqda, mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatuvchi vosita vazifasini o‘tamoqda, turli sohalarga doir tajriba va innovatsiyalarning mamlakatga kirib kelishiga imkon yaratmoqda, fuqarolarning iste’molchilik ehtiyojlarini qondiruvchi omil bo‘lmoqda, milliy madaniyatning boyishiga ham xizmat qilmoqda. Shuning

bilan bir qatorda tashqi mehnat migratsiyasi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Xusu-san, uning natijasida mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari isrof bo‘layapti. Migrantlarning ekstremistik guruhlar ta’siriga tushib qolish, odam savdosi qurboniga aylanish xavfi oshayapti. Tashqi mehnat migratsiyasi oilaviy tarbiyada ham ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda”.

Shuning bilan bir qatorda tashqi migratsiya bugungi kunda milliy marosimlar mazmuni va o‘tkazilishi tartibiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan, migrantlar xorijda yashash, ishlash, boshqa milliy madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida yangi turmush andozalari, marosimlar, rusm-rusumlar, urf-odatlar, qadriyatlar bilan atroflicha tanishmoqdalar. Keyinchalik esa ular bu tajribalarni o‘z yurtlaridagi turli marosimlarni o‘tkazish amaliyotiga tatbiq qilmoqdalar. Shu tariqa milliy marosimlar yangi unsurlar, rasm-rusumlar, timsollar bilan boyimoqda. Bunday ta’sir mavzuga bag‘ishlagan ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy remittentsiyalar” (migratsiya orqali g‘oyalar, qadriyatlar, xulq-atvor modellari va ijtimoiy amaliyotlarning vatandagi jamoalarga qaytishi) deya ta’riflanadi. Tashqi migratsiya milliy marosimlarni o‘tkazish uchun zarur iqtisodiy imkoniyatlarni ham kengaytirmoqda. Ayrim oilalar aynan xorijdagi farzandlari yoki qarindoshlari yuborgan mablag‘lar hisobidan nikoh to‘yi, sunnat to‘yi, beshik to‘yi, uy-joy qurish bilan bog‘liq marosimlar, xotira tadbirlari yoki xayriya ishlarini amalga oshir-moqdalar. Bu holat marosimlarning qarindosh-urug‘, mahalla va jamoa oldida mas’uliyatni ado etish, marhumlarni xotirlash, ehtiyojmandlarga yordam berish kabi funksiyalarini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Ayni paytda tashqi migratsiya milliy marosimlarning mazmuni va o‘tkazilishi tartibiga salbiy ta’sir ham ko‘rsatmoqda. Jumladan, u milliy marosimlarga begona madaniy unsurlarning mexanik kirib kelishini tezlashtirmoqda. Migrantlar o‘zlari vaqtincha istiqomat qilgan yurtlarda ko‘rgan to‘y, bayram, libos, musiqa, bezak, tadbir modellarini o‘z o‘lkalaridagi milliy marosimlarga olib kirmoqdalar. Bu holatlar aksar hollarda milliy marosimlarning etnomadaniy o‘zagini zaiflashtirmoqda. Xullas, faktlar va vizual kuzatuvlardan ko‘rinadiki, globallashuv sharofati

bilan intensiv tus olgan tashqi migratsiya milliy marosimlarni yangi rasm-rusumlar bilan to‘ldirdi.

Beshinchidan, globallashuv yangi asrda axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarni ravnaq toptirdi, buning natijasida milliy marosimlarning ayrim unsurlari ommalashmoqda va virtuallashmoqda.

O‘tgan asrning oxirlaridan e’tiboran, ayniqsa yangi asr boshlarida axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar rivoji sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Yangi asrda Internet tor davralar ishlatadigan ilmiy-texnik vositadan umuminsoniy kommunikatsiya maydoniga aylandi. XX asr oxirida kompyuterlar avval davlat, harbiy va ilmiy markazlar doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa, XXI asr boshlaridan u tez sur’atlar bilan keng aholi qatlamlari hayotiga kirib bordi. Elektron pochta, qidiruv tizimlari, veb-portallar, onlayn-savdo, internet-nashrlari, forumlar va bloglar axborot almashinuvining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Shu tariqa axborot ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash, tarqatish, iste’mol qilish uslublari tubdan o‘zgardi. Natijada axborot almashinuvi tezlashdi, makon va vaqt chegaralari nisbatan qisqardi, odamlar o‘rtasidagi muloqot shakllari virtual maydonga ko‘chdi.

Yangi asrda axborot texnologiyalari ravnaqining yana bir xususiyati shunda bo‘ldiki, bu pallaga kelib, turli ijtimoiy tarmoqlar paydo bo‘la boshladi va kishlar e’tiborini o‘ziga tortdi. Friendster, MySpace, LinkedIn, Facebook, YouTube, Twitter kabi raqamli platformalar ijtimoiy muloqot va virtual madaniyatning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar mamlakatlarning chegaralari bilan cheklanmaydigan yagona, umumsayyoraviy axborot maydonini vujudga keltirdi. Natijada bir o‘lkada paydo bo‘lgan xabar, g‘oya, madaniy mahsulot, musiqa, film, reklama yoki turmush tarzi modeli qisqa vaqt ichida boshqa yurtlar aholisi diqqatiga tusha boshladi. Shu ma’noda tavsiflaganda, axborot texnologiyalari globallashuvning eng muhim infratuzilmaviy asosiga aylandi. Ular orqali iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar tezlashdi, jamiyatlar, millatlar va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchaydi.

Mazkur jarayonlar milliy marosimlar mazmuni va xarakterida ham iz qoldirdi. Jumladan, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar rivoji milliy marosimlarning keng ommalashuviga sabab bo‘lmoqda. Ilgari to‘y,

beshik to‘yi, sunnat to‘yi, Navro‘z, hashar, hayit, xotira va boshqa marosimlar haqidagi ma’lumotlar shu marosim ishtirokchilarining hikoyalari va xotiralari orqali ommaga ma’lum bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan suratlar, videolavhalar, qisqa roliklar, tabriklar, jonli efirlar va postlar vositasida yuzlab, minglab kishilarning e’tiboriga tushmoqda.

Axborot texnologiyalari ta’sirida milliy marosimlarning ayrim unsurlari virtuallashib bormoqda. Bugungi kunda milliy marosimlarning muayyan qismi raqamli muhitda amalga oshirilmoqda. Masalan, to‘yga elektron taklifnoma yuborish, mehmonlarni Telegram yoki WhatsApp guruhlari orqali xabardor qilish, to‘y yoki nikoh marosimini jonli efirda ko‘rsatish, xorijdagi qarindoshlarni videoaloqa orqali ishtirok ettirish, onlayn-tabriklar yuborish, fotosurat va videolarni raqamli arxivda saqlash kabi holatlar marosimlarning yangi virtual shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Albatta, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar milliy marosimlar haqidagi xotiralarni jamlash, arxivlash, yosh avlodga etkazish, madaniy merosni targ‘ib qilish, ilmiy tadqiqotlar uchun ma’lumot to‘plash va milliy qadriyatlarni xalqaro miqyosda namoyon etish imkoniyatini yaratmoqda. Biroq shuning bilan bir qatorda, axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar sharofati bilan milliy marosimlarning virtuallashayotgani ularning jamoaviy ruhini zaiflashtirmoqda, ayrim hollarda namoyishkoralik va taqlidchilikni kuchaytirmoqda. Bularning barchasidan ko‘rinadiki, globallashuv sharoitida axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar milliy marosimlarning ayrim unsurlarini faol ommalashtirmoqda va virtuallashtirmoqda, bu ommalashuv va virtuallashuv esa milliy marosimlar tabiatiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Oltinchidan, globallashuv yangi asrda xizmat ko‘rsatish industriyasini takomil toptirdi, buning natijasida milliy marosimlarning muayyan qismi tijoratlashmoqda.

Globallashuv yangi asrda jahon iqtisodiyoti tarkibini tubdan o‘zgartirib, xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi rolini kuchaytirdi. Industrial jamiyat sharoitida asosiy e’tibor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga qaratilgan bo‘lsa, postindustrial jamiyatda xizmatlar, servis, konsalting, turizm, moliya, logistika, reklama,

media, dizayn, axborot texnologiyalari, ta’lim, tibbiyot, madaniy tadbirlar va ko‘ngilochar industriyalar muhim iqtisodiy tarmoqlarga aylandi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining bunday kengayishi milliy marosimlar tizimiga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. To‘y, nikoh, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, yubiley, ta’ziya, xotira, hayit, Navro‘z, hashar kabi milliy marosimlar shunchaki ma’naviy-ma’rifiy voqelik emas, albatta. Ularning barchasi muayyan moddiy va tashkiliy resurslarni jalb qilishni taqozo etadi. An’anaviy jamiyatda bu resurslar asosan oila, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va mahalla yordami bilan ta’minlanardi. Bugungi kunda esa ularning aksariyat qismi globallashuv sharofati bilan yuzaga kelgan maxsus xizmatlar industriyasi orqali amalga oshirilmoqda. Masalan, ayni damda oilaviy marosimlarning aksariyati professional tashkilotchilar, agentliklari, restoranlar, to‘yxonalar, dekoratorlar, boshlovchilar, san’atkorlar, foto-video studiyalar, texnik xizmat ko‘rsatuvchi firmalar yordamida tashkil etilmoqda. Milliy marosimlar muayyan qismining xizmat ko‘rsatish industriyasi vositasida tashkillashtirilishi ijobiy holat, albatta. Ushbu industriya milliy marosim-larni talab darajasida tashkil etish imkonini bermoqda. Biroq, boshqa tomondan, ushbu holat milliy marosimlarni iqtisodiy jihatdan ko‘p tarmoqli servis tizimiga bog‘lab qo‘ymoqda. Bularning barchasidan ko‘rinadiki, globallashuv sharoitida xizmat ko‘rsatish industriyasi ravnaqi milliy marosimlarning muayyan qismini o‘ziga bo‘ysundirib, tijoratlashtirib yubormoqda.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Yangi asrda o‘zining avj pallasiga kirgan globallashuv tendentsiyasi qator ijtimoiy-madaniy omillarni yuzaga keltirdiki, ular ta’sirida milliy marosimlar mazmuni va mohiyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Jumladan, ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tarqalishi milliy marosimlarning mazmuni va estetik qiyofasini o‘zgartirmoqda. Iste’molchilik xulqining o‘z-garishi milliy marosimlarda dabdaba unsurlarini ko‘paytirmoqda. Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi milliy marosimlarni o‘tkazish muhiti va shaklini o‘zgartirmoqda. Tashqi migratsiya jarayonlarining intensivlashishi milliy marosimlarni yangi odatlar va rasm-rusumlar bilan boyitmoqda. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning ravnaq topishi milliy marosimlarning ayrim

unsurlarini ommalashtirmoqda va virtuallashtirmoqda. Xizmat koʻrsatish industriyasining takomil topishi milliy marosimlarning muayyan qismini tijoratlashtirmoqda.

III.2. Globallashuv ta’sirida jamoaviy marosimlar mazmunida yuz berayotgan oʻzgarishlar

Globallashuv tendentsiyasi ta’sirida yuzaga kelgan va asta-sekinlik bilan jahondagi barcha millat va elatlar madaniyatiga ta’sir oʻtkaza boshlagan ijtimoiy-madaniy omillar milliy marosimlarning muhim tarkibiy qismi – jamoaviy marosimlar mazmunida tub oʻzgarishlarni yuzaga keltirdi.

Ma’lumki, jamoaviy marosimlar muayyan xalq, millat, jamoa a’zolarini umumiy maqsadlar atrofida birlashtirishga qodir ahamiyatli ijtimoiy-madaniy fenomendir. Bunday marosimlar shaxsning individual hayoti yoxud oila miqyosi bilan cheklanib qolmaydi, balki koʻplab jamiyat a’zolarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini taqozo qiladi. Marosimda inson alohida shaxs sifatida emas, balki muayyan jamoaning a’zosi sifatida ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, aynan jamoaviy marosimlar shaxsni jamiyat bilan bogʻlovchi oʻziga xos koʻprik boʻlib xizmat qiladi. Xuddi shuning uchun ham jamoaviy marosimlar mazmunidagi oʻzgarishlarni tavsiflayotganda ularning birinchi navbatda umumijtimoiy tabiatga egaligi diqqat markazida turmogʻi shart.

Jamoaviy marosimlar millat vakillari oʻrtasidagi hamjihatlikni ta’minlashi bilan qadrlidir. Mamlakatning turli hududlarida umrguzaronlik qilayotgan, turli ijtimoiy guruh, kasb-korga mansub kishilar muayyan jamoaviy marosimlarni ado etishga bel bogʻlarkanlar, yagona ma’naviy makonda birlashadilar, oʻzlarini yagona ijtimoiy mexanizm sifatida his qila boshlaydilar. Masalan, odamlar umumxalq bayramlari, xotira kunlari, xayriya tadbirlari, hasharlar, ziyoratlarda ishtirok etish orqali oʻzlarini alohida xonadon, ayrim mahalla vakili sifatidagina emas, balki umumiy tarix va madaniyatga ega boʻlgan xalq vakili sifatida anglab etadilar.

Jamoaviy marosimlarning milliy hamjihatlikni ta’minlashdagi roli yana shunda koʻrinadiki, ular kishilarning mehnat faoliyati, kundalik tashvishlari, shaxsiy intilishlari va hoyu-havaslari bois susaygan yoxud uzilib qolgan aloqalari, munosabatlarini qayta faollashtiradi. Marosim

odamlarni bir dasturxon, bir maqsad, bir qadriyat atrofida jamlaydi. Marosimlar sharofati bilan yagona maqsad va qadriyat atrofida birlashgan kishilar turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, ehtiyoj va manfaatlar oʻrtasidagi tafovutlarni maʼlum muddatga boʻlsada unutadilar. Bu esa ijtimoiy ishonch, oʻzaro hamkorlik, birdamlik, yakdillik va masʼuliyat tuygʻularini kuchaytiradi.

Yangi asrda globallashuv tendentsiyasi taʼsirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar jamoaviy marosimlar mazmuni va ahamiyatida yangi rakurslarni yuzaga keltirdi. Xususan:

Birinchidan, globallashuv sharoitida Navroʻz bayrami anʼanaviy xalq sayilidan umummilliy madaniy-maʼrifiy tadbirga aylana boshladi. Dissertatsiyaning ikkinchi bobida Navroʻz asrlar davomida anʼanaviy xalq sayli sifatida mavjud boʻlib kelganini taʼkidlab oʻtdik. Yuzlab yillar mobaynida hovli-joylarni tozalash, ariq-zovurlarni tartibga keltirish, koʻchatlar ekish, sumalak va halisa tayyorlash, keksalar holidan xabar olish, bolalarga sovgʻalar berish, milliy oʻyinlar oʻtkazish, xalq qoʻshiqlari va raqslari ijro etish kabi amallar Navroʻzning anʼanaviy qiyofasini belgilagan. Biroq globallashuv sharoitida umuminsoniy madaniy tendentsiyalar taʼsirida Navroʻz anʼanaviy xalq sayilidan umummilliy madaniy-maʼrifiy tadbirga aylana boshladi. Buni quyidagilarda koʻrish mumkin:

- globallashuv sharoitida Navroʻzning ramziy mazmuni kengaydi**.** Anʼanaviy sharoitda u koʻproq bahor, yangi yil, dehqonchilik mavsumi, tabiat uygʻonishi bilan bogʻlangan boʻlsa, endilikda u tinchlik, hamjihatlik, bagʻrikenglik, mehr-oqibat, xayru-saxovat kabi umuminsoniy qadriyatlar timsoli sifatida talqin etila boshlandi;
- globallashuv sharoitida Navroʻzning ijtimoiy qamrovi kengaydi**.** Asrlar davomida u asosan mahalla va qishloqlar miqyosida, qarindosh-urugʻlar va qoʻni-qoʻshnilar ishtirokida oʻtkazilgan boʻlsa, endilikda butun respublika miqyosida tashkil etiladigan umumxalq tadbiriga aylandi;
- globallashuv sharoitida Navroʻzning maʼrifiy mazmuni kuchaydi**.** Endilikda bayram davomida milliy kiyimlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalari, hunarmandchilik namunalari, tarixiy xotira unsurlarini namoyish etish odat tusini oldi. Navroʻz tadbirlarida bolalar, yoshlar, talabalar, sanʼatkorlar,

hunarmandlar, nuroniylar va mahalla faollarining ishtirok etishi avlodlararo vorisiylikni ham ta’minladi;

- globallashuv sharoitida Navro‘zning insonparvarlik mazmuni takomil topdi. Navro‘z jamoaviy shodlik bilan birga inson qadr-qimmati va manfaatlarini ulug‘lovchi, ijtimoiy hamdardlikni rag‘batlantiruvchi, saxovat va ehtiyojmandlarga yordam berish madaniyatini yuksaltiruvchi umum-milliy marosimga aylandi;
- globallashuv sharoitida Navro‘z xalqlararo va millatlararo mada-niy diplomatiya vositasi bo‘lib qoldi. Bugungi kunda u faqat o‘zbek xalqigina emas, balki butun Sharq xalqlari nishonlaydigan, e’zozlaydigan, targ‘ib va tashviq qiladigan umuminsoniy madaniy meros sifatida namoyon bo‘la boshladi;
- globallashuv sharoitida Navro‘zning ommaviy madaniy tadbir sifatidagi shakli ham o‘zgardi. Asrlar davomida sayil munosabati bilan o‘tkaziladigan xalq o‘yinlari, milliy taomlar tayyorlash yumushlari, qo‘shiq va raqslar xalq vakillari tomonidan stixiyali tarzda tashkil etilgan bo‘lsa, endilikda sahnalashtirilgan kontsertlar,teatrlashtirilgan dasturlar, sport musobaqalari, ommaviy sayillar mutasaddilar tomonidan maqsadga muvofiq tarzda uyushtirila boshlandi hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladigan bo‘ldi;
- globallashuv sharoitida Navro‘zning milliy hamjihatlikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Mazkur marosim turli millat va elat, avlod, ijtimoiy guruh, kasb-kor vakillarini bir ma’naviy makonda jamlovchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirga aylandi.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida hashar marosimi an’anaviy o‘zaro yordam tadbiridan zamonaviy obodonchilik va ekologik mas’uliyat amaliyotiga aylana boshladi. An’anaviy jamiyatda hashar qishloq va mahallalarda istiqomat qilayotgan kishilarning turmush ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinar, uning asosiy ob’ekti odatda ariq qazish, hosilni yig‘ib olish, ko‘prik qurish, mahalla yoki qishloq uchun zarur bo‘lgan umumiy yumushlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lardi. Zamonaviy jamiyat sharoitida esa hasharning amaliy yo‘nalishi batamom o‘zgardi. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

• globallashuv sharoitida hasharning obodonchilik bilan bog‘liq funktsiyasi tubdan yangilandi. An’anaviy hasharda asosiy maqsad muayyan xonadon yoki qishloq ehtiyojini qondirish, ayni paytda dolzarb bo‘lib turgan biror bir yumushni ado etish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda u shahar, tuman, viloyat va respublika miqyosidagi umumiy tabiiy muhitni yaxshilashga qaratilmoqda;

• globallashuv sharoitida hashar ekologik mazmun kasb etdi. Hududlarda daraxtlar ekish, mahallalardagi ariqlarni tozalash, ko‘cha-ko‘yni ko‘kalamzorlashtirish, qabriston va ziyoratgohlarni tartibga keltirish kabi ishlar jamiyat a’zolarining tabiat va atrof-muhitga munosabatini ifoda etuvchi, ularning ekologik mas’uliyatini oshiruvchi amalga aylandi;

• globallashuv sharoitida hasharda ishtirok etuvchi sub’ektlar tarkibi transformatsiyalashdi. An’anaviy hasharda asosiy ishtirokchilar qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla ahli va qishloq jamoasi bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy hasharda esa o‘z ekologik mas’uliyatini chuqur his qilgan mahalla faollari, ta’lim muassasalari xodimlari, mehnat jamoalari vakillari, yoshlar va xotin-qizlar, nuroniylar, jamoat tashkilotlari va davlat idoralari vakillari ham faol ishtirok eta boshladilar. Binobarin, globallashuv sharoitida hasharning fundamental institutsionallashuvi sodir bo‘ldi;

• globallashuv sharoitida hasharning tarbiyaviy ta’siri yanada kuchaydi. Chunki obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida ishtirok etarkan, inson o‘zini Vatandagi makon uchun mas’ul fuqaro sifatida anglab etmoqda. Hashar sharofati bilan odamlar chiqindi tashlamaslik, daraxtlarni asrash, suv manbalarini toza saqlash, qabriston va ziyoratgohlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga odatlanmoqdalar;

• globallashuv sharoitida hasharning ma’naviy ahamiyati ham oshdi. Chunki zamonaviy umumxalq hasharlari nafaqat ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish maqsadlariga, balki kam ta’minlangan va alohida e’tiborga muhtoj oilalarga, nogironlarga, yolg‘iz keksalarga yordam ko‘rsatishga ham yo‘naltirilmoqda.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida Ramazon va Qurbon hayitlarida ijtimoiy xayriya va insonparvarlik g‘oyalari uyg‘unlasha boshladi. Sirasini aytganda, Ramazon va Qurbon hayitlari diniy mazmunga ega bo‘lgan marosim-lar turkumiga kiradi. Biroq, dissertatsiyaning ikkinchi bobida

ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida ushbu hayitlar ko‘plab milliy qadriyatlar bilan boyidi. Globallashuv sharoitida esa Ramazon va Qurbon hayitlarida bir tomondan ijtimoiy xayriya tadbirlari, ikkinchi tomondan esa insonparvarlik g‘oyalari uyg‘unlasha boshladi. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- Ramazon hayitida shaxsiy ibodat ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lana boshlandi. Bugungi kunda ro‘za tutgan inson Ramazon oyi davomida sabr qilish, nafsni tiyish, shukronalik fazilatlarini o‘zlashtirmoqda. Ayni paytda mazkur fazilatlar fitr sadaqasi, zakot, ehson, muhtojlarga yordam berish orqali jamiyat hayotiga ham tatbiq etilmoqda va umumijtimoiy ma’naviy-ruhiy muhitni sog‘lomlashtirish, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish omili bo‘lib xizmat qildi;
- Qurbon hayitida qurbonlik qilish amali saxovat va mehr-oqibat vositasi sifatida yanada jonlandi. Qurbonlikning tashqi shakli jonliq so‘yish bilan bog‘liq, albatta. Biroq uning tub ma’naviy mohiyati ham mavjud: qurbonlik qilishdan murod diniy burchni ado etishgina emas, ne’matni boshqalar bilan baham ko‘rish, ehtiyojmandlarni xursand qilish va jamiyatda mehr-oqibat muhitini kuchaytirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda ushbu amaliyot inson qadrini ulug‘lash choralaridan biriga aylandi;
- hayit kunlarida ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash choralari institutsional xususiyat kasb etdi. An’anaviy jamiyatda xayriya ko‘proq oila, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni tashabbusi sifatida amalga oshirilgan bo‘lsa, hozirgi davrda u davlat, diniy idoralar, ijtimoiy himoya tashkilotlari, jamoat uyushmalari hamkorligida tashkil etiladigan bo‘ldi;
- hayit kunlari amalga oshiriladigan xayriya tadbirlari jamiyat e’tiborini ijtimoiy zaif guruhlarning manfaatlari va muammolariga qaratish vositasiga aylandi. Bugungi murakkab ijtimoiy shart-sharoitlarda, ijtimoiy jarayonlar nihoyatda intensiv tus olayotgan bir vaziyatda yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar, bemorlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar jamiyat e’tiboridan chetda qolib ketishi ehtimoli katta. Hayitlar esa ana shu guruhlarning manfaat va muammolarini diqqat markaziga qaytarmoqda;

• Ramazon va Qurbon hayitlarida amalga oshiriladigan ijtimoiy xayriya tadbirlari insonparvarlik amaliyotiga aylandi. Keksalarni ziyorat qilish, bemorlar holidan xabar olish, etim va nogironlarga yordam berish, kam ta’minlangan xonadonlarga oziq-ovqat etkazish, qurbonlik go‘shtidan ulush tarqatish, arazlashganlarni yarashtirish, qo‘shnilar bilan munosabatni mustahkamlash kabi amallar insonparvarlik g‘oyasini kundalik ijtimoiy harakatga aylantirdi. Xuddi shuning uchun ham mamlakat Prezidenti ushbu bayramni “ezgulik, mehr-oqibat va saxovat ayyomi” sifatida ta’rifladi.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari tarixiy xotira va avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omiliga aylandi. Ushbu marosimlar asrlar davomida xalqning o‘tmishga munosabatini, bugungi avlodning millat oldidagi ma’naviy mas’uliyatini mujassam etuvchi muhim ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib kelgan. Ular orqali millat o‘z tarixiy tajribasini eslagan, yurt ozodligi, tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan insonlarni e’zozlagan, yosh avlodni Vatan taqdiriga dahldorlik ruhida tarbiyalagan. Shuni nazarda tutgan holda mamlakat Prezidenti shunday deb ta’kidlagandi: “Istiqlol yillarida O‘zbekiston Respublikasini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilish yo‘lida halok bo‘lgan mard va jasur o‘g‘lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko‘rsatish barchamiz uchun ham farz, ham qarzdir. Vatanga fidoyilik namunasini ko‘rsatgan, yurt tinchligi va kelajagi uchun kerak bo‘lganda jonini qurbon qilgan bu bahodir farzandlarimizning qahramonligi xalqimiz, yosh avlodimiz uchun doimo o‘rnak va namuna bo‘lib xizmat qiladi”. Globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlarining mazmuni va ijtimoiy funktsiyalarida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

• globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari mazmunida tarixiy xotirani tiklash va saqlash vazifasi yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Mazkur marosimlar xalq tarixiy ongini doimiy ravishda yangilab va takomil toptirib boradigan madaniy mexanizm vazifasini o‘tay boshladi;

• globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omiliga aylandi. Urush va mehnat faxriylari, xizmat burchini ado etish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar, tinchlik va mustaqillik yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan insonlar haqidagi xotira yoshlarga

shunchaki tarixiy ma’lumot sifatida emas, balki hayotiy ibrat sifatida etkaziladigan bo‘ldi;

- globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari nafaqat marhumlarni, balki katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan keksa avlodni ham ibrat manbai sifatida e’zozlash odat tusini oldi. Ular bilan uchrashuvlar yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirmoqda, ularni Vatanga xizmat qilishga undamoqda;
- globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari jamiyat a’zolariga tinchlikning qadrini eslatib turuvchi madaniy voqea vazifasini o‘tay boshladi. Hozirgi global xavf-xatarlar, mintaqaviy mojarolar, axborot urushlari va mafkuraviy ziddiyatlar sharoitida tinchlikning qadr-qimmati yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ana shunday bir vaziyatda xotira va qadrlash marosimlari urush dahshatlari va tinchlik ne’matini solishtirib ko‘rsatuvchi ma’naviy mezon bo‘lib qolmoqda;
- globallashuv sharoitida xotira va qadrlash marosimlari yosh avlodda tarixiy voqealarga daxldorlik tuyg‘usini uyg‘otuvchi omilga aylandi. Yigit va qizlar mazkur marosimlarda ishtirok etish orqali tarixni o‘z hayotlariga dahldor voqelik sifatida qabul qilishga odatlandilar.

Beshinchidan, globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari umumijtimoiy mas’uliyat ifodasi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Ziyorat an’anasi o‘zbek xalqining oilaviy va jamoaviy hayotida qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. Yaqinlar qabrini ziyorat qilish, marhumlar haqiga duo qilish, qabrlarni tozalash, ular atrofini tartibga keltirish kabi amallar avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani saqlashning an’anaviy shakllaridan biri hisoblangan. Globallashuv sharoitida esa mazkur marosimlar mazmuni tubdan o‘zgardi. Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari nafaqat oila a’zolari, balki keng jamoatchilik ishtirok etadigan ijtimoiy amaliyotga aylandi. Natijada qabristonlarni asrash va obod qilish faqat marhumning yaqin qarindoshlari zimmasidagi vazifa emas, balki muayyan hudud aholisining umumiy mas’uliyati sifatida shakllana boshladi;

• globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari jamoaviy hashar shaklida tashkil etiladigan bo‘ldi. Boshqacha aytganda, qabristonlarni tozalash, ulardagi yo‘laklarni tartibga keltirish, devor va darvozalarni ta’mirlash kabi ishlar jamoaviy mehnat asosida amalga oshirila boshlandi;

• globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari yangi shakllar kasb qildi. Qabristonlarni ta’mirlash va ko‘kalam-zorlashtirish ishlari nafaqat byudjet mablag‘lari hisobidan, balki fuqarolar, tadbirkorlar va homiylarning ixtiyoriy xayriyalari orqali ham amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu holat ziyorat madaniyatining raqamli mexanizmlarini vujudga keltira boshladi;

• globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlarida yoshlarning ishtiroki kengaydi. Yosh avlod marosimlarning shunchaki kuzatuvchisiga emas, uning amaldagi ishtirokchisiga aylandi. Bu holat qabristonlarni obod qilish tadbirlari kommunal vazifaga emas, ijtimoiy tarbiya omiliga aylanayotganidan dalolat beradi;

• globallashuv sharoitida ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari zamonaviy sanitariya va infratuzilma talablariga moslashtirildi. Qabristonlarning tozaligi, ko‘kalamzorligi, ichki yo‘laklarining holati, sanitariya sharoitiga e’tibor kuchaytirildi.

Ayni paytda globallashuv sharoitida jamoaviy marosimlarning amalga oshirilishi mexanizmida ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, ularni o‘tkazishda mahalla institutining muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub’ekt sifatidagi roli kuchaydi. Ma’lumki, mahalla tarixan aholi o‘rtasida qo‘shnichilik munosabatlarini tartibga solish, jamoaviy tadbirlarni tashkil etish, xayru ehson ishla-rini muvofiqlashtirish, to‘y va ma’rakalarda ishtirok etish, ehtiyojmandlarga yordam berish, obodonchilik ishlarini amalga oshirish kabi vazifalarni bajarib kelgan. Globallashuv ta’sirida milliy marosimlarning maz-muni va shakli o‘zgarayotgan bir sharoitda mahalla ularning milliy xususi-yatlarini saqlab qolishga xizmat qiladigan ijtimoiy institutga ham aylandi. O‘zbekiston mahallalari uyushmasining rasmiy vazifalarida ham mahallaning milliy qadriyat va urf-odatlarni hurmat qilishga chaqirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarida uning o‘rnini kuchaytirish hamda aholi

oʻrtasida oʻzaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini koʻrish belgilangan.

Mahallaning muvofiqlashtiruvchi roli birinchi navbatda jamoaviy marosimlarni oʻtkazishda ishtirok etadigan sub'ektlar sa'y-harakatlarini birlashtirishda namoyon boʻldi. Mazkur institut jamoaviy marosimlar ishtirokchilarining umumiy maqsadini belgilash, ularning oʻzaro hamkorligini tashkil etish, tegishli vazifalarni taqsimlash vazifalarini bajara boshladi. Soʻnggi yillarda mahalla instituti tashkiliy imkoniyatlarining sezilarli darajada kengaygani bu vazifalarni mufassal ado etish imkonini yaratdi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi boʻgʻin sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi" Farmoni bilan Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etildi va shu tariqa mahalla jamoatchilik boshqaruvi hamda nazoratining tayanch boʻgʻini sifatida belgilandi. Mazkur tashkiliy oʻzgarishlarni milliy marosimlar nuqtai nazaridan baholasak, bugungi kunda mahalla jamoaviy marosimlarni tashkil etishda an'anaviy maslahatchilik bilan cheklanmasdan, ularni tashkil etishda, bu boradagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishda, oʻtkazilishini tartibga solishda va nazorat qilishda ham faol ishtirok etayotganiga amin boʻlamiz.

Mahallaning jamoaviy marosimlarni tartibga solishdagi roli ularning ijtimoiy qamrovini belgilashda koʻrinmoqda. Bugungi kunda hashar, umumxalq bayramlari, xotira va qadrlash tadbirlari kabi jamoaviy marosimlarda kimlar ishtirok etishi, ehtiyojmandlarga qanday yordam koʻrsatilishi, hududni obodonlashtirish ishlari qanday tashkil qilinishi kabi koʻpdan-koʻp masalalar mahallaning bevosita tashabbusi va maslahati bilan hal etilmoqda.

Mahallaning jamoaviy marosimlar oʻtkazilishini nazorat qilishdagi roli ortiqcha dabdababozlik va isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan jamoatchilik muhokamalarida namoyon boʻlmoqda. Bu erda "nazorat" tushunchasini jazolovchi yoki ma'muriy funktsiya sifatida tushunmaslik kerak. Mahalla mazkur funksiyani aholiga jamoaviy marosimlarni ixcham, milliy qadriyatlarga mos, ortiqcha xarajatlarsiz va mas'uliyat bilan oʻtkazish zarurligini tushuntirish vositasida amalga oshirmoqda.

“Mahallabay”, “xonadonbay”, “oilabay” ishlash tizimlarining joriy etilishi mahalla institutining muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi sub’ekt sifatidagi rolini yana-da faollashtirmoqda. Ma’lumki, 2024 yildan mahalla tizimida “mahalla ettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu mexanizm jamoaviy marosimlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish ishlariga bevosita bog‘liq bo‘lmasada, mahallaning aholi bilan ishlash, oilalar ehtiyojlarini aniqlash, jamoaviy marosimlarni ijtimoiy vazifalar bilan uyg‘unlashtirishdagi salohiyati va imkoniyatlarini kuchaytirishga hissa qo‘shdi.

Globallashuv sharoitida jamoaviy marosimlarning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda vizuallashuvi ham tizimli tus oldi. Yangi asrda jamoaviy marosimlar nafaqat muayyan jamoa tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui, balki keyinchalik ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan madaniy voqelikka ham aylandi. Jamoaviy marosim tashkilotchilari uning tashkil etilishi va muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga diqqatni jamlash bilan cheklanmasdan, uning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy reprezentatsiya qilinishiga ham e’tibor bera boshladilar. Masalan, Navro‘z sayillarida tashkilotchi va ishtirokchilar milliy liboslar, milliy taomlar va sumalak, o‘yinlar va konsert dasturlari tashkil etish bilan bir qatorda ular asosida turli madaniy obrazlarni yaratish va keng jamoatchilikka taqdim qilishga odatlandilar. Televidenie va radio kabi an’anaviy ommaviy axborot vositalari mazkur madaniy obrazlar asosida reportajlar, maxsus ko‘rsatuvlar, hujjatli lavhalar tayyorlashga va ularni umummilliy axborot makoniga olib chiqishga kirishdilar. Internet jurnalistikasi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi: jamoaviy marosim haqidagi xabar, fotosurat va videolar u sodir bo‘layotgan vaqtning o‘zidayoq tarqala boshladi. Ijtimoiy tarmoqlar mazkur jarayonni sifatan yangi bosqichga ko‘tardi. Ular jamoaviy marosim ishtirokchilarining o‘zini kontent yaratuvchi va tarqatuvchi sub’ektga aylantirdi. Bugungi kunda jamoaviy marosimlarning minglab qatnashchilari tadbirlarni mustaqil ravishda suratga yoxud tasvirga olib, ularni Instagram, Telegram, YouTube yoki boshqa platformalarda joylashtirmoqdalar.

Biroq yangi asrda globallashuv tendentsiyasi ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar jamoaviy marosimlar transformatsiyasida ilgari

mavjud bo‘lmagan salbiy tendensiyalarni ham vujudga keltirmoqda. Xususan, zamonaviy jamoaviy marosimlarda rasmiyatchilik unsurlari kuchayib bormoqda. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, aksar jamoaviy marosimlarda ularning ichki mantig‘idan kelib chiqadigan rusm-rusumlar o‘rnini tashkilotchilar tomonidan maqbul topilgan amallar egallamoqda. Bir qarashda, bu o‘zgarishlarning yomon tomoni yo‘qdek ko‘rinadi. Darhaqiqat, jamoaviy marosim-larning tashkilotchilar tomonidan maqbul topilgan rasm-rusumlar va qoidalar asosida o‘tkazilishi ularga bir qadar tartiblilik va izchillik baxsh etmoqda. Biroq, ikkinchi tomondan, jamoaviy marosimlarda rasmiyatchilikning kuchayib ketishi ulardagi tarixan qaror topgan milliy xususiyatlarni zaiflashtirmoqda, marosimlarni muayyan standartlarga bo‘ysundirib qo‘ymoqda. Natijada ayrim jamoaviy marosimlar ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlovchi madaniy vositaga emas, tashkilotchilarning talab va manfaat-larini qondiruvchi, ularning hohish-irodalariga xizmat qiluvchi rasmiy tadbirga aylanib qolmoqda.

Globallashuv sharoitida ko‘plab jamoaviy marosimlarni aniq stsenariy asosida tashkil etish va o‘tkazish tendentsiyasi avj olmoqda. Ulardagi rasm-rusumlar, timsollar, amallar turkumi, bu amallarning bajarilishi tartibi, ishtirokchilarning rollari, musiqa, dekoratsiya, libos va shu kabilar avvaldan ssenariylashtirib qo‘yilmoqda. Mazkur ssenariylar esa ko‘p hollarda kontsert, shou, festival va boshqa ommaviy tomoshalarning estetik uslublari asosida yaratilmoqda. Natijada milliy marosimlarning ayrim unsurlari sahna kompozitsiyasi, maxsus musiqiy bezak, raqs, yoritish, video-proektsiya va boshqa texnik vositalar bilan boyitilmoqda. Bunday yondashuv, bir tomondan, marosimlardagi milliy ramzlarni zamonaviy va ta’sirchan shakllarda namoyish qilish imkonini bermoqda, albatta. Jamoaviy marosimlarning milliy musiqa, raqs, folklor, milliy liboslar va tarixiy timsollar vositasida amalga oshirilishi ayniqsa yosh avlod uchun qulay bo‘lmoqda. Biroq, ikkinchi tomondan, bunday yondashuv aksar jamoaviy marosimlarni bir-biridan farq qilmaydigan oddiy tomosha tadbiriga aylantirib qo‘ymoqda. Masalan, bugungi kunda Farg‘ona vodiysidagi Navro‘z bilan Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm yoki Toshkent vohasidagi Navro‘z marosimlari bir-biridan biror jihati bilan farq qilmay qolmoqda. Barcha hududlarda bir xil sahna, bir xil badiiy dastur, bir xil

ramzlar va bir xil hara-katlarning takrorlanishi milliy madaniyatning ichki hududiy plyuralizmini buzmoqda.

Jahon sahnida sodir bo‘layotgan global madaniy ta’sirlar natijasida jamoaviy marosimlarga boshqa xalqlar va madaniyatlarga xos bo‘lgan me’yor-lar, timsollar va rasm-rusumlarning kirib kelayotgani ham tashvish tug‘dirmasdan qolmaydi. To‘g‘ri, bu jarayonning ijobiy tomonlari ham bor, albatta. Har qanday millatning jamoaviy marosimlari madaniy diffuziya jarayonlari oqibatida boyib boradi. “Madaniy diffuziya deganda,- deb yozadi tadqiqotchi D.Jamolov o‘z ilmiy ishida,- turli milliy madaniyatlarga xos bo‘l-gan moddiy va ma’naviy qadriyatlarning o‘zaro qorishib ketishi jarayoni na-zarda tutiladi”. Biroq globallashuv sharoitida mazkur jarayonlarning haddan tashqari kuchayib ketayotgani jamoaviy marosimlarning milliy xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur salbiy tendentsiyalarni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas, ularning zudlik bilan oldini olish choraarini ko‘rish o‘ta muhim. Chunki, birinchidan, globallashuv sharoitida milliy madaniyatlarga tashqi ta’sir intensiv tus olmoqda. Jamiyat a’zolari o‘z kundalik hayotlarida turli madaniy timsollar, qadriyatlar va xulq-atvor modellariga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda muayyan millat va jamiyatga mansublik hissini saqlab qolish, kishilarni umumiy qadriyatlar atrofida birlashtirish, avlodlar o‘rtasidagi madaniy vorisiylikni ta’minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuzaga kelgan vaziyatda jamoaviy marosimlargina milliy hamjihatlikni ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm vazifasini o‘tay oladi. Zero, milliy hamjihatlik faqat siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlarning umumiyligini ta’minlash orqali emas, kishilarni umumiy ramzlar, qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar atrofida birlashtirish orqali ham ta’minlanadi.

Ikkinchidan, globallashuv, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ijtimoiy munosabatlarning tez o‘zgarishiga, migratsiya, urbanizatsiya, individualizatsiya, axborot ekspansiyasi kabi jarayonlarning faollashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayonlar an’anaviy ijtimoiy munosabatlarning ayrim shakllarini zaiflashtirib yubormoqda. Bunday sharoitda faqat jamoaviy marosimlargina insonlar o‘rtasidagi aloqalarni muntazam ravishda qayta tiklab turuvchi ijtimoiy integratsiya mexanizmi vazifasini bajara oladi. Ular

kishilarni bir-biri bilan muntazam muloqot qilishga chorlab turadi, o‘zaro yordam va hamkorlikni rag‘batlantira boradi, jamiyat a’zoarini umumiy ijtimoiy me’yorlar atrofida birlashtiradi.

Uchinchidan, globallashuv zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali turli g‘ayriinsoniy obrazlar, vayronkor g‘oyalar va deviant xulq-atvor modellarining yoyilishiga ham sababchi bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlash strategik masalalardan biriga aylanmoqda. Ma’naviy xavfsizlikni jamiyatning o‘zining asosiy ma’naviy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va tarixiy xotirasini saqlash hamda ularning tashqi ta’sirlar natijasida butunlay emirilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik qobiliyati sifatida tushunish mumkin. Yuzaga kelgan vaziyatda jamoaviy marosimlar ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omiliga aylanmoqda.

Binobarin, jamoaviy marosimlar mazmuni va xarakteridagi ijobiy o‘zgarishlar naqadar samarali rag‘batlantirilar va qo‘llab-quvvatlanar, salbiy unsurlar esa naqadar tez va sifatli bartaraf qilinar ekan, ularning milliy hamjihatlikni, ijtimoiy barqarorlikni, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati shu qadar yuksalib boraveradi.

III.3. Globallashuv ta’sirida oilaviy marosimlar mazmunida yuz berayotgan o‘zgarishlar

Globallashuv tendensiyasi ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar milliy marosimlarning yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lgan oilaviy marosimlar mazmuni va xarakteriga ham yangicha tus berdi.

Ma’lumki, oilaviy marosimlar shaxsning oila, qarindoshlik, mahalla va keng jamoatchilik bilan munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur marosimlar oila umrguzaronligidagi eng muhim voqealarni qamrab oladi. Oilaviy marosimlarning ahamiyati shundaki, ular shaxs va jamoa hayoti hamda faoliyatini o‘zaro bog‘lash, uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, u yoki bu oilada farzandning dunyoga kelishi birinchi navbatda biologik voqeadir. Bolaning tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziladigan marosimlar esa bu voqeani oila va qom-qarindoshlar hayotining yorqin sahifalaridan biriga aylantiradi. Boshqa misol keltiramiz. Nikoh avvalo ikki balog‘at

yoshiga etgan shaxsning individual qarori asosida tuzilgan kelishuvdir. Biroq ushbu kelishuvning muayyan marosim orqali nishonlanishi uni ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantiradi.

Oilaviy marosimlar shaxsni ijtimoiylashtirishda ham katta rol o‘ynaydi. Har bir jamiyat a’zosi o‘zi istiqomat qilib turgan sotsiumdagi bilim va ijtimoiy tajribalarni, me’yor va qadriyatlarni avvalo turli sub’ektlar vositasida amalga oshirilgan ta’lim va tarbiya vositasida o‘zlashtiradi, albatta. Ayni paytda shaxsning kundalik hayotdagi jarayonlarga, shu jumladan oilaviy marosimlarga ishtiroki ham uni mazkur me’yor va qadriyatlardan voqif etishi mumkin. Masalan, endigina kamol topayotgan bola to‘y, mehmondorchilik, ta’ziya kabi oilaviy tadbirlarda boshqalar qatorida ishtirok etarkan, jamiyatda qabul qilingan muomala, hurmat, mas’uliyat, mehr-oqibat va o‘zaro yordam kabi axloqiy me’yorlarni mufassal o‘zlashtira boradi.

Oilaviy marosimlarning yana bir ahamiyati ularning avlodlararo madaniy vorisiylikni ta’minlashdagi roli bilan bog‘liq. Har bir avlod hayoti va faoliyati davomida muayyan bilimlarni o‘zlashtiradi, tajribalarga ega bo‘ladi. Mazkur bilim va tajribalar turli kanallar orqali kelgusi avlodlarga etkaziladi. Ana shunday kanallardan bir vazifasini oilaviy marosimlar o‘taydi.

Oilaviy marosimlar o‘zgarmas, qotib qolgan hodisa emas. Ular jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlariga monand ravishda transformatsiyalashib boradi. Shu nuqtai nazardan oilaviy marosimlarni dinamik madaniy institut sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu holat bugun-gi globallashuv sharoitida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv ta’sirida oilaviy qadriyatlarning mazmuni, ularni ifodalash shakllari keskin o‘zgarib bormoqda. Bu holat, jumladan, Toshkent davlat agrar univer-siteti dotsenti U. Raimjanovaning maqolasida ham konstatatsiya qilinadi. Globallashuv sharoitida oilaviy marosimlar transformatsiyasining ikki qarama-qarshi tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. Chunonchi, bir tomondan, oilaviy marosimlar yangi shakllar, texnologiyalar va madaniy unsurlar bilan boyimoqda. Ikkinchi tomondan esa, tashqi madaniy ta’sirlar natijasi o‘laroq oilaviy marosimlarning ma’naviy o‘zagi, milliy xususiyati zaiflashmoqda. Yangi asrda globallashuv tendentsiyasi ta’sirida yuzaga

kelgan ijtimoiy-madaniy omillarning oilaviy marosimlar mazmuni va ahamiyatiga ta’sirini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, globallashuv sharoitida nikohga kirishda shaxsiy tanlov va individual qarorning ahamiyati ortdi. Uzoq asrlar davomida nikoh nafaqat ikki shaxsning, balki ikki oilaning o‘zaro munosabatlarini tutashtiruvchi kelishuv, oilaning kelajagi va barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida baholab kelingan. Shu bois oilalarda nikohga tayyorlanish, kelin yoki kuyov tanlash ishlariga jiddiy e’tibor berilgan. Nikohga oid qarorlar-ni qabul qilishda ota-ona, katta avlod, qarindoshlar va mahallaning fikri muhim o‘rin egallagan. Balog‘atga etgan har bir yigit va qiz oila qarori va jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda nikoh tuzishi lozim, deb hisoblangan. Zamonaviy jamiyatda ham nikohga bo‘lgan ushbu yondashuvning ayrim unsurlari saqlanib qolgan, albatta. Biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu mexanizmda yoshlarning shaxsiy tanlovi va individual qarori ustuvor bo‘lib bormoqda. Zamonaviy yoshlarning mutlaq ko‘pchiligi ota-ona tanlagan shaxs bilan emas, o‘z hayotiy maqsadlari, dunyoqarashi va shaxsiy orzu-umidlariga mos bo‘lgan juft bilan nikoh tuzishni ma’qul ko‘rmoqdalar. Bundan zamonaviy yoshlar juft tanlashda ota va onaning ixtiyorini mutlaqo inkor qilishga odatlandilar, degan xulosa kelib chiqmaydi. Globallashuv sharoitida nikohning ijtimoiy modeli o‘zgardi, xolos: avvallari bu modelda “oila tanlaydi - yoshlar rozi bo‘ladi” tamoyili ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, endilikda unda “shaxs tanlaydi - oila bilan kelishadi” tamoyili amal qilmoqda. Boshqacha aytganda, bugungi yoshlar ota-onaning maslahati, qarindoshlarning fikri va oila roziligini inobatga olgan holda yakuniy qarorni o‘zlari qabul qilishga intila boshladilar.

Ushbu transformatsion jarayonlarning aniq sabablari mavjud. Gap shundaki, bugungi yigit va qizlarning mutlaq ko‘pchiligi muayyan maqsadlarga etishishga, shu maqsadda ta’lim olishga va biror bir kasb-korni egallashga, aniq bir ijtimoiy maqomga erishishga intilmoqdalar. Shu sababdan ular nikohni balog‘atga etganda bajarilishi zarur bo‘lgan an’anaviy vazifa sifatida emas, balki hayotiy maqsadlardan kelib chiqqan holda qabul qilinadigan qaror sifatida baholamoqdalar. Buning ustiga, zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining jadal ravnaqi, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarning shiddatli rivoji ularga o‘z hayotiy maqsadlariga mos

juftni izlash imkonini ham taqdim etdi. Shu tariqa ilgari bo‘lajak juftni izlash ko‘pincha oila, qarindoshlar, mahalla yordamida amalga oshirilgan bo‘lsa, raqamli muhitda yoshlarning ijtimoiy tanishuv maydoni ancha kengaydi.

Nikohda shaxsiy tanlovning kuchayishi gender munosabatlarining o‘zgargani bilan ham bog‘liq bo‘ldi. Keyingi yillarda erkak va ayolning teng huquqliligi zamonaviy oilaviy munosabatlarning muhim tamoyiliga aylandi. “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyaning” 16-moddasida ayol va erkakning nikohga kirishda teng huquqqa ega ekanligi qayd etilgandi. Keyinchalik ushbu me’yor turli mamlakatlardagi, jumladan O‘zbekiston Respublikasidagi milliy normativ-huquqiy hujjatlarida ham o‘z aksini topdi. Mazkur me’yor barcha mamlakatlardagi gender munosabatlari xarakterini, nikoh marosimining ijtimoiy mazmunini, pirovardida esa yoshlarning nikohga munosabatini o‘zgartirdi.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida oila va qarindoshlar tashabbusi ustuvor bo‘lgan sovchilik modeli o‘rnini yoshlarning shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modeli egalladi. An’anaviy o‘zbek jamiyatida sovchilik asosan oila ulug‘lari va qarindosh-urug‘lar tashabbusi bilan amalga oshiril-gan. Unda katta avlod vakillari ishtirok etgan, chunki oilaning ushbu a’zolari katta hayotiy tajribaga, zaruriy bilim va maqomga ega sanalgan. “O‘z-beklarda qadimdan sovchilikka dastlab ayollar, so‘ngra erkaklar borishgan. Odatda, kuyovning tog‘asi, amakisi yoki yaqin qarindoshlardan obro‘li, ko‘pni ko‘rgan, uvali-juvali, serfarzand va bir nikohli, fozil kishi sovchilikka yuborilgan”.

Bunday sovchilik modelida nikoh birinchi navbatda ikki oila o‘rtasida yangi munosabatlarning o‘rnatilishi sifatida baholangan. Mazkur xarakterdagi sovchilik davomida ikki oila bir-biri bilan o‘zaro va yaqindan tanishib olgan. Sovchilik jarayoni muayyan marosimiy tartibga ham ega bo‘lgan. Sovchilarning borishi, oila ulug‘lari va keksalar bilan suhbat, maqsad-muddao bayoni, bo‘lg‘usi kelin tomonning fikrini bilish, oilalar o‘rtasida kelishuvga erishish, fotiha qilish kabi bosqichlar sovchilikning ijtimoiy va ramziy mazmunini belgilagan. Aksariyat hollarda an’anaviy jamiyatdagi sovchilikda oila manfaatlari shaxsiy xohish-istaklardan ustun

qo‘yilgan. To‘g‘ri, yoshlarning orzu-umidlari, istaklari ham bir qadar inobatga olingan, ammo yakuniy qaror ota-ona tomonidan qabul qilingan.

Globallashuv sharoitida sovchilikning mazkur modeli sezilarli darajada o‘zgardi. Zamonaviy jamiyatda shaxs huquq va erkinliklari, o‘z hayotini mustaqil tashkil etish huquqi, mustaqil qaror qabul qilish zaruriyati kuchaydi. Bu holat sovchilik marosimi xarakteriga ham ta’sir qildi. U asosan yoshlarning shaxsiy tanlovi, o‘zaro tanishuvi va nikohga roziligi ortidan amalga oshiriladigan bo‘ldi. Bu jarayon oila vakillari va qarindosh-urug‘larning sovchilik va nikohdagi roli batamom tugaganini anglatmaydi. Sovchilikning zamonaviy modelida oila rizoligi bilan shaxsiy tanlov o‘rtasida yangi muvozanat shakllandi. Xullas, sovchilikning an’anaviy modeli “oila tanlovi → sovchilik → oilaviy kelishuv → yoshlarning roziligi → nikoh” ko‘rinishiga ega bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy model “shaxsiy tanlov → o‘zaro muloqot → oila bilan maslahat → sovchilik → oilalarning kelishuvi → nikoh” tusini oldi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda aholini oliy va kasbiy ta’lim bilan qamrab olish darajasi keskin oshdi. Xususan, Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2014 yilda O‘zbekiston Respublikasida 18-23 yoshdagi aholini oliy ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 8,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yiliga kelib bu ko‘rsatkich 47,7 foizga etdi. Mamlakat bo‘ylab 598 texnikum yoshlarga kasbiy ta’lim sirlarini o‘rgata boshladi. Yoshlarning oliy va kasbiy ta’limga bu qadar keng jalb etilishi ularning dunyoqarashini boyitmoqda, nikoh va oila haqidagi qarashlarini o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, qizlarning ta’lim olishi va kasbiy faolligining ortishi ularning nikohga munosbatlarini o‘zgartiruvchi omillardan biri bo‘lmoqda. Mazkur omillar ham oila va qarindoshlar tashabbusi ustuvor bo‘lgan sovchilik modeli o‘rnini yoshlarning shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modeli egallashiga zamin yaratmoqda.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida to‘y marosimlari professional darajada tashkil etiladigan tadbirga aylandi. Avvalgi paragrafda ta’kidlanganidek, asrlar davomida to‘y marosimlari oila, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va mahalla yordami bilan fuqarolarning yashash joylarida, biror bir ssenariysiz, stxiyali ravishda o‘tkazib kelingan. Biroq bugungi kunda to‘y-ning tashkil etilishi tartibi tubdan o‘zgardi. Xususan, bu tartib

professional tus ola boshladi. To‘y marosimlarini tashkil etishning professionallashuvini birinchi navbatda marosimni rejalashtirish va boshqarish funksiyalarining maxsus sub’ektlarga o‘tganida, uni maxsus stsenariy va rejissura asosda tashkil etila boshlaganida, professional boshlovchilar tomonidan olib borilayotganida, marosimning professional keytering va restoran xizmatlariga bog‘lanib qolayotganida ko‘rish mumkin.

Buning ustiga, jahonning barcha mamlakatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda to‘ylarni professional darajada o‘tkazish imkonini beradigan maxsus industriya ham shakllanib ulgurdi. Bu moddiy bazani avvalo to‘yxonalar, restoranlar, kafe va boshqa ovqatlanish ob’ektlari tashkil etmoqda. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatda yashash va ovqatlanish bo‘yicha 2010 yilda 292,7 milliard so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 2025 yilda bu ko‘rsatkich 226955,8 milliard so‘mga etgan. Bu raqamlar faqat to‘yxona xizmatlarini aks ettirmaydi, albatta. Ammo bu ko‘rsatkich keyingi yillarda mamlakatda to‘ylarni o‘tkazish uchun xizmat qiluvchi umumiy ovqatlanish va banket infratuzilmasining keskin kengayganini va takomil topganini ko‘rsatuvchi indikator hisoblanishi mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatdagi to‘y industriyasi foto, video va raqamli kontent yaratuvchi firmalar, dekoratsiya va floristika xizmatlari, san’at va ko‘ngilochar xizmatlar ko‘rsatuvchi markazlar, libos industriyasi, to‘y logistikasi evaziga yanada boyidi. E’tiborli tomoni shundaki, yillar o‘tgani sayin mazkur xizmatlar o‘zaro integratsiyalashib bormoqda. Zamonaviy to‘yda aksariyat hollarda restoran alohida, fotograf alohida, dekorator alohida xizmat ko‘rsatayotgani yo‘q. Mamlakatning turli hududlari bo‘ylab, barcha xizmatlarni yagona buyurtma asosida bajarishni taklif qiladigan professional tashkilotchilar paydo bo‘lmoqda. Bu holat zamonaviy jamiyatda to‘y professional darajada tashkil etiladigan tadbirga aylanayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarning tibbiylashuvi va zamonaviylashuvi sodir bo‘ldi. Farzand tug‘ilishi, uning oila va jamoaga qabul qilinishi bilan bog‘liq oilaviy marosimlar millat hayotida barcha davrlarda ham muhim o‘rin tutgan.

Xususan, chaqaloqni oilada kutib olish marosimi, unga ism qo‘yish marosimi, aqiqa, chilla marosimi (chaqaloqni dastlabki 40 kun davomida asrash rusumlari), chaqaloqni ko‘rish va qutlash marosimlari, beshik to‘yi kishilar tmonidan alohida e’tibor bilan tashkil etib kelingan.

“Toshkent” entsiklopediyasida chaqaloq bilan bog‘liq marosimlar xususida quyidagi muhim ma’lumotlar keltiriladi: “Allohga shukronalik belgisi sifatida farzand tug‘ilgandan keyin 20 kun ichida qilinadigan aqiqa to‘yi, chaqaloqqa azon aytish, chilla saqlangan. Beshik to‘yi ayollarning o‘ziga xos bayrami hisoblanib, chaqaloqning buvisi (ona tomonidan) shu kuni uni beshikka belagan. Bu tadbir, odatda, turli magik marosimlarni bajarish yo‘li bilan o‘tkazilgan. Go‘yoki, bu marosim yordamida chaqaloqning ota-onasi yovuz ruhlarni haydagan. Bolaning yovuz ruhlardan va ko‘z tegishidan saqlaydigan birlamchi tumorlar, pichoq, qalampir, isiriq va boshqalar bo‘lgan. Go‘dakning buvisi nevarasiga atalgan barcha narsa (kiyim-kechak, o‘yinchoq va boshqa)larni tayyorlagan va qarindosh-urug‘lari hamda qo‘ni-qo‘shnilari bilan birgalikda shodiyona bo‘layotgan uyga yo‘l olgan. U o‘zi bilan bayramona bezatilgan beshik va chaqaloqning ota-onasi, bobosi va buvisiga atab bosh-oyoq sarpo olib borgan. An’anaviy udumga ko‘ra chaqaloqni beshikka yotqizish, emizish va isiriq tutatishga rioya qilingan. Chaqaloq tug‘ilganidan to bir yoshga to‘lguniga qadar ham uning sog‘-salomatligini saqlash maqsadida turli urf-odat va marosimlar o‘tkazilgan. Go‘dakning birinchi qadamini qo‘yishi, birinchi tishining chiqishi va sochini birinchi marta olinishi (soch to‘yi) munosabati bilan muayyan marosimlar bajarilgan. Bola 12 yoshga to‘lishi munosabati bilan esa oila davrasida Sharq kalendariga ko‘ra bolaning birinchi muchal to‘yi o‘tkazilgan”.

Mazkur marosimlar bugun ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q, albatta. Lekin ularning tabiati va o‘tkazilishi tartibida muayyan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Marosimlarning tibbiylashuvi ana shunday o‘zgarishlar turkumiga kiradi. Chunonchi, bugun chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarni tibbiyot va sanitariya me’yorlariga asoslangan holda o‘tkazish odat tusini olmoqda. Masalan, chaqaloq tug‘ilganida, uning hayotining ilk davrida amalga oshiriladigan qator marosimlar tibbiy institutlar, shu jumladan akusher-ginekolog, pediatr, neonatolog va boshqa tibbiy mutaxassislar

ishtirokida kechmoqda. Ilgari chaqaloqni parvarish qilishda katta avlod tajribasi hal qiluvchi o‘rin tutgan bo‘lsa, endilikda pediatr tavsiyalari, sanitariya me’yorlari, bolani ovqatlantirish qoidalari, profilaktik tekshiruvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chaqaloqni chilla davrida asrash, uni yaqin qarindoshlarga ko‘rsatish rasm-rusumlarini amalga oshirish usullari ham o‘zgarmoqda. Odamlarning chaqaloq bilan bevosita muloqoti sanitariya talablari, bolani turli infektsiyalardan muhofaza qilish qoidalari asosida tashkil etilmoqda. Chaqaloqni beshikka solish marosimi bugun ham o‘z ramziy ma’nosini saqlab qolmoqda, ammo u tibbiyot ilmi hamda mutaxassislarning bolaning uyqu sharoiti, gigienasi va salomatligiga oid o‘rinli tavsiyalari asosida muvofiqlashtirilmoqda.

Chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarning zamonaviylashuviga keladigan bo‘lsak, u marosimlarni tashkil etish muhiti va ko‘lamida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, urbanizatsiya tendensiyasi natijasida shaharlardagi ko‘p qavatli uylarda, katta avlod vakillaridan mustaqil ravishda istiqomat qilayotgan oilalar soni ko‘paymoqda. Bu holat chaqaloqqa ism qo‘yish, uni qom-qarindoshlarga ko‘rsatish, beshik to‘yini o‘tkazish kabi tadbirlar qamroviga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ilgari butun mahalla va qarindoshlar davrasida o‘tkazilgan ushbu marosimlar endilikda oila doirasida tashkil etilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda sodir bo‘lgan raqamlashuv jarayonlari chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarni ham chetlab o‘tmadi. Bugungi kunda chaqaloq tug‘ilishi haqida xabar berish, fotosurat va videolarni qarindoshlarga yuborish, tabriklarni qabul qilish, elektron taklifnomalar tarqatish kabi amallar WhatsApp, Telegram, Instagram kabi platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Shu tariqa chaqaloq tug‘ilishi bilan bog‘liq quvonchli voqea ijtimoiy muhitdan raqamli muloqot maydoniga ham ko‘chmoqda.

Beshinchidan, globallashuv sharoitida mehmondorchilik marosimlari an’anaviy shakldan xizmat ko‘rsatish industriyasiga ko‘cha boshladi. Mehmondorchilik marosimlari deganda azaldan mehmonni qabul qilish, unga ehtirom ko‘rsatish, ziyofat uyushtirish, hamsuhbat bo‘lish, kuzatib qo‘yish bilan bog‘liq urf-odatlar va rasm-rusumlar majmui tushunilgan. O‘zbek oilaviy-madaniy muhitida mehmondorchilik marosimlariga quyidagilar kiritilgan: a) mehmonni kutib olish va salomlashish; b)

mehmonni uyga taklif qilish va munosib joyga oʻtqazish; v) dasturxon yozish; g) taomlar taqdim etish; d) mehmon bilan suhbatlashish, hol-ahvol soʻrash; e) katta yoshdagilarga alohida hurmat koʻrsatish; j) mehmonga sovgʻa berish; z) mehmonni kuzatib qoʻyish va haqqiga duo qilish; i) qarindosh-urugʻ, qoʻni-qoʻshni va doʻstlarni maxsus ziyofatga chaqirish; k) toʻy, hayit, Navroʻz, tugʻilgan kun, xonadonga koʻchib kirish kabi voqealar munosabati bilan mehmondorchilik tashkil etish. Ahamiyatli tomoni shundaki, mehmondorchilik davomida mehmonga professional xodim emas, mezbonning oʻzi xizmat koʻrsatgan**.** Shuning uchun mehmondorchilik mehnat, vaqt, mahsulot va samimiy munosabatni talab qiladigan marosim sanalgan.

Mehmondorchilik marosimlarining ahamiyati hamisha katta boʻlgan. U qarindoshlar, qoʻni-qoʻshnilar va doʻstlar oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, saxovat, bagʻrikenglik, mehr-oqibat, oʻzaro hurmat kabi qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qilgan. Oilada kamol topayotgan farzandlar meh-mon kutish marosimlarida ishtirok etish orqali xushmuomalalik, saxovat va dasturxon madaniyatini oʻzlashtirganlar. Globallashuv sharoitida mehmon-dorchilikning aynan ana shu an’anaviy shakli transformatsiyalashmoqda. Zamonaviy turmush tarzi, hayot sur’atlarining shiddat bilan jadallashib borayotgani, mehnat faoliyatining murakkablashayotgani, ijtimoiy majburiyatlarning koʻpayib ketayotgani odamlarning boʻsh vaqtini keskin qisqartirib yubormoqda. Ilgarigi kabi katta dasturxon tayyorlash, koʻp sonli mehmonlarni qabul qilish, ularga talab darajasida ehtirom koʻrsatish qulay boʻlmay qolmoqda. Natijada mehmondorchilikning bir qismi restoran, kafe, choyxona va banket zallariga koʻchmoqda. Shu tariqa mehmondorchilik faqat uyda amalga oshiriladigan marosimga emas, xizmat koʻrsatish industriyasi imkoniyatlari asosida professional xodimlar tomonidan tashkil etiladigan tadbirga aylanmoqda. Mazkur transformatsion jarayonlar mavzuni oʻrgangan koʻplab mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda. Xususan, Oʻzbekistonlik mutaxassislarning ilmiy ishlarida ham an’anaviy mehmondorchilik zamonaviy xizmat koʻrsatish texnologiyalari bilan uygʻunlasha boshlagani qayd qilinmoqda.

Oltinchidan, globallashuv sharoitida janoza va ta’ziya marosimlarining tashkiliy va kommunikatsion shakllari o‘zgardi. An’anaviy jamiyatda kishi vafoti haqidagi xabar qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar va mahalla ahliga og‘zaki shaklda etkazilardi. Janoza vaqti jamoa orasida ma’lum qilinardi hamda kishilar belgilangan vaqtda masjid yoki janoza o‘tkaziladigan joyga yig‘ilardilar. Ta’ziya esa marhum dafn etilganidan keyin azador xo-nadonga borib, oila a’zolariga hamdardlik bildirish, ularni ruhan qo‘llab-quvvatlash tarzida amalga oshirilardi. Globallashuv sharoitida mazkur an’anaviy mexanizm saqlanib qoldi, biroq uni tashkil etishning yangi unsurlari ham paydo bo‘ldi. Chunonochi, bugun inson vafoti haqidagi xabar telefon qo‘ng‘irog‘i, SMS, ijtimoiy tarmoqlar orqali qisqa muddatda ko‘proq kishilarga etkazilmoqda. Ta’ziyaning kommunikatsion shakli ham kengaymoqda: ilgari uning asosiy shakli azador xonadonga shaxsan borish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, hozir ayrim holatlarda shaxsiy tashrif bilan bir qatorda qo‘ng‘iroq qilish, xabar yuborish, onlayn hamdardlik bildirish, marhum haqida ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumot qoldirish amaliyoti ham yuzaga ke-moqda.

Globallashuv sharoitida janoza va dafn marosimlarining tashkiliy-institutsional mexanizmi raqamlashib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 21 noyabrdagi 735-son Qarori bilan dafn etish ishlarini tashkil etish va hisobini yuritish tizimini takomillashtirish hamda sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish choralari belgilandi. Unga muvofiq, FHDYoning yagona elektron arxivi tarkibida “Dafn etish ishlarini ro‘yxatga olish yagona elektron daftari” moduli, uning mobil ilovasi joriy etildi. Mazkur qarorning ahamiyati shundaki, dafn jarayoniga oid ma’lumotlar endi faqat qog‘oz hujjatlar va mahalliy tashkiliy munosabatlar doirasida emas, balki yagona elektron axborot tizimi asosida ham yuritiladigan bo‘ldi. Xususan, vafot etgan shaxs haqidagi ma’lumotlarni avtomatik tarzda shakllantirish, dafnga ruxsat berish, qabrning sektor, uchastka, qator va raqamini belgilash, dafn haqidagi ma’lumotlarni elektron arxivda saqlash kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida janoza va ta’ziya marosimlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni uch asosiy yo‘nalishda umumlashtirish mumkin: a) janoza va ta’ziya marosimlarini tashkil etish

jarayoni zamonaviylashmoqda; b) inson vafoti va janoza haqida xabar berish jarayoni raqamlashmoqda; v) janoza va ta’ziya jarayonida ishtirok etish shakllari diversifikatsiyasi sodir bo‘lmoqda.

Ayni paytda **e**’tiborga molik tendentsiyalardan biri shunda bo‘lmoqda-ki, bugungi oilaviy marosimlarda ayollarning roli oshib bormoqda. Zotan, o‘zbek milliy marosimlarida ayollar azaldan faol ishtirok etib kelgan. O‘zbek oilaviy marosimlari tarixiy-etnografik xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar azaldan beshik to‘yi, kelin tushirish, kelin salom, nikoh to‘yi, mehmondorchilik kabi marosimlarning faol ishtirokchisi bo‘lgan. Masalan, Buxoro vohasi oilalarida farzand tug‘ilishi, aqiqa va sunnat to‘yi bilan bog‘liq marosimlarni tadqiq etgan mutaxassislar vohada ayollar marosimlarni tashkil etishga doir bilimlarni saqlashda, ularni kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynashganini ta’kidlashadi. Namangan yallachilari an’analariga bag‘ishlangan tadqiqotda esa “Xotin oshi”, “Yuz ochdi”, “Beshik to‘yi”, “Nikoh to‘yi” kabi marosimlar asosan xotin-qizlarning ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgani tavsiflanadi. Biroq an’anaviy jamiyatda ularning ishtiroki ko‘proq marosimlar doirasidagi urf-odatlar va rusm-rusumlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan. Zamonaviy shart-sharoitlarda esa ayollar oilaviy marosimlarni o‘tkazish yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida, uning bilan bog‘liq moliyaviy va tashkiliy masalalarni hal etishda ham qatnasha boshladilar. Masalan, zamonaviy to‘y marosimlarida kelin libosini, to‘y bezaklarini, fotosessiya uslubini, mehmonlarni kutib olish shaklini, dasturxon dizaynini belgilashda bo‘lajak kelinning, oiladagi ayollarning xohish-istaklari muhim ahamiyat kasb eta bormoqda. An’anaviy jamiyatda marosim shakllari ko‘proq mavjud urf-odatlar va katta avlod tajribasi asosida belgilangan bo‘lsa, zamonaviy oilada ayolning shaxsiy estetik didi, axborotdan xabardorligi va yangi modellarni tanlash imkoniyatidan kelib chiqmoqda.

Mazkur o‘zgarishlar avvalo ayollarning ma’rifiy va ijtimoiy salohiyati oshishi oqibati bo‘ldi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda xotin-qizlarning ta’lim olishi va kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar pirovardida ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini keskin oshirmoqda. Darhaqiqat, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilga kelib, oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil

olayotgan xotin-qizlar soni 662 ming nafarga etdi. Oqibat o‘laroq, ayollarning madaniy saviyasi sezilarli darajada yuksaldiki, bu holat ularning oilaviy marosimlardagi ishtiroki xarakteriga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Globallashuv sharoitida oilaviy marosimlarda yoshlarning roli va sub’ektlik darajasi ham ortib bormoqda. Bugungi yoshlar oilaviy marosimlarning mazmuni va shakli, estetik qiyofasi va tashkiliy mexanizmlarini belgilashda faollik ko‘rsatmoqdalar. O‘zbekistonda yoshlarning oilaviy marosimlarga munosabatini o‘rganishda tadqiqotchi X. D. Xaqnazarovning dissertatsiyasi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqot Toshkent shahri va viloyati, Buxoro viloyatida istiqomat qilayotgan 18-30 yoshdagi 421 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov materiallariga asoslangan. Muallif globallashuv ta’sirida yoshlar kundalik hayotida milliy va zamonaviy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi yuzaga kelayotganini ochib beradi. Dissertatsiyada ko‘rsatilishicha, respondentlarning 65,6 foizi urf-odat va an’analarga muntazam amal qilayotganini, 26,6 foizi esa imko-niyat bo‘lgan hollarda ularga rioya qilayotganini bildirgan. Yoshlarning 65,6 foizi an’analarga amal qilish sababini ularning ota-bobolardan meros bo‘lib qolgani bilan bog‘lagan. Ayni paytda so‘rovlarda respondentlarning 75,9 foizi nikoh to‘ylarida, 39,1 foizi xudoyilarda, 19,1 foizi janoza marosimlarida, 14,5 foizi beshik to‘ylarida, 11,8 foizi sunnat to‘ylarida faollik ko‘rsatayotgani ma’lum bo‘lgan. Bu raqamlar zamonaviy yoshlarni mil-liy marosimlardan uzilib qolgan avlod sifatida emas, balki milliy-madaniy merosni chuqur qadrlagan, oilaviy marosimlarni o‘tkazishda faollik ko‘rsatayotgan ijtimoiy guruh sifatida baholash imkonini beradi.

Bugungi yoshlar oilaviy marosimlarni zamonaviylashtiruvchi sub’ekt vazifasini ham o‘tamoqda. Ular umuminsoniy madaniy makonda shakllanayotgan yangi madaniy modellarni milliy marosimlar bilan uyg‘unlashtirishga hissa qo‘shmoqdalar. Bugungi yigit va qizlarning sa’y-harakatlari sharofati bilan oilaviy marosimlarning tashkiliy jihatlarida yangi unsurlar paydo bo‘lmoqda. Bu holatga tadqiqotchi Yu. Janibekova ham o‘z ilmiy ishida e’tibor qaratib o‘tadi. U bugungi oilaviy marosimlarda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hollari kuchayib borayotganini, turli

hududlardagi oilaviy marosimlar ma’lum darajada umumiylik kasb etayotganini, bu borada yoshlar ham salmoqli rol o‘ynayotganini qayd etadi.

Ayni paytda globallashuv sharoitida oilaviy marosimlar mazmuni, shakli va amalga oshirish mexanizmlarida transformatsion jarayonlarning ro‘y berayotgani ularni milliy qadriyatlarga mos, ixcham, mazmunli va tarbiyaviy ahamiyatga ega shaklda rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Xususan, birinchidan, globallashuv avj olib borayotgan bir pallada oilaviy marosimlarning milliy qadriyatlarga muvofiqligini, ularning milliy madaniy meros, axloqiy me’yorlar va xalq tarixiy tajribasi bilan uzviy bog‘-liqligini saqlab qolish masalasi dolzarb tus olmoqda.Oilaviy marosimlar modernizatsiyasi ularning an’anaviy mazmunini inkor etish tarzida emas, balki ularni zamonaviy ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirish shaklida kechmog‘i kerak. Marosimlar modernizatsiyasining ana shunday xarakterini ta’minlash – bugunning eng ahamiyatli vazifalaridan biridir.

Ikkinchidan, oilaviy marosimlarning mazmuni va shakli uyg‘unligini saqlab qolish ham muhim ahamiyatga ega. Ularning ayrim tashqi unsurlari davr talablariga monand ravishda o‘zgarishi mumkin, ammo oilaviy marosimlarning mazmunini, asosini tashkil etuvchi insonparvarlik qadriyatlari asrab-avaylanmog‘i, muhofaza qiliqnmog‘i darkor.

Uchinchidan, oilaviy marosimlarni ixchamlashtirish zaruriyati tobora dolzarb xarakter kasb qilmoqda. Globallashuv sharoitida iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi,oilaviy marosimlardagi qimmatbaho liboslar, murakkab dekoratsiyalar va shou dasturlarining ijtimoiy tarmoqlarda keng namoyish etilishi ularning asl ma’naviy funktsiyalarini zaiflashtirmoqda. Bunday sharoitda marosimlarning ixchamligini ta’minlash orqaligina ularning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini tiklash mumkin bo‘ladi.

To‘rtinchidan, oilaviy marosimlarning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish masalasi ham ustuvor vazifaga aylanmoqda. Globallashuv sharoitida yosh avlod turli madaniy ta’sirlar, g‘ayriinsoniy va g‘ayriijtimoiy axborotlar tahdidi, mafkuraviy tazyiq hollariga to‘qnash kelmoqda. Bunday vaziyatda oilaviy marosimlar milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash, Vatan oldidagi mas’uliyatni chuqur his qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Globallashuv tendentsiyasi ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar milliy marosimlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan oilaviy marosimlar mazmunini ham o‘zgartirdi. Xususan, globallashuv sharoitida nikohga kirishda shaxsiy tanlov va individual qarorning ahamiyati ortdi, oila va qarindoshlar tashabbusi ustuvor bo‘lgan sovchilik modeli o‘rnini yoshlarning shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modeli egalladi, to‘y marosimlari professional darajada tashkil etiladigan tadbirga aylandi, chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarning tibbiylashuvi va zamonaviylashuvi sodir bo‘ldi, mehmondorchilik marosimlari an’anaviy shakldan xizmat ko‘rsatish industriyasiga ko‘cha boshladi, janoza va ta’ziya marosimlarining tashkiliy va kommunikatsion shakllari o‘zgardi. Ayni paytda oilaviy marosimlarda ayollar va yoshlarning roli ham oshdi. Shuning bilan bir qatorda globallashuv sharoitida oilaviy marosimlarni milliy qadriyatlarga mos, ixcham, mazmunli va tarbiyaviy ahamiyatga ega shaklda rivojlantirish zaruriyati ham yuzaga kelmoqdaki, mazkur vazifalarning bajarilishi oilaviy marosimlarning asl ma’naviy funktsiyalarini saqlab qolish imkonini beradi.

3-bob xulosalari

1. Globallashuv sharoitida turfa tendentsiyalar ta’siri o‘laroq qator ijtimoiy-madaniy omillar yuzaga keldiki, bu omillar milliy marosimlar mazmuni va mohiyatiga o‘zgacha tus bermoqda. Mazkur omillar turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin: a) ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tarqalishi; b) iste’molchilik xulqining o‘zgarishi; urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi; v) tashqi migratsiya jarayonlarining intensivlashishi; g) axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning ravnaq topishi; d) xizmat ko‘rsatish industriyasining takomil topishi.
2. Ijtimoiy-madaniy omillar jamoaviy marosimlar mazmunida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ular ta’sirida Navro‘z bayrami an’anaviy xalq sayilidan umummilliy madaniy-ma’rifiy tadbirga aylana boshladi, hashar marosimi an’anaviy o‘zaro yordam tadbiridan zamonaviy obodonchilik va ekologik mas’uliyat amaliyotiga aylandi. Ramazon va Qurbon hayitlarida ijtimoiy xayriya va insonparvarlik g‘oyalari uyg‘unlashdi, xotira va qadr-lash marosimlari tarixiy xotira va avlodlararo

vorisiylikni ta’minlash omili bo‘lib qoldi, ziyorat va qabristonlarni obod qilish marosimlari umumijtimoiy mas’uliyat ifodasi sifatida namoyon bo‘la boshladi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar oilaviy marosimlar mazmunida tub o‘z-garishlarni yuzaga keltirdi. Ular ta’sirida nikohga kirishda shaxsiy tanlov va individual qarorning ahamiyati ortdi, oila va qarindoshlar tashab-busi ustuvor bo‘lgan sovchilik modeli o‘rnini yoshlarning shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modeli egalladi, to‘y marosimlari professional darajada tashkil etiladigan tadbirga aylandi, chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarning tibbiylashuvi va zamonaviylashuvi sodir bo‘ldi, mehmondorchilik marosimlari an’anaviy shakldan xizmat ko‘rsatish industriyasiga ko‘cha boshladi, janoza va ta’ziya marosimlarining tashkiliy va kommunikatsion shakllari o‘zgardi.

4. Ayni paytda globallashuv sharoitida jamoaviy va oilaviy marosimlar transformatsiyasida salbiy tendensiyalar ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Xususan, jamoaviy marosimlarda rasmiyatchilik va standartlashtirish unsurlari ko‘zga tashlanmoqda. Oilaviy marosimlarning ayrimlari milliy qadriyatlardan yiroqlashmoqda, ularda dabdabaga moyillik yuzaga kelmoqda. Mazkur salbiy holatlarning bartaraf etilishi milliy marosimlarning asl ma’naviy funktsiyalarini saqlab qolish, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyatini yuksaltirish imkonini beradi.

IV-BOB. Milliy marosimlarni optimallashtirish imkoniyatlari

Bobda milliy marosimlarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga mos ravishda optimallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tavsiflanadi. Milliy marosimlarning an’anaviy mazmunini saqlagan holda ularni zamonaviylashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Buning uchun ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish zarurligi isbotlab beriladi.

Globallashuv sharoitida milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini yuksaltirish masalasi dolzarb xarakter kasb qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bobda milliy marosimlarning shaxs ma’naviyatini shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash, avlodlar vorisiyligini ta’minlash, yoshlarni ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash, insonparvar qadriyatlarni mustahkamlashdagi salohiyati ochib beriladi.

Milliy marosimlarni optimallashtirish uchun uning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari ham ravnaq toptirilishi shart. Bobda davlat, mahalla, oila, ta’lim va madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining milliy marosimlarni takomillashtirishdagi imkoniyatlari va vazifalari tahlil qilinadi.

IV.1. Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish vazifalari

Milliy marosimlar mazmuni va xarakterining globallashuv sharoitida yuzaga kelgan qator ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida o‘zgarib borayotgani, bu o‘zgarishlar hamma vaqt ham ijobiy tusga ega emasligi ularni optimallashtirishni, bu boradagi ijtimoiy imkoniyatlarni aniqlashni va qat’iy ifodalab olishni taqozo qilmoqda. Ma’lumki, har qanday ijtimoiy jarayon yoxud fenomenni takomil toptirish uchun shu maqsadga xizmat qila oladigan mexanizm shakllantirilmog‘i, mazkur mexanizmning asosiy ijtimoiy funktsiyalari belgilanmog‘i, bu mexanizmni harakatga keltiruvchi sub’ektlar aniqlab olinmog‘i zarur. Shu mantiqdan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyat sharoitida milliy marosimlarni optimallashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i kerak:

- birinchidan, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini takomillashtirish;
- ikkinchidan, milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish;
- uchinchidan, milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash.

Ko‘rinadiki, milliy marosimlarni optimallashtirishning dastlabki vazifasi ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq. Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyati deganda marosimni maqsad va vazifalarni chuqur anglagan holda uyushtirish, uning ishtirokchilari o‘rtasida vazifalarni oqilona taqsimlash, marosimni o‘tkazishning maqbul muddatlari va joyini belgilash, uni amalga oshirish me’yorlariga rioya etish, tadbirlarni o‘tkazishda milliy axloq va estetika qoidalariga amal qilish, ortiqcha isrofgarchilik va namoyishkorlikka yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan ijtimoiy-madaniy me’yorlar tizimi tushuniladi. Har qanday jamiyatda milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatining yuksaltirilishi milliy qadriyatlar va an’analarni ajdodlardan avlodlarga izchil etkazish, marosimlarni ixcham va tartibli o‘tkazish, ularni ijtimoiy hamjihatlik omiliga aylantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Aksincha, ushbu madaniyat saviyasi past bo‘lgan jamiyatlarda marosimlarda rasmiyatchilik, dabdababozlik va isrofgarchilik kuchaya boradi, ularning ijtimoiy ahamiyati zaiflashadi, avlodlar o‘rtasidagi vorisiylik buziladi, yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati yomonlashadi.

Milliy marosimlar mazmuni va xarakteriga turfa ta’sirlar intensiv tus olayotgan globallashuv sharoitida ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bu boradagi har qanday sa’y-harakat ham samara beravermaydi. Buning uchun jamiyatda milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlar qator tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yilishi kerak. O‘zbek milliy marosimlari tadriji qonuniyatlari, milliy marosimlarning zamonaviy jamiyat sharoitidagi evrilishi mantig‘i ko‘rsatadiki, bu tamoyillar quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

• milliylik va vorisiylik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimlarning etnik oʻziga xosligi saqlanmogʻi, ularning tarixiy negizini tashkil etuvchi ijobiy urf-odatlar, ramzlar, udumlar, qoʻshiqlar, liboslar, taomlar va boshqa unsurlar asralmogʻi kerak;

• maqsadga muvofiqlik va mazmundorlik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimning har bir tarkibiy unsuri aniq ijtimoiy va maʼnaviy bajarmogʻi lozim. Marosimning mazmuniga mos boʻlmagan unsurlar uning ijtimoiy qadr-qimmatini tushiradi;

• ixchamlik va iqtisodiy oqilonalik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimlarni oʻtkazishda asosiy eʼtibor ularning mazmuni va ratsional tarzda oʻtkazilishiga qaratilmogʻi, ortiqcha xarajat va va dabdabaning oldi olinmogʻi darkor;

• axloqiy meʼyorlarga moslik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, marosimni tashkil etish madaniyati ishtirokchilarning oʻzaro muomalasi, mehmonlarni kutib olish va kuzatish, yoshi ulugʻ kishilarga hurmat koʻrsatish, azador oilani qoʻllab-quvvatlash kabi axloqiy talablarni qamrab olmogʻi kerak;

• anʼanaviylik va zamonaviylik uygʻunligi tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimlar modernizatsiyasi milliy urf-odat va anʼanalarga qarshi qoʻyilmasligi lozim. Aksincha, marosimlarni yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirish ishlari ulardan oqilona foydalanish yoʻllarini ham oʻz ichiga olmogʻi zarur;

• hududiy-madaniy xilma-xillik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimlar mamlakatning barcha hududlarida bir xil mazmunga ega boʻlmogʻi, biroq turli hududlardagi oʻtkazilishi tartibi va unsurlari bir-biridan farqlanmogʻi kerak;

• tarbiyaviylik tamoyili; ushbu tamoyilga koʻra, milliy marosimlar yoshlar maʼnaviy kamoloti manbai boʻlmogʻi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalamogʻi, yigit va qizlarning ijtimoiylashuvini taʼminlamogʻi darkor.

Jamiyatda milliy marosimlarni tashkil etish va oʻtkazish madaniyatini yuksaltirish uchun bu boradagi asosiy va birlamchi navbatda hal qilinishi zarur boʻlgan vazifalar majmui ham aniqlab olinmogʻi darkor. Fikri-mizcha,

bu boradagi chora-tadbirlarning quyidagi vazifalar ijrosiga yo‘naltirilishi ko‘zlangan natijalarni bergan bo‘lardi:

Birinchidan, milliy marosimlarda an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan choralar samarasi oshirilmog‘i darkor. Avvalgi bobdagi mulohazalar ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida milliy marosimlarni optimallashtirishning eng muhim vazifalaridan biri ular-ning an’anaviy, tarixiy-madaniy negizini saqlagan holda zamonaviy ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirishdan iborat. An’anaviylik deganda tarixiy taraqqiyot davomida qaror topgan va milliy marosimlar tarkibidan joy olgan ramzlar,timsollar, rasm-rusumlar, urf-odatlar, qadriyatlar, me’yorlar tushuniladi. Zamonaviylik esa marosimlarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sharoitlarga moslashuvini, ular tarkibiga yangi shakl va vositalarning kirib kelishini anglatadi. Ularni bir-biriga zid qo‘yish, bir-biridan ajratish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Aksincha, milliy marosimlarning barqarorligi ko‘p jihatdan ularning o‘zgaruvchan ijtimoiy shart-sharoitlarga moslasha olish imkoniyatlariga bog‘liq. Ushbu xulosa milliy marosimlarni optimallashtirishning muhim qonuniyatlaridan birini aniqlab olish imkonini beradi: milliy marosimlar zamonaviylashuvi an’anaviy unsurlarning yo‘qolishini anglatmaydi; aksincha, har bir yangi ijtimoiy shart-sharoitda an’anaviy unsurlar yangi funktsiya va shakllarda qayta namoyon bo‘la boradi. Milliy marosimlarda an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan choralar aynan ana shu nazariy-metodologik asosga tayanmog‘i darkor.

Milliy marosimlarda an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash uchun quyidagi choralarga diqqatni jamlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- milliy marosimlarning tarixiy va madaniy asoslarini ilmiy o‘rganish zarur. Milliy marosimlarning qay bir unsuri milliy madaniyatda muhim o‘rin tutadi, qay biri esa keyinchalik paydo bo‘lgan – bu va bu kabi masalalar ijtimoiy-falsafiy, etnografik va sotsiologik izlanishlar ob’ektiga aylantirilmog‘i darkor. Bu izlanishlarning natijalari milliy marosimlarni sub’ektiv qarashlar asosida emas, ilmiy mezonlar zamirida optimallashtirish imkonini beradi;

• zamonaviy innovatsiyalarni milliy marosimlarga maqsadli integratsiya qilish amaliyotini tatbiq etish kerak. Asosiy e’tibor milliy marosimlarning maqsadi va ma’naviy mazmuniga putur etkazmaydigan yangi unsurlarni saqlab qolishga, maqsadga muvofiq bo‘lmagan unsurlardan marosimlarni muhofaza qilishga qaratilmog‘i darkor.

Ikkinchidan, milliy marosimlar mazmuni va estetik qiyofasi uyg‘unligini ta’minlash yo‘llarini izlamoq darkor. Milliy marosimning ijtimoiy jihatdan ta’sirchanligi nafaqat uning qanday g‘oyani ifodalagani bilan, balki mazkur g‘oyaning qanday ramzlar, badiiy vositalar, musiqa, libos, bezak, harakat va muloqot shakllari bilan namoyish etilganligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, milliy marosimning estetik qiyofasi uning mazmunini ifodalab beradigan vosita vazifasini bajaradi. Avvalgi bobdagi mulohazalar ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida milliy marosimning aynan ana shu vositasi keskin transformatsiyalashib bormoqda. Bunday vaziyatda milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirishning asosiy mezonlaridan biri ularni chiroyli o‘tkazish bilan emas, mazmunini estetik jihatdan to‘g‘ri ifodalash bilan bog‘lanmog‘i lozim. Milliy marosimlarni takomil toptirishda mazkur vazifaning ahamiyati juz’an tadqiqotchi O. Nishanovaning doktorlik dissertatsiyasida ham atroflicha tavsiflab beriladi.

Mazkur vazifani maqbul tarzda amalga oshirish uchun avvalo har bir marosimning ma’naviy mazmuni aniq belgilab, ifodalab berilmog‘i darkor. Chunki marosimda qaysi g‘oya va qadriyat ustuvor ekanligiga aniqlik kiritilsa, uning estetik qiyofasini shu mazmunga moslashtirish oson kechadi. Shundan keyin marosimni ifodalovchi estetik vositalar tanlanmog‘i lozim. Shuningdek, milliy marosimlar mazmuni va estetik qiyofasi uyg‘unligini ta’minlash uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

• milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda qo‘llaniladigan estetik mezonlar tizimi ishlab chiqilmog‘i kerak. Unda milliylik, mazmunga muvofiqlik, me’yoriylik, mutanosiblik, badiiy yaxlitlik, zamonaviylik va ijtimoiy maqbullik kabi mezonlar nazarda tutilishi lozim;

• milliy marosimlarga xizmat ko‘rsatuvchi professional sub’ektlar milliy estetik an’analar, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda qo‘llaniladigan estetik mezonlar tizimi bilan tanishtirilmog‘i kerak;

- milliy marosimlarning estetik unsurlarini (liboslar, musiqa asarlari, bezaklar, milliy naqshlar, taomlar va sh.k.) ularning mazmuniga muvofiq tanlash amaliyotini qaror toptirish zarur;
- jamiyatda milliy marosimlarning ma’naviy g‘oyasini ifodalamaydigan unsurlardan voz kechish zaruriyati keng targ‘ib va tashviq qilinmog‘i darkor.

Uchinchidan, milliy marosimlarni ixchamlashtirish, ulardagi ortiqcha dabdabalarning oldini olish ishlari takomillashtirilmog‘i lozim. Bu ishlarni shunchaki iqtisodiy ahamiyatga molik masala sifatida talqin qilish o‘rinli emas. Mazkur vazifaning ijtimoiy, ma’naviy-madaniy aspektlari ham mavjud. Ixchamlashtirilgan va ortiqcha dabdabalardan xoli milliy marosimlargina jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatuvchi va milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi omil vazifasini o‘tay oladi. Marosim ortiqcha rasm-rusumlar va dabdabalarga burkanaverar ekan, uning ijtimoiy va madaniy qadr-qimmati ham yo‘qola boradi.

Ixchamlashtirish ishlarini faqat marosimlardagi mehmonlar yoki ishtirokchilar sonini kamaytirish, sarf-xarajatlar miqdorini maqbullashtirish bilan cheklash to‘g‘ri emas. Bu ishlar milliy marosimlarning maqsad va mazmuniga mos bo‘lmagan tadbirlar, takroriy rasm-rusumlar, sun’iy yaratilgan urflar, namoyishkorlik unsurlarini qisqartirishni ham o‘z ichiga olmog‘i kerak. Shuni inobatga olgan holda milliy marosimlarni ixchamlashtirish choralari quyidagilardan tarkib topgani ma’qul, deb hisoblaymiz:

- marosimlarni asossiz uzaytirish hollariga barham berish;
- marosimlardagi bir-birini takrorlovchi rusumlarni birlashtirish;
- marosimlar uchun qilinayotgan ortiqcha xarajatlarni kamaytirish choralarini yanada kuchaytirish;
- marosimlar tarkibida sun’iy ravishda hosil qilingan rasm-rusumlarni keskin cheklash;
- marosimlarda qo‘llanadigan bezak va effektlarni me’yorga solish.

Milliy marosimlardagi dabdababozlikka barham berish ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda bunday dabdabalar minglab oilalarning moliyaviy imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni vizual namoyish qiluvchi vositaga aylanib

borayot-gani, kishilarda ijtimoiy taqlid illatini yuzaga keltirayotgani hech kimga sir emas. Bu borada mamlakat hukumati tomonidan samarali va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda, albatta. Mazkur ishlar doirasida quyidagi cho-ralarga ham e’tibor qaratilishi maqsadga erishish imkoniyatlarini oshiradi, deb hisoblaymiz:

- jamiyatda oila daromadining tejalgan qismini yoshlarga ta’lim berishga, yosh oilaning fundamental ehtiyojlarini qondirishga, maishiy turmush sharoitlarini yaxshilashga, boshqa ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish madaniyati shakllantirilmas ekan, milliy marosimlarni ortiqcha dabdabalardan xalos qilib bo‘lmaydi. Binobarin, jamiyat targ‘ibot imkoniyatlarining salmoqli qismi ana shu maqsadga erishishga safabar etilmog‘i darkor;
- milliy marosimlarga xizmat ko‘rsatish bozorida ixcham va milliy formatlarni ko‘paytirish zarur; restoranlar, to‘yxonalar, dekoratorlar, foto-video studiyalar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchilarni oilalarga dabdabani emas, milliy va iqtisodiy jihatdan maqbul paketlarni taklif etishga chorlash zarur.

To‘rtinchidan, oilaviy marosimlarda moliyaviy-iqtisodiy ratsionallik va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish kerak. Bu vazifa, avvalo, marosim xarajatlarining oila real daromadlari va iqtisodiy imkoniyatlariga mutanosibligini ta’minlash, ortiqcha qarzdorlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, marosimni ijtimoiy mavqeni namoyish etish vositasiga aylantirmaslikni nazarda tutadi. Mazkur vazifaning dolzarbligi zamonaviy oilaviy marosimlarda marosimiy iste’molchilikning kuchayib borayotgani bilan bog‘liq. Avvagi bobda ko‘rsatilganidek, keyingi yillarda to‘y va boshqa marosimlar uchun restoran, banket, milliy va zamonaviy liboslar, fotovi-deo xizmatlari, dekoratsiya, transport, musiqiy xizmatlar va boshqa ko‘plab xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Bu, bir tomondan, marosimlarni tashkil etish sifatini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, marosim xarajatlarining keskin ko‘payishiga zamin yaratdi. Bu holat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo‘shma Qarorida ham qayd etib o‘tildi.

Yuzaga kelgan vaziyat oilalarni xarajatlarini ratsionallashtirishga undashni, jamiyat a’zolarida esa ijtimoiy mas’uliyatni oshirishni talab etmoqda. Buning uchun quyidagi choralarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- jamiyat a’zolarida oilaviy marosimlarni oila byudjetini hisobga olgan holda rejalashtirish madaniyatini shakllantirish zarur. Bu madaniyat stixiyali ravishda amalga oshirilgan sa’y-harakatlar evaziga yuzaga kelib qolmaydi, albatta. Buning uchun shu maqsadga yo‘naltirilgan umumijtimoiy harakatni vujudga keltirish, kishilarni marosim uchun ajratiladigan mablag‘ni oilaning umumiy daromadidan kelib chiqqan holda shakllantirishga odatlantirish lozim. Oila xarajatlarini ratsionallashtirish uslublariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop risolalarning nashr etilishi va ommalashtirilishi mazkur maqsadga ershish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- oilalarni asosiy xarajatlarni oilaning uzoq muddatli manfaatlariga yo‘naltirishga undash zarur. Fuqarolar yosh oilaning uy-joy sharoitini yaxshilash, ta’lim olish, kasb-hunar egallash, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik faoliyatiga sarmoya kiritish bir kunlik dabdabadan ko‘ra ma’qulroq ekanligiga ishontirilmog‘i lozim;
- oilaviy marosimlarni o‘tkazish uchun qarz olish amaliyotiga qarshi keng ko‘lamli targ‘ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish lozim. Ayniqsa, yosh oilalarni bir kunlik marosim uchun uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarni zimmasiga olishdan asrab qolish muhim;
- kishilarga oilaviy marosimlarni ixcham va oqilona o‘tkazilishi uchun shaxsan mas’ul ekanliklari chuqur uqdirilmog‘i darkor. Har bir o‘tkazilgan marosim jamiyatda ularga taqlid qilishga moyil kishilarning katta guruhini yuzaga keltiradi – bu xulosa fuqarolar ongiga turli kanallar orqali singdrilmog‘i, shu tariqa ijtimoiy mas’uliyat hissi uyg‘otilmog‘i kerak.

Beshinchidan, milliy marosimlarning hududiy va etnomadaniy xususiyatlarini saqlash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Milliy marosimlar umummilliy qadriyatlarni ifodalash bilan birga muayyan hududning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, etnik tarkibi, estetik didi bilan bog‘liq xususiyatlarni ham mujassam etadi. Binobarin, ularni butun mamlakat bo‘ylab yagona standartlar asosida

oʻtkazish maqsadga muvofiq emas. Bu borada milliy marosimlardagi umummilliy qadriyatlarni hududiy-etnomadaniy xususiyatlar bilan uygʻunlashtirish oʻrinli boʻladi.

Bir qarashda, milliy marosimlardagi hududiy va etnomadaniy xususiyatlarni asrab qolish vazifasi dolzarb emasdek tuyuladi. Aslida bunday emas. Chunki mazkur xususiyatlar mamlakatnng muayyan hududida umrguzaronlik qilgan kishilarning oʻtmish tajribasini oʻzida mujassam qiladi. Hududlarda oʻziga xos shakllarda oʻtkazilgan marosimlardagi ramzlar, rasm-rusumlar, qoʻshiqlar va liboslar ana shu tarixiy tajribani ifodalaydi. Milliy marosimlarning butun mamlakat boʻylab yagona standartlarga boʻysundirilishi hudud madaniy xotirasiga oid ana shu maʼlumotlarning butkul yoʻqolib ketishiga sababchi boʻlishi mumkin.

Milliy marosimlardagi hududiy va etnomadaniy xususiyatlarni asrab qolishga undayotgan yana bir holat mavjud. Gap shundaki, milliy madaniyat barcha millat vakillari uchun umumiy boʻlgan til, anʼanalar, qadriyatlar, madaniy meros, adabiyot va sanʼatni oʻzda mujassam qilish bilan cheklanmaydi. Mamlakat turli xususiyatlarga ega hududlarni jamlagani, millat esa murakkab stratifikatsiyaga mujassam qilgani bois milliy madaniyat ham ichki plyuralistik xarakterga ega boʻladi: u nafaqat umumilliy unsurlarni, balki turli hududlarda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, kommunikatsion omillar taʼsirida shakllangan anʼana va qadriyatlarni ham oʻz ichiga oladi. Sirasini aytganda, aynan ana shu anʼana va qadriyatlar umummilliy madaniyatning mazmunan boyishiga xizmat qiladi. Milliy marosimlarning standartlashuvi, ulardagi hududiy oʻziga xosliklarga eʼtiborsizlik pirovardida milliy madaniyatning plyuralistik xarakteriga putur etkazadi hamda, qaysidir maʼnoda, uning sayozlashuviga sababchi boʻladi.

Binobarin, milliy marosimlarni tashkil etish va oʻtkazish madaniyatini yuksaltirish vazifalari ulardagi hududiy va etnomadaniy xususiyat-larni asrab qolish masalasini ham oʻz ichiga olmogʻi darkor. Bu borada quyidagi choralar samara beradi, deb hisoblaymiz:

- milliy marosimlarning hududiy va etnomadaniy xususiyatlari ilmiy-etnografik inventarizatsiya qilinmogʻi lozim. Shu tariqa har bir hududdagi marosimlarda saqlanib qolgan unsurlarni aniqlash mumkin boʻladi. Bunday

yondashuv qaysi unsurlarni saqlash, qaysilarini zamonaviy ijtmoiy shart-sharoitlarga moslashtirish kerakligini ilmiy asosda belgilash imkonini beradi;

- milliy marosimlardagi hududiy va etnomadaniy xususiyatlarning raqamli arxivini yaratish kerak. Hududlarda milliy marosimlarni o‘tkazish shakllariga doir ma’lumotlarning hujjatlashtirilishi ularni asrab qolish va kelajak avlodlarga etkazish uchun shart-sharoit yaratadi;
- milliy marosimlardagi hududiy va etnomadaniy xususiyatlarning ilg‘or va ijobiy namunalarini madaniy festivallar, folklor tadbirlari, ko‘rgazmalar, ilmiy-amaliy anjumanlarda namoyish etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish darkor.

Oltinchidan, mahalla institutining milliy marosimlarni muvofiqlashtirishdagi rolini takomillashtirish lozim. Mustaqillik yillarida mahalla institutining milliy marosimlarni muvofiqlashtirishdagi, ularni tartibga solishdagi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli sezilari darajada faollashganini aytib o‘tdik. Biroq globallashuv sharoitida milliy marosimlarni optimallashtirish jarayonida mahalla instituti imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish zaruriyati oshib bormoqda. Bugungi ijtimoiy shart-sharoitlarda mahalla institutining bu boradagi asosiy vazifalari aholining milliy marosimlar mazmuni va ahamiyati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, jamiyat a’zolarining turfa marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq orzu-umidlari, hohishirodalarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish, marosimlarni o‘tkazishga doir ijobiy taj-ribalarni keng targ‘ib qilishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Bu vazifalarni bajarishda quyidagi choralar samara beradi, deb hisoblaymiz:

- mahallalarda milliy marosimlarning o‘tkazilishini muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish zarur. Mazkur tizim mahalla faollari, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlar vakillarining sa’y-harakatlarini uyg‘unlashtirishda qo‘l keladi;
- mutaxassislarni jalb etgan holda namunali marosim mezonlarini ishlab chiqish va mahalla faollariga etkazish kerak. Bu mezonlar marosimlarning mazmuni, ixchamligi me’yorlari, estetik qiyofasi va shu kabilarni qamrab olmog‘i lozim;

- turli mahallalarda jamoaviy va oilaviy marosimlarni o‘tkazish bilan bog‘liq ijobiy tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yish darkor. Mazmunli va milliy qadriyatlarga mos tarzda o‘tkazilgan marosimlar boshqa oilalar uchun namuna vazifasini o‘tashi mumkin;
- milliy marosimlarni optimallashtirish borasida mahalla, ta’lim maskanlari, madaniyat muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining shakllantirilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Yettinchidan, yoshlarni milliy marosimlarning an’anaviy mazmunini asrash ishlariga jalb qilish choralarini ko‘rmoq zarur. Avvalgi bobda jamoaviy va oilaviy marosimlarda yoshlarning roli va sub’ektlik darajasi ortib borayotganini e’tirof etib o‘tdik. Biroq bugungi yigit va qizlar asosan milliy marosimlarni yangi timsollar,rasm-rusumlar, tashkil etish modellari bilan boyitishda jonbozlik qilmoqdalar. Endilikda yoshlarni milliy marosimlarning milliy xususiyatlarini asrovchi qudratga aylantirish zaruriyati ortmoqda. Holbuki, milliy marosimlarning barqarorligi va optimallashuvi ularning katta avlod vakillari tomonidan asrab-avaylanishigagina emas, balki yoshlarning ushbu madaniy jarayondagi faol ishtirokiga ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Yoshlarni milliy marosimlarning an’anaviy mazmu-nini asrash ishlariga jalb qilishda quyidagi choralar samara beradi, deb hisoblaymiz:

- ta’lim maskanlarida yoshlarni milliy marosimlarni o‘tkazish madaniyatiga doir ma’rifiy materiallar bilan tanishtirish ishlarini takomil toptirish kerak. Umumta’lim maktablari, texnikum va litseylar, oliy ta’lim muassasalari yigit va qizlarni milliy marosimlarga oid tarixiy ma’lumotlardan voqif qilish bilan cheklanmasdan, ularning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini ham tavsiflab bermoqlari darkor;
- qishloq va mahallalarda yoshlar uchun milliy marosimlarning o‘tkazilish tajribasiga doir davra suhbatlari tashkil etish ishlariga tizimli tus berish lozim. Bu suhbatlarda keksa avlod vakillari ishtiroki ayni muddao bo‘ladi;
- yoshlarni milliy marosimlarni raqamli texnologiyalar vositasida hujjatlashtirish va arxivlashtirish ishlariga keng jalb qilmoq zarur. Bu sa’y-harakatlar yigit va qizlarning milliy marosimlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi;

• yigit va qizlar uchun mahalla, qishloq va shaharlarda saqlanib qolgan milliy marosimlarni o‘rganish ekspeditsiyalarining tashkil etilishi, ularning milliy marosimlar festivallarida ishtirokining ta’minlanishi ham muhim rol o‘ynashi mumkin.

Sakkizinchidan, milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish ishlarini optimallashtirish darkor. Bu borada milliy marosimlarning mazmunini kengroq tavsiflab berishga, ularni ma’rifiy nuqtai nazardan yoritishga diqqatni jamlamoq darkor. Faqat shunday metodologik pozitsiyadan taqdim etilgan maqolalar, ocherklar, eshittirishlar, ko‘rsatuvlar, Internet kontentlarigina milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Masalaning bu aspektiga tadqiqotchi A. Ashirov ham e’tiborni qaratib o‘tadi. Xususan, uning maqolasida O‘zbekistonda nikoh, aqiqa, sunnat to‘yi va motam marosimlaridagi o‘zgarishlar atroflicha tahlil qilinarkan, diniy ulamolar va imomlarning televidenie, radio, saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ma’rifiy ma’ro‘zalari mazkur marosimlarning uyushtirilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur tezisga tayangan holda muhim nazariy xulosa chiqarish mumkin: bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar milliy marosimlar xususida shunchaki ma’lumot beruvchi emas, ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatining shakllanishiga hissa qo‘shuvchi ijtimoiy institut vazifasini ham o‘taydi. Binobarin, uning imkoniyat-laridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Milliy marosimlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish ishlarini optimallashtirish uchun quyidagi choralarga e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz:

• milliy marosimlarni yoritish tartibiga doir ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-metodik mezonlar majmuini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

• ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda milliy marosimlarning tarixiy va ma’naviy mazmuniga bag‘ishlangan kontentlarni ko‘paytirish kerak;

• milliy marosimlardagi dabdababozlikning yoritilishiga butkul barham bermoq zarur - bunday namoyishlar jamiyatda ijtimoiy taqlidni kuchaytirishi mumkin.

To‘qqizinchidan, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishning zamonaviy optimal modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kerak. Globallashuv sharoitida milliy marosimlarning an’anaviylik va zamonaviylikni, milliylik va umuminsoniylikni, ma’naviy mazmun va ratsional shaklni, oila orzu-umidlari va ijtimoiy mas’uliyatni, umummilliylik va hududiylikni uyg‘unlashtirgan modeliga ehtiyoj tobora oshib bormoqda. Faqat shunday modelgina milliy marosimlarni mazmunan va funksional jihatdan o‘zgartirmagan holda zamonaviy shart-sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi.

Fikrimizcha, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishning zamonaviy optimal modeli quyidagi vazifalarni bajarishga xizmat qilmog‘i darkor:

- milliy marosimlarning tarizan shakllangan mazmuni va maqsadini saqlash;
- milliy maosimlardagi hududiy etnomadaniy xususiyatlarni asrab qolish;
- milli marosimlarni zamonaviy shart-sharoitlarga moslashtirish;
- ortiqcha dabdababozlik va isrofgarchilikning oldini olish;
- oilaviy xarajatlarni ratsionallashtirish;
- yoshlarning marosimiy madaniyatdagi ishtirokini maqbullashtirish.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Zamonaviy ijtimoiy shart-sharoitlarda milliy marosimlarni optimallashtirish masalasi o‘ta dolzarb ijtimoiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Mazkur vazifani uddalash uchun avvalo milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa yaqin kelajakda milliy marosimlarda an’anaviylik va zamonaviylik, mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlash, ularni ixchamlashtirish va ratsionallashtirish, hududiy va etnomadaniy xususiyatlarini asrash choralarini ko‘rish zarur. Mahalla institutining milliy marosimlarni muvofiqlashtirishdagi rolini takomillashtirish, marosimlarning an’anaviy mazmunini asrab-avaylash ishlariga yoshlarni kengroq jalb qilish, marosimlarning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini optimallashtirish, ularni o‘tkazishning optimal modelini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga molik.

IV.2. Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish imkoniyatlari

Zamonaviy jamiyatda milliy marosimlar turfa shahar va qishloqlarda o‘tkaziladigan shunchaki tadbir yoxud rasm-rusumlar majmui emas, jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni ma’naviy kamolotga undovchi vosita bo‘lmog‘i lozim. Marosimlarni bunday ahamiyatli vositaga aylantirish uchun dastav-val ularning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish zarur bo‘ladi. Binobarin, milliy marosimlarni optimallashtirishning yana bir muhim vazifasi ana shundan iborat.

Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati deganda ularning kishilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida kamol toptirishdagi, axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdagi, jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlikni yuksaltirishdagi, ma’naviy xavf-sizlikni ta’minlashdagi imkoniyatlari majmui tushuniladi. Ushbu salohiyat qator ahamiyatli komponentlarning murakkab kombinatsiyasidan tarkib topadi. Xususan:

- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati aksiologik komponentni o‘zida mujassam qiladi – u jamiyat a’zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish potentsialiga ega;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati axloqiy komponentni o‘zida mujassam qiladi - u shaxsga jamiyatda maqbul deb hisoblangan xulq-atvor me’yorlarini, fazilat va xislatlarni o‘zlashtirish imkonini beradi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati identifikatsion komponentni o‘zida mujassam qiladi – u jamiyat a’zolarida muayyan oilaga, mahallaga, hududga, millatga, jamiyatga, Vatanga mansublik hissini kuchaytiradi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati fuqaroviy komponentni o‘zida mujassam qiladi – u jamiyat a’zolarida ijtimoiy mas’uliyatning chuqur ildiz otishiga hissa qo‘shadi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati kommunika-iv komponentni o‘zida mujassam qiladi – u kishilarga oila a’zolari, qavmu-qarindoshlari,qo‘ni-qo‘shnilari, do‘st-birodarlari, hamkasblari,

hammaslaklari, tarish-bilishlari bilan yaqin muloqotda bo‘lish imkonini taqdim qiladi;

- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati vorisiylik komponentini o‘zida mujassam qiladi – u katta avlod hayotiy tajribasi, jamlagan bilimlarini o‘zlashtirish uchun shart-sharoit yaratadi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati estetik komponentni o‘zida mujassam qiladi – u shaxsning go‘zallik haqidagi tasavvurlarini takomil toptiradi va estetik didini yuksaltiradi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati konsolida-tsion komponentni o‘zida mujassam qiladi – u jamiyat a’zolari o‘rtasidagi hamjihatlikni yuksaltirishga xizmat qiladi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati mafkuraviy komponentni o‘zida mujassam qiladi – u jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini ifodalovchi komponentlarga doir nazariy mulohazalar bu salohiyatni yuksaltirish bobidagi eng dolzarb vazifalar doirasini aniqlab olish imkonini beradi. Shunday qilib, milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish uchun quyidagi vazifalarga diqqatni jamlash zarur bo‘ladi:

Birinchidan, milliy marosimlarning jamiyat a’zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish borasidagi potentsialini yuksaltirish kerak. “Jahon falsafasi qomusida” ta’kidlanishicha, “milliy qadriyatlar muayyan millatning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma’naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikning tartib-qoidalari hamda ular bilan bog‘liq xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ahamiyatini ifodalaydigan tushunchadir. U umumijtimoiy qadriyatlar tizimidagi xususiy bo‘g‘in, ya’ni millatga xos bo‘lgan qadriyatlarning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi”. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson hayoti, qadr-qimmati, erkinligi, tinchlik, adolat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va insonparvarlik kabi umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy mezonlarni qamrab oladi. Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati shundaki, ular jamiyat a’zolariga mazkur qadriyatlarni bir-biriga qarama-

qarshi qo‘ymagan holda singdira oladi. Tadqiqotchi N. Matkarimova ham o‘z maqolasida milliy marosimlarning ushbu imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratib o‘tadi. Maqolada o‘zbek milliy marosimlari milliy ma’naviyatning ifodachisi sifatida talqin qilinarkan, uning asl maqsadlaridan biri yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ehtiromini mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lmog‘i darkorligi ta’kidlanadi.

Biroq u yoki bu milliy marosimning shunchaki tashkil etilishi va o‘tkazilishining o‘ziyoq ijobiy tarbiyaviy natija beravermaydi. Eng avvalo, milliy marosimlardagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lovchi timsollar, ramzlar, rasm-rusumlarga urg‘u bermoq, ularni uyg‘unlashtirmoq darkor. Marosimlar davomida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bir-birini to‘ldirib, boyitib boruvchi fenomenlar sifatida namoyish etmoq kerak. Masalan, o‘zbek mehmondo‘stligi dastavval milliy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo ushbu qadriyatlar zamirida insonga e’zoz, bag‘rikenglik va saxiylik kabi umuminsoniy g‘oyalar ham mujassam. Milliy marosimlarni o‘tkazish chog‘ida qadriyatlarning ana shunday talqin etilishigina milliylikni umuminsoniylik bilan bog‘laydi, jamiyat a’zolarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishiga zamin yaratadi. Shuningdek, milliy marosimlarning kishilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish borasidagi potentsialini yuksaltirish uchun:

- milliy marosimlarning tarbiyaviy mazmuni ishtirokchilarga mufassal tushuntirilmog‘i lozim. Ayniqsa yoshlarga milliy marosimlardagi muayyan harakat yoki ramz, rasm-rusum yoki urf-odatning mazmun-mohiyati keng tavsiflab berilmog‘i kerak;
- oilaviy marosimlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan tizimli foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak. Ota-onalar, katta avlod vakillari farzandlarga marosimlarning tarixi, ma’nosi, ularda ifodalangan qadriyatlarning mazmunini tushuntirib bermoqlari zarur;
- milliy marosimlarni tashkil etayotganda umuminsoniy qadriyatlarni namoyish etish tadbirlariga alohida e’tibor bermoq lozim. Inson qadr-qimmati, mehr-oqibatlilik, bag‘rikenglik, tinchlik, o‘zaro yordam kabi g‘oyalar milliy marosimlarning ma’naviy mazmuni bilan uyg‘unlashtirilmog‘i kerak.

Ikkinchidan, milliy marosimlarning shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Shaxs milliy marosimlar davomida turli hatti-harakatlar, rasm-rusumlarni ado etarkan, ular vositasida jamiyatda maqbul sanalgan xulq-atvor modellarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, u marosimda ishtirok etish orqali yoshi ulug‘ kishilarga salom berishga, mehmonga hurmat ko‘rsatishga, qarindosh-urug‘lar holidan xabar olishga odatlanadi. Vaholanki, o‘zbek xalqi asrlar davomida aynan ana shu me’yorlarni ulug‘lab, ma’qullab kelgan, aynan ana shu me’yorlarni o‘zlashtirga kishilarni qadrlagan. Xuddi shuning uchun ham milliy marosimlarni shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish omili sifatida tavsiflash mumkin.

Biroq har qanday marosim ham maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish omiliga aylanib qolavermaydi, albatta. Mazmun-mohiyati va qadr- qimmati anglab etilgan marosimgina shaxs xulq-atvoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, marosimda ishtirok etayotgan yigit yoxud qiz boshqalarga taqlidan keksalarga izzat ko‘rsatishi mumkin, ammo ushbu harakatning zamiridagi hurmat va ehtirom g‘oyasini anglab etmasa, mazkur rasm-rusum uning barqaror axloqiy pozitsiyasiga aylanmaganicha qolaveradi. Ko‘rinadiki, marosimdagi rasm-rusumlarning tarbiyaviy ta’siri ularning mazmunining chuqur anglab etilishi bilan bog‘liq. Shuni inobatga olgan holda milliy marosimlarning shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun quyidagi choralarga e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz:

- milliy marosimlardagi rasm-rusumlarning asl mazmunini ochib beruvchi, ularning axloqiy qadr-qimmatini tavsiflovchi targ‘ibot va tashviqot materiallarini ko‘paytirish va ommalashtirish kerak;
- ta’lim muassasalarida milliy marosimlarni axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo‘llash ham o‘rinli bo‘ladi;
- qishloq va mahallalarda o‘tkaziladigan marosimlarning tashqi shakli bilan axloqiy mazmuni o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish choralarini ko‘rmoq kerak; marosimda axloq-odob haqida gapirilsayu, amalda ortiqcha namoyishkorlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilsa, uning tarbiyaviy ta’siri zaiflashadi.

Uchinchidan, milliy marosimlarning jamiyat a’zolarida muayyan millatga mansublik hissini kuchaytirishdagi rolini oshirish kerak. Insonning milliy mansubligi nafaqat uning etnik kelib chiqishi, o‘zini qaysi millat vakili deb atashi, balki shu millatning tarixi, tili, madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari va marosimlari mazmunini bilishi, ularga ijobiy munosabatda bo‘lishi bilan ham belgilanadi. Bu tuyg‘u va munosabatni vujudga keltirishda milliy marosimlar alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan ana shu milliy marosimlar milliy madaniyatning ramziy va amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir inson milliy marosimda ishtirok etish pallasida o‘z millati madaniyatiga xos bo‘lgan unsurlarni bevosita kuzatadi va o‘zlashtiradi. Shu tariqa milliy madaniyat haqidagi nazariy tasavvurlar konkret hayotiy tajriba bilan bog‘lanadi.

Bu o‘rinda ham masalaning nozik jihati bor. Milliy marosimlarning shaklan takomil toptirilishi jamiyat a’zolarida avtomatik tarzda muayyan millatga mansublik hissini shakllantirmaydi. Aytaylik, marosimlar chog‘ida ishlatiladigan liboslar sifatining yaxshilanishi,milliy musiqa asarlarining yaxshiroq aranjirovkada taqdim etilishi milliy mansublik tuyg‘ularini jo‘sh urdirib yubormaydi. Bu choralar milliy marosimlarni bir qadar qiziqarli tadbirga aylantirishi mumkin, xolos. Milliy marosimlar kishilarda milliy mansublik tuyg‘ularini yuksaltiruvchi omilga aylanishi ular millat madaniyati va tarixini ifodalovchi va taqdim qiluvchi unsurlar bilan boyitilishi kerak. Bunda quyidagi choralar samara berishi mumkin, deb hisoblaymiz:

- har bir milliy marosimda milliy mansublik tuyg‘ularini junbushga keltirishga qodir bo‘lgan unsurlar mavjud, albatta. Binobarin, ana shu unsurlarni aniqlash, milliy marosimlar chog‘ida ularni kengroq taqdim etish va namoyish qilish yo‘llarini aniqlamoq darkor;
- milliy marosimlarda qo‘llaniladigan ramzlar, rasm-rusumlar, liboslar, musiqa va qo‘shiqlar, taomlarning tarixiy-madaniy mazmunini ochib beradigan uslubiy qo‘llanmalar tayyorlanishi ham maqsadga muvofiq. Mazkur qo‘llanmalarning tashkilotchilarga yetkazilishi milliy marosimlarning milliy mansublik hissini kuchaytirishdagi rolini oshirishga xizmat qiladi;

• milliy marosimlarning milliy mansublik hissini kuchaytirishdagi rolini oshirish choralari boshqa millat va elat vakillarining madaniyati va marosimini rad etish tadbirlariga aylanib qolmasligi o‘ta muhim. Bu boradagi sa’y-harakatlar boshqa millatlar madaniyatiga pozitiv munosabatni shakllantirish ishlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilmog‘i kerak.

To‘rtinchidan, milliy marosimlarning jamiyat a’zolarida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rnini mustahkamlash kerak. Globallashuv va individuallashuv jarayonlari tendentsiyaviy tus olayotgan bugungi pallada jamiyat a’zolarida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb qilayotganini isbotlab o‘tirishga hojat yo‘q. Davr kishisi ko‘proq o‘z muddaolariga, manfaatlariga, shaxsiy intilishlariga e’tibor bermoqda. Bu holat, bir tomondan, shaxs erkinligini va mustaqilligini kengaytirmoqda, albatta. Biroq, ikkinchi tomondan, uni umumijtimoiy maqsad va manfaatlarga befarq qilib qo‘ymoqda, jamiyat barqarorligi va ravnaqi uchun mas’uliyatdan batamom mosuvo qilmoqda. Vaholanki, ijtimoiy taraqqiyot jamiyat a’zolarini yagona maqsad va muddaolar atrofida birlashtirishni, ularning yurt oldidagi mas’uliyatini yuksaltirishni taqozo etadi. Birdamlik va umumijtimoiy mas’uliyat bo‘lmas ekan, barqarorlik va taraqqiyot ham bo‘lmaydi.

Bunday sharoitda milliy marosimlar kishilarda ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlovchi o‘ta muhim resurs bo‘lib xizmat qila oladi. Chunki aynan marosimlarda ishtirok etish orqali kishilar o‘zlarining boshqalar bilan bog‘liq ekanliklarini, o‘z taqdirlari boshqalarning taqdiri bilan aloqadorligini chuqur his etadilar. Bu holat to‘y, janoza kabi marosimlarda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Milliy marosimlar ijtimoiy mas’uliyatning quyidagi ko‘rinishlarini qaror toptirish imkonini beradi: a) oilaviy marosimlar shaxsga oila oldidagi burchi va mas’uliyatini anglab olish imkonini beradi; b) jamoaviy marosimlar kishilarga qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar, vatandoshlar oldidagi mas’uliyatini anglab olish imkonini beradi; v) butun jamiyat miqyosida amalga oshirilgan marosimlar kishilarga Vatan oldidagi mas’uliyatlarini anglab olish imkonini beradi; g) milliy marosimlar chog‘ida uning ijobiy ramzlari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini saqlashga, ularni keyingi avlodlarga etkazishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar shaxsda madaniy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi. Ijtimoiy

mas’uliyatning ana shu ko‘rinishlarini shakllantirishda milliy marosimlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun:

- ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga hissa qo‘sha oladigan milliy marosimlarni tizimlashtirish zarur; masalan, jamoaviy yordamni, ehtiyojmandlarga ko‘makni, keksalar holidan xabar olishni, qo‘ni-qo‘shnilar bilan hamkorlikni nazarda tutuvchi marosimlar alohida resurs sifatida tavsiflanmog‘i lozim;
- ijtimoiy mas’uliyatni milliy marosimlarni tashkil etishning asosiy mezonlaridan biriga aylantirish kerak. Boshqacha aytganda, marosimning oila moddiy-iqtisodiy holatiga, mahalla va qishlloq hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi diqqat markazida turmog‘i kerak. Ana shunday mas’uliyatli yondashuvning o‘zi jamiyat a’zolarida ijtimoiy mas’uliyatni yuksaltirishga xizmat qiladi;
- ijtimoiy mas’uliyatni o‘zida mujassam qilgan marosimlarni ommalashtirish choralarini ko‘rmoq maqsadga muvofiq.

Milliy marosimlarning ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan choralarni amalga oshirayotganda muhim metodologik qoidaga amal qilish zarur: bu sa’y-harakatlar shaxs erkinligini cheklovchi, uning huquqlarini poymol qiluvchi choralarga aylanib ketmasligi zarur. Aks holda, ko‘rilgan choralar mutlaqo teskari natijalarga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, milliy marosimlarning shaxslararo muloqotni rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kerak. Globallashuv sharoitida shaxslararo muloqot shaklan evrilib, o‘zgarib borayotgani sir emas. Axborot texnologiyalari jadal rivoji bu muloqotning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda, xarakterini o‘zgartirmoqda. Biroq Internet sayt va portallari, ijtimoiy tarmoqlar kishilarning kommunikativ imkoniyatlarini naqadar kengaytirmasin, bevosita, yuzma-yuz muloqotning o‘rnini bosa olmaydi. Inson raqamli platformalar orqali tabriklar yo‘llashi, bemordan hol-ahvol so‘rashi, yaqin kishisini yo‘qotgan insonni virtual tarzda qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ammo quvonch va qayg‘uni baham ko‘rishda bevosita muloqotning hissiy ta’siri ayriligicha qolaveradi. Milliy marosimlar esa aynan ana shunday imkoniyatni taqdim etishi bilan qadrli. Aynan milliy marosimlarning shakllari har xil ijtimoiy guruhga mansub

bo‘lgan, hayotining turli bosqichlarida turgan, turli hayotiy vaziyatlarni boshidan kechirayotgan insonlarni muayyan makonda jamlaydi hamda ularning bevosita muloqot qilishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Milliy marosimlar chog‘ida sodir bo‘lgan shaxslararo muloqot kishilarni umumiy tuyg‘ular va kechinmalar atrofida birlashtiradi. Masalan, nikoh va to‘y - quvonchni birgalikda baham ko‘rishga, janoza va ta’ziya - qayg‘uni birgalikda engishga, mehmondorchilik - qarindoshlik va do‘stlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xuddi shuning uchun ham tadqiqotchi T. I. Gavrilova milliy marosimlarni jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar barqarorligini ta’minlovchi mexanizm sifatida tavsiflaydi.

Ko‘rinib turibdiki, milliy marosimlar shaxslararo muloqotni ta’minlashda o‘ziga xos vosita rolini bajaradi. Bu rol quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: a) marosimlar katta va kichik avlod vakillarini bir makonda jamlarkan, avlodlararo muloqotni ta’minlaydi; b) marosimlar yaqin qarindoshlarni bir tadbirda to‘plarkan, qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlaydi; v) marosimlar qo‘shnilarning bir-biriga amaliy yordam berishini rag‘batlantirarkan, qo‘shnilararo muloqotni rivojlantiradi; g) marosimlar kishilarni o‘z tuyg‘ulari va kechinmalarini boshqalar bilan baham ko‘rishga undarkan, emotsional muloqotni kuchaytiradi. Ana shu rolning maqbullashtirilishi milliy marosimlar ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish imkonini yuzaga keltiradi. Ammo buning uchun umumjamiyat miqyosida qator tizimli va uzviy choralarni ro‘yobga chiqarish zarur bo‘ladi. Xususan:

- qishloq va mahallalarda milliy marosimlarning muloqot bilan bog‘liq unsurlarini kuchaytirish choralarini ko‘rmoq kerak; boshqacha aytganda, marosimlarni tashkil etayotganda va o‘tkazayotganda tantanalarni uyushtirish, ishtirokchilarni ovqatlantirish, ularga sovg‘alar ulashish kabi tadbirlarga emas, kishilarning o‘zaro muloqot qilishlari uchun imkoniyat yaratish ishlariga ustuvorlik berish kerak;
- milliy marosimlarning ijtimoiy qadr-qimmatini ishtirokchilar soniga qarab emas, balki ular o‘rtasida shakllangan muloqotning mazmundorligi va samarasiga qarab baholash odatini yuzaga keltirish lozim.

Oltinchidan, milliy marosimlarning avlodlararo vorisiylikni ta’minlashdagi ahamiyatini oshirish kerak. Avlodlararo vorisiylik deganda

yoshlarni milliy marosimlar tarkibidan joy olgan urf-odat yoki rasm-rusumlar bilan shunchaki tanishtirishni nazarda tutmaslik kerak. Avlodlararo vorisiylik – ajdodlar uzoq asrlar mobaynida jamlagan madaniy tajribaning kelgusi avlodlarga etkazilishi, mazkur tajriba mazmunining avlodlar tomonidan qat'iy o'zlashtirilishi va yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtirilishi demakdir. Milliy marosimlar esa o'tmish avlodlari tarixiy-madaniy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va axloqiy me'yorlarini yosh avlodga izchil etkazuvchi mexanizm vazifasini o'taydi. Shu nuqtai nazardan tavsiflaganda, milliy marosimlar avlodlararo vorisiylikning o'ziga xos "ijtimoiy laboratoriyasi" hisoblanadi. Chunonchi, katta avlod vakillari turfa milliy marosimlarda o'z bilim va tajribalarini namoyon etadilar, yosh avlod vakillari esa marosimlarda ishtirok etish asnosida mazkur bilim va tajribalarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Milliy marosimlarga xos bo'lgan ana shu funktsiyaning takomil toptirilishi ularning ma'naviy-tarbiyaviy salohiyatini benihoya yuksaltiradi.

Globallashuv sharoitida milliy marosimlar tarkibidan joy olgan ramzlar, timsollar, rasm-rusumlar, urf-odatlarning mazmunsiz reproduksiyaga aylanishi xavfi ortmoqda. Bugungi yoshlar aksariyat hollarda ularni mazmunini tushunmagan va anglamagan holda ado etmoqdalar. Marosimlar tarkibidagi rasm-rusum va urf-odatlarning bunday nooqilona va ongsiz ravishda ijro etilishi ularning shaklan saqlanib, ammo mazmunan siyqalashib ketishi xavfini yuzaga keltirmoqda. Ongsiz ijro ortidan milliy marosimlarning avlodlararo vorisiylikni ta'minlash borasidagi funksiyalari shikastlanmoqda. Shu munosabat bilan milliy marosimlarning avlodlararo vorisiylikni ta'minlashdagi ahamiyatini oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu zaruriyatga javoban quyidagi choralarni ko'rish lozim bo'ladi:

- qishloq va mahallalarda katta avlodning milliy marosimlarni tashkil etish va o'tkazish borasidagi tajribalarini yoshlarga mexanik ravishda etkazishga emas, marosimlar tarkibidagi ramzlar va timsollar, rasm-rusum va urf-odatlar mazmuni va mohiyatini, madaniy-ma'naviy qimmatini tushuntirishga xizmat qiladigan mexanizmni shakllantirish kerak; bunga qishloq va mahallalarda milliy marosimlar tarixi va qadr-qimmatiga bag'ishlangan davra suhbatlari tashkil qilish orqali erishish mumkin;

• keksa avlod vakillarining milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq bilim va tajribalarining, turli ramzlar va timsollar mazmuniga doir talqinlarining yozib olinishi, ular bilan intervyularning tasvirga tushirilishi, bu materiallarning maxsus Internet saytlarida jamlanishi ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday materiallar yoshlarning milliy marosimlarga oid tajribalarini o‘zlashtirishlari, ularning mazmunini saqlagan holda takomil toptirishlari uchun yo‘l ochgan bo‘lardi.

Ettinchidan, milliy marosimlarning shaxs estetik didiga tarbiyaviy ta’sirini optimallashtirish kerak. Milliy marosimlar shaxsni estetik jihatdan tarbiyalash bobida katta imkoniyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos madaniy mexanizmdir. Inson u yoki bu marosimda ishtirok etarkan, milliy liboslar, kuy va qo‘shiqlar, milliy naqsh va bezaklar, dasturxon tuzish madaniyati, taom tortish madaniyati, muomala va munosabat estetikasi kabi ko‘plab badiiy-estetik hodisalar bilan to‘qnashadi. U mazkur estetik hodisalarni idrok etish orqali o‘z estetik mezonlarini, estetik didini qaror toptiradi. Masalan, kelin salom marosimida milliy liboslar, zargarlik buyumlari, turli bezaklar muayyan estetik tizimni hosil qiladi. Bu tizim shaxsning kiyinish madaniyati, ranglar uyg‘unligiga doir estetik tasavvurlarini boyitadi. Beshik to‘yida beshikning milliy matolar, buyumlar va gullar bilan bezatilishi o‘ziga xos nafosat muhitini yuzaga keltiradi. Bu muhit ham shaxs estetik tafakkurining shakllanishiga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, milliy marosimlar davomida qo‘llaniladigan so‘zana, gilam, kashta, kulolchilik buyumlari, zargarlik namunalari kabi milliy hunarmandchilik namunalari shaxs estetik didini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi.

Globallashuv sharoitida milliy marosimlar estetik qiyofasida ro‘y bergan o‘zgarishlar (biz bu o‘zgarishlarni avvalgi boblarda tavsiflab o‘tdik) ularning estetik-tarbiyaviy imkoniyatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Albatta, bu o‘zgarishlarning barchasini salbiy baholash to‘g‘ri emas. Zero, zamonaviy dizayn, yangi texnologiyalar milliy marosimlarning estetik imkoniyatlarini ancha boyitdi. Biroq milliy marosimlar estetik qiyofasida ro‘y bergan ayrim o‘zgarishlar estetik mezonlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Masalan, ko‘plab milliy marosimlarda estetiklik va hashamat o‘rtasidagi farq yo‘qolib bormoqda. Ularda go‘zallik nuqul qimmatbaho bezaklar, katta zal, ko‘p sonli dekoratsiyalar bilan qiyoslanmoqda. Turkum marosimlarda milliy

estetika unsurlari tashqi dekoratsiya darajasiga tushirib qo‘yilmoqda. Ularda milliy mazmundagi naqshlardan keng foydalaniladi, ammo marosim ishtirokchilari bu naqshlarning ramziy mazmunini na tushunadi, na tavsiflab bera oladi.

Mazkur kamchiliklarni tizimli ravishda bartaraf etmasdan turib, milliy marosimlarning shaxs estetik didiga tarbiyaviy ta’sirini optimallashtirib, ularning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirib bo‘lmaydi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- milliy marosimlarda qo‘llanadigan milliy estetik qadriyatlar targ‘ibotini takomil toptirish lozim. Xususan, keng jamoatchilikka milliy liboslar, hunarmandchilik buyumlari, milliy naqshlar, milliy kuy va raqslar, an’anaviy taom va bezaklarning estetik mazmuni mufassal tushuntirib berilishi kerak;
- milliy marosimlarda mazmun va estetik me’yor uyg‘unligini ta’min-lash choralarini ko‘rish darkor. Kishilarni “marosimlarda ishlatiladigan mahsulotlar va bezaklar qanchalik ko‘p va qimmat bo‘lsa, shunchalik go‘zal bo‘ladi,” degan qarashlardan voz kechib, soddalik va milliy nafosatni ustuvor deb bilishga chorlash zarur;
- milliy marosimlarda milliy estetika va zamonaviy dizaynni uyg‘unlashtirish yo‘llarini aniqlamoq lozim. Milliy estetikani zamonaviylikka qarshi qo‘yish maqbul emas – bu chora yoshlarni milliy marosimlardan bezdiradi. Binobarin, milliy marosimlarda milliy naqshlarni zamonaviy intererda qo‘llash, milliy liboslarni zamonaviy dizaynda taqdim etish, milliy musiqa motivlarini zamonaviy aranjirovka bilan uyg‘unlashtirish choralari topilmog‘i shart.

Sakkizinchidan, milliy marosimlarning ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi potentsialini to‘laroq realizatsiya qilish kerak. Darhaqiqat, milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini yuksaltirish borasidagi muhim vazifalardan biri ularning jamiyat a’zolarini birlashtirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirish borasidagi imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq. Vaholanki, milliy marosimlar bu bobda misli ko‘rilmagan imkoniyatlarga ega. Avvalo shuni qayd etmoq zarurki, har qanday milliy marosim

umumjamoaviy tabiatga molik. Boshqacha aytganda, turfa marosimlar turli ijtimoiy guruhga mansub kishilar tomonidan birgalikda tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Marosimlar chog‘ida kishilar vaqtincha bo‘lsada muayyan maqsadlar va manfaatlar atrofida birlashadilar, o‘zlarini qay bir muddao, ijtimoiy birlik vakili sifatida his etadilar. Shu tariqa milliy marosimlar har qanday sharoitda ham ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq bugungi kunning ko‘plab ijtimoiy tendensiyalari ta’sirida milliy marosimlarning kishilarni birlashtirish borasidagi imkoniyatlari zaiflashib bormoqda. Xususan, jamiyatning individuallashuvi kishilarni shaxsiy manfaatlarga o‘ralashib qolishiga sabab bo‘lmoqdaki, buning natijasida ular turli marosimlarda faol ishtirok etmay qo‘yayotirlar. Bunday vaziyatda milliy marosimlar jamiyat a’zolarini ma’naviy tarbiyalash funksiyasini yo‘qotib qo‘ymoqda. Binobarin, xulosa qilish mumkinki, milliy marosimlarning ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi potentsialini to‘laqonli realizatsiya qilmasdan turib, ularning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirib bo‘lmaydi. Bu borada, fikrimizcha, quyidagi choralarni ko‘rish zaruriyati mavjud:

- qishloq va mahallalarda jamiyat a’zolarini milliy marosimlarga kengroq jalb etishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur; bu mexanizm majburiylik tamoyiliga emas, kishilarni marosimlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish tamoyiliga tayanmog‘i lozim;
- milliy marosimlarni tashkil etayotganda va o‘tkazayotganda ularning jamoani birlashtiruvchi unsurlariga alohida e’tibor bermoq kerak; masalan, marosimlarga qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar va mahalla ahlini faqat tomoshabin sifatida emas, tashkiliy jarayonlarning faol ishtirokchisi si-fatida jalb etishga e’tibor berish zarur - bu chora marosimlarning jamoaviylik xususiyatini sezilarli darajada kuchaytiradi.

To‘qqizinchidan, milliy marosimlarning ma’naviy-mafkuraviy xavf-sizlikni qaror toptirishdagi rolini kuchaytirish kerak. “...Globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda,- deb yozadi mamlakat rahbari Sh. Mirziyoev.- Xudbinlik, ya’ni, faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati

singari illatlar turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda. Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko‘z yuma olmaymiz”. Ana shunday bir vaziyatda mamlakatning ma’naviy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash vazifasi strategik ahamiyat kasb qilmoqda. Milliy marosimlar esa mazkur vazifani ro‘yobga chiqarishda muhim omil vazifasini o‘tashi mumkin. Chunki ular milliy o‘zlikni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Inson o‘zining kimligini, qaysi millatga, madaniyatga mansubligini, ajdodlari qanday qadriyatlar asosida umrguzaronlik qilganini aynan ana shu marosimlarda ishtirok etish orqali anglab boradi. Xuddi shuning uchun ham ma’naviy-mafkuraviy xatarlar shiddat bilan ko‘payib borayotgan bugungi davrda milliy marosimlarning ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni qaror toptirishdagi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish o‘ta dolzarb masala sanaladi. Bu borada quyidagi choralarning ko‘rilishi samara berishi mumkin, deb hisoblaymiz:

- milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda asosiy e’tibor shiorbozlikka emas, ularning real ma’naviy mazmuniga qaratilmog‘i shart;
- yoshlarga milliy marosimlarni faqat tomosha qilish yoki tayyor ssenariyni bajarish emas, ularning mazmun-mohiyatini o‘rganish, talqin qilish va zamonaviy shaklda davom ettirish imkoniyatini bermoq zarur.

Tilga olingan vazifalarning tizimli ravishda hal etilishi milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshiradi, ularning yuksak darajada optimal tus olishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Milliy marosimlarni optimallashtirish uchun ularning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini ham oshirish taqozo etiladi. Buning uchun esa yaqin kelajakda milliy marosimlarning jamiyat a’zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish borasidagi potensialini yuksaltirish, shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish borasidagi imkoniyatla-rini kengaytirish,

jamiyat a’zolarida muayyan millatga mansublik hissini kuchaytirishdagi rolini oshirish, kishilarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rnini mustahkamlash, shaxslararo muloqotni rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, avlodlararo vorisiylikni ta’minlashdagi ahamiyatini oshirish, shaxs estetik didiga tarbiyaviy ta’sirini optimallashtirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashdagi potentsialini to‘laroq realizatsiya qilish, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni qaror toptirishdagi rolini kuchaytirish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi.

IV.3. Milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari

Milliy marosimlarni optimallashtirish uchun jamiyatda ularni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish, marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish muhim, albatta. Ayni paytda jamiyatda milliy marosimlarni optimallashtirishga xizmat qiladigan samarali institutsional va ijtimoiy mexanizmlar bo‘lmas ekan, mazkur vazifalar ro‘yobga chiqmaganicha qolib ketadi. Binobarin, milliy marosimlarni optimallashtirishning yana bir ahamiyatli vazifasi mazkur institutsional va ijtimoiy mexanizmlarni zamonaviylashtirish bilan bog‘liq.

Milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari deganda ularning mazmuni va shaklini, ijtimoiy funktsiyalarini bir tomondan milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga, ikkinchi tomondan esa zamonaviy jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga moslashtirishga xizmat qiluvchi davlat va jamoat institutlari, ijtimoiy sub’ektlar, boshqaruv vositalari va me’yorlari tushuniladi. Xususan, institutsional mexanizmlar milliy marosimlarni tashkil etuvchi va o‘tkazuvchi ijtimoiy institutlar turkumidan tarkib topadiki, ularning barchasi bu borada o‘ziga taalluqli bo‘lgan qator funksiyalarni ado etadi. Bu institutlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davlat institutlari milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishiga madaniy siyosat doirasida maxsus davlat dasturlarini amalga oshirish, tegishli qonunchilik hujjatlarini shakllantirish orqali ta’sir ko‘rsatadi;

- mahalla instituti milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi va tartibga soladi, ularga doir jamoatchilik fikrini shakllantiradi;
- oila instituti milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishiga doir bilim va tajribalarni ajdodlardan avlodlarga etkazadi;
- ta’lim muassasalari aholiga milliy marosimlarning tarixi, ma’naviy mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib berish bilan shug‘ullanadi;
- madaniyat va san’at institutlari milliy marosimlarning estetik unsurlarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi;
- fuqarolik jamiyati institutlari milliy marosimlarning ijtimoiy-madaniy mazmunini boyitishga hissa qo‘shadi;
- ommaviy axborot vositalari milliy marosimlarning ijtimoiy obrazini shakllantiradi, ijobiy tajribalarni ommalashtiradi va ularni tashkil etishga oid yangi modellarning tarqalishiga zamin yaratadi.

Milliy marosimlarni optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmlari esa shu maqsadga erishish imkonini beradigan vositalar majmuini o‘z ichiga oladi. Bu vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jamoatchilik fikri**;**
- ijtimoiy nazorat**;**
- ijtimoiy rag‘batlantirish tizimi**;**
- ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatish tizimi**.**

Jamiyatda milliy marosimlarni optimallashtirishga xizmat qiluvchi ratsional institutsional va ijtimoiy mexanizmlarning mavjud bo‘lishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday mexanizmlarning mavjudligi milliy marosimlarning ma’naviy mazmunini saqlab qolish va tarixiy shakllarini asrash, zamonaviy shart-sharoitlarga oqilona moslashtira borish, ularni maqbul va ixcham shakllarda tashkil etish va ijtimoiy hamjihatlik omiliga aylantirish imkonini beradi. Aksincha, jamiyatning mazkur institutsional va ijtimoiy mexanizmlardan mosuvoligi milliy marosimlar ma’naviy mazmunining siyqalashuviga, tarixiy shakllarining emirilishiga, zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga moslashmay qolishiga, tashkil etilishi va o‘tkazilishi shakllarining nomaqbul tus olishiga olib keladi.

Milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ij-timoiy mexanizmlariga doir yuqoridagi nazariy xulosalar bu boradagi bugungi

vazifalarni aniq tasavvur qilish va kun tartibiga qo‘yish imkonini beradi. Shunday qilib, milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional mexanizmlarini zamonaviylashtirish uchun yaqin kelajakda quyidagi vazifalar ijrosiga diqqatni jamlash zarur bo‘ladi:

Birinchidan, milliy marosimlarni optimallashtirish vazifasini madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish kerak. Bugungi O‘zbekistonda madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosati “madaniyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarixiy va madaniy merosning but saqlanishini ta’minlash, shuningdek xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash, madaniy faoliyat sohasiga davlat-xususiy sheriklikni joriy etish, aholining madaniy ehtiyojlarini qanoatlantirish va madaniy xizmatlar sifatini yaxshilash, aholining, shu jumladan yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni yaxshilash, yosh iste’dodlarni o‘qitish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, madaniy faoliyat sohasida zarur shart-sharoitlarni va sog‘lom raqobat muhitini yaratish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish” kabi yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan yig‘ilishida ta’kidlaganidek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”. Mazkur fikr madaniyat va ma’naviyat masalalarining davlat siyosatidagi strategik ahamiyatini yaqqol ifodalab turibdi.

Prezident nutqida globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va ma’naviy hayotga turli ta’sirlar kuchayib borayotgani, shu sababli yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlangan.Binobarin, bu boradagi alohida o‘rin tutadigan milliy marosimlarni ham madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ob’ektlaridan biri sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Amalda esa milliy marosimlarni optimallashtirish masalasi hozircha davlat madaniy siyosatining boshqa yo‘nalishlari - tarixiy merosni muhofaza qilish, muzeylar, teatr va kino, musiqa san’ati, kitobxonlik, hunarmandchilik, festivallar va boshqa sohalar singari mustaqil va tizimli siyosat yo‘nalishi sifatida etarlicha institutsionallashmagan, deb o‘ylaymiz.

Milliy marosimlarni optimallashtirishni madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish uchun avvalo ularning zamonaviy holati, hududiy xususiyatlari, jamiyat a’zolarining marosimlarga munosabati, global tendentsiyalarning milliy marosimlarga ta’siri, bugun o‘tkazilayotgan marosimlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari muntazam o‘rganib borilishi kerak. Chunki aynan ana shunday izlanishlar bu boradagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini aniqlab olish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur vazifani amalga oshirish uchun quyidagi choralarga e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz:

- milliy marosimlarni optimallashtirishni madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’lon qilish kerak; shuning o‘ziyoq ularga bo‘lgan ijtimoiy munosabatni tubdan o‘zgartiradi;
- milliy marosimlarni optimallashtirishning kontseptual va institutsional asoslarini ishlab chiqish zarur;
- milliy marosimlarning ijobiy va zamonaviy modellarini ommalashtirish masalasi davlatning ularni optimallashtirish borasidagi siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmog‘i va qonunan mustahkamlanmog‘i lozim;
- davlat mahalla, oila, ta’lim muassasalari, madaniyat maskanlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining milliy marosimlarni optimallashtirish borasidagi hamkorligining asosiy qoidalarini ishlab chiqishi, bu hamkorlikni muvofiqlashtirishga kirishishi zarur.

Ikkinchidan,oila institutining marosimlarni optimallashtirishdagi mas’uliyatini oshirish kerak. Milliy marosimlarning aksariyati davlat yoki jamoat tashkilotlari tomonidan emas, bevosita oila tashabbusi asosida va uning ishtirokida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi**.** Marosimlar-ning mazmuni, shakli, davomiyligi, ishtirokchilar davrasi, xarajatlari va estetik qiyofasi ham oila tomonidan belgilanadi. Bu holat oilani milliy marosimlarni optimallashtirishning nafaqat ob’ekti, balki asosiy sub’ekti sifatida ham tavsiflashni taqozo etadi.

Oila zimmasidagi mas’uliyatni faqat marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan cheklash to‘g‘ri emas. Oila marosimlardagi milliy o‘ziga xoslikni saqlash, uning tarbiyaviy ahamiyatini ta’minlash, uni bema’ni

unsurlardan xalos qilish uchun ham mas’uldir. Oila institutining bu boradagi mas’uliyati ijtimoiy mas’uliyat (ya’ni marosimni oilaning real moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish) va madaniy mas’uliyatning (ya’ni milliy marosimlarning asl mazmunini asrash, ularning tarbiyaviy ta’sirini ta’minlash) o‘ziga xos sintezi sifatida namoyon bo‘ladi.

Oila institutining milliy marosimlarni optimallashtirishdagi mas’uliyatini oshirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- oila a’zolarida milliy marosimlarni tashkil etish masalasiga ongli yondashuvni shakllantirmoq darkor. Buning uchun oilalarni milliy marosimlar mazmuni va tarixiy tadrijiga doir ilmiy-ommabop risolalar bilan ta’minlash zarur bo‘ladi;
- hududlarda milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda oilaning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlari va manfaatlari ustuvor mezonga aylantirilmog‘i lozim;
- milliy marosimlarni tashkil etishda va o‘tkazishda yoshlarning fikr va mulohazalarini albatta inobatga olishni ijtimoiy tendensiyaga aylantirish darkor.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarining aholiga milliy marosimlar mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish borasidagi faoliyatini sifatan yangi bosqichga ko‘tarish kerak. Milliy marosimlarni optimallashtirish vazifasi nafaqat ularning an’anaviy mazmuni va shakllarini saqlab qolishni, balki mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari, ijtimoiy ahamiyatini kishilarga, ayniqsa yosh avlodga tushuntirib berishni ham taqozo etadi. Bu borada ta’lim maskanlari alohida o‘rin tutadi. Ta’lim maskanlari jamiyat a’zolariga, shu jumladan yigit va qizlarga nafaqat milliy marosimlarning mazmuni va tashkil etilishi tartibini, balki ularning paydo bo‘lishi tarixi, milliy madaniyatdagi o‘rni, estetik xususiyatlari va zamonaviy jamiyatda transformatsiyalashuvi sabablarini ham tavsiflab bera oladi. Xuddi shuning uchun ta’lim muassasalarining bu boradagi faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish milliy marosimlarni optimallashtirishning muhim institutsional-madaniy mexanizmi hisoblanadi.

Ta’lim muassasalarining aholiga milliy marosimlar mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish borasidagi faoliyatini takomil toptirish uchun quyidagi tizimli choralarni ko‘rish zarur bo‘ladi:

- ta’lim muassasalarida Falsafa,Tarix, Adabiyot, Ma’naviyat asoslari, Madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan tahsil berayotganda milliy marosimlar tavsifiga alohida to‘xtalishni yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda milliy marosimlar umumijtimoiy ahamiyatga molik qadriyat, shaxsni kamol toptiruvchi manba, ijtimoiy munosabatlarning yorqin ifodasi sifatida ochib berilmog‘i lozim;
- milliy marosimlar mazmunining nuqul darslik yoki qo‘llanmaga tayangan holda yoritilishi ularning ijtimoiy va ma’naviy qimmatini to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shu sababli tahsil chog‘ida interaktiv ta’lim uslublaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- ta’lim muassasalarida milliy marosimlarning zamonaviy transformatsiyalarini tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratish zarur. Chunki ta’lim dargohining vazifasi faqat milliy marosimlarni asrab-avaylashga chorlashdan iborat emas. Ayni paytda yoshlarga marosimlardagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni ilg‘ash va farqlash, ularning ijtimoiy sabab va oqibatlarini tahlil qilish imkoniyatini ham berish kerak.

To‘rtinchidan, madaniyat muassasalarining milliy marosimlar estetikasini takomil toptirishdagi rolini oshirish kerak. Avvalgi bobda milliy marosimlar estetik qiyofasi ularni o‘tkazishda qo‘llanilgan musiqa asarlari, liboslar, bezaklar, badiiy ifoda vositalari, ishtirokchilarning estetik madaniyati bilan belgilanishini aytib o‘tdik. Mazkur unsurlar birinchi navbatda madaniyat muassasalarining bevosita ishtiroki orqali shakllantiriladi, albatta. Agar jamiyatda madaniyat muassasalarining milliy marosimlardagi ishtiroki to‘g‘ri va ratsional yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur tadbirlarning sifati va samarasi, ahamiyati va kishilarga tarbiyaviy ta’siri ham yuksala boradi. Aksincha, madaniyat muassasalarining milliy marosimlar estetikasini takomil toptirishdagi roliga e’tiborsizlik milliy madaniyatning ushbu elementi inqirozi yoxud siyqalashuviga olib kelishi mumkin. Shu boisdan madaniyat muassasalarining ushbu rolini maqbullashtirish milliy marosimlar institutsional mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida baholanmog‘i

kerak. Bu vazifani uddalash uchun quyidagi choralarga e’tibor berish zarur, deb hisoblaymiz:

- etnograflar, san’atshunoslar, dizaynerlar,musiqashunoslar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda milliy marosimlarning estetik qiyofasini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar va namunaviy modellar ishlab chiqilmog‘i va madaniyat muassasalariga etkazilmog‘i lozim. Bu modellarda milliy liboslarning zamonaviy talqinlari, milliy musiqani zamonaviy janrlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari, milliy naqsh va ornamentlardan foydalanish qoidalari, marosimlar o‘tkaziladigan joylarni milliy estetika asosida bezash yo‘llari, ularda milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanish tamoyillari o‘z aksini topmog‘i darkor;
- milliy marosimlar estetikasini rivojlantirish jarayoniga zamonaviy dizaynerlar va ijodkorlarni kengroq jalb etish choralari ko‘rilmog‘i lozim;
- madaniyat muassasalarida “Milliy marosimlar estetikasi” mavzusida ko‘rgazmalarning tashkil etilishi ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

Beshinchidan, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kerak. Milliy marosimlar jamiyat a’zolarining kundalik ijtimoiy-madaniy hayotida shakllanadigan hodisa bo‘lgani bois ularni optimallashtirish vazifasini faqat davlat organlarining ma’muriy ta’siri vositasida ado etib bo‘lmaydi. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati sub’ektlari va jamoat tashkilotlarining tashabbuslari ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur institutlarning afzalligi shundaki, ular turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari, qarashlari va muammolarini bevosita ifodalay oladi. Shu sababli ular milliy marosimlarni optimallashtirishda davlat va jamiyat o‘rtasida vositachi vazifasini bajarishi mumkin.

Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi:

- fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarining milliy marosimlarni optimallashtirishdagi vazifalari aniq belgilab olinmog‘i kerak. Fikrimizcha, bu vazifalar marosimlar mazmunini ochib berishga qaratilgan ma’rifiy faoliyatni amalga oshirish, marosimlarni optimallashtirish

borasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion tajri-balarni ommalashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin;

- fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarini milliy marosimlarning zamonaviy holatini o‘rganish, ulardagi ijobiy va salbiy tendentsiyalarni aniqlash hamda maqbul modellarni ishlab chiqish ishlariga kengroq jalb etish choralari aniqlanmog‘i zarur; buning uchun maxsus grantlar ajratishning yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq;
- fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarining milliy marosimlar tarixi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga bag‘ishlangan ma’rifiy faoliyatiga tizimli tus berish kerak; bu o‘rinda mavzuga doir maxsus davlat dasturining ishlab chiqilishi ayniqsa o‘rinli bo‘lardi.

Milliy marosimlarni optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmla-rini zamonaviylashtirish uchun esa yaqin kelajakda quyidagi vazifalar ijrosiga diqqatni jamlash zarur bo‘ladi:

Birinchidan, milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikrini shakllantirish choralarini ko‘rish kerak. Milliy marosimlarning maqbul shakllarda o‘tkazilishi faqat huquqiy yoki ma’muriy talablar bilan shartlanmaydi. Buning uchun kishilar ongu-shuurida marosimlarning mazmuni va ahamiyatiga doir to‘g‘ri va pragmatik tasavvurlar ham qaror topgan bo‘lmog‘i lozim. Agar jamoatchilik milliy marosimlarni jamiyat a’zolarining ijtimoiy mavqeini belgilovchi omil sifatida tasavvur qilsa, kishilar, oilalar ularni o‘z moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlariga mutanosib bo‘lmagan shakllarda o‘tkazishga intilaveradilar. Bunday sharoitda eng o‘rinli qaror va qonunlar ham ish bermay qolishi mumkin. Jamiyatda milliy marosimlarga oid pragmatik jamoatchilik fikri shakllanganidgina ularning tashkil etlishi va o‘tkazilishi optimallashadi.

Ma’lumki “jamoatchilik fikri - ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar va ayrim shaxslar faoliyatiga bo‘lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi ommaviy ong shaklidir” Milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikri deganda esa ularning mazmun-mohiyati, ma’naviy-tarbiyaviy qadr-qimmati, tashkil etayotgan va o‘tkazayotgan sub’ektlarning moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlarga mosligi, ijtimoiy ta’siri, bugungi turmush talablariga muvofiqligini ustuvor qo‘yadigan ijtimoiy qarashlar tizimi tushuniladi. Bunday jamoatchilik fikri

o‘z-o‘zidan yuzaga kelib qolmaydi, albatta. Yuqoridagi nazariy xulosa asosida fikr yuritadigan bo‘lsak, milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun quyidagi choralarni ko‘rish zarur bo‘ladi:

- tashkilotchilarning milliy marosimlarning asl mazmuni va milliy xususiyatlariga doir tasavvurlarini kengaytirish kerak. Buning uchun joylarda tegishli mavzularga bag‘ishlangan davra suhbatlarini uzluksiz tashkil etish, tashkilotchilarni turfa ilmiy va uslubiy risolalar bilan ta’minlash lozim bo‘ladi;
- milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy qadr-qimmatini ochib beruvchi va targ‘ib qiluvchi bannerlar, bukletlar, flaerlarni ko‘paytirish va hududlarda faol joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi;
- jamoatchilik ongida “har qanday marosim oilaning moliyaviy va iq-tisodiy imkoniyatlariga mutanosib bo‘lmog‘i kerak” degan qarashni mustahkamlamoq kerak. Buning uchun joylarda ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va madaniyat maskanlari vakillari ishtirokida marosimlarning zamonaviy holati va ortiqcha xarajatlar tahliliga bag‘ishlangan muloqotlar tashkil etish mumkin;
- jamiyat a’zolariga har qanday milliy marosim keng jamoatchilik ongi va faoliyatiga jiddiy ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlab berilmog‘i darkor. Shahar va qishloqlarda o‘tkazilgan har qanday marosim ularga taqlid qilishga moyil kishilarning butun boshli guruhini vujudga keltiradi. Shu boisdan marosimni tashkil etayotgan fuqarolar jamiyat oldida ham mas’ul ekanliklarini chuqur anglab etishlari shart;
- milliy marosimlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishi samarasini aniqlashda qo‘llaniladigan yangi ijtimoiy mezonlarni targ‘ib qilish kerak. Bunda “eng katta”, “eng qimmat”, “eng hashamatli” kabi mezonlar o‘rnini mazmundorlik, milliylik, ixchamlik kabi mezonlar egallamog‘i darkor.

Ikkinchidan, milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish ustidan ijtimoiy nazoratning zamonaviy va demokratik modellarini qaror toptirish kerak. Milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazorat deganda ularning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, madaniy va huquqiy me’yorlar asosida tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlashga, bu boradagi nomaqbul tendentsiyalarning oldini olishga yo‘naltirilgan choralar tizimi tushuniladi.

Bunday nazoratdan maqsad barcha marosimlarning uyushtirilishini total kuzatuv yoxud ta’qib ostiga olish emas. Bunda jamiyat a’zolarining huquq va erkinliklarini cheklash haqida ham gap ketmayotir. Milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazorat shaxs manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazoratning totalitar va demokratik usullari mavjudligini ham eslatib o‘tmoq kerak. Nazoratning totalitar modelida milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazorat markazlashgan va majburiy xarakterga ega bo‘ladi. Bunda davlat yoki hukmron davralar oilaviy va jamoaviy marosimlarning mazmuni, shakli, ishtirokchilari va amalga oshirilishi tartibini qat’iy belgilab berishga intiladi. Totalitar nazoratda shaxsning mustaqil tanlovi emas, balki belgilangan talablarga so‘zsiz rioya qilishi ustuvor bo‘ladi. Nazoratning demokratik modelida esa barcha choralar shaxs huquq va erkinliklarini hurmat qilish, ixtiyoriylik va ochiqlik tamoyillariga asoslanadi. Bunda davlat marosimlarning mazmuni va shaklini belgilab berishga emas, ularning milliy unsurlarini asrab-avaylashga, ular vositasida aholiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatishga, marosimlarning jamoatchilik uchun maqbul bo‘lgan shakllarini ommalashtirishga urg‘u beradi. Shu bois milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazoratning demokratik modelini ta’qiq mexanizmi emas, ma’rifiy yo‘naltirish mexanizmi sifatida baholash mumkin.

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazoratni demokratik, insonparvar va profilaktik model asosida tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Bunday modeldagi nazoratni qaror toptirish uchun yaqin kelajakda quyidagi choralarga diqqatni jamlash kerak bo‘ladi:

- milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi sub’ektlarning bu boradagi funktsiyalari aniq belgilab qo‘yilmog‘i shart. Bunda, masalan, davlat milliy marosimlarni o‘tkazishning huquqiy va institutsional shart-sharoitlarini, mahalla marosimlarning o‘tkazilishi tartibini, ta’lim va madaniyat muassasalari marosimlarning milliylikka mosligini nazorat qilishi mumkin;
- milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirishning aniq va demokratik mezonlarini ishlab chiqish zarur; bunday mezonlar

ijtimoiy nazoratning tanqidiy va jazolovchi mexanizmga aylanib ketishining oldini oladi;

- milliy marosimlar ustidan ijtimoiy nazorat profilaktik xarakterga ham ega bo‘lmog‘i darkor; ularni tashkil etish va o‘tkazishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tanqid qilishdan ko‘ra tashkilotchilarni xabardor qilish va maslahat berish samaraliroqdir.

Uchinchidan, milliy marosimlarni ixcham va tartibli tashkil etgan sub’ektlarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini shakllantirish kerak. Maqbul mazmunda va shaklda tashkil etilgan hamda o‘tkazilgan milliy marosimlarning jamiyat tomonidan e’tirof etilishi muhim ahamiyatga ega. Bun-day rag‘bat ijobiy tajribalarning jadal ommalashishiga yo‘l ochadi. Xuddi shuning uchun milliy marosimlarni optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmlari ularni mazmunli, ixcham va tartibli tashkil etgan sub’ektlarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini ham o‘z ichiga olmog‘i darkor.

Milliy marosimlarni ixcham va tartibli tashkil etgan sub’ektlarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini shakllantirayotganda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz:

- ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini shakllantirish uchun avvalo jamiyatda uyushtirilayotgan milliy marosimlarni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Bunday mezonlar turkumiga, masalan, milliy marosimlarda milliylikka amal qilinishi darajasi, ularning mazmundorligi, kishilar manfaatlari va moddiy holatiga mosligi, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati va shu kabilar kiritilishi mumkin. Ana shu mezonlarga javob beradigan marosimlarni tashkil eta olgan sub’ektlargina rag‘batga tortilishi kerak. Bunday rag‘bat hamma vaqt ham moddiy yoxud moliyaviy ne’matlar bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas. Maqbul marosim tashkilotchilari ma’naviy shakllarda ham rag‘batlantirilishi mumkin Masalan, marosimlarning tashkilotchilari uchun eng katta rag‘bat vazifasini ommaviy axborot vositalaridagi ijtimoiy e’tirof o‘tashi mumkin. Bunday rag‘bat marosim tashkilotchilari sa’y-harakatlarini ijtimoiy manfaatlar va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi;

- milliy marosimlarni ixcham va tartibli tashkil etgan sub’ektlarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimi jamiyatdagi ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan hamhang bo‘lgani ma’qul. Chunki ushbu ijtimoiy nazorat mexanizmi

milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq nomaqbul va nooqilona amaliyotlarning oldini olishga xizmat qilsa, ijtimoiy rag‘batlantirish tizim ushbu sa’y-harakatlar bilan bog‘liq progressiv va ijobiy tajribalarni ommalashtirishga yo‘l ochadi. Shu jihatdan mazkur ikki tizimni bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida tavsiflash mumkin;

- ixcham va tartibli tashkil etilgan marosim sub’ektlarining rag‘batlantirilishi uzluksiz davom etadigan jarayon bo‘lmog‘i kerak. Bu boradagi kampaniyabozlik, rag‘batlantirish tadbirlarining muayyan bayramlar o‘tkaziladigan sanalarga moslashtirilishi, bu amallarning u yoki bu sub’ektlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash choralariga aylantirib yuborilishi tizim samara-sini pasaytiradi;
- ijtimoiy rag‘batlantirish tadbirlarining davlat organlari tomonidan ma’muriy tmoyilar asosida emas, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilishi samarali va o‘rinli bo‘ladi.

To‘rtinchidan, milliy marosim tashkilotchilari ongi va faoliyatiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatish tizimini takomil toptirish kerak. Milliy marosimlarni optimallashtirishning ijtimoiy mexanizmlarida marosim tashkilotchilarining ongi va amaliy faoliyatini maqbullashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday milliy marosim mazmuni va xarakteri, uning qay darajada mazmundor o‘tishi ko‘p jihatdan uni tashkil etish haqida qaror qabul qilayotgan shaxslarning dunyoqarashi, e’tiqodi va ijtimoiy mas’uliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu erda marosim tashkilotchilari deganda to‘y, nikoh, ta’ziya va boshqa oilaviy hamda jamoaviy marosimlarni bevosita tashkil etayotgan oila a’zolari, mahalla faollari, mutaxassislar nazarda tutilmoqda. Ularning ongi va faoliyatiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sirning asosiy maqsadi esa tashkilotchilarning sa’y-harakatlarini muayyan qolipga solishdan emas, ularda milliy marosimlarni ongli ravishda uyushtirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

Milliy marosim tashkilotchilari ongi va faoliyatiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatish tizimini takomil toptirish uchun quyidagi choralarga diqqatni jamlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- milliy marosim tashkilotchilari uchun maxsus ma’rifiy-uslubiy dasturni ishlab chiqish kerak; mazkur dastur, masalan, “Milliy marosimlarning mazmuni va mohiyati”, “Milliy marosimlarni o‘tkazishda

zamonaviylik va an’anaviylikni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari”, “Milliy marosim tash-kilotchilarining ijtimoiy mas’uliyatlari”, “Milliy marosimlalrga jamiyat a’zolarini keng jalb qilish uslublari”, “Milliy marosimlarni nooqi-lona tashkil etishning ijtimoiy oqibatlari” kabi bo‘limlarni o‘z ichiga olishi mumkin;

- shahar va qishloqlarda milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishdan avval ma’rifiy maslahatlashuvlarni amalga oshirish amaliyotini joriy etish lozim. Bunday maslahatlarda marosimning maqsadini aniqlash, mehmonlar sonini oqilona belgilash, marosim stsenariysini ixchamlashtirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, milliy estetik usurlardan foyda-lanish, jamoatchilik manfaatlarini hisobga olish bilan bog‘liq masalalar qamrab olinishi mumkin. Marosimlarga tayyorgarlik bosqichida mahalla, ta’lim va madaniyat muassasalari, boshqa tegishli sub’ektlar ishtirokida tajriba almashinuvining uyushtirilishi tashkilotchilarning tadbirlarga munosabatini tubdan o‘zgartirishi, ularni turli kamchilik va xatolardan ihotalashi mumkin;
- marosim tashkilotchilarining progressiv tajribalarini o‘zaro o‘rganish tizimini vujudga keltirish kerak. Masalan, muayyan tashkilotchi milliy marosimlarda milliy xususiyatlarni saqlashning uddasidan chiqqan, ortiqcha xarajatlardan tiyila olgan, tadbirlarga keng jamoatchilikni oqilona jalb qilgan bo‘lsa, uning tajribasi namuna tariqasida keng miqyosda taqdim etilishi lozim.
- milliy marosim tashkilotchilarida ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ulari-ni rivojlantirishga qaratilgan choralarning tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Tilga olingan vazifalarning tizimli ravishda hal etilishi milliy marosimlarning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi mulohazalar qator xulosalarga kelish imkonini beradi. Milliy marosimlarni optimallashtirish uchun ularning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini zamon talablari asosida takomillashtirish zarur bo‘ladi. Xususan, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish uchun ularni optimallashtirish vazifasini madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish, oila instituti

mas’uliyatini oshirish, ta’lim muassasalarining milliy marosimlar mazmunini tushuntirib berishdagi faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish, madaniyat muassasalarining milliy marosimlar estetikasini yuksaltirishdagi rolini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikrini shakllantirish, ularning o‘tkazilishi ustidan ijtimoiy nazoratning zamonaviy va demokratik modellarini qaror toptirish, ularni ixcham va tartibli tashkil etgan sub’ektlarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini shakllantirish, milliy marosim tashkilotchilari ongi va faoliyatiga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir ko‘rsatish tizimini takomil toptirish lozim bo‘ladi.

4-bob bo‘yicha xulosalari

1. Globallashuv jarayonlari milliy marosimlarni optimallashtirish maqsadida quyidagi vazifalarni kun tartibiga qo‘yishni talab etmoqda: a) milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini takomillashtirish; b) milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish; v) milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash.

2. Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini takomillashtirish ularda an’anaviylik va zamonaviylik, mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlash, ixchamlashtirish va ratsionallashtirish, hududiy va etnomadaniy xususiyatlarini asrash choralarini ko‘rish zarur bo‘ladi.

3. Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish uchun ularning jamiyat a’zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish, jamiyat a’zolarida muayyan millatga mansublik hissi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, shaxslararo muloqot va avlodlararo vorisiylikni ta’minlash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni qaror toptirishdagi potentsialini to‘laroq realizatsiya qilish lozim bo‘ladi.

4. Milliy marosimlarning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish uchun ularni optimallashtirish vazifasini madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish, oila, ta’lim va madaniyat muassasalari, fuqarollik jamiyati institutlari va

jamoat tashkilotlarining tegishli faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish taqozo etiladi.

5. Milliy marosimlarning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy rag‘batlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ta’sirning zamonaviy va demokratik modellarini qaror toptirish lozim bo‘ladi.

X U L O S A

Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Milliy marosimlar – u yoki bu xalqning milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini, madaniy merosini, tarixiy xotirasini o‘zida mujassam qilgan, milliy tajriba va an’analarni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradigan ijtimoiy-madaniy fenomendir. Uning tarkiban muayyan ma’naviy-g‘oyaviy mazmunni, marosimni amalga oshiruvchi sub’ektlarni, marosim chog‘ida ado etiladigan turli harakat va amallarni, qo‘llaniladigan timsollar va ramzlarni, xalq og‘zaki ijodi namunalarini, vositalarni o‘z ichiga oladi.

2. Har qanday milliy marosim barqaror (uzoq tarixiy davrlar mobaynida saqlanib kelayotgan, xalqning milliy o‘zligi, ma’naviy qadriyatlari va tarixiy xotirasini ifoda etuvchi elementlar) va o‘zgaruvchan (muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit, iqtisodiy vaziyat, siyosiy jarayonlar, madaniy omillar, ijtimoiy munosabatlar ta’sirida yangilanib boradigan elementlar) aspektlarning o‘ziga xos sintezidir. Mazkur barqaror va o‘zgaruvchan unsurlar yig‘indisi jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash, milliy qadriyatlarni shakllantirish, kishilarni ruhlantirish, shaxsni ijtimoiylashtirish funksiyalarini bajaradi.

3. Milliy marosimlar tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida muhim ahamiyat kasb qilib kelgan. Qadimgi va o‘rta asrlarda ular asosan jamoaviy birlikni ta’minlash, diniy va axloqiy qadriyatlarni saqlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifalarini, Yangi zamonda milliy davlatlarni shakllantirish, sanoat ravnaqini ta’minlash, iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, urbanizatsiya jarayonlarini maqbullashtirish vazifalarini, XX asrda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga qudratli ta’sir ko‘rsatuvchi tizim vazifasini o‘tagan.

4. Diniy-mafkuraviy va ijtimoiy-tarixiy mezonlarni uyg‘unlashtirgan holda milliy marosimlar tadrijini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: a) zardushtiylik ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar davri; b) islom madaniyati ta’sirida shakllangan marosimlar davri; v) sovet hokimiyati yillarida mazmunan va shaklan o‘zgargan milliy marosimlar davri; g) mustaqillik yillarida tiklangan va rivojlangan milliy marosimlar davri.

5. Zardushtiylik ta’limoti mintaqa bo‘ylab yoyilgani, davr kishilari ongu-shuuri va faoliyatini qamragani sayin, bir tomondan, avvalgi davrlarda shakllangan ko‘plab marosimlar yangi diniy-falsafiy mazmun bilan boyidi, ularning maqsadi, vazifalari va amalga oshirilish tartibi zardushtiylik ta’limotining asosiy g‘oyalariga muvofiqlashdi. Ikkinchi tomondan esa, xalq madaniyatining o‘zi yangi marosimlar bilan to‘lishdi. Shu tariqa marosimlar nafaqat muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki zardushtiylik dunyoqarashi va qadriyatlarini aholi ongiga singdiruvchi muhim mexanizmga aylandi.

6. Islom sivilizatsiyasi ta’sirida asrlar davomida hukm surib kelgan mahalliy marosimlarning ma’naviy negizlari o‘zgardi. Ilgari mavjud bo‘lgan ko‘plab marosimlar butunlay yo‘qolib ketmadi, balki yangi diniy muhit ta’sirida qayta talqin qilindi. Avvalgi davrlarda marosimlar mazmuni mifologik tasavvurlar va mahalliy diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, endilikda ularning mazmunida tavhid g‘oyasi, Allohga iymon, taqvo, savob va gunoh haqidagi tasavvurlar muhim o‘rin egallay boshladi. Natijada marosimlarning ijtimoiy ahamiyati saqlanib qolgan holda ularning ma’naviy-diniy asoslari yangicha mazmun kasb etdi. Shuningdek, bu davrda marosimlarning tashkil etilishi tartibida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi.

7. Sovet davrida milliy marosimlari diniy dunyoqarash ta’sirida shakllangan ijtimoiy hodisa, eskicha turmush tarzining muhim unsuri sifatida baholandi. Shu bois marosimlardagi diniy mazmundagi ramzlar va rasm-rusumlarni bartaraf qilishga intilindi. Milliy marosimlarni sotsialistik turmush tarzini ifodalovchi va sovet kishisini voyaga etkazishga xizmat qiluvchi oktyabryatlikka, pionerlikka, yoshlar ittifoqiga qabul qilish, mehnat faoliyatiga doir ahamiyatli kunlarni nishonlash kabi fuqarolik marosimlari bilan almashtirishga urinildi. Shunga qaramasdan, qishloq va mahallalarda, oilaviy muhitda o‘tkazilgan marosimlarda an’anaviy unsurlar yashirin tarzda saqlanib qoldi.

8. Mustaqillik yillarida milliy marosimlarni tiklash va ravnaq toptirish masalasi milliy o‘zlikni tiklash va mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli siyosatning tarkibiy qismiga aylantirildi. Mazkur siyosat samarasi o‘laroq Sovet davrida cheklangan Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi milliy marosimlar qayta jonlantirildi. Muqaddam kommunistik

mafkuraga moslab talqin qilingan hashar kabi milliy marosimlarning asl mazmuni tiklandi. Oilaviy marosimlar milliy o‘zlikni anglashning amaliy maydoniga aylantirildi. Ayni paytda mustaqillik yillarida milliy marosimlar huquqiy, tashkiliy va ma’naviy jihatdan qat’iy qo‘llab-quvvatlana boshlandi.

9. Yangi asrda globallashuv jarayonlarining avj olishi milliy marosimlar tizimiga jiddiy ta’sir o‘tkaza boshladi. Bir tomondan, globallashuv madaniyatlararo muloqotni faollashtirdi. Ammo, ikkinchi tomondan, u milliy marosimlar mazmuni va mohiyatini tubdan o‘zgartirishga qodir ijtimo-iy-madaniy omillarni yuzaga keltirdi. Bu omillar turkumiga quyidagilarni kiritish mumkin: a) ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tar-qalishi milliy marosimlar mazmuni va estetik qiyofasini o‘zgartirmoqda; b) iste’molchilik xulqining o‘zgarishi milliy marosimlarda dabdaba unsurlarini ko‘paytirmoqda; v) urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi milliy marosimlarni o‘tkazish muhiti va shaklini o‘zgartirmoqda; g) tashqi migratsiya jarayonlarining intensivlashishi milliy marosimlarni yangi odatlar va rasm-rusumlar bilan boyitmoqda; d) axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning ravnaq topishi milliy marosimlarning ayrim unsurlarini ommalashtirmoqda va virtuallashtirmoqda; e) xizmat ko‘rsatish industriyasi takomili milliy marosimlar muayyan qismini tijoratlashtirmoqda.

10. Globallashuv ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar jamoaviy marosimlar mazmunida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Chunonchi, Navro‘z bayrami an’anaviy xalq sayilidan umummilliy madaniy-ma’rifiy tadbirga aylana boshladi. Hashar marosimi an’anaviy o‘zaro yordam tadbiridan zamonaviy obodonchilik va ekologik mas’uliyat amaliyotiga aylandi. Ramazon va Qurbon hayitlarida ijtimoiy xayriya va insonparvarlik g‘oyalari uyg‘unlashdi. Xotira va qadrlash marosimlari tarixiy xotira va avlodlararo vorisiylikni ta’minlash omili bo‘lib qoldi. Ziyorat, qabristonlarni obod qilish marosimlari umumijtimoiy mas’uliyat ifodasi sifatida namoyon bo‘la boshladi. Biroq globallashuv sharoitida jamoaviy marosimlar transformatsiyasida rasmiyatchilikning kuchayishi, marosimlarning standartlashuvi, milliylikning zaiflashuvi kabi salbiy tendensiyalar ham bo‘y ko‘rsata boshladi.

11. Globallashuv ta’sirida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar oilaviy marosimlar mazmunini o‘zgartirdi. Xususan, nikohga kirishda shaxsiy tanlov va individual qarorning ahamiyati ortdi, oila va qarindoshlar tashabbusi ustuvor bo‘lgan sovchilik modeli o‘rnini yoshlarning shaxsiy tanloviga asoslangan sovchilik modeli egalladi, to‘y marosimlari professional darajada tashkil etiladigan tadbirga aylandi, chaqaloq bilan bog‘liq marosimlarning tibbiylashuvi va zamonaviylashuvi sodir bo‘ldi, mehmondorchilik marosimlari an’anaviy shakldan xizmat ko‘rsatish industriyasiga ko‘cha boshladi, janoza va ta’ziya marosimlarining tashkiliy va kommunikatsion shakllari o‘zgardi. Biroq globallashuv sharoitida oilaviy marosimlar o‘z mazmundorligini va ixchamligini yo‘qota boshladi, uning shaxsga tarbiyaviy ta’siri zaiflashdi.

12. Globallashuv sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida milliy marosimlar mazmuni va xarakterining o‘zgarib borayotgani ularni optimallashtirishni, bu boradagi ijtimoiy imkoniyatlarni aniqlashni va qat’iy ifodalab olishni taqozo qilmoqda. Tahlillar bu boradagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i kerakligini ko‘rsatmoqda: a) milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish; b) milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish; v) milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash.

13. Milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyati deganda marosimni maqsad va vazifalarni chuqur anglagan holda uyushtirish, uning ishtirokchilari o‘rtasida vazifalarni oqilona taqsimlash, marosimni o‘tkazishning maqbul muddatlari va joyini belgilash, uni amalga oshirish me’yorlariga rioya etish, tadbirlarni o‘tkazishda milliy axloq va estetika qoidalariga amal qilish, ortiqcha isrofgarchilik va namoyishkorlikka yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan ijtimoiy-madaniy me’yorlar tizimi tushuniladi. Uni takomillashtirish uchun esa yaqin kelajakda milliy marosimlarda an’anaviylik va zamonaviylik, mazmun va shakl uyg‘unligini ta’minlash, ularni ixchamlashtirish va ratsionallashtirish, hududiy va etnomadaniy xususiyatlarini asrash choralarini ko‘rish zarur bo‘ladi. Mahalla institutining milliy marosimlarni muvofiqlashtirishdagi rolini takomillashtirish, marosimlarning an’anaviy mazmunini asrash ishlariga yoshlarni kengroq

jalb qilish, marosimlarning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini optimallashtirish, ularni o‘tkazishning optimal modelini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga molik.

14. Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyati deganda ularning kishilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida kamol toptirishdagi, axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdagi, jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlikni yuksaltirishdagi, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashdagi imkoniyatlari majmui tushuniladi. Uni yuksaltirish uchun marosimlarning jamiyat a’zolarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, shaxsga maqbul xulq-atvor me’yorlarini singdirish, jamiyat a’zolarida muayyan millatga mansublik hissi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, shaxslararo muloqot va avlodlararo vorisiylikni ta’minlash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni qaror toptirishdagi potentsialini to‘laroq realizatsiya qilish lozim bo‘ladi.

15. Milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari deganda ularning mazmuni va shaklini, ijtimoiy funksiyalarini bir tomondan milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarga, ikkinchi tomondan esa zamonaviy jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga moslashtirishga xizmat qiluvchi davlat va jamoat institutlari, ijtimoiy sub’ektlar, boshqaruv vositalari va me’yorlari tushuniladi. Milliy marosimlarning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish uchun ularni opti-mallashtirish vazifasini madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish, oila, ta’lim va madaniyat muassasalari, fuqarollik jamiyati institutlari va jamoat tashkilotlarining tegishli faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish taqozo etiladi. Milliy marosimlarning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun milliy marosimlarga doir pragmatik jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy rag‘batlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ta’sirning zamonaviy va demokratik modellarini qaror toptirish lozim bo‘ladi.

16. O‘zbekistonda milliy marosimlarni optimallashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni tashkil etish va amalga oshirishda quyidagi amaliy tavsiyalar samara berishi mumkin:

- “Milliy marosimlarni optimallashtirishning milliy kontseptsiyasini” qabul qilish va uning hayotga tatbiq etilishini muvofiqlashtirib boruvchi ilmiy ekspertiza tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir;
- “Milliy marosimlarni ilmiy inventarizatsiya qilish, raqamlashtirish va ommalashtirish bo‘yicha Milliy dastur” tayyorlanmog‘i kerak;
- mahalla, oila, ta’lim muassasalari, madaniyat maskanlari, fuqaro-lik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining milliy marosimlarni optimallashtirish borasidagi hamkorligining zamonaviy mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kerak;
- milliy marosimlarni optimallashtirish ishlarini monitoring qilish tizimini shakllantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.// constitution.uz/uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/ 5491534.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”.// lex.uz/ docs/5230682.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “2026 yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”.// lex.uz/en/docs/8076410.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Muborak Ramazon hayitini nishonlash to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/8090629.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.// lex.uz/uz/docs/ 6713096.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.// lex.uz/uz/docs/6705734.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”.// lex.uz/uz/docs/6705763?%2000.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Ro‘za hayitni dam olish kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida”.// lex.uz/uz/docs/239369.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/6600413.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo‘shma Qarori. “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va

marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/5153833.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Dafn etish ishlarini tashkil etish va hisobini yuritish tizimini takomillashtirish hamda sohada samarali nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/7851758.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Nomoddiy madaniy meros namunalarini ro‘yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog‘liq davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”.// lex.uz/uz/docs/7498238.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/6990564.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Umumxalq bayrami Navro‘z munosabati bilan “Mustaqillik, tinchlik, mehr-shafqat” xayriya hasharini va telemarafonini o‘tkazish to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/2316061.

16. Mirziyoev Sh.M. Vatan fidoyilari xotirasi xalqimiz qalbida mangu yashaydi.// president.uz, 2024, 8 may.

17. Mirziyoev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir.// Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. J. 5.- T.:O‘zbekiston, 2023.- B. 260-285.

18. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigi.// president.uz, 2026, 19 mart.

19. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigi.// Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. J.7.- T.:O‘zbekiston, 2023.

20. Mirziyoev Sh.M. O‘qituvchilarga ehtirom va yoshlarga imkoniyat mamlakat kelajagini ta’minlaydi.// president.uz, 2025, 15 sentyabr.

21. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- T.:O‘zbekiston, 2021.

22. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konventsiya.// lex.uz/docs/ 2685528.

23. Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage.// ich.unesco.org/en/convention.

2. Monografiya, avtoreferatlar, badiiy asarlar va ilmiy maqolalar

24. Abdalov U. M. Mnenie Abu Rayxana Beruni o knige “Avesto” i religii zoroastrizm.// Molodoy ucheniy, 2016, №26.- 519-520-s.

25. Abdukarimova G.B. Avlodlararo vorisiylikning nazariy-metodologik asoslari.// Journal of new century innovations, 2022, №3.- 186-189-b.

26. Abdullaev U. Islomda oila va nikohga bo‘lgan e’tibor.// uza.uz, 2020, 4 iyul.

27. Avazov S.E. Mehnat migratsiyasi: mazmun va shakl, sabab va oqibat dialektikasi: Fals. dokt. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

28. Aksenova I. Yu. Noviy god i Stariy Noviy god na Altae v XX–XXI vv. (po materialam etnograficheskix ekspeditsiy 2013–2024 gg.)// Vestnik Altayskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta**,** 2024, №4.- 109-116-s.

29. Arsenteva I. I, Globalizatsiya i perspektivi mirovogo razvitiya.// Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A. I. Gertsena, 2008, №81.- 7-8-s.

30. Aslanov D.,Manazarov S.Globallashuv jarayonining mazmuni va ko‘lami.// Academic research in educational sciences, 2020, №3.- 452-457-b.

31. Afanasev V.G. Nauchnoe upravlenie obщestvom. – M.: Politizdat, 1973.

32. Axmedova M.A. Badiiy-estetik tarbiyaning rivojlanish tendentsiyalari.// Scientific progress, 2022, №7.- 125-127-b.

33. Ahrorova Sh. Oila institutining o‘zbekcha qiyofasi va dunyo statistikasidagi ayanchli raqamlar.// ishonch.uz /news/1998.

34. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari.- T.:A.Navoiy nom. O‘zb. Milliy. kutubxona nashr., 2007.

35. Bakanova A. “Partiya skazala: nado!” Kogo prinimali v ryadi komsomoltsev v SSSR? Do takogo ideala daleko sovremennoy molodeji.// techinsider.ru, 2022, 28 oktyabrya.

36. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – Leningrad: Izd-vo AN SSSR, 1927.

37. Bekmurodova G. Zamonaviy ijtimoiy destruktsiya va uning O‘zbekistonda namoyon bo‘lishi.- Qarshi: QDU, 2023.

38. Boybekova Sh.A. Ma’naviy qadriyatlar – ijtimoiy barqarorlik omili: Fals.d. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

39. Borisov A.M. Obichai i pravovie ustanovleniya pervix drevnix tsivilizatsiy zemli o soobщestvax lyudey.// Istoriko-pravovie problemi: noviy rakurs, 2021, №4.- 5-17-s.

40. Bromley Yu.V. Ocherki teorii etnosa. – M.: Nauka, 1983.

41. Vorobyova O. D. Migratsionnie protsessi naseleniya: voprosi teorii i gosudarstvennoy migratsionnoy politiki // Problemi pravovogo regulirovaniya migratsionnix protsessov na territorii Rossiyskoy Fede-ratsii / Analiticheskiy sbornik Soveta Federatsii FS Rossii, 2003, № 9.

42. Gavrilova T. I. K voprosu o kommunikativnom aspekte opisaniya obryadov semeynogo tsikla // Izvestiya Yugo-Zapadnogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Lingvistika i pedagogika, 2016, № 4.- 13–20-s.

43. Gogolova E.L. Obryadovaya kultura kak istochnik formirovaniya strano-vogo imidja.//www.zpu-journal.ru/e-zpu/2009/4/Golovleva/?ysclid=mt122mx4dc 862147502.

44. Grevtseva A. A. Kulturnaya globalizatsiya: problemi i paradigmi.// Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A. I. Gertsena, 2008, №70.

45. Grigoreva K. S., Peshkova V. M. Brak v migratsii: transformatsiya svadebnix obryadov pod vliyaniem migratsionnogo opita // Etnograficheskoe obozrenie, 2025, № 2.- 181–204-s.

46. Gulyamova N. Zardushtiylik (mazda yasna) tarixiga qisqacha nazar va uning bugungi taqdiri haqida.// Sharq mash’ali, 2022, №2.- 114-118-b.

47. Dyurkgeym E. Elementarnie formi religioznoy jizni.- M.:Izd. dom Delo: RANXiGS, 2018.

48. Jamolov D.B. Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish muammolari (ijtimoiy-fal-safiy aspekt): Fals.dokt. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2022.

49. Janibekova Yu. Buxoro viloyati oilaviy maishiy marosimlari // Globalnoe partnerstvo kak uslovie i garantiya stabilnogo razvitiya, 2021, №1. – 111–113-s.

50. Zelenov L.A. Dialekticheskiy metod.// Filosofiya i obщestvo, 2007, №1.- 5-13-s.

51. Zlatanov B.G. Fenomen politicheskoy globalizatsii.// PolitBook, 2017, №4.- 104-114-s.

52. Zununova G. Sh., Kurbanova Z. I. Kulinarnie «kodi» v svadebnoy obryadnosti uzbekov i karakalpakov // Vestnik antropologii, 2025, № 4.- 253–265-s

53. Ivanenkova A.S. Massovaya kultura: suщnost i osnovnie cherti.//Uchenie zapiski Sankt-Peterburgskogo imeni V. B. Bobkova filiala Rossiyskoy tamojennoy akademii, 2007, №3.- 167-179-s.

54. Yo‘ldosheva B., Astonova N. Avesto matnlarida er va suv unsurlarining tarixiy talqini.// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2025, №4.- 532-539-b.

55. Kagan M. Filosofiya kulturi.- M.: Yurayt, 2018.

56. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.// O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O‘zbekiston, 1996.

57. Karimova M.A., Najimdinova D.G‘. Farzand tug‘ilishi va bola tarbiyasi bilan bog‘liq urf-odatlarda zardushtiylik izlari.// Образование наука и инновационные идеи в мире, 2023, № 12.- 69-76-б.

58. Kerttser D.I. Ritual, politika i vlast.// Simvolicheskaya politika, 2015, №3.- 144-154-s.

59. Kruglov A. Den nezavisimosti SShA: istoriya, traditsii i interesnie fakti.// usaimigration.ru, 2025, 4 iyulya.

60. Kulizade T.A. Pravovaya globalizatsiya: ponyatie i soderjanie.// Mejdunarodniy nauchno-issledovatelskiy jurnal, 2018, №1-2.- 158-160-s.

61. Kulishov V.V. Finansovaya globalizatsiya: suщnost i posledstviya // Biznes inform, 2013, № 3.- 305-306-s.

62. Lenin V.I. O religii. – M.: Politizdat, 1983.

63. Leonov G. Kak vozniklo sotssorevnovanie v SSSR i chem nagrajdali pobediteley?// shkolazhizni.ru/ pro-zazhizni/articles/104070.

64. Loktev S.P. Istoricheskie predposilki obrazovaniya massovoy kulturi.// Filosofskie problemi infor-matsionnix texnologiy i kiberprostranstva, 2010, №1.- 120-125-s.

65. Loshkaryov I.D. Svyazka "migratsiya-razvitie" v ramkax globalnogo rejima v sfere migratsii.// Yujno-rossiyskiy jurnal sotsialnix nauk, 2018, №1.- 49-52-s.

66. Malinovskiy P.V. Ekonomicheskaya globalizatsiya: tendentsii i problemi. (Analiticheskiy obzor).//Globalizatsiya: Konturi XXI veka, 2001, №2.- 6-10-c.

67. Mamatkulov D. Islom g‘oyalarini O‘rta Osiyoga kirib kelish tarixi va ularning mafkuraviy jarayonlarga ta’siri.// Scienceproblems.uz, 2023, №1.- 30-36-s.

68. Marks K. K kritike gegelevskoy filosofii prava. Vvedenie.// Marks K., Engels F. Sochineniya. T. 1. – M.: Politizdat, 1955.

69. Matkarimova N. M. Milliy urf-odat va marosimlar – yuksak ma’naviyatning mezoni.// Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi, 2017, №2.- 66-67-b.

70. Mirzaliev S.M., Adashova M.M. Milliy ma’naviyat rivoji – jamiyat ma’naviy taraqqiyotining asosidir.// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, Special Issue.- 793-802-bb.

71. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikki jildlik.- T.:O‘zb.fayl. milliy jam. nashr., 2023.

72. Nafiddinova X.R. Buxoro vohasi aholisi oilaviy marosimlari tarixiga doir ma’lumotlar.// Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2023, № 6. – 56-60-b.

73. Nikolaeva I.V. Svoystva mass v rabotax M. Xorkxaymera, T. Adorno i V. Benyamina.// Sistema tsennostey sovremennogo obщestva, 2013, №28.- 100-104-s.

74. Nishanova O. Dj. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funktsiyalari: Fals. f. dokt. (DSc) diss. avtoref.- T.:O‘zMU, 2016.

75. Novikov A.V. O roli traditsii v globaliziruyuщeysya ekonomike.// Problemi sovremennoy ekonomiki, 2010, №1.

76. Nomozov X.Sh. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri: Fals.d. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

77. Nurmetova M. Ommaviy axbborot vositalari – jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim elementi sifatida.// Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, №8.- 740-b.

78. Omonov B. Ekologik globallashuv va uning O‘zbekistondagi ekologik muhitga ta’siri.- T.: Voris-nashriyot, 2021.

79. Ortiqov O. Tarixiy tafakkur ijtimoiy-falsafiy meros tarkibiy qismi sifatida.// Oriental Art and Culture, 2023, №3.- 347-350-b.

80. Ostonov J.A. Globallashuv jarayonlarida milliy o‘zlikni belgilashda milliy mansublik masalasi.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2025, №5.- 631-637-b.

81. Popova V. N. Prazdnik kak sotsiokulturniy fenomen.- Ekaterinburg: Izd-vo Uralskogo un-ta, 2017.

82. Programma Kommunisticheskoy partii Sovetskogo Soyuza.- M.: Politizdat, 1961. – S. 117.

83. Rasulova N.S. Aholiga kommunistik mafkurani targ‘ib qilishda sovet bayramlarining o‘rni.// uza.uz, 2024, 5 fevral.

84. Raxmonova M. “Avestoda” ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar.// Scientific progress, 2022, №4.- 1146-1149-b.

85. Rahimov M. Navro‘zning Sharq xalqlari hayotida tutgan o‘rni beqiyos.// uza.uz, 2023, 20 mart.

86. Savin Yu.A. Sotsialisticheskiy obraz jizni i nravstvennoe razvitie lichnosti.- M.: Misl, 1987.

87. Samarin A.S. Klassicheskiy sub’ekt Novogo vremeni i eksplikatsiya mexanizmov traditsii.// Vestnik Omskogo gosudarstvennogo

pedagogicheskogo universiteta. Gumanitarnie issledovaniya, 2024, №1.- 56-61-s.

88. Sattor M. O‘zbek udumlari.- T.:Cho‘lpon, 2007.

89. Semenenko I.S. Politicheskaya identichnost v kontekste politiki identichnosti.// Politicheskaya ekspertiza: POLITEKS, 2011, №2.- 6-10-s.

90. Sinyutin A.A. Ustoychivost brachnix ritualov v razlichnix kulturnix soobщestvax.// Sotsialno-gumanitarnie znaniya, 2015, №11.- 309-314-s.

91. Stasevich I. V. Novie svetskie prazdniki v sovremennoy kazaxskoy kulture. Vesternizatsiya povsednevnosti i transformatsiya semeynoy obryadnosti// Vestnik arxeologii, antropologii i etnografii**,** 2024, № 1.- 189-197-s.

92. Timina E.I. Multiplikativnie effekti v ekonomike.// Vestnik RGGU. Seriya “Ekonomika. Upravlenie. Pravo”, 2014, №9.- 36-38-s.

93. Тіщenko V.I. Ob istokax “obщey teorii sistem” Bertalanfi.// Tsennosti i smisli, 2025, №4.- 97-113-s.

94. Tokarev S.A. Rannie formi religii i ix razvitie**.** – M.: Politizdat, 1990.

95. Toporov V.N. Mif. Ritual. Simvol. Obraz: Issledovaniya v oblasti mifopoeticheskogo.// Izbrannoe.- M.: Progress-Kultura, 1995.

96. Turaev M. Obryadi perexoda v traktovke Arnolda van Gennepa // Kultura i obrazovanie: nauchno-informatsionniy jurnal vuzov kulturi i iskusstv, 2017, №4.- 27-s.

97. Tursunov A. Ramazon hayitingiz muborak bo‘lsin.// /ravza.uz, 2022, 1 may.

98. Tursunova N.M. Namangan yallachilik san’ati an’analari: Fals.d. (PhD) diss.avtoref.- T.: San’atshunoslik ins., 2018.

99. Umarov R.S. Nikoh va oila marosimlarining tarixiy-antropologik o‘zgarishlari (1920-2020) (O‘zbekiston misolida).// International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Ilmiy-nazariy konf. mat.- Madrid, 2025, 20 may.- 20-25-b.

100. Xaknazarov X.D. O‘zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzi*:* Fals.dokt. (PhD) diss. avtoref.– T.: ToshDPI, 2019.

101. Xojaniyazova G. M. Znachenie vzaimopomoщi v svadebnix traditsiyax karakalpakov (na primere dosvadebnix obryadov) // Vestnik antropologii**,** 2025, № 4.- 266–282-s.

102. Xolmatov H. Markaziy Osiyoda madrasalarning paydo bo‘lish tarixi.// bukhari.uz, 2023, 9 yanvar.

103. Xolmirzaev N.N. Yangi O‘zbekiston sharoitida urbanizatsion jarayonlar rivojining ijtimoiy-falsafiy omillari: Fals.f.d. (DSc) diss.avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.

104. Xudoyberdiev D. Yoshlar iste’molchilik xulqi: mazmuni va shakllari, o‘zgarishi sabablari va oqibatlari.- Qarshi: Fan va ta’lim, 2021.

105. Cherepaxova E. Posvyaщenie v rabochie.// Smena, 1966, №943.

106. Chernisheva Yu. S. Vesennee obryadovoe pechenie v kalendarnoy obryadnosti russkix Srednego Povoljya // Vestnik Permskogo federalnogo issledovatelskogo tsentra**,** 2023, № 3.- 40-50-s.

107. Choriev A. Inson falsafasi. Inson haqidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti, Birinchi kitob.- T.: O‘zb. fayl. milliy jam. nashr., 2007.

108. Churkina N.I. Ritual “Priem v pioneri” v reprezentatsiyax shkolnikov epoxi pozdnego sotsializma.// Vestnik Omskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. Gumanitarnie issledovaniya, 2022, №2.- 229-235-s.

109. Shved V.V. K voprosu o suti i znachimosti sotsialnoy otvetstvennosti v sovremennom obщestve.// Ekonomika. Obrazovanie. Pravo. Nauchnie issledovaniya sostoyaniya i razvitiya sovremennogo obщestva. Mejdunar. nauchno-prakt. konf.- Volgograd, 2016.- S.167-171.

110. Shuvalov E. G. Religioznie aspekti povsednevnoy jizni v Evropeyskom srednevekove.// Issledovaniya molodix uchenix: Materiali IX Mejdunar. nauch. konf.- Kazan : Molodoy ucheniy, 2020.- S. 34-37.

111. Etnos va madaniyat: an’anaviylik va zamonaviylik: "Akademik Karim Shoniyozov o‘qishlari" turkumida etnologlarning V resp. ilmiy konf. mat.- T.:Fan, 2010.

112. Yuldasheva M. Yoshlarga dabdaba emas, kelajak kerak.// uza.uz, 2025, 14 iyul.

113. Yunusova M.P. Mahalla institutining genezisi va rivojlanish bosqichlari.// uza.uz, 2023, 14 fevral.

114. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari.- T.: Universitet, 1998.

115. Yagafova E. A., Petrov I. G. Gostevanie v sovremennoy prazdnichno-obryadovoy kulture chuvashey// Tomskiy jurnal lingvisticheskix i antropologicheskix issledovaniy, 2024, Vip. 3.- 123-135-s.

116. Hosil U. (Qoraboev U.H.). Odatnoma. Ikki jildlik.- T.: O‘zbekiston, 2016.

117. Bell C. Ritual Theory, Ritual Practice.- N.Y.: Oxford University Press, 1992.

118. Geertz C. The Interpretation of Cultures: Selected Essays.- N.Y.: Basic Books, 1973.

119. McKean T. A. The Ritual Year 12: Regulating Customs. — Moscow: Polymedia, 2021.

120. Ngô T. T. T. Conspicuous performances: ritual competition between Christian and non-Christian Hmong in contemporary Vietnam// Social Anthropology, 2021, Vol. 29, No. 3.- P. 733–747.

121. Raimjanova U. N. Features of the formation of national family values in the conditions of globalization.// researchcitations. com/index.php/ibast/article/view/1873.

122. Rigal A., Joseph-Goteiner D. Globalization of an Interaction Ritual Chain: “Clapping for Carers” During the Conflict Against COVID-19// Sociology of Religion, 2021, Vol. 82, No. 4.- P. 471–493.

123. Sethi A. Ritual as image: Materiality, social history, and the gendered economies of agrarian capitalism in central India// American Ethnologist, 2024, Vol. 51, No. 2.- P. 207–220.

124. Stewart P. J., Strathern A. The Palgrave Handbook of Anthropological Ritual Studies.- Cham: Palgrave Macmillan, 2021.

125. Turner V. W. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure.- N.Y.: Cornell University Press, 1969.

126. Ulmasova B. A. The philosophy of hospitality in Uzbekistan: traditional culture and innovative instruments for creating unique guest’s experience.// Central Asian journal of academic research, 2024, №11.- R.137-142.

127. Van Gennep A. The Rites of Passage.- Chicago: University of Chicago Press, 1960.

3. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

128. Den vzyatiya Bastilii.// wikipedia.org.

129. Den Respubliki - natsionalniy prazdnik Indii.//www.ayurtour.ru/ articles/india/traditsii.

130. Jamoatchilik fikri.// qomus.info.

131. Mejdunarodniy den Navruz.// www.unesco.org, 2026, 21 mart.

132. Mehmondorchilik odobi.// oyina.uz/kiril/teahause/1961?ysclid=msr4ah6tb 1882724397.

133. Milliy hunarmandchilik: ajdodlardan meros va kelajak yulduzi.// ifazo.uz, 2024, 2 noyabr.

134. Navro‘z – qadim qadriyatlar tarovati.// islomkarimov.uz, 2021, 19 mart.

135. Navro‘z.// O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. J.6.- T.:O‘zb. milliy entsikl., 2003.

136. Oilaviy marosimlar.// Toshkent. Entsiklopediya.- T.:O‘zb.milliy entsikl., 2009.

137. Oktyabrenok.// znanierussia.ru.

138. Oliy ta’limda 18-23 yoshdagi ayollar qamrovi 52,4 % ni tashkil etgan.// talimxabarlari.uz, 2025 5 iyun.

139. Sovchilik.// qomus.info.

140. Faqat qizlar uchun – qizlarga ta’limda qanday imkoniyatlar berilgan.// kun.uz, 2024, 8 mart.

141. Xizmatlar. Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi. api.siat.stat. uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_ 1223.pdf.

142. Hashar.// qomus.info.

143. Hashar.// O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. J.11.- T.:O‘zb. milliy entsikl., 2005.

144. Wedding services market size and future outlook.//www. fortunebusinessinsights.com/wedding-services-market-114783.

MUNDARIJA

Muqaddima ……	3
I Bob. Milliy marosimlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	10
I.1. “Milliy marosim” tushunchasining mazmuni, mohiyati va ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari.....	10
I.2. Milliy marosimlarning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati.....	23
I.3. Milliy marosimlarni tadqiq etishning nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari…….	36
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	48
II Bob. O‘zbek milliy marosimlari tadrijining tarixiy bosqichlari…	50
II.1. Zardo‘shtiylik va islom madaniyati ta’sirida yuzaga kelgan marosimlar…….	50
II.2. Sovet davrida milliy marosimlar mazmuni va shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlar……	62
II.3. Mustaqillik yillarida milliy marosimlarning tiklanishi va rivojlanishi tendentsiyalari ……..	75
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	88
III Bob. Globallashuv sharoitida milliy marosimlar mazmuni va xarakteridagi transformatsiyalar.....	90
III.1. Globallashuvning milliy marosimlar tizimiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-madaniy omillari.....	90
III.2. Globallashuv ta’sirida jamoaviy marosimlar mazmunida yuz berayotgan o‘zgarishlar.....	103
III.3. Globallashuv ta’sirida oilaviy marosimlar mazmunida yuz berayotgan o‘zgarishlar.....	115
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa……	128
IV-BOB. Milliy marosimlarni optimallashtirish imkoniyatlari……	130
IV.1. milliy marosimlarni tashkil etish va o‘tkazish madaniyatini yuksaltirish vazifalari…….	130
IV.2. Milliy marosimlarning ma’naviy-tarbiyaviy salohiyatini oshirish imkoniyatlari……..	143

IV.3. Milliy marosimlarni optimallashtirishning institutsional va ijtimoiy mexanizmlari……	156
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....	169
Xulosa……..	171
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati……..	177

MAMATQULOVA NILUFAR XUSANOVNA

MILLIY MAROSIMLAR MAZMUNI VA XARAKTERIDAGI O‘ZGARISLAR

Monografiya

Muharrir: Eshkarayev S. Ch.

Texnik muharrir: Eshqorayev S. S.
Korrektor: Javgashev Y. J.
Dizayner: Ro‘zimurodov B. I.
Tasdiqnoma № 255979, 13.04.2024
Bosishga 22.10.2026 da ruxsat berilgan. Format 60x84/16.
Garnitura Times New Roman. Shartli bosma tobog‘i 12.
Adadi 60 dona. Buyurtma № 1062
“TERMIZ PUBLISHING CENTER” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi. Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Uvaysiy ko‘chasi 8A-uy, Toshkent sh., "TRASTBANK" XA BANKINING BOSH OFISI, MFO: 00491, INN: 311209934 H/R: 20208000307031406001
Telefon: +998-88-808-21-07

ISBN 978-9910-13-566-8

9 789910 135668

5089

TERMIZ PUBLISHING CENTER

Termiz –“Termiz publishing center”-2026